

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

M.H. RUSTAMBOYEV, B.J. AHROROV

JINOYAT HUQUQI

(MAXSUS QISM)

Kasb-hunar kollejlari uchun darslik

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki davrlaridan boshlab olib borilayotgan sud-huquq islohotlarining mohiyati, avvalo, qonunlarni, shu jumladan, jinoyat qonunlarini ham takomillashtirish, inson huquqlarini himoya qilishning oliy darajasini yaratish bilan bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov davlatimizning ichki va tashqi siyosati, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalaridagi islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha asosiy vazifalar to‘g‘risidagi ma‘ruzasida uzoq muddatga mo‘ljallangan dasturulamal nazariy fikr va g‘oyalarni bildirdi¹.

Jamiyatimizda ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni yanada rivojlantirish va ularni takomillashtirish asoslarining tub zaminiga to‘xtalib, Prezidentimiz jamiyatimizni demokratlashtirish va yangilanish konsepsiyasini, shuningdek, mamlakatimizni 2005-yil va kelgusi davrda modernizatsiya va isloh qilish bo‘yicha asosiy vazifalarga to‘xtalib, bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz — demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo‘lidan og‘ishmay, izchil va qat‘iyat bilan borish lozimligini ta’kidladi. Yurtboshimizning 2005-yil 1-avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida»gi hamda 2005-yil 8-avgustdagi «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazish to‘g‘risida»gi Farmonlari sud-huquq tizimini liberallashtirish yo‘lidagi muhim bosqichga asos soldi. Farmonlarda 2008-yil 1-yanvardan boshlab, o‘lim jazosini bekor qilish va jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlar vakolatiga o‘tkazilishi qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ga muvofiq, yuksak malakali, bilimli yetuk kadrlarni tayyorlashning asosiy bo‘g‘ini – o‘rta maxsus ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash hisoblanadi.

Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining tarkibiy qismi bo‘lgan jinoiy jazolarning liberallashtirilishi jinoyat huquqi fani va jinoyat qonunlarining yanada chuqurroq o‘rganilishini taqozo etadi. Ushbu darslik ham talabalarga jinoyat huquqi «Maxsus» qismidan keng, batafsil bilim berishga mo‘ljallangan. Darslikdagi mavzular O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga 2006-yil 1-yanvargacha kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar hisobga olingan holda yoritilgan. Xususan, jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan jinoyatlarning tasnifi, yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, jazo tizimini liberallashtirish masalalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlarini, sud-tergov amaliyotini tahlil etish asosida yoritib berilgan. Shuningdek, Jinoyat kodeksining «Maxsus» qismiga taalluqli bo‘lgan shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlar, tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar, iqtisodiy sohadagi jinoyatlar, ekologiya sohasidagi jinoyatlar, hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar, harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarning tushunchasi, turlari, yuridik tahlili va javobgarlik masalasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishning zaruriy sharti — bu qonunlarning so‘zsiz bajarilishi. Qonunlarning bir xilda va so‘zsiz bajarilishi bo‘lajak huquqshunoslarning o‘z vazifasiga munosabati va zimmasidagi mas’uliyatni his qilishiga bog‘liqdir. Ayniqsa, jinoyatchilikka qarshi kurash olib boruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning bo‘lajak xodimlari, huquqshunoslarga jinoyat huquqi «Maxsus» qismiga taalluqli bo‘lgan mavzular talabalarga tushunarli, sodda va ravon tilda bayon qilib berilgan.

1-bob. SHAXSGA QARSHI JINOYATLAR

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunida shaxsga qarshi jinoyatlar tushunchasi va ularning turlari

Davlatning bosh vazifalaridan biri – inson haqida g‘amxo‘rlik qilish. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham inson, uning shaxsiy huquq va erkinliklari mustahkamlangan. Konstitutsiya normalarida, har qanday holatdan qat’iy nazar, shaxsning qonuniy huquq va manfaatlarini kafolatlangan va himoya qilingan. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida «O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar, qonun oldida tengdirlar», deb qayd etilgan bo‘lsa, uning 19-moddasida «Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas», deyiladi.

Konstitutsiyaning «Shaxsiy huquq va erkinliklar», «Siyosiy huquqlar», «Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar», deb nomlangan boblarida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy bazasi o‘z ifodasini topgan. «Davlat, deb ta’kidlanadi Konstitutsiyaning 43-moddasida, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi».

O‘zbekiston Respublikasi 2001-yilga kelib, inson huquqlari va erkinliklarini o‘zida mustahkamlagan 25 ta xalqaro hujjatga qo‘shildi. Bu hujjatlar O‘zbekiston qonunlari, jumladan, jinoyat, ayniqsa, inson huquq va erkinliklari mustahkamlangan qonunlarning yaratilishi uchun ham asos bo‘lib xizmat qildi.

Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 3.5-moddasida, «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt»ning 6, 7, 9, 10, 11-moddalarida insonning yashash huquqi, qadr-qimmatini, ozodligi va xavfsizligi, sha’ni va obro‘yini himoya qilish kabi huquqlari mustahkamlangan. Bu xalqaro huquqiy normalar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ham asosini tashkil qiladi.

Shaxsning huquq va erkinliklari huquqning turli sohalarining normalari bilan himoya qilinadi, lekin jinoyat qonunlarida fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo‘lib, huquqning bu sohasi javobgarlikni qo‘llash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi.

Jinoyat kodeksining «Shaxsga qarshi jinoyatlar» bo‘limida hayotga, sog‘liqqa qarshi, hayot yoki sog‘liq uchun xavfli, jinsiy erkinlikka, oilaga, yoshlarga va axloqqa, shaxsning ozodligi, sha’ni, qadr-qimmatiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyatlar jamiyat uchun jiddiy xavf tug‘diradi.

Jinoyat kodeksining «Maxsus» qismi birinchi bo‘limida shaxsga qarshi jinoyatlarning bir necha turi uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lib, ular bevosita obyekti bo‘yicha quyidagi guruhlariga ajratilgan:

- 1) hayotga qarshi jinoyatlar;
- 2) sog‘liqqa qarshi jinoyatlar;
- 3) hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jinoyatlar;
- 4) jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar;
- 5) oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar;
- 6) shaxsning ozodligi, sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar;
- 7) fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar.

1.2. Hayotga qarshi jinoyatlar va ularning

umumiy tavsifi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-moddasida «Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir», deb belgilab qo'yilgan.

Darhaqiqat, insonning hayoti va sog'lig'i bebaho boylik. Shaxsning bu boyliklardan mahrum etilishi yoki ularga shikast yetkazilishi fojia hisoblanadi. Inson yashar ekan, hayotdan, uning ne'matlaridan bahramand bo'lib yashashga intiladi, hayotdan mahrum qilingan shaxsning o'rnini hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi. Insonning sog'lig'iga zarar yetkazilishi unga jismoniy, axloqiy, ruhiy azoblar berib, uning hayotiy faoliyatini cheklab qo'yadi.

Jinoyatchi tomonidan insonning boshqa huquq va erkinliklariga tajovuzlar shaxs uchun ijtimoiy xavfi hayotdan mahrum etishdan kam bo'lmagan xavfni vujudga keltiradi.

Hayotga qarshi jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori ekanligi sababli, Jinoyat kodeksining «Maxsus» qismi birinchi bobi «Hayotga qarshi jinoyatlar», deb nomlanadi.

Hayotga qarshi jinoyatlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Qasddan odam o'ldirish (Jinoyat kodeksining 97-moddasi).
2. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish (Jinoyat kodeksining 98-moddasi).
3. Onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi (Jinoyat kodeksining 99-moddasi).
4. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish (Jinoyat kodeksining 100-moddasi).
5. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab turish zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish (Jinoyat kodeksining 101-moddasi).
6. Ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish (Jinoyat kodeksining 102-moddasi).
7. O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish (Jinoyat kodeksining 103-moddasi).

Odam o'ldirish jinoyatining tushunchasi, tahlili va turlari. Hayotga qarshi jinoyatlarni shartli ravishda ikki turkumga bo'lish mumkin:

- 1) odam o'ldirish;
- 2) o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish.

A. Odam o'ldirish

Odam o'ldirish – qasddan, huquqqa xilof ravishda yoki ehtiyotsizlikdan boshqa kishini hayotdan mahrum qilish.

*Odam o'ldirishning obyekt*i – boshqa kishining hayoti hisoblanadi.

Yoshi, sog'lig'i, yashash qobiliyatidan qat'iy nazar, har qanday kishining hayoti jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadi. Shu sababli chaqaloq, keksa, sog'lom yoki kasal odamni hayotdan mahrum qilishga qaratilgan har qanday harakat odam o'ldirish, deb belgilanadi.

Jinoyat huquqi nazariyasida evtanaziya, ya'ni shaxsni o'zining roziligi bilan hayotidan mahrum etganlik uchun javobgarlik masalasi bo'yicha munozaralar avj olmoqda. Evtanaziyani ma'qullovchi va uni qoralovchilar bo'lishiga qaramasdan, uni qonuniylashtirishdan qochmoq zarur, chunki insonga hayot bir marta beriladi. Shu bois uning yashashiga imkon yaratish lozim.

Bundan tashqari, dorishunoslik yutuqlaridan foydalanib, asta-sekin inson hayotiga chek qo'yadigan vositalar yaratilishiga ham yo'l qo'yilmoqda. Ammo insonning tabiati, uning a'zolari faoliyati hali shifokorlar tomonidan to'liq o'rganilmaganligini ham e'tirof etish lozim. Ba'zan tuzalishiga hech qanday umid bo'lmagan kasal sog'ayadi va o'zining hayotiy faoliyatni to'liq davom ettiradi. Sun'iy homila tushirish bilan bog'liq jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun inson hayotining boshlanishini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Onadan chaqaloq tug'ilayotgan vaqtida uning biror a'zosiga, sog'lig'iga shifokorning ehtiyotsizligi natijasida shikast yetkazilsa, u Jinoyat kodeksining 102-moddasiga binoan ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirganlik uchun javobgar bo'ladi.

Homilador ayolning roziligi bilan homila to'liq shakllanmay turib, uning sun'iy ravishda tushirilishi odam o'ldirish, deb hisoblanmaydi. Bunday qilmish Jinoyat kodeksining 114-moddasi alomatlarida sodir etilganda homiladorlik muddatidan qat'iy nazar, jinoiy ravishda homilani tushirish, deb kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Tibbiyot miya faoliyati butunlay to'xtashini biologik o'lim, deb belgilaydi. Jinoyat huquqi nazariyasi tibbiyot xulosalariga asoslanadi. Klinik o'limning yuzaga kelishi (yurakning to'xtashi), bu – insonning o'limi degani emas, chunki tibbiyot xodimlari zamonaviy sharoitlarda yurakning ishlash faoliyatini qayta tiklash imkoniyatiga ega. O'lgan odamni tirik deb, uning hayotiga tajovuz qilish, o'ldirishga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Ushbu jinoyatning obyekt boshqa kishining hayoti hisoblanadi. O'z joniga qasd qilish jinoyat qonuni bilan jazolanmaydigan qilmishdir. O'zga shaxsning hayotiga boshqa shaxs kim bo'lishidan qat'iy nazar, uning hatto ota-onasi bo'lsa ham, mahrum qilishga haqqi yo'q. Inson hayoti eng muqaddas va hech qanday boshqa narsa bilan almashtirib bo'lmas shaxsning boyligidir.

Obyektiv tomondan odam o'ldirish qonunga xilof ravishda boshqa shaxsni hayotidan mahrum qilishda ifodalanadi.

O'ldirish faol harakatlar bilan, shuningdek, harakatsizlik tufayli ham sodir etilishi mumkin. Ko'pincha odam o'ldirish faol harakatlar orqali sodir etiladi, ya'ni bunda aybdor jabrlanuvchiga o'z xususiyatiga ko'ra, shaxsni o'ldirishi mumkin bo'lgan muayyan tan jarohatlarini yetkazishdek (har qanday qurol-ashyodan foydalanish, bo'g'ish, kuydirish, zaharlash, elektr toki bilan ta'sir ko'rsatish, o'ta issiq yoki o'ta sovuq havoda ochiq yerda qoldirish) jismoniy ta'sir ko'rsatadi. Bu jinoyat ayrim hollarda jabrlanuvchiga ruhiy ta'sir qilish (sud amaliyotida o'limning qo'rqitish tufayli ro'y berganlik holatlari ham ma'lum) yo'li bilan ham sodir qilinishi mumkin.

Odam o'ldirish harakatsizlik natijasida sodir etilganida, shaxs o'z xizmat vazifasi bilan bog'liq yoki bajarish imkoniyati bo'lgan harakatlarni amalga oshirmaydi. Demak, harakatsizlik tufayli odam o'ldirish faqat shaxsning o'z vazifasini bajarmasligi yoki o'limning oldini olishi mumkin bo'lgan hollarda harakat qilmasligi bois sodir etiladi.

O'zga shaxsning joniga qasd qilgan aybdor nazarda tutilganidan boshqa kishining hayotiga g'ayriqonuniy qasd qilsa, ya'ni jabrlanuvchining shaxsiga nisbatan adashsa, bu hol jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi va aybdorning qilmishi odam o'ldirish, deb kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Odam o'ldirish moddiy tarkibli jinoyat bo'lib, uni tugallangan, deb topish uchun jabrlanuvchining o'limi sifatidagi jinoiy oqibat ro'y bergan bo'lishi lozim. Bunday oqibatning ro'y bermaganligi odam o'ldirishni tugallanmagan, ya'ni odam o'ldirishga tayyorgarlik yoki unga suiqasd deb, Jinoyat kodeksining 25-moddasi orqali aybdorni javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Shaxsni tamom bo'lgan odam o'ldirganlik uchun javobgarlikka tortish uchun jinoiy qilmishi bilan ro'y bergan o'lim orasidagi sababiy bog'lanishning mavjudligini aniqlash zarurdir. Qilmish va o'lim o'rtasida sababiy bog'lanishning yo'qligi shaxsni odam o'ldirish uchun javobgarlikka tortishni istisno qiladi, mazkur qilmish jabrlanuvchining sog'lig'iga turli darajadagi shikast yetkazganlik uchun javobgarlik belgilangan moddalardan biri bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Aybdor o'zining sodir etayotgan qilmishi natijasida qanday oqibat ro'y berishini bilib harakat qilsa-yu, ammo uning irodasiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra, jabrlanuvchi tirik qolsa, uning harakati odam o'ldirishga suiqasd, deb topiladi.

Odam o'ldirish, albatta, qonunga xilof bo'lishi kerak. Zaruriy mudofaa (Jinoyat kodeksining 37-moddasi), oxirgi zarurat (Jinoyat kodeksining 38-moddasi), buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish (Jinoyat kodeksining 40-moddasi) holatlarida shaxsni hayotdan mahrum etish jinoyat hisoblanmaydi.

Jabrlanuvchini uning iltimosiga ko'ra (tuzalmas dardga yo'liqqan kasalning kimdandir o'zini zahar berib o'ldirishni iltimos qilishi va h.k.) o'ldirgan shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi. Duelda odam o'ldirish bugungi kunda uchramaydi, lekin shunday hodisa ro'y bersa, aybdor qasddan odam o'ldirganlik uchun javobgarlikka tortiladi.

Subyektiv tomondan odam o'ldirish qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilishi mumkin va ayb shakli aniqlanishi lozim. Odam o'ldirish to'g'ri va egri qasd bilan sodir etilishi mumkin. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining «Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qarori 4-bandi, 2-qismida: «Aybdorning qasdi nimaga qaratilganligi to'g'risidagi masalani hal etish qilmishning barcha holatlari majmuyidan kelib chiqishi, xususan, jinoyatni sodir etish usuli va quroli, tan jarohatlari soni, xususiyatlari va o'rni (masalan, odam hayoti uchun muhim a'zolarining jarohatlanganligi, jinoiy harakatlar to'xtashi sabablari, shuningdek, aybdor va jabrlanuvchining jinoyat sodir etgunga qadar bo'lgan fe'l-atvori. O'zaro munosabatlari, aybdorning jinoyat sodir etilgandan keyingi harakatlari xususiyati e'tiborga olinishi lozim»ligi ko'rsatilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar aniqlanishi aybdorning qasdi bilan o'lim o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi. Masalan, aybdor shaxsga tajovuz qilayotgan vaqtda o'qotar quroldan foydalanib, yaqin masofadan jabrlanuvchining yuragini mo'ljallab o'q uzgan, ammo jabrlanuvchi o'lmagan bo'lsa, aybdorning qilmishi badanga shikast yetkazish, deb emas, balki qasddan odam o'ldirishga suiqasd, deb kvalifikatsiya qilinishi lozim yoki aybdor pichoq bilan jabrlanuvchining yuragiga, bo'yniga va boshqa hayot uchun muhim a'zolariga ko'pgina jarohat yetkazsa-yu, o'lim ro'y bermasa, bu holatlar ham aybdorning odam o'ldirishga qasd qilganligidan dalolat beradi.

Agar aybdor va jabrlanuvchi do'stona munosabatda bo'lib, bir-birini tushunib, ammo ma'lum holatlarda, masalan, qiz bolani rashk qilish tufayli biri ikkinchisiga pichoq bilan jarohat yetkazib, shu vaqtning o'zida o'z harakatlaridan pushaymon bo'lib, jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatgan, «tez yordam»ni chaqirgan, uni qutqarish uchun qon topshirgan va h.k. harakatlarni qilgan bo'lsa-da, jabrlanuvchi yetkazilgan jarohatlar tufayli o'lgan bo'lsa, barcha holatlarni e'tiborga olgan holda aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 97-moddasida javobgarlik belgilangan qasddan odam o'ldirish, deb emas, balki Jinoyat kodeksining 104-moddasi, 3-qismi bilan, ya'ni jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, deb kvalifikatsiya qilinadi.

Aybdorni odam o'ldirganlik uchun javobgar qilish uchun aybning qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilganligini aniqlash zarurdir. O'lim aybdorning qonunga xilof harakatlari tufayli ro'y bermagan bo'lsa, u o'lim ro'y berganligi uchun javobgarlikka tortilmaydi.

Masalan, D., B., L.lar K.ning nomusiga tegib, uni daryo bo'yida qoldirib ketishadi. Ular ketishganidan so'ng K. yuvinib olish maqsadida daryoning qirg'og'iga keladi va oyog'i sirpanib suvga tushib ketishi natijasida cho'kib o'ladi.

Dastlab D., B., L.lar guruh bo'lib nomusga tekkanlik va qasddan odam o'ldirganlik uchun javobgarlikka tortiladilar. Ularning xatti-harakatlarida jabrlanuvchining ro'y bergan o'limiga nisbatan qasd yoki ehtiyotsizlikning bo'lmaganligi sababli D., B., L.larning odam o'ldirganlik uchun jazoga hukm qilinganligi noto'g'ridir. Shu munosabat bilan yuqori instansiya sudi tomonidan hukmning odam o'ldirganlik uchun javobgarlik belgilangan qismi bekor qilingan.

Odam o'ldirishning subyektiv tomoni uning sodir etilish motivi va maqsadining ahamiyati kattadir. Motiv va maqsad qilmishning kvalifikatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida keltirilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorida: «Qasddan odam o'ldirish uchun jazo tayinlashda ushbu jinoyatni sodir etishdagi barcha holatlar: qasd turi, qotillik sabablari, maqsadi, usuli, jinoyat sodir etilgan vaziyat va jinoyat bosqichi, shuningdek, aybdorning shaxsi, uning o'z qilmishiga munosabati jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar e'tiborga olinishi zarur», deb tushuntirish berilgan.

Masalan, jinoyatning o'ch olish, rashk motivi bilan sodir etilganligi aniqlansa, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 97-moddasi, 1-qismi bilan; odam o'ldirish g'araz niyatda, bezorilik oqibatidagi motiv bilan sodir etilgan bo'lsa, qilmish jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida Jinoyat kodeksining 97-moddasi, 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Jinoyat kodeksining 97-moddasi, 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning subyekti 13 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxsdir; 97-moddaning 1-qismida javobgarlik belgilangan qasddan odam o'ldirishning subyekti 14 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxsdir. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida odam o'ldirish (Jinoyat kodeksining 98-moddasi); onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi (Jinoyat kodeksining 99-moddasi); zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish (Jinoyat kodeksining 100-moddasi); ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish (Jinoyat kodeksining 101-moddasi); ehtiyotsizlikdan odam o'ldirish (Jinoyat kodeksining 102-moddasi); o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish (Jinoyat kodeksining 103-moddasi) jinoyatlarining subyekti 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Odam o'ldirish bo'yicha jinoyat ishlari ko'rilayotganida aybdor shaxsini, uning shaxsiga oid xususiyatlarini va jabrlanuvchining xulq-atvorini chuqur o'rganish zarurdir. Bu jinoyatning sodir etilish shart-sharoitlari, motivini aniqlash va jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega. Bu haqda Oliy sud plenumi qarorida: «Sudlar ayni paytda jabrlanuvchining shaxsiga oid ma'lumotlar, uning sudlanuvchi bilan o'zaro munosabatlari, shuningdek, qotillik sodir etilmasdan oldingi xulq-atvori o'rganilishi lozim. Ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning ruhiy jihatdan sog'lomligiga shubha tug'ilgan taqdirda, ambulatoriya yoki statsionar sharoitida sud-psixiatriya ekspertizasi o'tkazilishi kerak. Aybdor tomonidan Jinoyat kodeksining 97-moddasi, 2-qismida nazarda tutilgan harakatlar sodir etilganda sud-psixiatriya ekspertizasi statsionar sharoitida o'tkazilishi shart»¹, deyilgan.

Jinoyatni sodir etishda bir necha kishi ishtirok etgan bo'lsa, birgalikda odam o'ldirishga qaratilgan yagona qasd bilan harakat qilgan va jabrlanuvchini hayotdan mahrum etish jarayonida bevosita ishtirok etgan shaxslargina jinoyatning ishtirokchilari, deb hisoblanadi. Agar o'lim bir kishining harakati natijasida ro'y bergan bo'lsa, ishtirokchilik belgilari bo'lmagan hollarda qolgan kishilar odam o'ldirganlik uchun javobgar bo'lmaydilar. «Bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoxud o'sha guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan qasddan odam o'ldirish jinoyatini Jinoyat kodeksining 97-moddasi, 2-qismi, «p» bandi bilan kvalifikatsiya qilishda, har qaysi ishtirokchining jinoyatda ishtirok etganlik vazifalar o'zaro taqsimlangan-taqsimlanmaganligini sinchiklab tekshirish lozim»¹. Odam o'ldirganlik uchun jinoiy javobgarlik ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunining bir nechta normalarida belgilangan.

Ammo odam o'ldirish jinoyatlari ham bir-biridan farqlanadi. Tamagirlik niyatida o'ta shafqatsizlik bilan, homilador ayolni o'ldirish uchun javobgarlik nazarda tutilgan, shuningdek, zaruriy mudofaa, xavfli jinoyatchini ushlash, oxirgi zarurat va h.k. holatlarda ham odamning hayotidan mahrum qilinishi mumkin. Yuqoridagilarga asoslanib, qonun chiqaruvchi tomonidan odam o'ldirganlik uchun turli jinoyat qonun normalarida javobgarlik belgilangan.

Jinoyat qonuniga binoan odam o'ldirishning quyidagi turlari mavjuddir:

1. Qasddan odam o'ldirish.
2. Ehtiyotsizlikdan odam o'ldirish.

Qasddan odam o'ldirish o'z navbatida quyidagilarga:

1. Og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarsiz (Jinoyat kodeksining 97-moddasi, 1-qismi).
2. Og'irlashtiruvchi holatlarda (Jinoyat kodeksining 97-moddasi, 2-qismi).
3. Yengillashtiruvchi holatlarda:
 - kuchli ruhiy hayajonlanish holatida (Jinoyat kodeksining 98-moddasi);
 - onaning o'z chaqalog'ini o'ldirishi (Jinoyat kodeksining 99-moddasi);
 - zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib (Jinoyat kodeksining 100-moddasi);
 - ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab choralari chegarasidan chiqib, odam o'ldirish (Jinoyat kodeksining 101-moddasi).

B. O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish

Jinoyat kodeksining 103-moddasi ikki qismdan iborat bo'lib, ushbu jinoyatning obyekti boshqa odamning hayotidir. Bu jinoyat obyektiv tomondan moddiy tomondan yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo'lmagan (Jinoyat kodeksining 103-moddasi, 1-qismi) yoxud moddiy yoki boshqa jihatdan qaram bo'lgan (Jinoyat kodeksining 103-moddasi, 2-qismi) shaxsga rahmsiz muomala qilish yoki uning sha'ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitish natijasida uni o'zini o'zi o'ldirish yoki o'zini o'zi o'ldirishga suiqasd qilish darajasiga yetkazishda ifodalanadi.

Aybdorning sodir etgan qilmishini Jinoyat kodeksining 103-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish uchun o'zini o'zi o'ldirish yoki o'zini o'zi o'ldirishga suiqasd qilish darajasiga yetkazish aybdorning jabrlanuvchiga nisbatan rahmsiz muomala qilishi yoki uning sha'ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitishi natijasi ekanligini aniqlash zarur.

Rahmsiz muomala qilish deganda, jabrlanuvchiga jismoniy yoki ruhiy azob beradigan qo'pol, beshafqat muomala qilish (masalan, kaltaklash, urish, uy-joydan, issiqlikdan, ovqatdan, suvdan, tirikchilik vositalaridan mahrum qilish, ishdan asossiz bo'shatish) hollari tushuniladi.

Aybdorni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortishga jabrlanuvchiga nisbatan rahmsiz muomala qilganligini ko'rsatuvchi bitta hodisaning aniqlanganligi yetarlidir.

Shaxsning *sha'ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitish* deganda, jabrlanuvchining sha'ni va qadr-qimmatini uzoq vaqt mobaynida muntazam (uch va undan ortiq marta) kamsitish (masalan, tuhmat qilib

aytilgan gaplar, haqorat qilish, ta'qib (quvg'in) qilish va h.k.)lar tushuniladi. Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini bir marta kamsitish jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'la olmaydi.

Ayrim hollarda haqiqiy ma'lumotlarni hayosizlarcha, masxaraomuz, haqoratomuz shaklda muttasil ravishda tarqatish ham o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish usuli, deb topilishi mumkin. Jabrlanuvchining o'zini o'zi o'ldirishi (o'lim sodir bo'lishi) yoki o'zini o'zi o'ldirishga suiqasd qilishi jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanadi. Agar bunday oqibatlar bo'lmasa, o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyatining tarkibi bo'lmaydi. Biroq, aybor shaxsning harakatlarida boshqa jinoyatlar (masalan, haqorat qilish, tuhmat qilish)ning alomatlari bo'lsa, u jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Aybdorning qilmishini Jinoyat kodeksining 103-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish uchun jabrlanuvchining o'ziga nisbatan rahmsiz muomala qilinishi yoki uning sha'ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitilishi natijasida o'zini o'zi o'ldirgani yoki unga suiqasd qilganligini, ya'ni aybdorning muomalasi va yuz bergan oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish mavjudligini aniqlash kerak.

O'zini o'zi o'ldirish yoki unga suiqasd qilish, o'ynash bo'lish, nikoh tuzishni rad etish, er-xotindan birining vafosizligi, qonunga xilof ravishda ishdan bo'shatish, lavozimini pasaytirish kabilarning natijasi bo'lsa, shaxsning qilmishi Jinoyat kodeksining 103-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas.

Agar jabrlanuvchi moddiy tomondan yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo'lmasa aybdor Jinoyat kodeksining 103-moddasi, 1-qismi bilan, basharti, bunday qaramlik bo'lsa, Jinoyat kodeksining 103-moddasi, 2-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

Jabrlanuvchini qasddan o'zini o'zi o'ldirish yoki o'zini o'zi o'ldirishga suiqasd qilish darajasiga yetkazishni xohlagan aybdorning qilmishi jinoyatning sodir etilish motivlarini va Jinoyat kodeksining 97-moddasi tegishli qismini hisobga olgan holda, qasddan odam o'ldirish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Agar o'zini o'zi o'ldirish yoki o'zini o'zi o'ldirishga suiqasd qilish darajasiga yetkazish chog'ida shaxs jabrlanuvchiga o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohati yetkazsa, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining fuqarolar sog'lig'iga shikast yetkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi tegishli moddalari bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Subyektiv tomondan o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish egri qasd yoki ehtiyotsizlikdan sodir etiladi. Jinoyat egri qasd bilan sodir etilganda aybdor jabrlanuvchining o'zini o'zi o'ldirishi mumkinligiga ko'zi yetadi va uning o'zini o'zi o'ldirishga yo'l qo'yib beradi.

Jinoyat ehtiyotsizlikdan sodir etilganida aybdor shaxs o'zini o'zi o'ldirishning oldi olinishidan kaltabinlik bilan umidvor bo'ladi (jinoiy o'z-o'ziga ishonish) yoki aybdor jabrlanuvchining o'zini o'zi o'ldirishga ko'zi yetmaydi. Aybdor ish holatlariga ko'ra, o'zining harakatlari jabrlanuvchining o'zini o'zi o'ldirishiga sabab bo'lishini oldindan ko'ra bilishi mumkin va lozim.

Ushbu jinoyatning subyeksi Jinoyat kodeksining 103-moddasi, 1-qismi bo'yicha 16 yoshga to'lgan shaxs, 2-qismi bo'yicha esa, jabrlanuvchi moddiy tomondan yoki boshqa jihatlardan qaram bo'lgan shaxs hisoblanadi.

Moddiy tomondan qaram deganda, jabrlanuvchi moddiy jihatdan aybdorga bog'liq bo'lgan hollar (aybdordan pul, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak va h.k. olishi) tushuniladi. Bu, qoida tariqasida, ishlamayotgan shaxsning ishlab turgan shaxsga, farzandlarning ota-onalariga, ishlamayotgan ota-onaning moddiy daromadga ega bo'lgan farzandlariga qaramligi va h.k. bo'lishi mumkin.

Boshqa jihatdan qaram deganda, xizmat yuzasidan yoki boshqa qaramlik tushuniladi (masalan, xodimning boshliqqa, o'quvchining o'qituvchisiga, aspirantning ilmiy rahbarga tobeligi, qarindoshlarga qaramlik, vasiylik va homiylik amalga oshirilishi munosabati bilan qaramlik va h.k.) tushuniladi.

1. Shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlarning jamiyat uchun ijtimoiy xavfliligi darajasining yuqoriligi nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Qanday prinsipga asosan odam o'ldirish jinoyatlari turlarga ajratilgan?
3. Odam o'ldirish jinoyati obyektining xususiyatlari nimadan iborat? Jinoyat huquqi nazariyasida hayotning boshlanishi va tugatilishi deganda nima tushuniladi?
4. Og'irlashtiruvchi holatlardan, qasddan odam o'ldirish jinoyatining o'ziga xos xususiyatlarini bayon eting.

5. Qanday holatlar qasddan odam o'ldirish jinoyatining aybni og'irlashtiruvchi holatlari deyiladi?
6. O'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarish munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini qasddan o'ldirish deganda nima tushuniladi?
7. Boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo'lgan usulda qasddan odam o'ldirishni ommaviy tartibsizliklar jarayonida odam o'ldirishdan qanday farqlash mumkin?
8. O'ta shafqatsizlik bilan odam o'ldirishning belgilarini izohlang.
9. Xavfli va o'ta xavfli retsivist deganda kimlar tushuniladi?
10. Boshqa jinoyatni yashirish yoki sodir etilishni yengillashtirish maqsadida qasddan odam o'ldirish jinoyatining, takroran yoki xavfli retsivist tomonidan qasddan odam o'ldirish jinoyatidan farqi.
11. Onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi jinoyati uchun javobgarlikning shartlarini bayon eting.
12. Qasddan odam o'ldirishning kuchli ruhiy hayajonlanish holatida odam o'ldirishdan, onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishidan, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirishdan farqi.
13. Zaruriy mudofaa tushunchasi hamda zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deganda nima tushuniladi?
14. Qilmishni Jinoyat kodeksining 101-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish uchun qanday asoslar mavjud bo'lishi kerak?
15. Ehtiyotsizlikdan odam o'ldirishning qasddan odam o'ldirishdan farqi.
16. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab turish zarur choralarini chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish jinoyatini kvalifikatsiya qilishning qanday shartlar mavjud?
17. O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyatini kvalifikatsiya qilishga ta'sir qiluvchi omillar nimalardan iborat?

1.3. Sog'liqqa qarshi jinoyatlar, ularning turlari va yuridik tahlili

Fuqarolarning sog'lig'i va jismoniy daxlsizligini jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqining eng dolzarb vazifalaridandir. Insonning sog'lig'i va uning daxlsizligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish, uning barcha imkoniyatlarini va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitni yaratish respublika rahbariyatining, davlatning, barcha huquqiy institutlarning, sud-tergov organlarining diqqat markazida bo'lib, O'zbekiston Respublikasi qonunlarining asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Inson huquqlari va erkinliklari deklaratsiyasining 13-moddasida davlat fuqarolarni ularning hayoti, sog'lig'i, shaxsiy erkinligi va xavfsizligiga bo'ladigan g'ayriqonuniy tajovuzlardan muhofaza qiladi, deb belgilab qo'yilgan.

Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida: «Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'rvonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas»ligi mustahkamlab qo'yilgan.

Fuqarolarning sog'lig'i yoki jismoniy daxlsizligi huquqning turli sohalari normalari orqali, ularning o'ziga xos vositalari bilan, jumladan, jinoyat qonuni tomonidan fuqarolar sog'lig'iga turli xildagi tajovuzlarni sodir etganlik uchun javobgarlik belgilangan normalar orqali ham qonunga xilof xatti-harakatlardan muhofaza qilinadi.

Ana shu tajovuzlarning mohiyatini ochib berish uchun ularning obyektini, jabrlanuvchiga xos xususiyatlarni ko'rsatib beruvchi barcha ma'lumotlarni aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Bu ma'lumotlar sog'liqqa qarshi jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilishga, uni o'xshash jinoyatlardan farqlashga, qilmishning xususiyati va sog'liqqa yetkazilgan shikastga muvofiq, jazoni to'g'ri tayinlashga ko'maklashadi.

Sog'liqqa qarshi jinoyatlar

- Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (Jinoyat kodeksining 104-moddasi).
- Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (Jinoyat kodeksining 105-moddasi).
- Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish (Jinoyat kodeksining 106-moddasi).
- Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (Jinoyat kodeksining 107-moddasi).
- Ijtimoiy xafli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab turish zarur choralarini chegarasidan chetga chiqib, badanga qasddan og'ir shikast yetkazish (Jinoyat kodeksining 108-moddasi).
- Qasddan badanga yengil shikast yetkazish (Jinoyat kodeksining 109-moddasi).
- Qiynash (Jinoyat kodeksining 110-moddasi).
- Ehtiyotsizlik orqasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish (Jinoyat kodeksining 111-moddasi).

A. Badanga shikast yetkazish tushunchasi, uning yuridik tahlili va turlari

Yuridik adabiyotlarda badanga shikast yetkazishning yagona tushunchasi hanzugacha ishlab chiqilmagan.

Badanga shikast yetkazishning tushunchasini yoritib berishga bo'lgan urinishlardagi farqlar, *birinchidan*, badanga shikast yetkazishlarning obyektini turlicha ta'riflashda (ba'zilar bunday obyekt sifatida sog'liqni ko'rsatgan bo'lsalar, boshqa mualliflar shaxsning jismoniy daxlsizlikni belgilaganlar); *ikkinchidan*, urish, do'pposlash, qiynashlarni badanga shikast yetkazishlar jumlasiga kiritish; *uchinchidan*, bular jumlasiga jismoniy og'riq beruvchi, ammo boshqa oqibatlarini keltirib chiqarmaydigan zo'rlik ishlatib qilingan boshqa harakatlarni kiritish mumkinligidan iborat bo'lgan.

Shu munosabat bilan *badanga shikast yetkazish* deb, topilishi mumkin bo'lgan sog'liqqa zarar yetkazilishining chegaralarini aniq belgilash va uni boshqa zo'rvonlik tajovuzlaridan farqlash (ajratish) imkonini beradigan ikkita obyektiv mezon asos qilib olingan ta'rif, bizningcha, ancha aniqroqdir. Bu mezonlar quyidagilardir:

- 1) odam tanasi a'zolari va to'qimalarining anatomik bus-butunligi yoki bir me'yorda ishlab turishining buzilganligi;
- 2) sud-tibbiy ekspertizasi yordamida odam sog'lig'iga yetkazilgan zararining og'irligi va darajasini aniqlash imkonini beradigan zararining yetkazilganligi.

Badanga shikast yetkazishni o'zga kishining sog'lig'iga uning xohishiga zid ravishda, tashqi muhit omillari ta'siri ostida to'qimalar yoki a'zolarining anatomik bus-butunligi yoki fiziologik funksiyalari buzilishiga sabab bo'lgan g'ayriqonuniy zarar yetkazish, deb ta'riflash mumkin.

Bundan urish, do'pposlash, jismoniy og'riq beruvchi boshqa zo'ravonlik harakatlari sodir etilishini badanga shikast yetkazishlar jumlasiga kiritish mumkin emas, degan fikr tug'iladi. Shubhasiz, bunday harakatlar natijasida odamda jismoniy og'riq, noxush tuyg'ular paydo bo'ladi, lekin ular, odatda, sud-tibbiy ekspertizasini (badanga yetkazilgan shikastlarning og'irlik darajasini sud-tibbiy aniqlash qoidalari asosida) o'tkazish jarayonida obyektiv mezonlar asosida tasdiqlanishi mumkin bo'lgan darajada sog'liqni ishdan chiqarmaydi. Shu munosabat bilan urish, do'pposlash va boshqa zo'ravonlik harakatlarini badanga shikast yetkazishlar toifasiga kiritilishi mumkin bo'lmagan mustaqil jinoyatlar, deb hisoblash kerak bo'ladi.

Badanga shikast yetkazishning obyekti uning holati va individual sifatlaridan qat'iy nazar, o'zga kishining sog'lig'idir. Jismoniy daxlsizlik shaxsning sog'lig'iga zarar yetkazish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa zo'ravonlik harakatlarining obyekti, deb hisoblanishi lozim.

Sog'liqqa zarar yetkazganligini aniqlashda, uning badanga shikast yetkazilgan paytdagi holatiga, ya'ni sog'liqning yomonlashuviga asoslanish kerak bo'ladi. Sud tibbiyoti va sud amaliyoti sodir etilgan qilmish natijasida sog'liq avvaliga nisbatan yomonlashgan bo'lsa, jabrlanuvchi sog'lig'iga zarar yetkazilganligini qayd etilishi kabi qoidaga amal qiladi.

Badanga shikast yetkazish jinoyatining obyekti faqat o'zga kishining sog'lig'igina bo'lishi mumkin. O'z sog'lig'iga yetkazgan shaxs (o'z a'zosini mayib qilish) faqat boshqa jinoyat, harbiy yoki muqobil xizmatdan bo'yin tovlash (Jinoyat kodeksining 225-moddasi), o'zining biron a'zosini mayib qilish yo'li bilan yoki boshqa usulda harbiy xizmatdan bo'yin tovlash (Jinoyat kodeksining 290-moddasi) sodir etgan hollardagina jinoyi javobgarlikka tortilishi mumkin.

Bunday hollarda o'z sog'lig'iga zarar yetkazish ana shu moddalarda nazarda tutilgan jinoyatni sodir etish usuli sifatida namoyon bo'ladi va shu bois bunday shaxslarning harakatlari qo'shimcha kvalifikatsiyani talab qilmaydi. Agar ijtimoiy xavfli maqsadda shaxsning roziligi bilan boshqa shaxs tomonidan uning sog'lig'iga zarar yetkazilsa, yetkazgan zarar darajasiga qarab badanga shikast yetkazish va o'z sog'lig'iga tegishli og'irlikdagi zarar yetkazilishiga rozilik bergan shaxs esa, jinoyatda ishtirokchi sifatida jinoyatlar jami bo'yicha javobgar bo'ladilar.

Jinoyat kodeksining «Maxsus» qismi II bobidan boshqa boblarida ham inson sog'lig'iga zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan bir qancha jinoyatlar uchun ham javobgarlik nazarda tutilgan. Bu jinoyatlarning jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan boshqa ijtimoiy munosabatlariga zarar yetkazishi tufayli qonun chiqaruvchi ularni «Sog'liqqa qarshi jinoyatlar» jumlasiga kiritmaydi. Bunday jinoyatlar yuridik adabiyotlarda ikki obyektli jinoyatlar, deb yuritiladi (masalan, bosqinchilik — Jinoyat kodeksining 164-moddasi, talonchilik — Jinoyat kodeksining 166-moddasi va h.k.). Badanga shikast yetkazishda tajovuz faqat shaxs sog'lig'igina qaratilgan bo'ladi, aynan mana shu farq «Sog'liqqa qarshi jinoyatlar» bobida nazarda tutilgan badanga shikast yetkazish va sodir etilishi jarayonida badanga shikast yetkaziladigan jinoyatlarni bir-biridan ajratib turadi.

Sog'liqqa qarshi jinoyatlarning obyektiv tomoni. Fuqarolarning sog'lig'i va jismoniy daxlsizligiga qarshi jinoyi tajovuzlar obyektiv tomonining elementlarini aniqlab olish ularni to'g'ri kvalifikatsiya qilish va bu jinoyatlarning mohiyatini tushunish uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, sog'liqqa va jismoniy daxlsizlikka qarshi qaratilgan jinoyatlar moddiy tarkibli bo'lib, ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bergan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan, deb topiladi. Badanga shikast yetkazilganda, aybdorning g'ayriqonuniy harakatlari tufayli jabrlanuvchining sog'lig'iga zarar yetkazish oqibat tariqasida namoyon bo'ladi.

Aksariyat hollarda faol harakatlarni sodir etish yo'li bilan badanga shikast yetkaziladi, biroq, nazariy jihatdan bunday shikastlar harakatsizlik yo'li bilan ham yetkazilishi mumkin. Jinoyat huquqi nazariyasida shaxsning sog'lig'iga zarar yetkazilishining oldini olishga qaratilgan biron-bir harakatni bajarishi shart bo'lgan va uni qilishi mumkin bo'lgan, ammo bunday majburiyat yuklatilgan shaxsning ularni bajarmagan hollardagina harakatsizlik yo'li bilan sog'liqqa zarar yetkazilishi mumkin, deb hisoblanadi. Bunday majburiyat qonun yoki qonun osti hujjatining biron-bir ko'rsatmasidan yoxud shaxsning xizmat yoki kasbiy majburiyatlaridan yoxud jabrlanuvchining sog'lig'i uchun xavf tug'dirgan shaxsning bundan oldingi xulq-atvoridan yoki boshqa asoslardan kelib chiqadi. Biroq, bunday qilmishlarni sodir etgan aybdorlar badanga shikast yetkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar bilan emas, balki Jinoyat kodeksining boshqa normalari, xususan, Jinoyat kodeksining 117-modda — xavf ostida qoldirganlik, 116-modda — o'z xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgar bo'ladilar.

Badanga jinoiy shikast yetkazishning zaruriy alomatlaridan biri uning g'ayriqonuniyligidir. Sog'liqqa qasddan yoki ehtiyotsizlikdan zarar yetkazilishini g'ayriqonuniy, deb tushunish lozim.

Shubhasiz, shaxs zaruriy mudofaa holatida uning chegaralaridan chetga chiqmasdan yoxud oxirgi zarurat, kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosiy tavakkalchilik holatida sog'liqqa har qanday darajada zarar yetkazsa, u jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Negaki, bunday harakatlar ijtimoiy xavfli va g'ayriqonuniy hisoblanmaydi, aksincha, ular ijtimoiy foydalidir.

Jinoyat qonunida zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og'ir shikast yetkazganlik uchun javobgarlik nazarda tutiladi va zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib badanga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmaydi. Qonun chiqaruvchining bunday qarori, bizningcha, to'g'ridir. Ijtimoiy xavfli tajovuzdan himoyalanih hujum qilayotgan shaxsga muayyan zarar yetkazilishi taqozo etadi, aks holda, biron-bir manfaatni himoya qilishning aslo iloji bo'lmaydi.

Sog'liqni saqlash huquqi insonning ana shu boylikdan foydalanishda muayyan huquqlarga ega ekanligini nazarda tutadi. Shu munosabat bilan inson tomonidan o'zining sog'lom bo'lishdek subyektiv huquqini amalga oshirish chegaralarini jinoyat huquqi tomonidan muhofaza qilinishi masalasining qiziqarli ekanligi shubhasizdir.

Shaxsning sog'lig'iga uning roziligi bilan ijtimoiy foydali maqsadlarda zarar yetkazilgani jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'lmaydi. Masalan, bemorlarning hayotini saqlab qolish uchun uning biron-bir jarohatlangan a'zosini kesib tashlaydilar yoki tibbiy aralashuv oqibatida biron-bir a'zo shaklan o'zgaradi (oyoq, qo'lning kaltalashib qolishi va h.k.). Insonning u yoki bu a'zosini yoki to'qimalarining bir qismini muhtoj kishiga donorning roziligi bilan ko'chirib o'tkazish uchun kesib olish ham shular jumlasiga kiradi.

Bunday hollarda shifokorning harakatlari ijtimoiy foydali harakatlar hisoblanadi. Agar bunday harakatlar shaxsning roziligi bilan sodir etilsa, bu rozilik kasallik varaqasida tegishli yozuvlar bilan qayd etib qo'yilishi kerak.

Ijtimoiy indeferent, ya'ni nuqsonlarni yo'qotish (kosmetik operatsiyalar o'tkazish va h.k.) maqsadida sog'liqqa shikast yetkazish, agar u ehtimol tutilgan oqibatlar haqida xabardor qilingan shaxsning roziligi bilan o'tkazilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka sabab bo'lmaydi.

Faqat ijtimoiy jihatdan xavfli maqsadda shaxsning roziligi bilan sog'liqqa zarar yetkazganlik uchungina jinoiy javobgarlik yuzaga keladi. Bunga harbiy xizmatdan bo'yin tovlayotgan boshqa shaxsning sog'lig'iga shikast yetkazish misol bo'la oladi.

Shifokorlik faoliyatida sog'liqqa muayyan shikast yetkazish ba'zi hollarda ancha yirik jarohat paydo bo'lishi yoki o'limning oldini olish uchun zaruriy shart hisoblanadi. Bunday hollarda Jinoyat kodeksining 41-moddasi (kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik) inobatga olinmog'i lozim.

Boks, kurash, futbol, xokkey, sharq yakkama-yakka kurashi kabi turli sport tadbirlarini o'tkazish chog'ida ham badanga shikast yetkazilishi mumkin. Yuridik adabiyotlarda bu masalaning yechimi bir xilda hal etilmagan. Shu munosabat bilan sport musobaqalarini o'tkazish jarayonida musobaqa qatnashchisiga shikast yetkazilishi mumkin bo'lgan to'rt vaziyatni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

- *birinchi vaziyat* — sport bellashuvi paytida o'yin qoidalari buzilmagani holda sog'liqqa shikast yetkazilishi. Garchi, bunday harakatlar natijasida zararli oqibatlar yuz bersa ham, sportchi sport qoidalarini buzish va shikast yetkazishga qasd qilmaydi. Shu bois uning harakatlari ijtimoiy xavfli va g'ayriqonuniy, deb topilishi mumkin emas;

- *ikkinchi vaziyat* — sportchining ehtiyotsizlikdan o'yin qoidalarini buzganligi natijasida sog'liqqa shikast yetkazilishi. Bunday hollarda ham sportchining harakatlarida jinoyat tarkibi bo'lmaydi va unga nisbatan musobaqa qoidalarida nazarda tutilgan jazolargina qo'llanilishi mumkin;

- *uchinchi vaziyat* o'yin qoidalarini qasddan buzish natijasida sog'liqqa shikast yetkazilishini qamrab oladi. Bunday hollarda masala ro'y bergan oqibatlarga qarab hal etiladi. Agar badanga yengil shikast yetkazish tarzidagi oqibat yuz bergan bo'lsa, aybdor jinoiy javobgarlikka tortilmasligi lozim. Jabrlanuvchiga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilgan bo'lsa, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 111-moddasi (ehtiyotsizlikdan badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazganlik uchun) bilan kvalifikatsiya qilinadi;

• *to'rtinchi vaziyat* raqibning sog'lig'iga sport bellashuviga bog'liq bo'lmagan holda shikast yetkazilishidir. Bunday hollarda badanga qasddan u yoki bu darajada shikast yetkazganlik uchun aybdor jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Badanga shikast yetkazadigan harakatlar juda xilma-xil bo'lib, ularni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- 1) jismoniy (mexanik, termik, elektrik va h.k.) ta'sir ko'rsatib, badanga yetkaziladigan shikastlar;
- 2) organizmga kimyoviy yoki biologik faol vositalar bilan ta'sir ko'rsatish (turli kislotalar, zaharli moddalar, gazlar va h.k.dan foydalanish) yo'li bilan badanga yetkaziladigan shikastlar;
- 3) ruhiy ta'sir ko'rsatish yo'li bilan badanga yetkaziladigan shikastlar.

Jismoniy ta'sir ko'rsatish yo'li bilan badanga yetkaziladigan shikastlar odamning muskul kuchidan foydalanib, ya'ni urish, tepish, kalla qo'yish bilan yetkazilishi mumkin. Aksariyat hollarda aybdorlar buning uchun turli asboblardan, xo'jalik-ro'zg'or ashyolari, o'qotar yoki sovuq qurollardan foydalanadilar. Fuqarolarning sog'lig'iga termik yoki elektrik ta'sir ko'rsatish (badanni dazmol, qizdirilgan ashyolar bilan kuydirish va h.k.) orqali shikast yetkazishlar ham hayotda tez-tez uchraydi.

Qilmishni badanga shikast yetkazishlik, deb kvalifikatsiya qilish uchun shikast yetkazish usuli, u yoki bu asbobdan foydalanganlik ahamiyatga ega emas. Biroq, jazo tayinlash paytida sog'liqqa shikast yetkazish usuli inobatga olinishi mumkin. Negaki, bu holat aybdor shaxsning va u sodir etgan jinoyatning u yoki bu darajada ijtimoiy xavfliligidan dalolat beradi. Odamning sog'lig'i yoki jismoniy daxlsizligiga turli xildagi harakatlar, turlicha usullar orqali xilma-xil asboblardan va jinoyat vositalari yordamida zarar yetkazilishi mumkinligi sababli *badanga shikast yetkazish turli darajada bo'lishi* mumkin.

Bu oqibatlar qonunda:

- 1) hayot uchun xavfning mavjudligini yoki yo'qligini;
- 2) sog'liqqa yetkazilgan zararining og'irligi darajasini;
- 3) umumiy mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasini hisobga olib tasniflanadi.

Jinoyat kodeksida yuz bergan oqibatlarga qarab badanga og'ir (Jinoyat kodeksining 104-moddasi), o'rtacha og'ir (Jinoyat kodeksining 105-moddasi) va yengil (Jinoyat kodeksining 109-moddasi) shikast yetkazganlik uchun differensiyalashtirilgan javobgarlik nazarda tutiladi.

Jinoyat kodeksining alohida normasida do'pposlaganlik (kaltaklaganlik) va qiynaganlik uchun (Jinoyat kodeksining 110-moddasi) javobgarlik nazarda tutilgan. Qonunda ko'rsatilgan muayyan oqibatlar yuz berganligi (mehnat qobiliyatining yo'qotilishi, biron-bir organni yoki shu organ faoliyatining yo'qotilishi, homilaning tushishi va h.k.) badanga og'ir, o'rtacha og'ir, yengil shikast yetkazishni *tamom bo'lgan jinoyat*, deb topishning zaruriy belgisi hisoblanadi. Bunda sodir etilgan ijtimoiy xavfli, g'ayriqonuniy qilmish va yuz bergan oqibatlar o'rtasidagi *sababiy bog'lanish* mavjud bo'lishi kerak. Bunday bog'lanish bo'lmagan taqdirda, ro'y bergan oqibatlar shaxsni aybdor, deb topish mumkin emas.

Ko'pincha oqibat sodir etilgan jinoiy harakatlarning emas, balki uchinchi shaxslarning aybi bilan yoxud qandaydir boshqa holatlar tufayli ro'y bergan bo'ladi. Shu munosabat bilan, agar shaxsning qasdi bilan ro'y bergan oqibatlar o'rtasida sababiy bog'lanish mavjud bo'lsa, yuz bergan oqibatlar «to'g'ridan to'g'ri» yoki «tasodifiy» bo'lganligidan qat'iy nazar, javobgar bo'ladi. Masalan, V.ning jinoyat ishini ko'rib chiqaylik. U talabalar yotoqxonasida O.ni jinsiy yaqinlik qilishga undagan. Rad javobini olgach, V. uning nomusiga tegishga uringan. O. deraza tokchasiga chiqib olib, agar V. unga yaqinlashsa, o'zini derazadan pastga tashlab yuborishini aytgan. V. tahdidga parvo qilmay unga yaqinlashgan, O. esa derazadan pastga sakragan va uchinchi qavatdan yiqilib tushib, og'ir shikastlangan. Bu holda, bizningcha, garchi O.ning sog'lig'iga o'zining harakatlari natijasida shikast yetkazilgan bo'lsa ham, V.ning harakatlari va yuz bergan oqibatlar o'rtasidagi zaruriy (to'g'ridan to'g'ri) sababiy bog'lanish emas, balki tasodifiy xususiyatdagi sababiy bog'lanish mavjud, shuning uchun ham yuz bergan oqibatlar V. aybdor, deb hisoblanishi kerak.

Yuqorida bayon etilganlardan yuz bergan oqibatlar uchun javobgarlik ham zaruriy, ham tasodifiy sababiy bogʻlanish mavjud boʻlgan va uning rivojlanishi aybdorning qasdi bilan qamrab olingan boʻlsa, yuzaga keladi, degan xulosa qilish mumkin.

Sogʻliqqa va jismoniy daxlsizlikka qarshi jinoyatlarda ayb, motiv va maqsad. Sogʻliqqa va jismoniy daxlsizlikka qarshi jinoyatlar qasddan va ehtiyotsizlikdan sodir etilishi mumkin. Sogʻliqqa qarshi jinoyatlar, xususan, badanga shikast yetkazishlarning aksariyati egri qasd bilan sodir etiladi.

Fuqarolarning sogʻligʻi va jismoniy daxlsizligiga qarshi jinoyatlarni sodir etishda *toʻgʻri qasd* shunday xususiyatga ega boʻladiki, shikast yetkazgan shaxs oʻz qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglaydi, jabrlanuvchining sogʻligʻiga muayyan zarar yetkazilishi muqarrarligi yoki ehtimoli borligiga koʻzi yetadi va aynan shunday zarar yetkazilishini xohlaydi.

Masalan, Q.ning jinoyat ishini oʻrganish quyidagilarni koʻrsatadi: u mast holda bundan sal oldinroq oʻzi haqorat qilgani uchun qaynonasinikiga ketib qolgan xotinini uyiga olib kelishga qaror qilgan. Xotini uyga qaytishni istamaganida, Q. uning homiladorligini bila turib, «Sen hozir tugʻasan», degan soʻzlar bilan uning qorniga bir necha marta tepadi. Zarbalar natijasida xotining homilasi tushgan. Ish materialidan koʻrinib turibdiki, Q. oʻz harakatlarining ijtimoiy xavflilik xususiyatini nafaqat tushungan, balki jabrlanuvchi homilasining tushishi ehtimoli borligiga koʻzi yetgan va unga shunday shikast yetkazishni xohlagan ham. Bularning hammasi Q. jinoyatni toʻgʻri qasd bilan sodir etganligidan dalolat beradi.

Egri qasdda esa, yuz beradigan oqibatlariga, garchi, aybdorning koʻzi yetgan boʻlsa ham, u yetkaziladigan zararining haqiqiy koʻlamini tasavvur qilmaydi va jabrlanuvchining sogʻligʻiga har qanday shikast yetishiga yoʻl qoʻyadi. Masalan, aybdor jabrlanuvchining boshiga ayamasdan urar ekan yoki unga tosh otar ekan, buning natijasida jabrlanuvchiga har qanday ogʻirlikdagi: ogʻir, oʻrtacha ogʻir yoki yengil shikast yetkazilishi mumkinligiga koʻzi yetadi va shunday oqibatlar yuz berishiga ongli ravishda yoʻl qoʻyadi. Bunday hollarda javobgarlik haqiqatda ham yetkazilgan shikastning darajasiga qarab belgilanadi, negaki, aybdor ularning yuz berishini bir xil darajada anglagan boʻladi.

Subyektiv tomondan qasddan shikast yetkazishga nisbatan ehtiyotsizlikdan shikast yetkazishning ijtimoiy xavfliligi kamroqdir. Sogʻliqqa qarshi jinoyatlar ehtiyotsizlikning jinoiy oʻz-oʻziga ishonish shakli bilan ham sodir etilishi mumkin. Bunda shaxs muayyan ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqishi mumkinligiga koʻzi yetadi va shunga qaramay, ongli ravishda ehtiyot choralariga rioya etmaydi, bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid bogʻlaydi.

Qasddan jinoyat qilish va jinoiy oʻz-oʻziga ishonishdan farqli ravishda, jinoyatkorona beparvolik shaxs oʻz harakati yoki harakatsizligidan qanday ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz berishi mumkinligiga koʻzi yetmaydi, lekin koʻzi yetishi mumkin va lozim boʻladi. Shaxsning u yoki bu oqibatlar yuz berishiga koʻzi yetishi lozim boʻlgani va muayyan vaziyatda ularga koʻzi yetishi mumkin boʻlganligi aniqlangandagina uni ehtiyotsizlikdan badanga shikast yetkazishda ayblash toʻgʻri boʻladi.

Sogʻliqqa qarshi jinoyatlarni toʻgʻri kvalifikatsiya qilish uchun jinoyat subyektida aybning qasd yoki ehtiyotsizlik shakli mavjudligini aniqlashning oʻzi kifoya qilmaydi. Fuqarolarning sogʻligʻiga qasddan shikast yetkazilgan barcha hollarda jinoyatning motiv va maqsadini aniqlash zarurdir.

Aksariyat hollarda shaxsning sogʻligʻi va jismoniy daxlsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning sodir etish motivi va maqsadi aybdor shaxsning javobgarligini ogʻirlashtiruvchi holatlar (masalan, tamagirlik niyati, bezorilik oqibatida, diniy taassublar zamirida, transplantat sifatida foydalanish maqsadida badanga shikast yetkazish va h.k.) hisoblanadi.

Jinoyat subyektining yuridik tavsifi. Jinoyat kodeksining 17-moddasida badanga shikast yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi boʻlishi mumkin boʻlgan shaxslarning minimal yoshi belgilangan. Qasddan badanga ogʻir shikast yetkazganlik (Jinoyat kodeksining 104-moddasi), qasddan badanga oʻrtacha ogʻir shikast yetkazganlik (Jinoyat kodeksining 105-moddasi), kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga ogʻir yoki oʻrtacha ogʻir shikast yetkazganlik uchun (Jinoyat kodeksining 106-moddasi) jinoyatni sodir etgunga qadar oʻn toʻrt yoshga toʻlgan shaxslar javobgar boʻladilar.

Shaxsning sogʻligʻi va jismoniy daxlsizligiga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlarning subyekti oʻn olti yoshga toʻlgan shaxslar hisoblanadi.

*B. Qasddan badanga ogʻir shikast yetkazish
va uning belgilari*

Jinoyat huquqi va sud tibbiyoti fanlari tomonidan badanga yetkaziladigan shikastlarning og'irlik darajasini aniqlash mezonlari ishlab chiqilgan. Ular jumlasiga:

- 1) shikastlarning hayot uchun xavfliligi;
- 2) sog'liqqa yetkazilgan haqiqiy ziyon;
- 3) mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasi;
- 4) estetik mezonlar kiradi.

Bu mezonlar Jinoyat kodeksi normalari va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Badanga yetkazilgan shikastlarning og'irlik darajasini sud-tibbiy yo'l bilan aniqlash qoidalari»da o'z ifodasini topgan.

Hayot uchun xavfli shikastlar deganda, jinoyatchi tomonidan sodir etilayotgan paytida jabrlanuvchining hayoti uchun xavf tug'diruvchi shikastlarni yetkazish tushuniladi, bunday shikastlarga tibbiy yordam ko'rsatilmasa, jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan shikastlar kiradi.

Sog'liqqa real (haqiqiy) zarar yetkazish shaxsning sog'lig'iga turlicha shikast yetkazish yoki sog'liqning muayyan muddatga izdan chiqishida ifodalanadi.

Mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasi foizlarda aniqlanadi va yetkazilgan shikast mehnat qobiliyatining qisman yoki butunlay yo'qotilishiga sabab bo'ladi.

Badanni tuzalmaydigan qilib xunuklashtirib yuborishda namoyon bo'ladigan *estetik mezon* o'ziga xos xususiyatga ega. Bunda yetkazilgan shikast natijasida jabrlanuvchi badanining xunuklashganligi uning ruhan ezilishiga olib keladi. Shikastning og'irligi oqibat natijada, avvalo, jabrlanuvchining badani xunuklashgani sababli bo'ladigan ruhan ezilishlari bilan bog'liqdir.

Badanga yetkaziladigan shikastlarning og'irlik darajasini aniqlash uchun «Qoidalar»da ikki asosiy mezon: *tibbiy (anatomik)* va *iqtisodiy* mezonlar qo'llanilgan.

Tibbiy mezon badanga yetkaziladigan barcha turdagi shikastlarni sodir etilgan paytida jabrlanuvchining hayoti uchun xavfliligi nuqtayi nazaridan tavsiflaydi, to'qimalar yoki inson a'zolari funksiyalarining buzilishi darajasi va xususiyatini, yetkazilgan shikastning davomiyligi va organizmga ta'sirini aniqlaydi.

Iqtisodiy mezon jabrlanuvchi mehnat qobiliyatini yo'qotilishining foizlarda ifodalangan darajasini hisobga olgan holda badanga yetkazilgan shikastni tavsiflaydi.

Badanga shikast yetkazish, Jinoyat kodeksining 104-moddasida nazarda tutilgan alomatlardan loqaqal bittasi mavjud bo'lsa, og'ir, deb topiladi.

Badanga hayot uchun xavfli bo'lgan og'ir shikast yetkazish. Bu badanga shikast yetkazishning eng ko'p tarqalgan turlaridan biridir. Bunday shikastlar, odatda, o'lim bilan tugaydi yoki jabrlanuvchining hayotiga bevosita xavf tug'diradi.

Biron-bir oqibat yuz berishidan qat'iy nazar, hayot uchun xavfli shikast yetkazilgan paytdan jinoyat tugallangan hisoblanadi va jinoiy javobgarlik vujudga keladi. Yetkazilgan shikastning nima bilan tugashi jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi. «Badanga yetkazilgan shikastlarning og'irlik darajasini aniqlash qoidalari»da badanga yetkaziladigan hayot uchun xavfli shikastlarning to'la ro'yxati berilgan.

Badanga yetkazilgan hayot uchun xavfli shikastlarni kvalifikatsiya qilish uchun bunday jinoyatlar subyektiv tomonining eng muhim belgilarini e'tiborga olish lozim. Bunday shikastlar yetkazilishining o'zi (ayniqsa, ko'krak qafasi, qorin, bosh suyagiga hayot uchun xavfli jarohat yetkazish) shundan dalolat beradiki, jinoyatchining jabrlanuvchiga, nafaqat, og'ir jarohat yetkazilishi, balki uning o'lishi mumkinligiga ko'zi yetadi. Badanga hayot uchun xavfli bo'lgan shikast yetkazishni odam o'ldirishga suiqasd qilishdan farqlash zarur.

Aybdor badanga hayot uchun xavfli bo'lgan og'ir shikast yetkazayotganida jabrlanuvchini o'ldirib qo'yishi mumkinligini, nafaqat, anglagan va shunday bo'lishi ehtimoli borligini faraz qilgandagina emas, balki shunday oqibatlar yuz berishini xohlagan, ya'ni boshqa odamni o'ldirishga qaratilgan to'g'ri qasd bilan harakat qilgandagina uning qilmishi qasddan odam o'ldirish, deb kvalifikatsiya qilinishi lozim.

To'g'ri qasd odam o'ldirishga qaratilmagan bo'lsa, qasddan badanga hayot uchun xavfli bo'lgan shikast yetkazish sifatida Jinoyat kodeksining 104-moddasi, 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Sodir etilgan qilmishni badanga hayot uchun xavfli shikast yetkazish, deb to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun jinoyatning

subyektiv tomonini sinchiklab tahlil etish, jinoyat motivining xususiyatini va u nimaga qaratilganini aniqlash talab qilinadi.

Kishi a'zosining ishdan chiqishi yoki uning faoliyatini butunlay yo'qolishiga sabab bo'lgan badanga og'ir shikast yetkazish. Yuqorida keltirilgan «Qoidalar»ga binoan, badanga og'ir shikast yetkazishlar jumlasiga kishi a'zosining ishdan chiqishi yoki uning faoliyati yo'qolishi alomati sifatida qo'l, oyoq funksiyalari, eshitish, so'zlash, nasl qoldirish qobiliyatining ishdan chiqishi yoki tamoman yo'qotilishi kiradi.

A'zoning ishdan chiqishi deganda, insonning hayot faoliyatida organizmining faqat o'zigagina xos bo'lgan vazifani bajaradigan har qanday, shu jumladan, juft a'zoning (ichki, tashqi) ishdan chiqishi tushuniladi. Amaldagi qonunga muvofiq, og'ir tan jarohatlarining bu turiga:

a) *ko'rish qobiliyatini yo'qotish* – har ikki ko'zning batamom ko'rmay qolishi yoki ko'rish qobiliyatining 2 metr va bundan kam masofada barmoqlarni sanay olmaydigan darajada pasayishi (ko'rish o'tkirligi 0,04 va past). Bitta ko'zning ko'r bo'lib qolishi ham mehnat qobiliyatini uchdan bir qismini barqaror yo'qotish singari og'ir tan jarohatlari jumlasiga kiradi;

b) *eshitish qobiliyatini yo'qotish* – to'la karlik yoki shunday tuzalmas holat, bunda jabrlanuvchi quloq chanog'idan 3–5 sm masofadagi og'zaki so'zlashuvni eshitmaydi. Bitta quloqning kar bo'lib qolganligini a'zo faoliyatining butunlay yo'qotilgan deb e'tirof etilmaydi va u umumiy mehnat qobiliyatining 15 % yo'qotilishiga tenglashtirilishi bois, o'rtacha og'ir tan jarohati, deb hisoblanadi;

d) *so'zlash qobiliyatini yo'qotish* – jabrlanuvchida o'z fikrlarini atrofdagilar uchun tushunarli, birikkan tovushlar bilan ifodalash imkoniyati yo'qligini, shuningdek, so'zlash qobiliyati odam organizmining bir qismi sifatida yo'qotilishini bildiradi;

e) *qo'l yoki oyoqni yo'qotish* – tanadan ularning ajralib ketishi yoki ularning o'z vazifasini bajarish qobiliyatidan mahrum bo'lishi; bunda jabrlanuvchi shu a'zolaridan foydalanish imkoniyatini batamom yo'qotadi (oyoq tayanch yoki harakat faoliyatini yo'qotadi, qo'l ishlamay qoladi). Qo'lni tirsak, oyoqni tizzadagi past bo'lmagan darajada kesib tashlash ularni yo'qotish, deb hisoblanadi. Qolgan barcha hollar qo'l yoki oyoqning bir qismini yo'qotish, deb qaraladi va ular mehnat qobiliyatining qay darajada yo'qotilganligiga qarab baholanmog'i lozim;

f) *nasl qoldirish qobiliyatini yo'qotish* – jinsiy aloqa qilish qobiliyatini yo'qotishdan yoki urug'lanish, homilador bo'lish va bola tug'ish qobiliyatini yo'qotishdan iborat. Shaxsning tashqi jinsiy a'zolari shikastlanishi oqibatida rosmiyan jinsiy aloqa qilish qobiliyati yo'qolsa yoxud ayol bachadon, tuxumdon yoki naychalar shikastlanishi oqibatida homilador bo'lish, homilani normal olib yurish va ko'zi yorish imkoniyatidan mahrum bo'lsa, shikast og'ir, deb topiladi. Erkaklarda nasl qoldirish qobiliyatini yo'qotish urug'lantirish qobiliyatini yo'qotishda namoyon bo'ladi.

Homilaning tushishi. Homilaning tushishi og'ir tan jarohatlari jumlasiga kiradi, chunki uning, hatto tibbiyot muassasasida tushishi homilador ayolning sog'lig'i yoki hayoti uchun xavflidir.

Homila zo'rlik ishlatilishi natijasida tushganida esa, bu xavf yanada oshib ketadi. Bundan tashqari, homilaning tushishi natijasida ayol onalikdan mahrum bo'ladi, homila nobud bo'ladi, hayot uziladi, ayol vujudiga og'ir ziyon yetadi. Bunday qilmish tufayli ayolga jiddiy ma'naviy, ruhiy ziyon yetkaziladi va bu hol uning ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi. Homilaning tushishi nafaqat jismoniy, balki ruhiy zo'rlik ishlatish (hujum tufayli qattiq qo'rqish, cho'chish va h.k.) natijasida ham sodir bo'lishi mumkin.

Homiladorlik muddati jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatsizdir. Biroq, har bir muayyan holda aybdorning qasdi jabrlanuvchining homilasi tushishi mumkinligini qamrab olganligini aniqlash zarur.

Shubhasiz, ayolning homilasi katta bo'lsa va homiladorlik alomatlari ochiq-oydin uning gavdasida ko'rinib turgan bo'lsa, qilmishni kvalifikatsiya qilish qiyinchilik tug'dirmaydi. Ammo jabrlanuvchining homilasi kichkina bo'lsa va aybdor bundan bexabar bo'lsa, homilaning tushishida uni aybdor, deyish mumkin emas. Bunday holatlarda aybdor jabrlanuvchining sog'lig'iga yetkazilgan aniq shikast uchun javob berishi kerak.

Badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishi. Bu alomatni estetik xususiyatga ega, deyish mumkin. Aksariyat hollarda yetkazilgan shikast oqibatida badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishi sog'liqqa

jiddiy zarar yetkazmasa-da, u odamni juda badbashara, xunuk qilishi natijasida jabrlanuvchi ma'naviy qattiq azob chekadi. Bunday shikastlar shaxsning jamoatchilik bilan aloqalari uzilib qolishi xavfini tug'diradi. Jabrlanuvchilar tashqi qiyofasidan uyalib, do'stlari, yaqinlari, qarindoshlari bilan aloqa qilmay qo'yadilar, mehnat va boshqa faoliyatlarini keskin qisqartiradilar, ko'pincha ishlamay qo'yadilar, spirtli ichimliklarga, giyohvandlikka beriladilar, bundan taskin topganday bo'ladilar va ba'zan daydilik, tilanchilik bilan shug'ullanib, darbadarlikda kun kechira boshlaydilar. Bunday shaxslar ko'pincha jinoyat sodir etadilar.

Badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishi deganda, tananing ayrim qismlari (quloq, burun va lablar)ning olib tashlanishi yoki yuzning notekis bo'lib qolishi, mimikaning buzilishi, yuzda chuqur chandiqlar, tirtiqlar qolishi, qaltiroqning paydo bo'lishi va h.k. tushuniladi. Badanning xunuklashishi, basharti, tuzalmaydigan bo'lsa, og'ir tan jarohati, deb topiladi.

Shikastning tuzalishi deganda, vaqt o'tishi bilan yoki tibbiy vositalar ta'sirida yo'qolib ketadigan patologik o'zgarishlar (chandiqlar, tirtiqlar, mimika buzilishlari va h.k)ning ancha kamayib borishi tushuniladi. Agarda, ularni yo'qotish uchun tezkor aralashuv (kosmetik operatsiya) talab qilinsa, badanga yetkazilgan *shikast tuzalmaydigan*, deb hisoblanadi.

Tuzalmaydigan xunuklashishning tibbiy mezonini tasdiqlash sud-tibbiyot eksperti vakolatiga kiradi. Biroq, ekspert faqat xunuklashish hodisaning mavjudligi haqida xulosa berishga vakolatli emas. Chunki bu tibbiy emas, balki estetik tushunchadir. Shu bois badanga yetkazilgan shikast badanni xunuklashtirishi yoki xunuklashtirmasligi masalasi taraflar ishtirokida va shikastlarning xususiyati, joylashuvi, tuzalmaslik darajasi hisobga olinib va umumiy qabul qilingan estetik tasavvurlar asosida sudning faqat ichki ishonchigagina asoslangan holda hal etiladi. Aynan sud obyektiv ravishda, jabrlanuvchining shikast yetkazilmasdan oldingi va keyingi qiyofasini taqqoslash yo'li bilan badanning xunuklashganligini aniqlashi kerak.

Jinoyat kodeksining 104-moddasida badanga og'ir shikast yetkazilganlik natijasida ruhiy kasalga chalinish ko'rsatib o'tilgan, bunda jabrlanuvchi odatda o'zi qilayotgan harakatlarning xususiyatini anglash qobiliyatini yo'qotadi va odamlar bilan muloqot qilishdan mahrum bo'ladi.

Ruhiy (psixik) kasallik – normal ruhiy faoliyatning buzilishi bo'lib, u shaxsning atrofdagi voqelikni to'g'ri idrok etish va o'z xulq-atvorini nazorat qilish layoqatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu idrok, tafakkur, xotira, hissiyot, diqqat-e'tibor, iroda, qiziqish va yurish-turishning izdan chiqishida namoyon bo'ladi.

Ruhiy kasallik doimiy yoki vaqtinchalik bo'lishi mumkin. Ruhiiy kasallik tashxisi va uning yetkazilgan jarohatlar bilan bog'liqligi ruhiy-psixiatrik ekspertiza o'tkazib aniqlanadi. Bunday shikastlanishning og'irlik darajasi sud-tibbiyot ekspertining ishtirokida aniqlanadi.

Garchi, badanga yetkazilgan shikast hayot uchun xavfli bo'lmasa yoki a'zo ishdan chiqmasa-da, jabrlanuvchi umuman sog'liqning buzilishi natijasida mehnat qobiliyatining o'ttiz uch foizidan kam bo'lmagan qismini doimiy yo'qotsa, badanga og'ir shikast yetkazish, deb hisoblanadi.

Mehnat qobiliyatining yo'qotilishi turg'un bo'lishi kerak, deyilganida, mehnat qobiliyatini doimiy yoki nomuayyan uzoq muddatga yo'qotilishi tushuniladi. Bolalarda mehnat qobiliyatining yo'qotilishi «Qoidalar»da belgilab qo'yilgan umumiy qoidalardan kelib chiqqan holda, katta yoshli shaxslarniki singari, nogironlarniki esa, nogironligi va uning guruhidan qat'iy nazar, amaliy jihatdan sog'lom kishilarniki singari aniqlanadi.

Badanga og'ir shikast yetkazganlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar. Jinoyat kodeksining 104-moddasi, 2-qismida quyidagi og'irlashtiruvchi holatlar:

- 1) homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan;
- 2) o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsga yoki uning qarindoshlariga nisbatan;
- 3) o'ta shafqatsizlik bilan;
- 4) ommaviy tartibsizliklar jarayonida;
- 5) tamagirlik niyatida;
- 6) millatlararo yoki irqiy adovat zamirida;
- 7) diniy taassublar zamirida;
- 8) kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) maqsadida;

9) bir guruh shaxslar tomonidan qasddan sodir etilgan badanga og'ir shikast yetkazganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Jinoyat kodeksining 104-moddasi, 3-qismida:

- 1) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;
- 2) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari ushbu kodeksning 97-moddasida nazarda tutilgan tarzda qasddan odam o'ldirgan shaxs tomonidan;
- 3) o'ta xavfli retsivist tomonidan;
- 4) uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoki shu guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan;
- 5) jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan qasddan badanga shikast yetkazganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Jinoyat kodeksining 104-moddasi, 2 va 3-qismlarida ko'rsatilgan javobgarlikni og'irlashtiruvchi barcha holatlarni hayotga qarshi jinoyatlarni tahlil qilinganida ko'rib chiqilgan edi. Shu bois ulardan faqat bittasini – jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan *qasddan badanga og'ir shikast yetkazishni* tahlil qilamiz.

Jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, avvalo, jabrlanuvchiga og'ir tan jarohati yetkazishni ko'zda tutadi, ya'ni qilmishni bunday, deb topish uchun Jinoyat kodeksining 104-moddasida ko'rsatilgan alomatlardan kamida bittasi mavjud bo'lishi kerak. Jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan zarbalar berilgan, u do'pposlangan, badaniga yengil shikastlar yetkazilgan hollarda, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 102-moddasi (ehtiyotsizlikdan odam o'ldirish) bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Agarda, jabrlanuvchining badaniga u yoki bu holatlar oqibatida uning o'limiga sabab bo'ladigan o'rtacha og'ir shikastlar yetkazilgan bo'lsa, aybdor Jinoyat kodeksining 105-moddasi va 102-moddasiga ko'ra, jinoyatlarning jami bo'yicha javobgar bo'ladi

Ko'rib chiqilayotgan jinoyat va qasddan odam o'ldirishni farqlash ancha qiyin, chunki bu jinoyatlarning obyektiv tomoni o'xshashdir. Har ikki holatda ham jabrlanuvchining badaniga og'ir shikast yetkaziladi va bir xil oqibat – jabrlanuvchining o'limi yuz beradi. Bu jinoyatlar, odatda, bir xil usulda o'xshash qurollar qo'llanilgan holda sodir etiladi. Ko'pincha bu ikki jinoyat subyektiv tomonining motivi (rashk, bezorilik tuyg'usi, o'ch olish va h.k.) ham mos keladi.

Qasddan odam o'ldirishda bo'lgani singari aybdorning qilmishini Jinoyat kodeksining 104-moddasi, 3-qismi bilan kvalifikatsiya qilish uchun badanga yetkazilgan og'ir shikast va yuz bergan o'lim o'rtasida sababiy bog'lanish mavjudligini aniqlash zarurdir.

Mazkur jinoyatlarni farqlash uchun jabrlanuvchining o'limi yuz bergan vaqt emas, balki aybdorning yuz bergan oqibatlarga ruhiy munosabati hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 104-moddasi, 3-qismida javobgarlik belgilangan jinoyatning subyektiv tomoni o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va badanga yetkazilgan shikast va yuz bergan o'limga nisbatan aybni alohida-alohida aniqlashni talab qiladi, ya'ni bu yerda aybning murakkab shakli mavjud bo'ladi.

Jinoyat kodeksining 104-moddasi, 3-qismida nazarda tutilgan jinoyat murakkab, tarkiblidir. Bu yerda ikkita jinoyat – qasddan badanga og'ir shikast yetkazish va ehtiyotsizlikdan odam o'ldirish bitta tarkibga birlashtirilgan. Shu munosabat bilan, basharti, aybdor shaxsning badanga og'ir shikast yetkazishi to'g'ri yoki egri qasd bilan sodir etilgan va ehtiyotsizlikdan o'lim ro'y bergan bo'lsa, bunda uning qilmishi jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan badanga og'ir shikast yetkazish sifatida Jinoyat kodeksining 104-moddasi, 3-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Demak, badanga jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan og'ir shikast yetkazish va qasddan odam o'ldirish tarkiblarini faqat aybdor qasdining mazmuni va yo'nalishiga qarab farqlash mumkin. Agar aybdorning qasdi jabrlanuvchini o'ldirishga qaratilgan yoki bunday oqibatlarining ro'y berishi uning qasdi doirasiga kirgan bo'lsa, uning qilmishi Jinoyat kodeksining qasddan odam o'ldirganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar bilan kvalifikatsiya qilinmog'i lozim.

Aybdor qasdining mazmuni haqidagi masalani hal qilishda, sudyalar sodir etilgan jinoyatning barcha holatlaridan kelib chiqishlari va, xususan, jinoyatni sodir etish usullari va qurollarini, jarohatlar miqdori, xususiyati va joylashuvini, insonning hayoti uchun muhim bo'lgan a'zolariga yetkazilgan boshqa shikastlarni,

jinoiy qilmishlarning to'xtatilishi sabablarini va boshqa shu singarilarni, shuningdek, aybdor va jabrlanuvchining bundan oldingi xulq-atvorini, ularning jinoyat sodir etilishiga qadar bo'lgan o'zaro munosabatlarini inobatga olishlari kerak.

*D. Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish
(Jinoyat kodeksining 105-moddasi)*

Badanga yetkazilgan o'rtacha og'ir shikastlar og'ir shikastlardan, avvalo, shunisi bilan farqlanadiki, ular hayot uchun xavfli bo'lmaydi va odatda ular tufayli o'lim yuz bermaydi. Yuqorida bayon etilganlar badanga yetkazilgan o'rtacha og'ir shikastlarning zaruriy belgisi hisoblanadi. O'rtacha og'ir tan jarohatlari odamning sog'lig'iga ancha ziyon yetkazishi mumkin, lekin ular a'zoning yo'qotilishiga yoki og'ir tan jarohatlariga xos bo'lgan boshqa oqibatlariga sabab bo'lmaydi.

Badanga yetkazilgan o'rtacha og'ir shikastlarning asosiy belgilari quyidagilardir:

- 1) sog'liqning uzoq vaqt, ya'ni kamida yigirma bir kun, ammo to'rt oydan ko'p bo'lmagan davrga yomonlashuvi;
- 2) umumiy mehnat qobiliyatining o'n foizidan o'ttiz uch foizigacha yo'qotilishi.

Amaliyotda sog'liqning yomonlashuvi qancha davom etganligi mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi asosida, ko'pincha esa, jabrlanuvchining kasalxonada yotib davolanishi qancha davom etgani haqidagi ma'lumotnoma asosida ham aniqlanadi. Ammo bu unchalik to'g'ri emas, chunki bu hujjatlarda badanga yetkazilgan shikast tufayli sog'liqning yomonlashuvi qancha davom etganligi hamisha ham to'g'ri qayd etilmaydi. Negaki, kasallik varaqasi bilan tasdiqlangan mehnatga qobiliyatsizlikning davom etish muddati hamisha ham yetkazilgan shikast bilan bog'liq bo'lavermaydi va boshqa holatlar: bir vaqtda qo'zg'algan boshqa kasallik, jabrlanuvchining kasbiy xususiyatlari (oshpaz, qandolatchining qo'lida chaqa joylar borligi va h.k.) bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Aksincha, jabrlanuvchining o'z iltimosiga ko'ra, kasallik varaqasi barvaqt yopilib, u to'la sog'aymasdan ishga chiqib ketishi ham mumkin. Shu sababdan sog'liqning uzoq vaqt yomonlashuviga olib kelgan aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 105-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinganida, sog'liqning yomonlashuv muddati Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq, sud-tibbiyot ekspertizasi xulosasi asosida aniqlanmog'i lozim.

Umumiy mehnat qobiliyatining o'n foizidan o'ttiz uch foizigacha yo'qotilishi badanga yetkazilgan o'rtacha og'ir shikastning mustaqil belgisi hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 105-moddasi, 2-qismida javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan (Jinoyat kodeksining 104-modda tahliliga qarang).

Jazoni yengillashtiruvchi holatlarda badanga shikast yetkazganlik uchun javobgarlik masalalari. Yengillashtiruvchi holatlarda sodir etilgan badanga shikast yetkazishlar jumlasiga kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish (Jinoyat kodeksining 106-moddasi); zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga shikast yetkazish (Jinoyat kodeksining 107-moddasi); ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, badanga qasddan og'ir shikast yetkazish (Jinoyat kodeksining 108-moddasi) kiradi.

*E. Qiynash
(Jinoyat kodeksining 110-moddasi)*

Qiynashning bevosita obykti jabrlanuvchining sog'lig'i yoki jismoniy daxlsizligi hisoblanadi. Obyektiv tomondan jinoyat muttasil ravishda do'pposlashda yoki boshqacha harakatlar bilan qiynashda ifodalanadi, bunda Jinoyat kodeksining 104, 105-moddalarida nazarda tutilgan oqibatlar kelib chiqmagan bo'lishi kerak.

Qiynashlar ko'p marotaba yoki uzoq vaqt davomida og'riq yetkazish bilan bog'liq harakatlar, chimchilash, savalash, to'mtoq yoki o'tkir uchli narsalar bilan ko'plab, ammo uncha katta bo'lmagan shikastlar yetkazish, qizdirilgan buyumlar bilan ta'sir ko'rsatish yoki boshqa shunga o'xshash harakatlardir. Qiynash jabrlanuvchiga og'ir jismoniy va ruhiy azob, og'riq, aziyat yetkazadi.

Qiynashda muttasillik jinoyatni uch karra va bundan ortiq marta sodir etishdan iborat bo'lib, bu harakatning doimiyligidan, takroriyligidan dalolat beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, muttasillik shunchaki ayni bitta jinoyiy qilmish takrorlanishinigina emas, balki uning harakatlarida muayyan umumiy reja namoyon bo'lishini yoki aybdorning muayyan jinoyiy ko'nikmalari mustahkamlanib borishini kuzatish mumkin bo'lgan bir qator harakatlarning mavjud bo'lishini nazarda tutadi – uning bir necha bor takrorlangan jinoyiy qilmishlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak.

Muttasil ravishda do'pposlash, deganda nimani tushunmoq lozim? Qiynashning bir turi sifatida, muttasil do'pposlashda, aybdorning sodir etgan harakatlari jabrlanuvchiga qattiq og'riq va azob berishini anglashidan iborat bo'lgan umumiy belgi mavjud bo'lishi lozim. Shu tariqa, qasddan badanga yengil shikast yetkazish, muttasil ravishda do'pposlash, boshqa zo'ravonlik harakatlarini amalga oshirish qiynashning usullari bo'lib, tahlil qilinayotgan jinoyat obyektiv tomonining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Qiynashni sodir etishda aybdor aynan shunday usulni ongli ravishda tanlaydiki, bunda u o'zi xohlagan oqibatlariga – jabrlanuvchiga juda qattiq og'riq yetkazishga yoki uni azob-uqubatga solishga erishadi. Do'pposlash va shikast yetkazishlarning usuli, vositasi muayyan doiradan chetga chiqmasligi, ularning xususiyati – bularning barchasi aybdorning niyati o'z qurboniga o'ziga xos jismoniy og'riq yetkazishga yoki uni azob-uqubatga solishga qaratilganligidan dalolat beradi. Yuqoridagi aytilgan fikrlar qiynash muttasil ravishda va bir marta sodir etilishi mumkin, deb xulosa qilish imkonini beradi.

Shu tariqa «qiynash» tushunchasi muttasil do'pposlashlar, jabrlanuvchiga qattiq qiynoq, jismoniy og'riq va azob beradigan bir necha martalik yoki bir martalik harakatlardan iboratdir. Qiynash natijasida badanga yengil shikast yetkazilishi yoki yetkazilmasligi ham mumkin. Agar jabrlanuvchiga bunday shikastlar yetkazilgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksining 110-moddasi bilan qamrab olinadi va qo'shimcha kvalifikatsiyani talab qilmaydi. Agar qiynash natijasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilgan bo'lsa, jinoyat Jinoyat kodeksining 104-moddasi yoki 105-moddasining tegishli bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Jinoyat do'pposlash yoki boshqacha harakatlar bilan muttasil ravishda qiynash sodir etilgan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan, deb topiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Qilmishning motivi va maqsadi jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyat kasb etmaydi. Ushbu jinoyatning subyeksi 16 yoshga to'lgan aqli raso har qanday jismoniy shaxs hisoblanadi.

Ko'rib chiqilayotgan moddaning 2-qismida:

- 1) voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;
- 2) homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan;
- 3) ojiz ahvoldagi aybdorga ayon bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan qiynash uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Aybdorning qilmishini Jinoyat kodeksining 110-moddasi, 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilish uchun aybdor qiynashni sodir etishidan oldin ayolning homiladorligini bilganligini aniqlash zarur. Homiladorlik muddatlari jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas. Ojiz ahvoldagi shaxsni qiynagan shaxsni javobgar, deb topish uchun aybdor jabrlanuvchining ojiz ahvoldaligini aniq bilgan yoki bilmaganligini aniqlash lozimdir.

1. Badanga shikast yetkazish jinoyatining tarkibi va bu qilmish uchun jinoyiy javobgarlikka tortilish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni tushuntiring.
2. Badanga yetkazilgan shikast darajasini aniqlashning mezoni va jinoyatning huquqiy asoslarini tushuntirib bering.
3. Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, ularning belgilari va javobgarlik masalasi (javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar).
4. Jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazishning qasddan odam o'ldirishdan farqi.
5. Jabrlanuvchining o'limiga olib kelgan qasddan badanga shikast yetkazishning ehtiyotsizlikdan odam o'ldirishdan farqi.
6. Qaysi holatlarda qasddan badanga (o'rtacha og'ir) shikast yetkazganlik uchun jinoyiy javobgarlik istisno qilinadi?
7. Javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazishning belgilari va jinoyiy javobgarlikka tortish asoslari.

8. Qasddan badanga yengil shikast yetkazishning og'ir va o'rtacha og'ir shikast yetkazishlardan farqi nimalardan iborat?
9. Qiynashning o'ziga xos belgilarini bayon eting.
10. Qiynashning takroran qasddan badanga yengil, o'rtacha og'ir va og'ir shikast yetkazishdan farqi nimada?
11. Jinoyat kodeksining 111-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari va bu qilmish uchun javobgarlik masalasi (ehtiyotsizlikdan badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish).

1.4. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar tushunchasi, turlari va ularning yuridik tahlili

Ushbu bo'limdagi moddalar mazmuni bilan tanishish ularning barchasida hayot yoki sog'liq uchun chinakam xavf tug'diruvchi, sodir etilganidan keyin zarar yuz berishining oldini olish aybdorning o'ziga bog'liq bo'lmagan qilmishlar uchun javobgarlik nazarda tutiladi, deb xulosa qilish imkonini beradi.

Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar

- O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish (Jinoyat kodeksining 112-moddasi).
- Tanosil yoki OITS kasalligini tarqatish (Jinoyat kodeksining 113-moddasi).
- Jinoiy ravishda homila tushirish (abort) (Jinoyat kodeksining 114-moddasi).
- Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash (Jinoyat kodeksining 115-moddasi).
- Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik (Jinoyat kodeksining 116-moddasi).
- Xavf ostida qoldirish (Jinoyat kodeksining 117-moddasi).

A. O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish (Jinoyat kodeksining 112-moddasi)

Ushbu jinoyatning bevosita obyekti shaxsning hayoti yoki sog'lig'idir. Obyektiv tomondan jinoyat o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishda, bu harakat amalga oshirilishidan xavfsirash uchun yetarli asoslar mavjud bo'lishida ifodalanadi.

Bunda qo'rqitishning ikki belgisi yaqqol ko'rinadi:

- 1) qo'rqitishning o'zi;
- 2) qo'rqitish amalga oshirilishidan xavfsirash uchun asos beruvchi muayyan holatlarning mavjudligi.

O'ldirish bilan qo'rqitishning aniqlash darajasi turlicha bo'lishi mumkin: aybdor o'ldirish usuli, quroli haqida aytib o'tmasligi mumkin, balki jabrlanuvchida qo'rquv tuyg'usini kuchaytirishga intilib, o'ldirishning qaysi usuli va qurolidan foydalanish niyatida ekanligini, bo'lajak qiynoqlar, azoblar va h.k. haqida aytishi mumkin.

O'ldirish bilan qo'rqitish deganda, boshqa kishini o'ldirish niyati borligi haqida xabardor qilishni tushunmoq lozim.

Jinoyat kodeksining 112-moddasi, 1-qismida nazarda tutilgan qo'rqitishning ikkinchi turi – zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishdir. Zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish deganda, aybdorda jabrlanuvchining sog'lig'iga shikast yetkazish niyati borligi tushunilmog'i lozim. Jinoyat kodeksining 112-moddasi matnida qanday zo'rlik ishlatish haqida hech nima aytilmagan. Shu sababdan, Jinoyat kodeksining 112-moddasida har qanday zo'rlik ishlatish uchun javobgarlik belgilangan, deb o'ylash lozim.

Qo'rqitish jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatishdan iborat bo'lishi mumkin. Jismoniy zo'rlik ishlatish odam organizmiga uning ra'yiga xilof ravishda tashqi omillari bilan g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatishdir.

Jismoniy zo'rlik jumlasiga badanga har qanday darajadagi – og'ir, o'rtacha og'ir yoki yengil shikast yetkazish kiradi. Ammo, umuman olganda, zo'rlik bilan qo'rqitish jismoniy daxlsizlikka nisbatan bo'ladigan har qanday zo'ravonlik tajovuzini sodir etish haqida bildirilgan niyatni ham qamrab oladi, chunonchi do'p-poslash yoki boshqacha harakatlar bilan qiynash qo'rqitish bilan qamrab olinadi (Jinoyat kodeksining 110-moddasi).

Qo'rqitish mustaqil jinoyat sifatida bir qator shartlarga javob berishi kerak: birinchidan, u haqiqatan mavjud bo'lishi kerak, ya'ni umuman olganda, yaqin vaqtda amalga oshirilishi mumkin bo'lishi lozim. Amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan yoki ro'yobga chiqarilishi faraz qilingan holatlar yuz berishi mumkin bo'lgan qo'rqitishni haqiqiy, deb topish mumkin emas. Masalan, odamni uning borish niyatida bo'lmagan u yoki bu shaharda, qishloqda paydo bo'lsa, o'ldirish bilan qo'rqitish. Shuningdek, hali umuman turmushga chiqish niyatida bo'lmagan ayolni bo'lg'usi erini o'ldirish bilan qo'rqitish ham real emas.

Qo'rqitish tayin bo'lishi, ya'ni jabrlanuvchiga muayyan zarar yetkazish niyatini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. «Ovozingni o'chir, aks holda, yomon bo'ladi», «afsuslanasan», «ko'radiganingni ko'rasan» singari noaniq tusdagi qo'rqitishlar javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin emas, chunki ular aniq bir zarar yetkazish niyatini o'z ichiga olmaydi. Albatta, bu aybdor jabrlanuvchiga qanday zarar yetkazmoqchi bo'lganini, ya'ni ko'zni o'yib olish, yuzini jarohatlash, bichib qo'yish kabi shikast yetkazmoqchiligini mutlaqo aniq aytishi kerakligini bildirmaydi. Odatda, qo'rqitish unchalik aniq bo'lmagan ma'lumotlarni o'z ichiga olmaydi. Ammo nima bo'lganda ham, agar so'z o'ldirish bilan qo'rqitish haqida borayotgan bo'lsa, odamni o'ldirishga bo'lgan muayyan niyati muayyan so'zlarda ifodalangan bo'lishi kerak.

Jinoiy jazoga loyiq qo'rqitish aniq bir shaxsga qaratilgan bo'lishi lozim. «Hammaningni so'yaman», «hammaningni o'ldiraman» kabi umumiy tusdagi, biron-bir kishiga aniq qaratilmagan qo'rqitishlar shaxsni Jinoyat kodeksining 112-moddasi bilan javobgarlikka tortish uchun asos bo'la olmaydi.

Qo'rqitishning zaruriy belgisi uning haqiqiyligidir. Jinoyat kodeksining 112-moddasida qo'rqitishning haqiqiyligi uning amalga oshirilishidan xavfsirash uchun yetarli asoslar mavjud bo'lishi bilan asoslanadi. Jabrlanuvchiga amalga oshirilishidan xavfsirash uchun asos bo'ladigan qo'rqitish haqiqiy, deb topilmog'i lozim. Jabrlanuvchida qo'rqitishning amalga oshirilishidan xavfsirash uchun asoslar mavjud yoki mavjud emas, degan masalani hal qilishda aybdor aytgan so'zlarning mazmunini, qo'rqitishga sabab bo'lgan mojaroning jiddiylikini, keskinligini, qo'rqituvchi va qo'rqitiluvchi o'rtasida vujudga kelgan munosabatlar xususiyatini hisobga olish kerak. Qo'rqitishning jabrlanuvchi tomonidan idrok etilishiga vaziyat ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, hech kimdan yordam olish mumkin bo'lmagan xilvat joyda, subyektning harakatlari natijasida atrofdagilarning ochiq-oydin uni qo'llab-quvvatlashi va boshqa shu singari holatlarda bo'lishi mumkin.

Qo'rqitish, ya'ni tahdid qilish usullari har xil bo'lishi mumkin. Ko'pincha u kimga qaratilgan bo'lsa, bevosita o'shanga og'zaki aytiladi. Lekin u yozma ravishda (xat orqali), telefon, telegraf orqali, qurolni yoki uning o'rnini bosuvchi narsani ko'rsatish yo'li bilan, ramziy belgilar orqali, biron-bir narsani unga o'qalib, badaniga pichoq tirab bildirilishi ham mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1996-yil 19-iyuldagi «Jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida»gi 16-qarorida: «Sodir etilgan jinoyatning jamiyat uchun xavfliligini baholashda muayyan jinoiy xatti-harakatni sodir etishdagi barcha holatlar (ayb shakli, jinoyatni sodir etish usuli, sababi, vaziyati va bosqichi, kelib chiqqan oqibatning og'irligi, jinoyat ishtirokchilaridan har birining ishtiroki darajasi va xususiyati va h.k.) majmuyiga asoslanmoq kerak. Sudlanuvchining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar, ular jazoning turi va miqdorini belgilashda muhim ahamiyatga egaligi tufayli, har tomonlama va to'la tekshirilmog'i lozim»¹, deb tushuntirish berilgan.

Aybdor qo'rqitishning mazmuni (mohiyati) jabrlanuvchiga ma'lum bo'lishi uchun o'ziga bog'liq bo'lgan hamma narsani qilgan paytidan e'tiboran, qo'rqitish tamom bo'lgan jinoyat, deb topilishi lozim.

O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishning subyektiv belgilari. Subyektiv tomondan o'ldirish yoki kuch ishlatish bilan qo'rqitish qasddan sodir etiladi. Aybdor o'zga shaxsni qo'rqitayotganini, uning mazmunini va tahdidi jabrlanuvchiga ma'lum bo'lajagini va uning tomonidan haqiqiy, deb idrok etilishini anglagan bo'lishi kerak. Aybdorning tahdidini amalga oshirish niyatida bo'lganligi yoki jabrlanuvchini faqat cho'chitmoqchi bo'lganligi jinoyat tarkibi mavjud bo'lish uchun ahamiyati yo'q. Bu jinoyatning motivlari har xil bo'lishi mumkin. Bular tamagirlik, o'ch olish, g'azab, jabrlanuvchining muayyan harakatlarni sodir etishiga erishish istagi, shaxsan xush ko'rmaslik kabilardan iborat bo'lishi mumkin. Garchi, motiv jinoyat tarkibi doirasidan chetda tursa va jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmasa ham, ular qilmishning ijtimoiy xavfliligi darajasiga ta'sir qiladi va jazo tayinlashda hisobga olinishi kerak.

O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishning maqsadlarini aniqlash juda muhim. Aynan maqsadiga ko'ra, bu jinoyatni boshqa o'xshash ijtimoiy xavfli xatti-harakatlardan farqlash mumkin. Masalan, jabrlanuvchini jinoyatchiga mulkni topshirish, mulkiy manfaatlar berishga majbur qilish maqsadida qo'rqitish, tovlamachilikdan (Jinoyat kodeksining 165-moddasi), o'zganing mulkini talon-taroj qilish uchun zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishdan foydalanish – murakkab talonchilikdan (Jinoyat kodeksining 166-moddasi, 2-qismi), ayol bilan jinsiy aloqa qilish uchun zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish esa, nomusga tegishdan (Jinoyat kodeksining 118-moddasi) iborat bo'ladi.

Qo'rqitish jinoyatining subyektiv jinoyat sodir etilganga qadar 16 yoshga to'lgan, aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

B. Tanosil yoki OITS kasalligini tarqatish (Jinoyat kodeksining 113-moddasi)

Ushbu modda to'rt qismdan iborat bo'lib, jinoyatning obyektiv shaxsning sog'lig'i yoki hayotidir.

Jinoyat kodeksining 113-moddasi, 1-qismida bila turib, boshqa shaxsni tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Ushbu jinoyat obyektiv tomondan Jinoyat kodeksining 113-moddasi, 1-qismida nazarda tutilgan harakatlarda, ya'ni bila turib boshqa shaxsni tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirishda ifodalanadi.

Tanosil kasalliklari – zaxm, so'zak, pereloy, tripper, yumshoq shankr, moyaklar (jinsiy) limfogranulomatozi kabilar. Tanosil kasalligining xususiyati, uni davolash mumkinligi yoki kasallik tufayli yuz bergan oqibatlar jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi.

Bila turib, shaxsni tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirish o'zida tanosil kasalligi borligini bilgan shaxs tomonidan jabrlanuvchiga nisbatan shunday kasallikni yuqtirishi mumkin bo'lgan turli harakatlar sodir etishidan iborat. Yuqtirish xavfi ostida qoldirish aybdor tomonidan jabrlanuvchiga tegishli sharoitlarda kasallikni yuqtirish mumkin bo'lgan shunday harakatlar sodir etilishini nazarda tutadi, bunda kasallik faqat tasodifiy holatlar yoki jabrlanuvchi o'ziga yuqtirmaslik choralarni ko'rganligi tufayliga yuqmasligi mumkin.

Bila turib deganda, aybdorning o'zida tanosil kasalligi borligini bilgani holda jabrlanuvchini kasallikni yuqtirish xavfi ostida qoldirishi tushuniladi. Boshqa shaxsni tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirish usullari har xil. Masalan, jinsiy aloqa qilish, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish, turmushda, ishda gigiyena qoidalarining turlicha buzilishlari va h.k. bo'lishi mumkin.

Lekin ular jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi. Jabrlanuvchi o'zini tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida ixtiyoriy ravishda qoldirishi o'zida tanosil kasalligi borligini bilgan va jabrlanuvchini kasallikni yuqtirish xavfi ostida qoldirgan yoki unga yuqtirgan shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo'la olmaydi.

Jinoyat kodeksining 113-moddasi, 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat jabrlanuvchi kasallikni yuqtirish xavfi ostida qoldirilgan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan, deb topiladi, agar jabrlanuvchiga kasallik yuqsa, unda aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 113-moddasi, 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinmog'i lozim.

Subyektiv tomondan jinoyat faqat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi, ya'ni bila turib va oqibat ro'y berishini xohlab amalga oshiriladi.

Ushbu jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan va o'zining tanosil kasalligiga chalinganligini bilgan shaxs hisoblanadi. Aybdorning tanosil kasalligiga chalinganligini bilgan bo'lishi jinoyatni Jinoyat kodeksining 113-moddasi bilan kvalifikatsiya qilishning zaruriy shartidir.

Aybdor o'ziga tanosil kasalligi yuqqanligini bilmagan va bilishi mumkin bo'lmagan hollarda u Jinoyat kodeksining 113-moddasi bilan javobgarlikka tortilmaydi. Masalan, shifokor tahlilni tekshirib, tanosil kasalligiga chalinganligi taxmin qilingan bemorga uning sog'lomligini aytadi va «bemor» sog'lomligiga ishonib, jinsiy aloqa qiladi va natijada kasalini jabrlanuvchiga yuqtiradi. Bunday holda ham Jinoyat kodeksining 113-moddasida belgilangan javobgarlik vujudga kelmaydi.

Jinoyat kodeksining 113-moddasi, 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning obyektiv tomoni o'zida tanosil kasalligi borligini bilgan shaxsning bu kasallikni boshqa shaxsga yuqtirishida ifodalanadi. Agar jabrlanuvchiga tanosil kasalligi yuqtirilgan bo'lsa, shaxs Jinoyat kodeksining 113-moddasi, 2-qismi bilan javobgarlikka tortiladi, agar bunday oqibatlar yuz bermagan bo'lsa, aybdorning qilmishini Jinoyat kodeksining 113-moddasi, 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilish zarur.

Jinoyat kodeksining 113-moddasi, 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat jabrlanuvchiga tanosil kasalligi yuqtirilgan paytdan tamom bo'lgan, deb hisoblanadi. Biroq, barcha hollarda ham tanosil kasalligiga chalingan bemorning harakatlari bilan jabrlanuvchiga kasallik yuqtirilishi o'rtasidagi sababiy bog'lanish mavjudligini aniqlash zarur. Agar bunday bog'lanish bo'lmasa, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 113-moddasi, 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Mazkur jinoyatning subyekti o'zida tanosil kasalligi borligini bilgan har ikki jinsdagi shaxs bo'lishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 113-moddasi, 3-qismida:

- a) ikki yoki undan ortiq shaxsni;
- b) voyaga yetmagan shaxsni bila turib, tanosil kasalligini yuqtirish xavf ostida qoldirganlik yoki ularga kasallikni yuqtirganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Agar avval sodir etilgan tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirganlik yoki yuqtirganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish muddati o'tib ketmagan bo'lsa, aybdor ikki yoki undan ortiq shaxsni tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirgan yoki ularga yuqtirgan bo'lsa, bunday holda qilmish Jinoyat kodeksining 113-moddasi, 3-qismi, «a» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Boshqa hollarda jinoyatni yuqoridagi belgilarga ko'ra, kvalifikatsiya qilish uchun birinchi marta tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirganlik yoki yuqtirganlik bilan keyingi sodir etilgan qilmish oralig'ida qancha vaqt o'tganligining ahamiyati yo'q.

Jabrlanuvchi 18 yoshga to'lmagan hollardagina aybdorning harakatlari: voyaga yetmagan shaxsni bila turib, tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirishi yoki unga bu kasalni yuqtirishi Jinoyat kodeksining 133-moddasi, 3-qismi, «b» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Subyektiv tomondan Jinoyat kodeksining 113-moddasi, 3-qismida nazarda tutilgan jinoyat to'g'ri qasddan sodir etiladi.

Aybdorning qilmishini Jinoyat kodeksining 113-moddasi, 3-qismi bilan kvalifikatsiya qilishda uning bila turib 18 yoshga to'lmagan shaxsni tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirganligi yoki kasallikni yuqtirganligini yoki ongli ravishda bunga yo'l qo'yganligini aniqlash zarur. Aybdor voyaga yetmagan shaxsning yoshi xususida adashgan hollarda, uning qilmishini Jinoyat kodeksining 113-moddasi, 1 yoki 2-qismlari bilan kvalifikatsiya qilish kerak bo'ladi.

Jinoyat kodeksining 113-moddasi, 3-qismi, «a» bandida nazarda tutilgan jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan shaxs va o'zining tanosil kasalligini bilgan, 18 yoshga to'lgan shaxs bo'lishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 113-moddasi, 4-qismida bila turib, boshqa shaxsni OITS (orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi) kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirganlik yoki unga OITS kasalligini yuqtirganlik uchun javobgarlik belgilangan. OITS virusi jinsiy aloqa natijasida, ukol qilish uchun sterillanmagan shprislardan foydalanilganda, tarkibida virus bo'lgan donor qoni yoki dorilarni tomirga yuborish yo'li bilan, ona suti orqali va boshqa shu kabi manbalardan yuqtirilishi mumkin. Shuni esda saqlash kerakki, bunday kasallikka chalingan shaxsga, hozircha davo yo'q va bu kasallikka chalingan shaxs o'lim xavfidan xoli emas.

Ushbu kasalliklarning oldini olish va qarshi kurash masalalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 14-iyundagi «OITS bilan kasallanishning oldini olish to'g'risida»gi hamda 1999-yil 19-avgustdagi «Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishining (OITS kasalligining) oldini olish to'g'risida»gi Qonunlari qabul qilingan.

*D. Jinoiy ravishda homila tushirish (abort)
(Jinoyat kodeksining 114-moddasi)*

Hozirgi vaqtda respublikamizda abort man etilmaydi. Biroq, faqat davolash muassasalarida va tibbiy monelik bo'lmasagina, shunday operatsiyaning amalga oshirilishiga ruxsat etiladi.

Ushbu jinoyatning obyekti homilador ayolning (homilaning emas) hayoti yoki sog'lig'idir.

Obyektiv tomondan jinoyat shifokor akusher yoki ginekolog tomonidan davolash muassasalaridan tashqari joylarda yoki tibbiy mumkin bo'lmagan sun'iy ravishda homila tushirishda ifodalanadi.

Agar sun'iy ravishda homila tushirish (abort):

- 1) davolash muassasasidan tashqari joylarda amalga oshirilgan;
- 2) tibbiy mumkin bo'lmagan holda amalga oshirilgan bo'lsa, jinoiy ravishda amalga oshirilgan, deb topiladi.

Quyidagi hollarda:

a) og'ir yoki o'rtacha og'ir kechadigan so'zak, jinsiy a'zolarining yallig'lanish jarayonlari, joylashgan joyidan qat'iy nazar, yiring o'choqlari, og'ir kechadigan yuqumli kasalliklar va boshqa shu singarilar mavjudligida;

b) homilaning 12 haftalikdan katta ekanligida;

d) avvalgi abortdan keyin 6 oy o'tmasdan abort qildirish, shuningdek, abortni amalga oshirishga doir yo'riqnomada nazarda tutilgan boshqa holatlarning mavjudligi tibbiy nuqtayi nazardan abortni amalga oshirish mumkin emas, deb topilishiga asos bo'ladi.

Agar abort davolash muassasasidan tashqari joylarda amalga oshirilgan bo'lsa, tibbiy moneliklar bor yoki yo'qligidan qat'iy nazar, u jinoiy, deb topiladi. Homilaning sun'iy ravishda tushirish boshlangan paytdan e'tiboran abort tamom bo'lgan jinoyat, deb topiladi. Agar qilmish homilani tushirishga qaratilgan bo'lsa-yu, lekin abort aybdorning o'ziga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshirilmay qolsa, u jinoiy ravishda abortni amalga oshirishga suiqasd qilish sifatida Jinoyat kodeksining 25 va 114-moddalari bilan kvalifikatsiya qilinmog'i lozim.

Jinoiy ravishda homila tushirishda homiladorlik muddatlari jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi. Homila tushirish usullari turlicha (jarrohlik, mexanik, toksik, termik, medikamentoz va h.k.) bo'lishi mumkin va ular jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

Agar homila tushirish ayol sog'lig'iga shikast yetkazgan bo'lsa, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 114-moddasi bilan emas, balki qasddan badanga og'ir shikast yetkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksining 104-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Subyektiv tomondan jinoyat faqat to'g'ri qasddan sodir etiladi. Jinoyatning motivi va maqsadi uning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi. Ushbu jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan shaxs hisoblanadi. Agar jinoiy abort shifokor-akusher yoki ginekolog tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, aybdor Jinoyat kodeksining 114-moddasi, 1-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

Bunday qilmish abort qilish huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, jinoyat Jinoyat kodeksining 114-moddasi, 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Abortni amalga oshirish huquqiga ega bo'lmaganlar jumlasiga:

- 1) shifokor-akusherlar yoki ginekologlardan tashqari, barcha toifadagi shifokorlar, ya'ni oliy tibbiy ma'lumotli shaxslar;
- 2) o'rta tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar (akusherlar, tibbiyot hamshiralari va h.k.);
- 3) yoxud tibbiyotga hech qanday aloqasi yo'q boshqa shaxslar kiradi.

Agar abortni amalga oshirgan shaxs oxirgi zarurat holatida harakat qilgan bo'lsa (masalan, homilador ayolning hayoti xavf ostida qolgan taqdirda, davolash muassasasidan tashqari joyda yoki tibbiy mumkin bo'lmagan holda homila tushirilganda), jinoiy ravishda homilani tushirganlik uchun javobgarlik vujudga kelmaydi.

Homilasini o'zi tushirgan yoki jinoiy ravishda homilasi tushirilgan ayol Jinoyat kodeksining 114-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Agar homilani tushirish:

a) jabrlanuvchining o'limiga;

b) boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan bo'lsa, jinoiy ravishda homilani tushirishda aybdor harakatlari Jinoyat kodeksining 114-moddasi, 3-qismi bilan kvalifikatsiya qilinmog'i lozim.

Jinoiy ravishda homila tushirish natijasida vujudga keladigan boshqa og'ir oqibatlar jumlasiga: jabrlanuvchi salomatligining yo'qolishi, uning badaniga og'ir shikast yetishi (masalan, bola tug'ish qobiliyatini yo'qotish, bachadonni kesib tashlash), ruhiy faoliyatning buzilishi kabilar kiradi.

Aybdorning qilmishini Jinoyat kodeksining 114-moddasi, 3-qismi bilan kvalifikatsiya qilish uchun sodir etilgan jinoiy ravishdagi abort va jabrlanuvchining o'limi yoki boshqa og'ir oqibatlarining yuz berishi o'rtasidagi sababiy bog'lanish mavjudligini aniqlash lozim. Jinoyat subyekting shu oqibatlarga nisbatan aybi ehtiyotsizlikda ifodalanadi.

Agar jinoiy ravishda abortni sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsning jabrlanuvchining o'limi yoki boshqa og'ir oqibatlar yuz berishiga nisbatan egri yoki to'g'ri qasdi bo'lsa, bunday hollarda uning qilmishi jinoyatlar jami bo'yicha jinoiy ravishda homila tushirish va qasddan odam o'ldirish yoki qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, deb kvalifikatsiya qilinadi.

*E. Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda
tushirishga majburlash
(Jinoyat kodeksining 115-moddasi)*

Mazkur jinoyatning obyekti ayolning hayoti yoki sog'lig'idir. Obyektiv tomondan jinoyat ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash natijasida homilani sun'iy tushirilishida namoyon bo'ladi.

Majburlash deganda, homilador ayolga har qanday shaxs (eri, o'ynashi, qarindoshi va h.k.) tomonidan uni o'z xohishiga qarshi (masalan, nikoh yoki ishqiy munosabatlarini to'xtatish, moddiy yordamdan mahrum qilish bilan qo'rqitish va h.k. bilan) homilasini sun'iy ravishda tushirishga (abort qilishga) majbur etish uchun biron-bir usulda ta'sir ko'rsatish tushuniladi.

Faqat jinoiy bo'lmagan abortni sodir etishga majburlash Jinoyat kodeksining 115-moddasiga ko'ra kvalifikatsiya qilinadi. Aybdor ayolni jinoiy abortni sodir etishga majburlayotganini anglagan hollarda, uning qilmishini jinoiy ravishdagi abortni sodir etishga dalolat qilish, deb Jinoyat kodeksining 28, 114-moddalari bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyat homila sun'iy ravishda tushirilgan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan deb, topiladi. Agar aybdorning ayolni homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlashi natijasida uning sog'lig'iga zarar yetkazilgan bo'lsa (masalan, badaniga yengil, o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazgan bo'lsa), subyekting qilmishi jinoyatlarning jami bo'yicha Jinoyat kodeksining 115-moddasi va homilador ayolning sog'lig'iga ziyon yetkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Subyektiv tomondan jinoyat faqat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Jinoyatning motiv va maqsadi jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas. Ushbu jinoyatning subyekti ayolning homilasini sun'iy ravishda tushirishga majbur qilgan 16 yoshga to'lgan aqli raso shaxs, shuningdek, jabrlanuvchining homilasi tushirilishidan manfaatdor bo'lgan har qanday boshqa shaxslar bo'lishi mumkin.

1. O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish deganda nima tushuniladi?
2. Nimalar Jinoyat kodeksining 112-moddasidagi harakatlarni kvalifikatsiya qilishning eng zarur shartlari hisoblanadi?
3. Tanosil yoki OITS kasalligini tarqatganlik uchun shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishning asoslari nimadan iborat?

4. Jinoiy, sun'iy ravishda homila tushirish (abort) nima? Jinoiy, sun'iy ravishda homila tushirish (abort)ning og'ir oqibatlari qanday?
5. Jinoiy abortning qasddan badanga og'ir (o'rtacha og'ir) shikast yetkazish, homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga shikast yetkazish jinoyatlaridan farqlari.
6. Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majbur qilish deganda nima tushuniladi?
7. Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatini kvalifikatsiya qilishning qanday shartlari mavjud?
8. Xavf ostida qoldirish jinoyati uchun javobgarlikka tortish asoslari.
9. Xavf ostida qoldirishning kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatidan farqlari nimalardan iborat?

1.5. Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar

Jinoyat kodeksining «Shaxsga qarshi jinoyatlar» bo'limining beshinchi bobida oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi qaratilgan jinoyatlar va ular uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, ularga quyidagi jinoyatlar kiradi:

- Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (Jinoyat kodeksining 122-moddasi).
- Ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (Jinoyat kodeksining 123-moddasi).
- Bolani almashtirib qo'yish (Jinoyat kodeksining 124-moddasi).
- Farzandlikka olish sirini oshkor qilish (Jinoyat kodeksining 125-moddasi).
- Ko'p xotinli bo'lish (Jinoyat kodeksining 126-moddasi).
- Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish (Jinoyat kodeksining 127-moddasi).
- O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish (Jinoyat kodeksining 128-moddasi).

- O‘n olti yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish (Jinoyat kodeksining 129-moddasi).
- Pornografik narsalarni tayyorlash va tarqatish (Jinoyat kodeksining 130-moddasi).
- Fohishaxona saqlash yoki qo‘shmachilik qilish (Jinoyat kodeksining 131-moddasi).
- Tarix yoki madaniyat yodgorliklarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish (Jinoyat kodeksining 132-moddasi).
- Inson a‘zolari yoki to‘qimalarini ajratib olish (Jinoyat kodeksining 133-moddasi).
- Qabrni tahqirlash (Jinoyat kodeksining 134-moddasi).

*A. Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni
moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tovlash
(Jinoyat kodeksining 122-moddasi)*

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida: «Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyigidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta‘minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarni rag‘batlantiradi»; 65-moddasida esa, «Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat‘iy nazar, qonun oldida tengdirlar», deb ta‘kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga ko‘ra, ota-onalar voyaga yetmagan yoxud voyaga yetgan, ammo mehnatga layoqatsizligi tufayli moddiy yordamga muhtoj bo‘lgan farzandlarini boqishga majburdirlar. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 100-moddasi, 1-qismida «Ota-ona voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta‘minot berishi shartdir», deb ta‘kidlanadi.

Sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qaroriga ko‘ra moddiy yordamga muhtoj bolalarni yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni boqish uchun mablag‘ ota-onalardan yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslardan undirilishi lozim bo‘lgan, ammo ular moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tovlaganlarida ularni Jinoyat kodeksining 122-moddasi bilan javobgar qilinadilar.

Ushbu jinoyatning obyekti voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarning manfaatlari, ya‘ni ularning sog‘lig‘i, normal jismoniy rivojlanishi va sudning hal qiluv qaroriga muvofiq mablag‘ olish huquqiga ega shaxslarning moddiy ta‘minoti hisoblanadi.

Jinoyatning obyektiv tomoni sudning hal qiluv qaroriga muvofiq moddiy yordamga muhtoj bo‘lgan voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz shaxslarni boqish uchun undiriladigan mablag‘larni jami uch oydan ortiq muddat mobaynida to‘lamaslikda ifodalanadi.

Bo‘yin tovlash deganda, nafaqat, sudning hal qiluv qarori bajarilishini to‘g‘ridan to‘g‘ri rad etish, balki aybdorning oladigan maoshi miqdorini, boshqa daromadlarini yashirishi, ijro varaqasi bo‘yicha to‘lovlardan qochib qutulish maqsadida ish yoki yashash joyini o‘zgartirishi yoxud shu maqsadda mehnat qilishdan bo‘yin tovlashi va h.k. tushunish lozim.

Sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qaroriga binoan moddiy yordamga muhtoj bo‘lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni boqish uchun undirilishi lozim bo‘lgan mablag‘ jami uch oy mobaynida to‘lanmagan taqdirda jinoyat tugallangan, deb hisoblanadi.

Mehnatga layoqatsiz shaxslar 1 va 2-guruh nogironlari yoki kasalligi tufayli vaqtincha mehnat layoqatini yo‘qotgan shaxslardir. Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi.

Mazkur jinoyatning subyekti sudning hal qiluv qaroriga binoan moddiy yordamga muhtoj voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta‘minlash vazifasi zimmasiga yuklangan 18 yoshga to‘lgan, aqli raso har qanday shaxs (ota-onalar, farzandlikka oluvchilar) bo‘lishi mumkin. Shaxsiy ota-onalik huquqidan mahrum qilish alimentlarni to‘lashdan ozod etmaydi.

Qayd etilgan shaxslarni boqish vazifasi zimmasiga yuklangan shaxs uzrli sabablarga ko‘ra (kasalligi, mehnatga layoqatsizligi va h.k.) ularni boqa olmagan hollarda uni Jinoyat kodeksining 122-moddasi bilan jinoyiy javobgarlikka tortilmaydi.

*B. Ota-onani moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tovlash
(Jinoyat kodeksining 123-moddasi)*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasida: «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburlar», deb ta'kidlanadi. Oila kodeksi qonunlarga muvofiq, voyaga yetgan farzandlar mehnatga layoqatsiz, moddiy yordamga muhtoj o'z ota-onalarini yoki ularning o'rini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlashga majburlar.

Ushbu jinoyatning obyekti – axloq, ota-onalar yoki ularning o'rini bosuvchi shaxslarning sog'lig'i va hayoti.

Jinoyatning obyektiv tomoni, sudning hal qiluv qaroriga binoan mehnatga layoqatsiz va moddiy yordamga muhtoj bo'lgan ota-onani yoki ularning o'rini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlash uchun undiriladigan mablag'ning voyaga yetgan shaxslar tomonidan jami uch oydan ortiq muddat mobaynida to'lanmasligida ifodalanadi.

Shaxsni Jinoyat kodeksining 123-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortish uchun farzandlar zimmasiga ota-onalarini yoki ularning o'rini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlash uchun mablag' to'lab turish majburiyatini yuklovchi sudning hal qiluv qarori mavjudligini aniqlash zarur. Ota-onalar – 55 yoshga to'lgan ayollar, 60 yoshga to'lgan erkaklar hamda I va II guruh nogironlari mehnatga layoqatsiz shaxslar hisoblanadi.

Sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ning kamida uch oydan ortiq muddat to'lanmasligi qilmishni tugallangan jinoyat, deb e'tirof etilishiga asos bo'ladi. Bo'yin tovlash usuli (masalan, yashash joyini, ish joyini o'zgartirish, maoshining haqiqiy miqdorini yashirish va h.k.) qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Jinoyatning sodir etilish motivi va ko'zlangan maqsad uni kvalifikatsiya qilishda ahamiyat kasb etmaydi.

Jinoyatning subyekti sudning hal qiluv qaroriga binoan ota-onalarini yoki ularning o'rini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlash majburiyati yuklangan voyaga yetgan tug'ishgan farzandlar, farzandlikka olingan o'g'il va qizlar, o'gay o'g'il va qizlar bo'lishi mumkin.

*D. Bolani almashtirib qo'yish
(Jinoyat kodeksining 124-moddasi)*

Ushbu jinoyatning obyekti bola va uning ota-onalarining huquqlari va qonuniy manfaatlari, axloq normalari hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat tamagirlik yoki boshqa past niyatlarni ko'zlab bolani almashtirib qo'yishda ifodalanadi.

Bolani almashtirib qo'yish yangi tug'ilgan chaqaloq yoki emizikli bolani boshqa bolaga (kasal bolani sog'iga, qiz bolani o'g'il bolaga yoki aksincha, bir millatdagisini boshqa millatga va h.k.) almashtirib qo'yishdan iboratdir. Qilmish bola almashtirib qo'yilgan paytdan e'tiboran tugallangan, deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun jinoyatning sodir etilish motivi aniqlanishi shart – bu tamagirlik yoki boshqa past niyat (o'ch olish, hasad va hokazo) bo'lishi mumkin. Ehtiyotsizlik, beparvolik tufayli bola almashtirib qo'yilgan bo'lsa, aybdor jinoyat qonunlari bilan jazolanmaydi. Unga nisbatan ma'muriy yoki intizomiy jazo qo'llanishi mumkin.

Jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan, aqli raso, tug'uruqxona, chaqaloqlar uyi va h.k. muassasalarning xodimi bo'lgan har qanday shaxs bo'lishi mumkin.

*E. Farzandlikka olish sirini oshkor qilish
(Jinoyat kodeksining 125-moddasi)*

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 151-moddasi, 1-qismida: «Farzandlikka olishni sir saqlash qonun bilan himoya qilinadi», deb belgilab qo'yilgan. Ushbu jinoyatning obyekti oila manfaatlari, bolaning normal axloqiy rivojlanishi hisoblanadi.

Jinoyat obyektiv tomondan farzandlikka oluvchi (mazkur shaxslar vafot etgan hollarda vasiylik va homiylik organlari)ning roziligisiz farzandlikka olingan o'g'il yoki qiz bola haqidagi ma'lumotlarni oshkor etishi, fuqarolik holatini qayd etish yozuvlari kitobidagi farzandlikka oluvchilar bolaning qon-qarindoshi emasligini anglash mumkin bo'lgan ko'chirmalarni berishida ifodalanadi.

O'g'il yoki qiz bolaning farzandlikka olingani haqidagi sirning oshkor etilishi, farzandlikka olingan bolalarning tug'ishgan ota-onasi emasligi to'g'risidagi axborotni (og'zaki, yozma ravishda, bosma usulda va h.k.) oshkor qilish jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi. Bunda axborot farzandlikka oluvchilarning xohish-irodasiga qarshi yoxud ularning vafotidan so'ng vasiylik va homiylik organlarining ruxsatisiz oshkor etilgan bo'lishi mumkin.

Farzandlikka olish siri ana shu sirni rasmiy yo'l bilan olish imkoniga ega bo'lmagan har qanday shaxsga ma'lum qilinishi mumkin. Basharti, farzandlikka olish sirining oshkor etilishi farzandlikka olishni haqiqiy emas, deb e'tirof etish yoki farzandlikka olishni bekor qilish talabi bilan bog'liq bo'lgan hollarda, ushbu talablar tegishli rasmiy organlarga (sud, vasiylik organi va h.k.) qonunda ko'zda tutilgan tartibda ma'lum qilingan bo'lsa, bunday harakat jinoyat hisoblanmaydi.

O'g'il yoki qiz bolaning farzandlikka olingani haqidagi sir oshkor etilgan paytdan e'tiboran jinoyat tugallangan hisoblanadi. Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi.

Mazkur jinoyatning subyeksi 16 yoshga to'lgan, aqli raso, har qanday shaxs, shu jumladan, bolani farzandlikka olgan er-xotindan birontasi ham bo'lishi mumkin. Jinoyatning sodir etilish motivi va undan ko'zlangan maqsad qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Farzandlikka olish sirini oshkor etish kasb faoliyati yoki egallab turgan xizmat mavqeyi munosabati bilan buni sir saqlashi lozim bo'lgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 125-moddasi, 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

O'g'il yoki qiz bolaning farzandlikka olinganligi haqidagi ma'lumotlar vasiylik va homiylik, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organining mansabdor shaxsi tomonidan oshkor etilgan hollarda, aybdor jinoyatlarning jami bo'yicha, ya'ni Jinoyat kodeksining 25-moddasi, 2-qismi va mansabdorlik jinoyati uchun ham javobgarlikka tortiladi.

Farzandlikka olish sirini aybdor tamagirlik yoki boshqa past niyatlarda (o'ch olish, hasad va h.k. maqsadlarda) oshkor etgan hollarda qilmish Jinoyat kodeksining 125-moddasi, 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Jinoyat kodeksining 125-moddasi, 2-qismi mohiyatidan kelib chiqib, og'ir oqibatlar deganda, oilaning buzilishi; odamlarning sog'lig'iga zarar yetkazilishi va h.k. tushunish zarurdir.

*F. Ko'p xotinli bo'lish
(Jinoyat kodeksining 126-moddasi)*

Ushbu jinoyatning obyeksi odob-axloq va jinslararo munosabatlarning jamiyatdagi qoidalari hisoblanadi. Obyektiv tomondan jinoyat umumiy ro'zg'or yuritish asosida ikki yoki undan ortiq ayol bilan er-xotin bo'lib yashashda ifodalanadi.

Umumiy ro'zg'or asosida ikki yoki undan ortiq ayol bilan er-xotin bo'lib yashash mazkur jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanadi. Umumiy ro'zg'or, odatda, umumiy xonadon yoki uydan, umumiy mol-mulk, pul mablag'lari va h.k. iborat bo'ladi.

Nikohda bo'lgan erkakning boshqa ayollar bilan birgalikda yashashi kabi ayrim hollar Jinoyat kodeksining 126-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas. Shu bilan bir qatorda, agarda, shaxs bir xotin bilan nikohni xo'jako'rsinga bekor qilib, boshqa xotini bilan nikohdan o'tsa, ammo aslida har ikki oilani ham saqlab qolsa, tahlil qilinayotgan jinoyat sodir etilgan hisoblanadi, demak, shaxsni javobgarlikka tortish uchun har ikki xotin bilan yuridik jihatdan nikohda ekanligi faktini aniqlashning hojati bo'lmaydi.

Umumiy ro'zg'or yuritish asosida ikki yoki undan ortiq ayol bilan er-xotin bo'lib yashash boshlangan paytdan e'tiboran jinoyat tugallangan, deb hisoblanadi. Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Jinoyat sodir etilish motivi va bundan ko'zlangan maqsad jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas. Jinoyatning subyeksi 16 yoshga to'lgan, har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

*G. Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy
xatti-harakatlarga jalb qilish
(Jinoyat kodeksining 127-moddasi)*

Tahlil qilinayotgan modda uch qismdan iborat. Bu jinoyatning obyeksi voyaga yetmagan shaxsning normal, axloqiy rivojlanishi, uning sog'lig'i hamda jamoat xavfsizligi va tartibi hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 127-moddasi, 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning obyektiv tomoni voyaga yetmagan shaxsni tilanchilik qilishga, spirtli ichimliklar iste'mol qilishga, giyohvandlik yoki psixotrop hisoblanmaydigan, lekin insonning aql-idrokiga ta'sir qiladigan vosita va moddalarni iste'mol etishga jalb qilishdan iborat.

Tilanchilik qilish deganda, voyaga yetmagan shaxsni begona shaxslardan pul, oziq-ovqatlar, kiyim-kechaklar va h.k. tilab, so'rab olishga jalb qilishni tushunmoq zarur.

Voyaga yetmaganlarni spirtli ichimliklar iste'mol qilishga, giyohvandlik yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin insonning aql-idrokiga ta'sir qiladigan vosita va moddalarni iste'mol etishga jalb qilish deganda, voyaga yetgan shaxsni yuqorida nomi aytilgan ichimliklar, vosita va moddalarni bir necha marta iste'mol qilishga o'rgatish yoki ularni voyaga yetmaganlar uchun bir necha marta olinishi va voyaga yetmagan shaxsni aldash, mehmon qilish, ko'ndirish va h.k. yo'llar bilan shu predmetlarni iste'mol qilishga ko'ndirishga qaratilgan harakatlarini tushunish zarur.

Voyaga yetmagan shaxs spirtli ichimliklarni, giyohvandlik yoki psixotrop moddasi hisoblanmagan, lekin odamning aql-idrokiga ta'sir qiladigan vosita va moddalarni bir necha bor iste'mol qilishga jalb qilinganida mazkur jinoyatning tarkibi mavjud bo'ladi.

Shaxsni Jinoyat kodeksining 127-moddasi, 1-qismi bilan javobgar, deb topish uchun aybdorga nisbatan ilgari xuddi shunday harakatlari uchun ma'muriy jazo qo'llanilgan bo'lishi lozim. Jinoyat kodeksining 127-moddasi, 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat voyaga yetmagan shaxsni tilanchilikka, spirtli ichimliklar iste'mol qilishga, giyohvandlik yoki psixotrop moddasi hisoblanmagan, lekin odamning aql-idrokiga ta'sir qiladigan vosita va moddalarni iste'mol etishga jalb qilishga qaratilgan har qanday harakat sodir etilgan paytdan, aybdor o'z maqsadiga erishgani yoki erishmaganidan qat'iy nazar, tugallangan, deb e'tirof etiladi.

Jinoyat kodeksining 127-moddasi, 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning obyektiv tomoni voyaga yetmagan shaxsni turli usullar bilan (avrash, mehmon qilish, aldash va h.k.) giyohvandlik vositalarini yoki psixotrop moddalarni iste'mol etishga jalb qilishdan iboratdir.

Jinoyat voyaga yetmagan shaxs qilmishni sodir etishga jalb etilgan paytdan e'tiboran, aybdorning o'z maqsadiga erishgani yoki erishmaganidan, ya'ni voyaga yetmagan shaxs giyohvandlik vositalarini yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilgan yoki qilmaganidan qat'iy nazar, tugallangan, deb e'tirof etiladi. Jinoyat kodeksining 127-moddasi, 3-qismida nazarda tutilgan jinoyatning obyektiv tomoni voyaga yetmagan shaxsni jinoyatga jalb etishdan iboratdir.

Voyaga yetmagan shaxsni jinoyatga jalb etish deganda, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jismoniy zo'rlikni qo'llash yoki unga ruhiy tazyiq o'tkazish, qo'rqitish, pul berib og'dirish, avrash, aldash, o'ch olish, hasad, rashk tuyg'ularini va boshqa past niyatlarini qo'zgatish, jinoyat sodir etishni taklif qilish, o'g'irlangan narsalarni sotib olish yoki sotib berishni va'da qilish, jinoyatni sodir etish joyi va usullari yoki jinoyat izlarini yashirish haqida maslahatlar berish yo'li bilan uning bir yoki bir nechta jinoyatlarning sodir etilishida ishtirok etish niyatini rag'batlantirishga qaratilgan harakatlar va jinoyatni sodir etishga og'dirish maqsadida voyaga yetmagan shaxslar bilan spirtli ichimliklar ichilishini tushunish zarur.

Basharti, shunday harakatlar ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarining g'ayriqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa yoxud shunday harakatlar ikki yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, shuningdek, jinoyat o'quv yurtlarida, o'quvchilar va talabalar o'quv-tarbiya, sport yoki jamoat tadbirlarini o'tkazishda foydalaniladigan boshqa joylarda sodir etilgan bo'lsa, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 127-moddasi, 3-qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Mazkur jinoyat tarkibini mavjud, deb topish uchun subyektning voyaga yetmagan shaxsni qanday jinoyatga jalb etganining ahamiyati yo'q. Tahlil etilayotgan jinoyat shaxs tomonidan voyaga yetmaganni jinoyatga jalb etishga qaratilgan yoxud jinoyat sodir etishga dalolat qiluvchi harakatlarni sodir etgan paytdan e'tiboran, voyaga yetmagan jinoyatga jalb etilgan yoki etilmaganidan qat'iy nazar, tugallangan, deb hisoblanadi.

Voyaga yetmagan shaxsni ma'lum bir jinoyatni sodir etishga da'vat qilgan shaxsning qilmishi, basharti, shu jinoyat sodir etilgan bo'lsa, Jinoyat kodeksining 127-moddasi, 3-qismi va voyaga yetmagan shaxsni jinoyat sodir etishga dalolat qilish yoxud aybdorning o'zi ham jinoyatni sodir etishda ishtirok etgan bo'lsa, uning qilmishini jinoyatning ishtirokchisi sifatida jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

O'smir jinoyatga jalb qilingan, ammo u jinoyatning subyekt bo'la olmaydigan hollarda, uni jinoyatga jalb qilgan shaxsning qilmishi Jinoyat kodeksining 127-moddasi va voyaga yetmagan shaxs sodir etgan jinoyatning tashkilotchisi sifatida jinoyatlarning jami bo'yicha javobgarlikka tortilishi lozim.

Sodir etilgan jinoyatda voyaga yetmagan va voyaga yetgan shaxslar birgalikda ishtirok etgan va voyaga yetgan shaxslar tomonidan jinoyatga jalb etish yoki dalolat etish alomatlari bo'lmagan hollarda ularning qilmishini Jinoyat kodeksining 127-moddasi, 3-qismi bilan kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi, jinoyat Jinoyat kodeksining 28-moddasiga asosan jinoyatda ishtirokchilik, deb baholanib, sodir qilingan qilmish uchun javobgarlik belgilangan modda bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Yosh boladan foydalangan holda jinoyatni sodir etish Jinoyat kodeksining 56-moddasi, «j» bandiga muvofiq, jazoni og'irlashtiruvchi holat, deb hisoblanadi va jazo tayinlash vaqtida sud tomonidan inobatga olinadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi, ya'ni aybdor voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatga jalb qilayotganini biladi va shunday bo'lishini xohlaydi. Ayni paytda aybdor g'ayriijtimoiy xatti-harakatga jalb qilinayotgan shaxsning voyaga yetmaganligini bilgan holdagina uni mazkur modda bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortish mumkin ekanligiga e'tibor bermoq kerak. Ushbu jinoyatning subyekt 18 yoshga to'lgan har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

H. O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish (Jinoyat kodeksining 128-moddasi)

Ushbu tahlil qilinayotgan modda ikki qismdan iboratdir. Bu jinoyatning obyekt 16 yoshga to'lmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligi hisoblanadi. Mazkur jinoyat sodir etilishi natijasida o'n olti yoshga to'lmagan shaxslarning normal axloqiy va jismoniy rivojlanishiga putur yetkaziladi.

Obyektiv tomondan jinoyat erkak yoki ayolning qarama-qarshi jinsdagi o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan ixtiyoriy ravishda aloqa qilishi yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishida ifodalanadi. Bunday jinsiy aloqa qilish rasmiy nikohdan o'tilgandan keyin ham ro'y berishi mumkin.

Ixtiyoriy ravishda jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish deganda, zo'rlik ishlatmay, qo'rqitmay yoki jabrlanuvchining o'zlik holatidan foydalanilmagan holda jinsiy ehtiyojning qondirilishini tushunish zarur.

Jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishning ixtiyoriy ravishda bo'lgani yoki bo'lmaganligi har bir holda alohida, jabrlanuvchi ayol (erkak) o'z yoshi va rivojlanish darajasidan kelib chiqib, o'ziga nisbatan sodir etilayotgan qilmishning mohiyati va ahamiyatini idrok etgani yoki idrok etmaganligidan kelib chiqib, aniqlanishi zarur.

Necha yoshgacha voyaga yetmagan shaxs jinsiy aloqa qilish yoki g'ayritabiiy usulda jinsiy ehtiyojni qondirishning ahamiyatini tushunmaydi, savoliga javob biron-bir qonunda belgilangan emas. Bu masala har bir jinoyat ishida, ish holatlari hisobga olinib, jabrlanuvchining ongi qay darajada rivojlanganligi, o'ziga nisbatan sodir etilayotgan jinsiy aloqaning mohiyati va ahamiyatini qay darajada idrok etganligi hisobga olinib, hal etilishi lozim.

Jinsiy aloqa qilish boshlangan, ya'ni erkakning jinsiy a'zosi ayolning jinsiy a'zosiga kiritilgan yoxud jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga qaratilgan xatti-harakatlar sodir etilgan paytdan jinoyat tugallangan, deb hisoblanadi. O'n olti yoshga to'lmagan shaxs qayd etilgan xatti-harakatlarni sodir etishga ko'ndirilgan, ammo aybdorga bog'liq bo'lmagani holda jinoyat amalga oshirilmagan bo'lsa, qilmish tahlil etilayotgan jinoyatga suiqasd, deb kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Jabrlanuvchi qiz (o'g'il) bolaning o'n olti yoshga to'lmaganligi subyektga oldindan ayon bo'lganligi, aybdorni Jinoyat kodeksining 128-moddasi bilan javobgarlikka tortishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Basharti, subyekt jabrlanuvchi qiz (o'g'il) bolaning yoshiga nisbatan haqiqatan ham adashgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksining 128-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi. Ushbu jinoyatning subyekt har ikki jinsdagi, 16 yoshga to'lgan, aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatda aybdor ham jabrlanuvchi ham 16 yoshga to'lmagan bo'lsa, o'n olti yoshga to'lmagan har ikki shaxsning yoshidan, ularni tavsiflovchi ma'lumotlardan, ro'y bergan oqibatlar va ishdan boshqa alomatlar (masalan, muhabbat tuyg'usidan kelib chiqib, ularni Jinoyat kodeksining 87-moddasiga

asoslanib, majburlov choralarini qoʻllagan holda javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu moddaning 1-qismida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish takroran yoki retsidivist tomonidan yoxud ilgari Jinoyat kodeksining 118 yoki 119-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan amalga oshirilgan boʻlsa, aybdor Jinoyat kodeksining 128-moddasi, 2-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

*I. Oʻn olti yoshga toʻlmagan shaxsga nisbatan
uyatsiz-buzuq harakatlar qilish
(Jinoyat kodeksining 129-moddasi)*

Jinoyat kodeksining 129-moddasi ikki qismdan iborat boʻlib, (Jinoyat kodeksining 129-moddasi, 1-qismi)da nazarda tutilgan jinoyatning obyektiv tomoni shaxsning oʻn olti yoshga toʻlmaganligi aybdorga ayon boʻlgan holda unga nisbatan zoʻrlilik ishlatmay, uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etishda ifodalanadi.

Uyatsiz-buzuq harakatlar deganda, oʻn olti yoshga toʻlmagan shaxslar koʻzi oldida jinsiy organlarni yalangʻochlash, jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni gʻayritabiiy usulda qondirish, ularni jinsiy aloqalar qilishga oʻrgatish, behayo filmlarni, tasvirlarni namoyish etish, behayo adabiyotlarni oʻqish va h.k.lar, yaʼni jinsiy hayotga nosogʻlom va erta qiziqish uygʻotuvchi har qanday jinsiy xatti-harakatlarning sodir etilishini tushunmoq kerak. Oʻn olti yoshga toʻlmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni gʻayritabiiy usulda qondirish hollari bundan mustasno boʻlib, bunday qilmish Jinoyat kodeksining 128-moddasiga muvofiq jazolanadi.

Uyatsiz-buzuq harakatlar shahvoniy xususiyatga ega boʻlib, odatda aybdorning jinsiy ehtiyojini qondirishiga yoki oʻn olti yoshga toʻlmagan shaxslarda jinsiy aloqaga qiziqish uygʻotishga qaratilgan boʻladi. Jinoyat uyatsiz-buzuq harakat sodir etilgan paytdan eʼtiboran tugallangan hisoblanadi. Jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun aybdorning oʻn olti yoshga toʻlmagan shaxsning axloqini buzishdek, maqsadiga erishgan yoki erisha olmaganligi ahamiyatga ega emas. Subyektiv tomondan jinoyat toʻgʻri qasd bilan sodir etiladi.

Aybdorning qilmishini Jinoyat kodeksining 129-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish uchun jabrlanuvchi qiz (oʻgʻil) bolaning oʻn olti yoshga toʻlmaganligi aybdorga oldindan ayon boʻlganligini aniqlash zarur. Agarda, u jabrlanuvchining yoshiga nisbatan haqiqatan ham adashgan yoki jabrlanuvchining yoshi oʻn oltidan oshganligiga ishongan boʻlsa, qilmish Jinoyat kodeksining 129-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi. Ammo aybdorning uyatsiz-buzuq harakatlarni sodir etishi natijasida, jabrlanuvchining badaniga shikast yetkazilgan, tanosil yoki OITS kasalliklari yuqtirilgan boʻlsa, qilmish Jinoyat kodeksining 129-moddasi va Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan jinoyatlarning jami boʻyicha kvalifikatsiya qilinadi.

Mazkur jinoyatning subyektivi har ikki jinsdagi, oʻn olti yoshga toʻlgan, aqli raso shaxs boʻlishi mumkin. Uyatsiz-buzuq harakatlar qilish vaqtida aybdor jabrlanuvchiga zoʻrlilik ishlatgan yoki qoʻrqitgan boʻlsa, u Jinoyat kodeksining 129-moddasi, 2-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

Jinoyat kodeksining 129-moddasi, 2-qismi mohiyatidan kelib chiqib, zoʻrlilik ishlatish deganda, jabrlanuvchining mushtlanishini, kaltaklanishini, uning badaniga yengil yoki oʻrtacha ogʻir shikast yetkazilishini tushunish zarur. Jabrlanuvchining badaniga ogʻir shikast yetkazilgan hollarda aybdorning qilmishi jinoyatlar jami boʻyicha (Jinoyat kodeksining 129 va 104-moddasi bilan) kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Uyatsiz-buzuq harakatlarni qilish vaqtida aybdor jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojini gʻayritabiiy usulda qondirish maqsadida zoʻrlilik ishlatgan, qoʻrqitgan yoki jabrlanuvchining oʻjizlik holatidan foydalangan, ammo oʻz xohish-irodasiga bogʻliq boʻlmagan sabablarga koʻra, maqsadiga erisha olmagan boʻlsa, uning qilmishi oʻn olti yoshga toʻlmagan shaxsning nomusiga tajovuz qilishga suiqasd sifatida Jinoyat kodeksining 25-moddasi va 118-moddasi, 3-qismi bilan yoxud jinsiy ehtiyojni gʻayritabiiy usulda qondirishga tajovuz sifatida Jinoyat kodeksining 25-moddasi va 119-moddaning 3-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

*J. Pornografik narsalarni tayyorlash va tarqatish
(Jinoyat kodeksining 130-moddasi)*

Tahlil etilayotgan modda Jinoyat kodeksiga xalqaro Jeneva konvensiyasining 1923-yil 12-oktabrdagi «Pornografiya buyumlarining tarqatilishi va savdo-sotig'iga qarshi kurash to'g'risida»gi qaroriga muvofiq kiritilgan.

Ushbu jinoyatning obyekti jamiyatdagi odob-axloq, yoshlarning normal axloqiy rivojlanishi hisoblanadi. Pornografik narsalar deganda, pornografik asarlarni, bosma buyumlarni, tasvirlarni, jinsiy aloqalarni qo'pol, natural holatda, uyatsizlarcha, sharmandali yoki buzuvchi boshqa narsalarni tushunish zarur. Turli ko'rinishdagi (bosma, mashinkalangan, qo'lyozma holidagi) asarlar, fotosuratlar, slaydlar, kino plyonkalari, videokassetalar va boshqa narsalar shular jumlasidandir. Shu bilan bir qatorda, ishqiy munosabatlarni namoyish etish, ularning tasviri, yalang'och tananing ko'rsatilishi, basharti ular qo'pol, bezbetlik, naturalistik xususiyatga ega bo'lmasa, pornografiya, deb e'tirof etilishi mumkin emas.

Jinoyatning obyektiv tomoni pornografik narsalarni namoyish qilish yoki tarqatish maqsadida tayyorlash, shuningdek, ularni yigirma bir yoshga to'lmagan shaxslar o'rtasida namoyish qilish yoki tarqatish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilishidan iboratdir. Mazkur modda bo'yicha nazarda tutilgan jinoyat uchun javobgarlik aybdorga ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin vujudga keladi.

Pornografik narsalarni *tayyorlash* deganda, ularning yaratilishi, videofilmga tushirish, fotosuratga olish uchun turli holatlarda turish, asarlar yaratilishi va h.k.larni, shuningdek, ularning texnik jihatdan tayyorlanishi (nuxsalarining ko'paytirilishi, chop etilishi, montaj qilinishi, lentaga yozilishi, suratga olinishi va h.k.larni) tushunish zarur.

Tarqatish deganda, pornografik narsalarning hech bo'lmaganda bir shaxsga yetkazib berilishi, jo'natilishini tushunish kerak.

Namoyish qilish deganda, pornografiya bilan hech bo'lmaganda bir shaxsning har qanday usullar (masalan, videofilm, kinofilm, fotosuratlar, slaydlarni ko'rsatish, pornografik asarlarni o'qish va boshqa usullar) bilan tanishtirilishini tushunish lozim.

Pornografik narsalar namoyish qilish yoki tarqatish maqsadida tayyorlangan paytdan boshlab yoxud pornografik narsalar yigirma bir yoshga to'lmagan shaxslar o'rtasida namoyish qilingan yoki tarqalgan paytdan boshlab jinoyat tugallangan, deb hisoblanadi.

Agarda, pornografik narsalar yigirma bir yoshga to'lgan shaxslar o'rtasida namoyish etilgan yoki tarqatilgan bo'lsa, bunda jinoyat tarkibi bo'lmaydi. Aybdor pornografik narsalarni namoyish etish yoki tarqatish maqsadini ko'zlab tayyorlagan taqdirdagina jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos mavjud bo'ladi. Pornografik narsalar namoyish etish yoki tarqatish maqsadisiz saqlangan bo'lsa, shaxs jazoga tortilmaydi.

Subyektiv tomonidan jinoyat qasddan sodir etiladi. Uning sodir etilish motivi har xil (tamagirlik, bezorilik va h.k.) bo'lishi mumkin, ammo ular jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi. Ushbu jinoyatning subyektivi o'n olti yoshga to'lgan, har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

*K. Fohishaxona saqlash yoki qo'shmachilik qilish
(Jinoyat kodeksining 131-moddasi)*

Mazkur modda ikki qismdan iborat bo'lib, jinoyatning obyekti jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq, fuqarolarning sog'lig'i hisoblanadi. Jinoyat obyektiv tomondan fohishaxona tashkil etish yoki saqlash, shuningdek, tamagirlik yoki boshqa past niyatlarda qo'shmachilik qilishda ifodalanadi.

Fohishaxona deganda, mijozlarning jinsiy aloqa qilishi yoki jinsiy ehtiyojlarini g'ayritabiiy usulda qondirishi uchun foydalanadigan har qanday xonani tushunish zarur.

Fohishaxona deb, topishning muhim sharti – u yerga shaxslarning o'z jinsiy ehtiyojlarini qondirish uchun muntazam kelib turishi. Fohishaxona alohida xonadon, uy, dala hovli, saunadagi, yordamchi xonadagi alohida bir joy va h.k.lar bo'lishi mumkin.

Fohishaxona ochish va saqlash deganda, xona tanlanishi, uning jihozlanishi, faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi, uzoq vaqt xizmat qilishi uchun fohishaxonaning saqlanishi, mijozlar jalb qilinishi, uning reklamasi va h.k.larni tushunish kerak. Fohishaxona egasi shahvoniy yoki boshqa maqsadlarda odam yollagan hollarda, uning qilmishi Jinoyat kodeksining 131 va 135-moddalari bilan jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Qo'shmachilik – tamagirlik yoki boshqa past niyatlarni ko'zlab, ma'lum shaxslarning o'zaro jinsiy aloqa qilishi yoxud jinsiy ehtiyojlarini g'ayritabiiy usulda qondirishiga xizmat ko'rsatishdan iborat.

Jinoyat fohishaxona ochilgan yoxud uni saqlashga qaratilgan xatti-harakatlar sodir etilgan paytdan e'tiboran yoxud mijozlarning o'zaro ishqiy harakatlarni amalga oshirishiga yordam berishga qaratilgan xizmatlar ko'rsatilgan paytdan e'tiboran tugallangan hisoblanadi.

Fohishaxonalarga kirish jinoyat hisoblanmaydi. Ushbu qilmish subyektiv tomondan to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. O'sha qilmish tamagirlik yoki boshqa past niyatlarda sodir etilgan hollardagina aybdor Jinoyat kodeksining 131-moddasi bilan javobgarlikka tortilishi mumkin.

Tamagirlik yoki boshqa past niyat (mansabparastlik, o'ch olish, xushomadgo'ylik, laganbardorlik va h.k.) o'rganilayotgan jinoyat tarkibi zaruriy belgisi hisoblanadi. Ishqiy harakatlar bilan shug'ullanish uchun xonaning berib qo'yilishi, shaxsning tamagirlik maqsadi yoki boshqa past niyatlari bo'lmasa, jinoyat qonuni bilan jazolanmaydi. Ushbu jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan, har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

Yuqorida aytilgan qilmish voyaga yetmagan shaxsni jalb qilganda yoki takroran, xavfli retsivist ushbu yoki ilgari kodeksning 135-moddasi (odamlardan foydalanish uchun ularni yollash) yoki 137-moddasida (odam o'g'irlash) nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 131-moddasi, 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

*L. Tarix yoki madaniyat yodgorliklarini nobud qilish,
buzish yoki ularga shikast yetkazish
(Jinoyat kodeksining 132-moddasi)*

O'zbekiston Respublikasining «Tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, mazkur qonunni buzgan shaxslar ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Jinoyat ishi davlat muhofazasiga olingan tarix va madaniyat yodgorliklariga tajovuz qilingan hollardagina qo'zg'atiladi. Tarix va madaniyat yodgorliklarining davlat muhofazasiga olingani taxtachalar, muhofaza lavhalari, ko'rsatkichlarni osib qo'yish, kitoblarda, gazeta va jurnallarda, yo'l ko'rsatkichlarda axborotlar berish va h.k. yo'llar bilan aholi e'tiboriga yetkazilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi Qonuni bilan Jinoyat kodeksining 132-moddasi «Yetkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi» mazmunidagi 3-qism bilan to'ldirildi.

Jinoyatning obyektivi jamiyatdagi odob-axloq asoslari, davlatning tarixiy yodgorliklar va madaniy qadriyatlarni muhofaza qilish kabi manfaatlarini hisoblanadi. Davlat muhofazasidagi har xil tarix yoki madaniyat yodgorliklari, tabiiy obyektlar, tabiiy favvoralar, sharsharalar, ajdodlarimizning maqbaralari, qo'riqxonalar va h.k.lar jinoyatning predmeti bo'lishi mumkin, ammo mazkur obyektlarning muhofazaga olingani to'g'risida tegishli idoralarning qarorlari chiqarilgan bo'lishi va bu biron-bir usul bilan fuqarolar e'tiboriga yetkazilgan bo'lishi lozim.

Jinoyat obyektiv tomondan shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin, davlat muhofazasiga olingan tarix yoki madaniyat yodgorliklarini qasddan nobud qilish, buzish yoki shikast yetkazishning sodir etilishida ifodalanadi. Tarix yoki madaniyat yodgorliklarini nobud qilish deganda, ularni qayta tiklash imkoniyatini qoldirmagan holda, butunlay yaroqsiz holga keltirilishini tushunish lozim.

Tarix yoki madaniyat yodgorliklarini buzish deganda, qayta tiklash imkoniyatini qoldirgan holda ularga ma'lum darajada zarar yetkazilishini tushunish kerak. Tarix yoki madaniyat yodgorliklariga shikast yetkazish deganda, ularga ma'lum darajada zarar yetkazilishi, uning o'z qiymatini yo'qotishi tushuniladi. Jinoyatning sodir etilish usullarini (yodgorliklarni yondirish, vayron qilish, suv bostirish va h.k.) kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Davlat muhofazasiga olingan tarix va madaniyat yodgorliklari nobud qilingan yoki buzilgan yoxud shikast yetkazilgan paytdan boshlab jinoyat tugallangan, hisoblanadi. Subyektiv tomondan jinoyat qasddan, bilvosita yoki bevosita tamagirlik niyati bilan sodir etiladi.

Jinoyatning sodir etilish motivi jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi. Ammo yodgorliklarni nobud qilish, buzish, ularga shikast yetkazish bezorilik harakatlari bilan birgalikda sodir etilsa, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 132 va 277-moddalari bilan jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Tarix va madaniyat yodgorliklarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish ehtiyotsizlik natijasida ro'y bergan hollarda, aybdor Jinoyat kodeksining 207-moddasi (mansabga sovuqqonlik bilan qarash) yoki 172-moddasi (mulkni qo'riqlashga vijdotsiz munosabatda bo'lish) bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Tarix yoki madaniyat yodgorliklarini buzish yoki ularga shikast yetkazish yodgorliklarning muayyan qismlarini o'g'irlash bilan birgalikda sodir etilgan hollarda, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 132-moddasi va o'zganing mulkini o'g'irlaganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Bu jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan, aqli raso shaxs bo'lishi mumkin. Aybdor shaxsning qilmishida mansab vakolati bilan bog'liq jinoyat alomatlari bo'lgan taqdirda, uning qilmishi jinoyatlarning jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Aybdor qilmishi natijasida ko'p miqdorda zarar yetkazilgan bo'lsa, Jinoyat kodeksining 132-moddasi, 2-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

Eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdordagi zararni ko'p miqdordagi zarar deb tushunish lozim. Yetkazilgan moddiy zarar uch baravariga teng miqdorda qoplangan hollarda, aybdorga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo qo'llanilmaydi (Jinoyat kodeksining 132-moddasi, 3-qismi).

*M. Inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olish
(Jinoyat kodeksining 133-moddasi)*

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra, inson a'zolari yoki to'qimalari oldi-sotdi predmeti bo'lishi mumkin emas.

Retsipiyentlarga a'zolar va to'qimalarni ko'chirib o'tkazish bilan bog'liq operatsiyalar tibbiy xulosalarga asoslanib amalga oshiriladi. Inson a'zolari yoki to'qimalarni ajratib olish va uning tayyorlanishiga faqat sog'liqni saqlash muassasalaridagina ruxsat etiladi.

Ushbu jinoyatning obyekti odob-axloq hisoblanadi. Obyektiv tomondan jinoyat shaxs tirikligida uning roziligini olmasdan turib yoki o'lganidan keyin yaqin qarindoshlarining roziligisiz, ilmiy yoxud ta'lim ishlari uchun ko'chirib o'tkazish yoki buzilmaydigan holda saqlash (konservatsiya) maqsadida murdaning a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olishda ifodalanadi.

A'zolar yoki to'qimalarni o'lgan odam tirikligi vaqtida yoxud uning yaqin qarindoshlari shaxs o'lganidan so'ng uning a'zolari yoki to'qimalari ma'lum maqsadlar uchun ajratib olishga rozi emasliklarini ma'lum qilgan bo'lsalar, murdaning a'zolari yoki to'qimalari ajratib olinishiga yo'l qo'yilmaydi. Mutaxassis shifokorlar konsiliumi tomonidan qayd etilgan o'lim faktining shubhasiz isbotlari mavjud bo'lsa, ko'chirib o'tkazish uchun murdaning a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olish mumkin.

Murda a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olish sog'liqni saqlash muassasasi bosh shifokorining ruxsati bilan amalga oshiriladi. Sud-tibbiy ekspertizasini o'tkazish talab qilingan hollarda murdaning a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olishga ruxsat, prokuror ogoh etilib, sud-tibbiy eksperti tomonidan berilishi lozim.

Odam o'ldirish murdaning a'zolari yoki to'qimalarini ko'chirib o'tkazish maqsadida sodir etilganligi aniqlansa, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 97-moddasi, 2-qismi, «n» bandi hamda Jinoyat kodeksining 25 va 133-moddalari bilan yoxud agar ko'chirib o'tkazish uchun a'zolari yoki to'qimalarni ajratib olish ro'y bergan bo'lsa, Jinoyat kodeksining 97-moddasi, 2-qismi, «n» bandi va 133-modda bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Ko'chirib o'tkazilgani yoki o'tkazilmagani, saqlab qo'yilgani yoki saqlab qo'yilmaganidan qat'iy nazar, odamning a'zolari yoki to'qimalari ajratib olingan paytdan boshlab jinoyat tugallangan, hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Jinoyatning sodir etish motivlari aybdorni Jinoyat kodeksining 133-moddasi, 1-qismi bilan javobgarlikka tortish uchun ahamiyat kasb etmaydi. Mazkur jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan shaxslar bo'lishi mumkin, odatda ular tibbiy ixtisoslikka ega bo'ladilar.

O'sha harakatlar tamagirlik yoki boshqa past niyatlarda, takroran yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa, qilmish ushbu moddaning 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Tamagirlik niyati deganda, moddiy manfaat ko'rishga, boylik orttirishga, yaxshi haq to'lanadigan lavozimni egallashga, uy-joy olishga intilish va h.k. tushuniladi.

Tamagirlik niyati shaxsning o'z zimmasidagi mulkiy va moddiy majburiyatlardan, olingan qarzni qaytarish, aliment to'lash majburiyatlaridan qutulishga intilishda va h.k.da ham namoyon bo'lishi ham mumkin. Boshqa past niyatlar deganda, mansabparastlik, laganbardorlik, oshna-og'aynigarchilik va boshqalarni tushunish lozim.

N. Qabrni tahqirlash
(*Jinoyat kodeksining 134-moddasi*)

Jinoyat kodeksining 134-moddasida javobgarlik belgilangan jinoyatning obykti jamiyatda mavjud bo'lgan odo-axloq asoslari hisoblanadi. Obyektiv tomondan jinoyat qabrni yoki murdani tahqirlashda, shuningdek, murdadagi, qabr ustida yoki ichidagi narsalarni olishda ifodalanadi.

Qabr – o'lgan odam yotgan (har xil anjomlar, kiyim-kechak, tobut va h.k. narsalar joylashtirilgan) joy.

Mozor deganda, qabrni va uning ustidagi tepalikni, yodgorlik, panjara, gullar, gulchambarlarni va h.k. tushunish lozim.

Qabrni tahqirlash deganda, uning kovlab tashlanishi, qabr ustidagi toshlar, yodgorliklar, marhumning xoki saqlanayotgan idishlar, panjaralarning vayron qilinishi, yashil nihollarning bosib-yanchilishi, qabr toshlariga beadab yozuvlar yozilishi va h.k. tushunilishi lozim.

Murdani tahqirlash deganda, murdani, uning alohida qismlarining tashqariga chiqarib olinishi, murdani tanib bo'lmas holga keltirilishi, uning xo'rlanishi tushuniladi.

Murdadagi, qabr ustidagi yoki ichidagi narsalarni olish qabrni tahqirlashning ko'rinishlaridan biri bo'lib, ana shu narsalarning yashirin yoki oshkora qo'lga kiritilishidan iboratdir. Ushbu jinoyat qabr ustidagi yoki ichidagi narsalar olingan va aybdor ularni qo'lga kiritgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Jinoyatning sodir etilish motivi uni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas. Mazkur jinoyatning subyektivi 16 yoshga to'lgan, har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

Jamoat joylarida jamoat tartibi qoidalariga qasddan hurmatsizlik bildirish bilan birga sodir etilgan o'zganing mulkiga shikast yetkazish yoki nobud qilish, qabrni yoki murdani tahqirlash Jinoyat kodeksining 134-moddasi va 277-moddaning 2-qismi, «p» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

1. Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash tushunchasi va uni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik masalasi qanday bo'ladi?
2. Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlash jinoyatidan ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash jinoyatining farqi nimadan iborat?
3. Bolani almashtirib qo'yish jinoyatidagi aybdorni javobgarlikka tortish uchun asos bo'luvchi belgilar nimadan iborat?
4. Farzandlikka olish sirini oshkor qilish jinoyati tushunchasi va uning kvalifikatsiyaga ta'sir qiluvchi holatlar nimalardan iborat?
5. Ko'p xotinlilik tushunchasi va uni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik masalasi.
6. Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish deganda nimalarni tushunasiz va uni sodir etilganlik uchun jinoiy javobgarlik masalasi.
7. O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish tushunchasi va uning uchun jinoiy javobgarlik masalasi.
8. O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish jinoyatining nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish jinoyatlaridan farqi.
9. O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish jinoyatining o'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish jinoyatidan farqi.
10. Pornografik narsalar tushunchasi va uning pornografik narsalarni tayyorlash va tarqatish uchun jinoiy javobgarlik masalasi.
11. Fohishaxona saqlash yoki qo'shmachilik qilish tushunchasi va uning uchun jinoiy javobgarlik masalasi.
12. Tarix yoki madaniyat yodgorliklarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish tushunchasi va jinoiy javobgarlik masalasi qanday hal qilinadi?

13. Inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olish jinoyatining tushunchasi (kvalifikatsiyaga ta'sir qiluvchi holatlar) va yuridik tahlili qanday bo'ladi?
14. Qabrni tahqirlash, deganda nimani tushunasiz va uning sodir etilganlik uchun jinoyiy javobgarlik masalasi.
15. Murdani tahqirlash jinoyatining inson a'zolari yoki to'qimalarini qonunga xilof ravishda ajratib olish jinoyatidan farqi.

1.6. Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson, uning shaxsiy huquq va erkinliklari mustahkamlangan. Konstitutsiya normalarida, har qanday holatdan qat'iy nazar, shaxsning qonuniy huquq va manfaatlari kafolatlangan va himoya qilingan. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasida «Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega», deb qayd etilgan.

Konstitutsiyaning «Shaxsiy huquq va erkinliklar», «Siyosiy huquqlar», «Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar», deb nomlangan bo'limlarida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy bazasi o'z ifodasini topgan. «Davlat, deb ta'kidlanadi Konstitutsiyaning 43-moddasida, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi».

Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 3.5-moddasida, «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt»ning 6, 7, 9, 10, 11-moddalarida insonning yashash huquqi, qadr-qimmat, ozodligi va xavfsizligi, sha'ni va obro'yini himoya qilish kabi huquqlari mustahkamlangan. Bu xalqaro huquqiy normalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ham asosini tashkil qiladi.

Jinoyat kodeksining «Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar» bo'limida shaxsning ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyatlar va ular uchun javobgarlik belgilangan.

Jinoyat kodeksining «Maxsus» qismi birinchi bo'limida shaxsning ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo'lib, ularning yuridik tahlili quyidagicha:

Shaxsning ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning obyekt shaxslarning ozodligi, erki, sha'ni, qadr-qimmatini hisoblanadi. Obyektiv tomondan ushbu jinoyatlar shaxsning ozodligini, erkini cheklovchi, sha'ni, qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlarda ifodalanadi.

Subyektiv tomondan qasddan sodir etiladi. Subyekt 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Faqatgina odam o'g'rilash jinoyatining subyekt yoshi 14 yosh qilib belgilangan.

Shaxsning ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyatlar quyidagi turlarga ajratilgan:

- Odamlardan foydalanish uchun ularni yollash (Jinoyat kodeksining 135-moddasi).
- Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish (Jinoyat kodeksining 136-moddasi).
- Odam o'g'irlash (Jinoyat kodeksining 137-moddasi).

- Zoʻrluk ishlatib gʻayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish (Jinoyat kodeksining 138-moddasi).
- Tuhmat (Jinoyat kodeksining 139-moddasi).
- Haqorat qilish (Jinoyat kodeksining 140-moddasi).

*A. Odamlardan foydalanish uchun ularni yollash
(Jinoyat kodeksining 135-moddasi)*

Ushbu jinoyatning obyekti jabrlangan shaxslarning ozodligi, shaʼni va qadr-qimmatini hisoblanadi. Obyektiv tomondan jinoyat shahvoniy yoki boshqa maqsadlarda foydalanish uchun aldash yoʻli bilan odam yollashda ifodalanadi.

Odamlarni yollash deganda, turli maqsadlarda foydalanish uchun shaxslarning izlab topish va qandaydir faoliyat bilan shugʻullanish uchun ular bilan oldindan biron-bir (ogʻzaki, yozma) bitim tuzilishini tushunish lozim. Odamlarni yollash usullari: yuqori ish haqi, moddiy manfaatlar, yaxshi mehnat sharoiti, muayyan imtiyozlar vaʼda qilish va h.k. koʻrinishda boʻlishi mumkin, ammo ular jinoyatning kvalifikatsiyasiga taʼsir etmaydi.

Shahvoniy maqsadlarda foydalanish deganda, shaxsning yollovchining xohishi bilan tartibsiz jinsiy aloqa qilishga yoki kimlarningdir jinsiy ehtiyojini gʻayritabiiy usulda qondirishga, yoxud ularning xohish-istagi bilan shahvoniy yoʻsindagi biron-bir harakatni sodir etishga majbur boʻladigan ahvolga solib qoʻyilishi tushuniladi. Boshqa maqsadlarda foydalanishda jabrlanuvchi yollovchining xohish-istagi bilan biron-bir faoliyat bilan shugʻullanishga majbur boʻladi.

Shaxsni yollash aldash yoʻli bilan sodir etilgan vaqtdan boshlab, undan shahvoniy yoki boshqa maqsadlarda foydalanilishi aybdorni Jinoyat kodeksining 135-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortishga sabab boʻladi. Aldash jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanadi.

Aldash yollovchining jabrlanuvchiga yolgʻonligi ayon boʻlgan maʼlumotlar berishi yoki jabrlanuvchi shaxs bilan bitim tuzilayotgan vaqtda xabardor qilishi shart boʻlgan u yoki bu shart-sharoitlarni yashirishi, ularni maʼlum qilmasligida ifodalanadi. Jinoyat yollash amalga oshgan, yaʼni yollovchi bilan aybdor shaxs oʻrtasida bitim (ogʻzaki, yozma shartnoma) tuzilgan paytdan eʼtiboran tugallangan, hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat toʻgʻri qasd bilan sodir etiladi. Ushbu jinoyat subyektiv tomonining zaruriy sharti – maqsaddir. Maqsad shahvoniy yoki boshqa maqsadlarda foydalanish uchun aldash yoʻli bilan odam yollash jinoyatining zaruriy belgisi hisoblanadi. Jinoyatning subyekti 16 yoshga toʻlgan, aqli raso shaxs boʻlishi mumkin.

Yollangan ayollar yollovchining xohishi bilan jinsiy aloqa qilgan yoki kimlarningdir jinsiy ehtiyojini gʻayritabiiy usullarda qondirgan hollarda aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 135-moddasi va ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etish uchun javobgarlik belgilangan Jinoyat kodeksining 121-moddasi bilan jinoyatlarning jami boʻyicha kvalifikatsiya qilinadi.

Agar foydalanish uchun odamlarni yollash takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan yoxud bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib yoxud voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan boʻlsa, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 135-moddasi, 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib odamlarni yollash (Jinoyat kodeksining 135-moddasi, 2-qismi, «b» bandi) deganda, odamlardan shahvoniy yoki boshqa maqsadlarda foydalanish uchun ularni birgalikda yollash toʻgʻrisida oldindan til biriktirib ikki yoki undan ortiq shaxsning ana shunday faoliyatda ishtirok etishni tushunish lozim. Bunda til biriktirish odamlarni yollashdan avval roʻy bergan boʻlishi zarur.

Yollovchi oʻzi yollayotgan shaxsning yoshiga nisbatan haqiqatan ham adashgan, yaʼni yollanayotgan shaxsni voyaga yetgan, deb taxmin qilishi uchun yetarli asoslari boʻlgan hollarda, u Jinoyat kodeksining 135-moddasi, 2-qismi bilan emas, balki Jinoyat kodeksining 135-moddasi, 1-qismi bilan javobgarlikka tortiladi. Shahvoniy yoki boshqa maqsadlarda yollanilgan shaxslar Oʻzbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketilgan yoxud aybdor shunday maqsadni koʻzlagan boʻlsa, uning qilmishi Jinoyat kodeksining 135-moddasi, 3-qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

*B. Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning
erga tegishiga toʻsqinlik qilish
(Jinoyat kodeksining 136-moddasi)*

Mazkur jinoyatning obyekti ayol kishining erki va qadr-qimmatini, uning erga tegish yoki eri bilan birga yashashda davom etish masalasini mustaqil hal qilish erkinligi hisoblanadi. Jinoyat obyektiv tomondan ayolni erga tegishga yoki nikohda yashashni davom ettirishga majbur qilish yoxud ayolning erkiga xilof ravishda u bilan nikohda bo'lish uchun o'g'irlash, shuningdek, ayolning erga tegishiga to'sqinlik qilishdan iboratdir.

Ayolni erga tegishga yoki nikohda birga yashashni davom ettirishga majbur qilish deganda, unga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlik ishlatilishini tushunish lozim. Ko'rib chiqilayotgan modda mohiyatidan kelib chiqib jismoniy zo'rlik ishlatish deganda, ayol kishini urish, kaltaklash, badaniga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazilishini tushunish kerak.

Ayolni majbur qilish vaqtida uning badaniga og'ir shikast yetkazilgan hollarda aybdor Jinoyat kodeksining 136 va 104-moddalari bilan jinoyatlar jami bo'yicha javobgarlikka tortiladi. Ruhiy zo'rlik deganda, jismoniy zo'rlikni qo'llash, ayol kishi sir saqlashni istagan ma'lumotlarni oshkor qilish, mol-mulkini nobud qilish bilan qo'rqitish va h.k.larni tushunish lozim.

Aybdor ayol kishini o'ldirish yoki zo'rlik ishlatib shikast yetkazish bilan qo'rqitgan hollarda, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 112-moddasi (o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish) bilan qo'shimcha ravishda kvalifikatsiya qilinmaydi. Ayolni o'g'irlash ayolning xohish-irodasiga qarshi, nikohdan o'tish uchun aldash yoki zo'rlik ishlatish yo'li bilan, uni biron-bir yerda yakkalab qo'yish (masalan, biron-bir transportda olib qochish va h.k.)dan iboratdir. Ayol kishi xohish-irodasiga qarshi nikohdan o'tish uchun o'g'irlangan hollarda aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 136, 137-moddalari bilan jinoyatlarning jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim. Ayol kishi odatga ko'ra, nikohdan o'tish uchun o'g'irlangan bo'lib, bunga o'g'irlangan ayolning o'zi rozilik bergan bo'lsa, Jinoyat kodeksining 136-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning tarkibi mavjud bo'lmaydi.

O'g'irlangan shaxs 16 yoshga to'lmagan va aybdor uning roziligi bilan jinsiy aloqa qilgan yoxud jinsiy ehtiyojini g'ayritabiiy usulda qondirgan hollarda aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 136 va 128-moddalari bilan jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Jinoyatni bunday kvalifikatsiya qilish uchun jabrlanuvchining o'n olti yoshga to'lmaganligi aybdorga oldindan ayon bo'lgan bo'lishi lozim. Basharti, u jabrlanuvchining yoshiga nisbatan haqiqatan ham adashgan bo'lsa, u faqat Jinoyat kodeksining 136-moddasiga ko'ra javobgar bo'ladi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Mazkur jinoyatning sodir etilish motivi jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas. Ushbu jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin. Aksariyat hollarda jinoyat ayolning ota-onasi, aka-ukasi, opa-singillari, yaqin qarindoshlari, kuyov tomonidan sodir etiladi.

D. Odam o'g'irlash (Jinoyat kodeksining 137-moddasi)

Mazkur jinoyatning obyekti odamning erkinligi, ya'ni istagan yerida bo'lish erkinligi hisoblanadi. Obyektiv tomondan jinoyat Jinoyat kodeksining 245-moddasi (shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish)da nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo'lmagan holda odam o'g'irlashda ifodalanadi.

Odamni o'g'irlash deganda, odamning yashirincha, oshkora yoki aldash yoxud ishonchini suiiste'mol qilish yo'li bilan shaxsiy erkinligi (masalan, bir yerdan ikkinchi yerga borish erkinligidan mahrum qilish, bir yerda ushlab turish va hokazo)dan mahrum qilinishini tushunish zarur.

O'g'irlash usullari jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas. Odamni o'g'irlash vaqtida unga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo'rlik qo'llanilishi mumkin.

Agar odamni o'g'irlash vaqtida jabrlanuvchining badaniga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazilgan bo'lsa, qilmish jabrlanuvchining sog'lig'iga shikast yetkazganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddalar bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiyani talab qilmaydi, jinoyat Jinoyat kodeksining 137-moddasi, 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Odam o'g'irlash vaqtida badanga og'ir shikast yetkazilgan hollarda aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 137-moddasi, 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Odam erkinligidan mahrum qilingan paytdan e'tiboran jinoyat tugallangan, deb hisoblanadi. O'g'irlangan odamning qancha muddat mobaynida ushlab turilganligining qilmishning kvalifikatsiya qilinishi uchun ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Ushbu jinoyatning subyeksi 16 yoshga to'lgan har qanday shaxs bo'lishi mumkin. Agar aybdor bolani o'g'rilab, uni almashtirib qo'ygan bo'lsa va bunda tamagirlik yoki boshqa past niyatni ko'zlagan bo'lsa, uning qilmishi Jinoyat kodeksining 124-moddasi va 136-moddaning 2-qismi bilan jinoyatlarning jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Odamni o'g'rilash yo'li bilan garovga olish sodir etilgan hollarda, aybdor faqat Jinoyat kodeksining 245-moddasi bilan javobgarlikka tortilishi kerak. Odam o'g'rilashda:

- 1) voyaga yetmagan shaxs o'g'rilangan bo'lsa;
- 2) jinoyat tamagirlik yoki boshqa past niyatlarda sodir etilgan bo'lsa;
- 3) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa;
- 4) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa, aybdorning qilmishi mazkur moddaning 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Odam o'g'rilash o'ta xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan yoxud og'ir oqibatlariga olib kelgan bo'lsa, aybdor shaxs Jinoyat kodeksining 137-moddasi, 3-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

Og'ir oqibatlar deganda, ehtiyotsizlik natijasida o'g'rilangan odamning o'lib qolishi, ota-onalari yoki qarindoshlaridan birining o'zini o'zi o'ldirishi yoxud ularning ruhiy xastalikka chalinishi va h.k.larni tushunish zarur.

Odam o'g'rilash zo'rlik ishlatib, g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish bilan birgalikda sodir etilsa, jinoyat Jinoyat kodeksining 137 va 138-moddalari bilan jinoyatlarning jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

*E. Zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda
ozodlikdan mahrum qilish
(Jinoyat kodeksining 138-moddasi)*

Tahlil etilayotgan jinoyatning obyeksi jabrlanuvchining shaxsiy ozodligi hisoblanadi. Jinoyatning obyektiv tomoni zo'rlik ishlatib, g'ayriqonuniy ravishda shaxsni harakat qilish erkinligidan mahrum etish, jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatish (odamni uning xohish-irodasiga qarshi ma'lum bir joyda majburan ushlab turish maqsadida jabrlanuvchini ayblab qo'yish, unga uyqu dorisini berish, odamni aldash yo'li bilan o'zi kirishni istamagan xonaga olib kirish va h.k.lar) uning qayerda bo'lishini erkin tanlash huquqini cheklash kabi xatti-harakatlarni sodir etishda ifodalanadi.

G'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilishning qancha davom etganligi qilmishni mazkur modda bo'yicha kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas. Jabrlanuvchi ozodlikdan mahrum qilingan paytdan e'tiboran jinoyat tugallangan, deb hisoblanadi.

Ushbu jinoyat subyektiv tomondan to'g'ri qasd bilan tamagirlik niyatida sodir etilishi bilan ajralib turadi, aybdor jabrlanuvchini qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum etayotganligini biladi va shuni istaydi. Jinoyatning sodir etilish motivi va undan ko'zlangan maqsad jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi.

Ushbu jinoyatning subyeksi 16 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Mazkur jinoyatni sodir etgan mansabdor shaxslar ish holatlaridan kelib chiqib, hokimiyat yoki mansab vakolatlarini suiiste'mol qilganlik uchun (Jinoyat kodeksining 205-moddasi); hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqqanlik uchun (Jinoyat kodeksining 206-moddasi) yoki odil sudlovga qarshi jinoyatlar, masalan, qonunga xilof ravishda ushlab turganlik yoki qamoqda ushlaganlik uchun (Jinoyat kodeksining 234-moddasi) javobgarlikka tortiladilar.

Jabrlanuvchiga jismoniy azob berilishi yoxud jabrlanuvchining hayoti va sog'lig'i uchun xavfli sharoitda saqlanishi Jinoyat kodeksining 138-moddasi, 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatlarning zaruriy belgilari hisoblanadi. Jismoniy azob berish deganda, odamning suv va ovqat bermay saqlanishi, uning noqulay vaziyatda uzoq vaqt turishini tushunish zarur. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli sharoit deganda, odamning uzoq vaqt sovuq xonada yoki aksincha, juda ko'p vaqt issiq xonada saqlanishi, uzoq vaqt suv, ovqat berilmasligi, ya'ni jabrlanuvchining hayoti va sog'lig'iga jiddiy zarar yetish xavfi vujudga kelgan hollarni tushunish lozim.

F. Tuhmat
(*Jinoyat kodeksining 139-moddasi*)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasiga muvofiq, «har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan himoyalaniş huquqiga ega»dir.

O'rganilayotgan jinoyat uch qismdan iborat. Tuhmatning obykti shaxsning sha'ni va qadr-qimmatı hisoblanadi.

Sha'n — ichki axloqiy qadr-qimmat, halollik, olijanoblik, vijdoniylik, umuman olganda sha'n — insonning ma'naviy va ijtimoiy fazilatlarini belgilovchi tushuncha.

Insonning qadr-qimmatı deganda, dunyoqarashining darajasi, aql-zakovati, turmush tarzi va h.k.lar kabi insonning obyektiv jihatlaridan tavsiflovchi ijobiy sifatlar yig'indisini tushunish zarur. Obyektiv tomondan tuhmat yolg'onligini bila turib, boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalarni tarqatishda ifodalanadi. Shaxsni Jinoyat kodeksining 139-moddasi bilan javobgarlikka tortish uchun uydirmalar, masalan, shaxsning tanosil kasalligi borligi, qizning bokira emasligi yoxud shaxsning ruhiy xasta ekanligi haqidagi uydirmalar va h.k. dalillarga asoslangan (aniq), o'tmishga yoki hozirgi kunga aloqador bo'lishi lozim. Aniq dalillarga ishora qilinmagan, umumiy ma'lumotlarni oshkor etish tuhmat hisoblanmaydi.

Yolg'onligini bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalarni tarqatish deganda, ularning hech bo'lmaganda bir shaxsga ma'lum qilinishini tushunish zarur. Uydirmalarni tarqatish usuli har xil, masalan, og'zaki, yozma, biror tasvir ko'rinishidagi lavha va h.k. bo'lishi mumkin.

Uydirmalarning sharmanda qiladigan yoki qilmaydigan mazmunda ekanligi haqidagi masala, jabrlanuvchining subyektiv bahosidan qat'iy nazar, sud tomonidan hal qilinadi. Basharti, aybdor boshqa shaxs haqida uni sharmanda qiluvchi, ammo haqiqatga to'g'ri keladigan ma'lumotlarni tarqatgan bo'lsa, uni tuhmatda ayblab, javobgarlikka tortib bo'lmaydi. Jinoyat yolg'onligi oldindan ayon bo'lgan ma'lumotlar tarqatilgan paytdan boshlab tugallangan, deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan tuhmat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Ma'lumotlarning yolg'onligi xususida haqiqatan ham adashganlik tuhmat uchun javobgarlikka tortishni istisno etadi. Aybdorning o'zi tarqatayotgan uydirmalarning yolg'on ekanligini oldindan bilganligi jinoyatni 139-modda bilan kvalifikatsiya qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Bu jinoyatning subykti 16 yoshga to'lgan har qanday shaxs bo'lishi mumkin. Agarda, tuhmat nashr qilingan yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnda yoxud ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilgan bo'lsa, Jinoyat kodeksining 139-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxsning qilmishi shu moddaning 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Nashr qilish yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnni tarqatish yoxud ommaviy axborot vositalari orqali tuhmat qilish deganda, kitoblarda, gazeta va jurnallarda, varaqalarda yoki boshqa asarlarda radio, televideniye, video orqali yolg'on ma'lumotlar tarqatilishini tushunish lozim.

Tuhmat: a) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatni sodir etishda ayblab; b) yoxud og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan holda; d) xavfli retsdivist tomonidan; e) g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda qilingan bo'lsa, aybdor ushbu moddaning 3-qismi bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Og'ir jinoyatlar qasddan sodir etilib va qonunda besh yildan ko'p, ammo o'n yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. O'ta og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib va qonunda o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki o'lim jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Tuhmatning og'ir oqibatlari deganda, tuhmat qilingan odamning o'z joniga qasd qilishi, ruhiy xastalikka chalinishi va h.k.ni tushunish lozim. Tuhmat yolg'onligini bila turib, boshqa shaxsni sharmanda qiladigan va jabrlanuvchiga aloqador, aniq dalillarga asoslangan uydirmalarni tarqatishdek zaruriy belgisi bilan haqorat qilishdan farq qiladi.

G. Haqorat qilish
(*Jinoyat kodeksining 140-moddasi*)

Ushbu jinoyatning obyekti shaxsning sha'ni va qadr-qimmatidir. Ammo haqoratlash natijasida haqoratlangan shaxsning sog'lig'iga shikast yetkazishi mumkinligini ham istisno qilib bo'lmaydi. Obyektiv tomondan haqorat qilish shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlashdan iboratdir. Haqorat qilish og'zaki yoki yozma ravishda bo'lishi mumkin.

Haqorat shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash turli xatti-harakatlarda (masalan, beandishalik bilan so'kish, turli ibora va mulohazalarni yozish, yuziga tupurish, jabrlanuvchiga nisbatan behayo xatti-harakatlarni va imo-ishoralarni qilish va h.k.) ifodalanadi.

Haqorat qilish jinoyatning tarkibi mavjud bo'lishi uchun shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash beodoblik bilan, ya'ni jamiyatda qabul qilingan va odob-axloq qoidalariga mutlaqo zid ko'rinishda ifodalanishi zarur, bu har bir alohida holda sud tomonidan aniqlanadi. Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan tahqirlashga qaratilgan xatti-harakat sodir etilgan paytdan boshlab jinoyat tugallangan hisoblanadi.

Haqorat qilish, odatda, bevosita sodir etiladi, ammo jabrlanuvchi bu haqda xabar topadi, degan taxmin bilan sirtidan sodir etilishi ham mumkin. Haqorat qilish vositachi orqali amalga oshirilishi mumkin. Haqorat qilganlik uchun javobgarlik masalani hal etishda haqoratlangan shaxsning hissiyotidan kelib chiqib, xulosa chiqarish mumkin emas. Bu hissiyot o'ziga haddan ziyod baho berish xususiyatidan kelib chiqqan bo'lishi ham mumkin.

Haqoratlovchi iboralarning mazmuni har xil bo'lishi mumkin. Bu haqoratlovchi shaxsning «topqirligiga» bog'liqdir. Xafa qilish har xil bo'lishi mumkin, ammo ularning hammasi ham haqorat bo'lavermaydi. Ularning shaxs qadr-qimmatini tahqirlaydigan va beodoblik bilan ifoda qilinganlarigina haqorat, deb e'tirof etiladi.

Shaxsga berilgan salbiy baho haqiqatni aks ettirgan, ammo beodoblik bilan bayon etilgan hollarda ham haqorat qilishning tarkibi mavjud bo'ladi. Aksincha, odob doirasida bayon etilgan tanqid haqorat qilishning tarkibini tashkil etmaydi.

Haqorat har doim ma'lum bir shaxsga qaratilgan bo'ladi. Ma'lum bir shaxsga qaratilmagan so'kinish bezorilik sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Subyektiv tomondan haqorat qilish to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Haqorat qilish motivi har xil bo'lishi mumkin. Jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan, aqli raso har qanday shaxs bo'lishi mumkin.

Haqorat qilish nashr qilish yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnda yoxud ommaviy axborot vositalari orqali sodir etilgan bo'lsa, aybdor Jinoyat kodeksining 140-moddasi, 2-qismi bilan javobgarlikka tortiladi. Haqorat qilish jabrlanuvchini o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan bog'liq holda yoxud xavfli retsivist yoki tuhmat qilganligi uchun ilgari sudlangan shaxs tomondan sodir etilgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksining 140-moddasi, 3-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

1. Jinoiy maqsadlarda shaxsni yollash deganda nimalarni tushunasiz?
2. Odamlardan foydalanish maqsadida shaxslarni O'zbekiston Respublikasi huquqidan olib chiqib ketish jinoyati va uning yuridik tahlili.
3. Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishga to'sqinlik qilish tushunchasi va uning uchun jinoiy javobgarlik masalasi.
4. Ayolni erga tegishga majbur qilishdan uni jinsiy aloqa qilishga majbur qilishning farqi.
5. Ayolni erga tegishga majbur qilib, o'g'rilash tushunchasi.
6. Odam o'g'rilashning qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum qilishdan farqi.
7. Zo'rlik ishlatib, g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish jinoyati tushunchasi va uning o'zboshimchalikdan farqi.
8. Tuhmat tushunchasi, uning yuridik tahlili.
9. Haqorat qilish tushunchasi, uni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik masalasi.
10. Tuhmat va haqorat qilishning bir-biridan farqi.

1.7. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarida, har qanday holatdan qat'iy nazar, shaxsning qonuniy huquq va manfaatlarini kafolatlangan va himoya qilingan. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar», deb qayd etilgan bo'lsa, uning 27-moddasida «Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega», deyilgan.

Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari bironing turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas», deyiladi.

Konstitutsiyaning «Shaxsiy huquq va erkinliklar», «Siyosiy huquqlar», «Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar», deb nomlangan bo'limlarida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy bazasi o'z ifodasini topgan.

Jinoyat kodeksining «Maxsus» qismi birinchi bo'limida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo'lib, ularning yuridik tahlili quyidagicha:

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarning obyektini fuqarolarning muayyan konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari hisoblanadi. Obyektiv tomondan fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga tajovuz qiluvchi jinoyatlar ko'pincha fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini buzuvchi va qonunda belgilab qo'yilgan tartibni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi harakatlarda ifodalanadi.

Subyektiv tomondan qasddan sodir etiladi. Subyektini 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Faqatgina fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (Jinoyat kodeksining 144-moddasi) va saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (Jinoyat kodeksining 146-moddasi) jinoyatining subyektini yoshi 18 yosh qilib belgilangan.

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar quyidagi turlarga ajratilgan:

- Fuqarolarning teng huquqligini buzish (Jinoyat kodeksining 141-moddasi).
- Fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish (Jinoyat kodeksining 142-moddasi).

- Xat-yozishmalar, telefon soʻzlashuv, telegraf xabarlarini yoki boshqa xabarlarini sir saqlanishi tartibini buzish (Jinoyat kodeksining 143-moddasi).
- Fuqarolarning murojaatlari toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarini buzish (Jinoyat kodeksining 144-moddasi).
- Vijdon erkinligini buzish (Jinoyat kodeksining 145-moddasi).
- Saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni oʻtkazish toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarini buzish (Jinoyat kodeksining 146-moddasi).
- Saylov huquqini yoki ishonchli vakillar vakolatlarining amalga oshirilishiga toʻsqinlik qilish (Jinoyat kodeksining 147-moddasi).
- Mehnat qilish huquqini buzish (Jinoyat kodeksining 148-moddasi).
- Mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish (Jinoyat kodeksining 149-moddasi).

A. Fuqarolarning teng huquqligini buzish (Jinoyat kodeksining 141-moddasi)

Ushbu modda ikki qismdan iborat. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida: «Oʻzbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega boʻlib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, eʼtiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qatʼiy nazar, qonun oldida tengdirlar», deb mustahkamlab qoʻyilgan.

Jinoyat kodeksining 141-moddasi xalqaro huquqiy hujjatlarga, jumladan «Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisida»gi xalqaro bitimning 26-moddasiga toʻla mos keladi. Shu bitimda: «Barcha odamlar qonun oldida teng va hech qanday kamsitishlarsiz qonun tomonidan teng himoya qilinishi huquqiga egadirlar. Shu munosabat bilan har qanday kamsitishlar qonunda man etilishi va qonun barcha shaxslarga biron-bir belgisi: irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa qarashlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy mavqeyi, tugʻilishi yoki boshqa sharoitlar boʻyicha kamsitishlarga qarshi teng va samarali himoyani kafolatlanishi lozim», deb qayd etilgan.

Ushbu jinoyatning obyekti fuqarolarning shaxsiy huquqlari va erkinliklaridir. Obyektiv tomondan jinoyat jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, eʼtiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqishdan qatʼiy nazar, fuqarolarning huquqlarini buzish yoki cheklash yoxud fuqarolarga bevosita afzalliklar berishda ifodalanadi.

Fuqarolar teng huquqligining buzilishi ularga oʻz huquqlarini amalga oshirish imkonini bermaslik yoxud ularning oʻz huquqlarini amalga oshirishlariga toʻsqinlik qilish (masalan, jinsi, irqi, millati va h.k. kelib chiqib, ishdan boʻshatish, istiqomat joyida roʻyxatdan oʻtishiga, ishga qabul qilinishiga, oʻqishga kirishiga yoʻl qoʻymaslik)dan iborat boʻlishi mumkin.

Jinsi, irqi, millati, tili, dini va h.k. kelib chiqib, fuqarolarning huquqlari buzilgan yoki cheklangan yoxud fuqarolarga afzalliklar berilgan paytdan boshlab jinoyat tugallangan hisoblanadi.

Teng huquqlilikning buzilishi zoʻrluk ishlatib sodir etilgan boʻlsa, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 141-moddasi, 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Fuqarolarning teng huquqliligini buzish vaqtida zoʻrluk ishlatish mushtlash, jabrlanuvchini kaltaklash, badaniga yengil yoki oʻrtacha ogʻir shikast yetkazishda ifodalanishi mumkin.

Bunday qilmish shaxsga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddalar bilan qoʻshimcha ravishda kvalifikatsiya qilinmaydi. Badanga ogʻir shikast yetkazilgan hollarda aybdorning qilmishi jinoyatlar jami boʻyicha kvalifikatsiya qilinadi.

Subyektiv tomondan fuqarolar teng huquqliligining buzilishi qasddan sodir etiladigan jinoyat hisoblanadi. U bevosita gʻaraz niyat bilan sodir etilishi mumkin. Ushbu jinoyatning subyekti 16 yoshga toʻlgan, aqli raso har qanday shaxs boʻlishi mumkin.

B. Fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish (Jinoyat kodeksining 142-moddasi)

Fuqarolar turar joyi daxlsizligi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan. Konstitutsiyaning 27-moddasida: «Har kim oʻz shaʼni va obroʻsiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan

va tartibdan tashqari bironing turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi... mumkin emas», deyilgan.

Jinoyat kodeksining 142-moddasi «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida»gi xalqaro Paktga, Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga mos keladi. Jumladan, deklaratsiyaning 17-moddasida: «hech kimning turar joy daxlsizligiga tajovuzlar qilishi mumkin emas», deb yozilgan.

Mazkur jinoyatning obyekti fuqarolar turar joy daxlsizligi hisoblanadi. Jinoyatning obyektiv tomoni turar joyga unda yashovchilarning erkiga qarshi zo'rlik ishlatib, g'ayriqonuniy ravishda bostirib kirishda ifodalanadi.

G'ayriqonuniy ravishda bostirib kirish deganda, aybdor shaxsning yoxud turar joy egasining ruxsatisiz shaxsning turar joyga o'zboshimchalik bilan bostirib kirishga qaratilgan xatti-harakatlari (masalan, g'ayriqonuniy ravishda ko'chirish, ruxsatnomasiz tintuv o'tkazish, o'zganing turar joy maydoniga o'zboshimchalik bilan ko'chib kirish va h.k.)ning sodir etilishini tushunish lozim.

Agar turar joyga unda yashovchilarning erkiga xilof ravishda g'ayriqonuniy bostirib kirish zo'rlik ishlatib sodir etilgan bo'lsa, aybdor Jinoyat kodeksining 142-moddasi bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortiladi. Agar g'ayriqonuniy bostirib kirish zo'rlik ishlatilmay sodir etilgan bo'lsa, aybdorning xatti-harakati jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinmaydi.

Zo'rlik ishlatish deganda, jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy kuch ishlatilishi (masalan, turtkilash, qo'lni qayirish, mushtlash, kaltaklash, badanga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazilishi)ni tushunish lozim. Bunday hollarda aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining sog'liqqa qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddalari bilan jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinmaydi.

Turar joyga unda yashovchilarning erkiga xilof ravishda zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy bostirib kirish mansabdor shaxs tomonidan mansab vakolatidan foydalanib sodir etilgan bo'lsa, aybdor Jinoyat kodeksining 206-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim.

Turar joyga zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy bostirib kirilgan paytdan boshlab jinoyat tugallangan, deb hisoblanadi. Bunda kelib chiqqan oqibatlar ahamiyatga ega emas.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Ushbu jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan, aqli raso, jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

Turar joyga bostirib kirib o'zganing mol-mulkini o'g'rilaganlik Jinoyat kodeksining o'g'irlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan tegishli moddalari bilan qamrab olinadi va Jinoyat kodeksining 142-moddasi bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilinmaydi.

1. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar qaysi jinoyatlardan iborat?
2. Fuqarolarning teng huquqliligini buzish nimalarda ifodalanadi?
3. Fuqarolarning teng huquqliligini buzish jinoyatida (Jinoyat kodeksining 141-moddasi, 2-qismi) zo'rlik ishlatish tushunchasi.
4. Fuqarolarning turar joy daxlsizligini buzganlik uchun javobgarlikka tortishning shartlari nimalarda ifodalanadi?
5. Qanday holatlarda uy-joy daxlsizligini buzgan fuqarolar jinoiy javobgarlikka tortilmaydi?

2-bob. TINCHLIK VA XAVFSIZLIKKA QARSHI JINOYATLAR

2.1. Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar

Jinoyat kodeksining «Maxsus» qismi, ikkinchi bo‘limi «Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar» deb nomlanib, unda tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan. Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar unga kiritilgan jinoyatlarning jinoyat tarkibiga ko‘ra quyidagi ikki guruhga ajratilgan:

- 1) tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar;
- 2) O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar.

Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar Jinoyat kodeksining ikkinchi bo‘limi VIII bobida berilgan bo‘lib, ular o‘z navbatida quyidagi jinoyatlarga bo‘linadi:

- Urushni targ‘ib qilish (Jinoyat kodeksining 150-moddasi).
- Agressiya (Jinoyat kodeksining 151-moddasi).
- Urushning qonun va udumlarini buzish (Jinoyat kodeksining 152-moddasi).
- Genotsid (Jinoyat kodeksining 153-moddasi).
- Yollanish (Jinoyat kodeksining 154-moddasi).
- Chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shunga o‘xshash boshqa organlariga xizmatga kirish, yollanish (Jinoyat kodeksining 154¹-moddasi).
- Terrorizm (Jinoyat kodeksining 155-moddasi).
- Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atish (Jinoyat kodeksining 156-moddasi).

A. Urushni targ‘ib qilish (Jinoyat kodeksining 150-moddasi)

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida belgilab qo‘yilganidek, «O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi».

O'rganilayotgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligi bir mamlakatni ikkinchi mamlakatga nisbatan agressiya sodir qilishga undovchi g'oyalar, qarashlar, chaqiriqlarni targ'ib qilish, tinchlik va davlatlarning tinch-totuv yashashiga xavf tug'dirish harakatlari bilan ifodalanadi.

Urushni targ'ib qilish xalqaro huquq normalariga ziddir. Urushni targ'ib qilishning obyektini har qanday davlat taraqqiyoti va hayotiy faoliyatini amalga oshirishning sharti bo'lgan tinchlik va tinch-totuv yashashdir. Obyektiv tomondan jinoyat bir tomonning ikkinchi mamlakatga nisbatan agressiya harakatlarini amalga oshirish maqsadida turli shakldagi qarashlar, g'oyalar yoki chaqiriqlarni tarqatishidan iborat.

Targ'ib qilish oshkora yoki yashirin bo'lishi mumkin. Targ'ib qilish deganda, odamlarni urush boshlab yuborishga qo'zg'atish maqsadida ularning ongi va irodasiga ta'sir ko'rsatish tushuniladi. Targ'ibot turlicha usullar og'zaki, yozma, ommaviy axborot vositalari, gazetalari, jurnallari, televideniyedan foydalanilgan holda olib borilishi mumkin. Urushni targ'ib qilish usullari jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi, lekin ular jazo tayinlashda hisobga olinishi mumkin va lozim.

Agressiyaga undovchi qarashlar g'oyalar, chaqiriqlarni tarqatishning oshkora ravishda amalga oshirilganligi ham jinoyatning kvalifikatsiyasi uchun ahamiyat kasb etmaydi. Urushni targ'ib qilish qanday oqibatlar ro'y berganligi, ya'ni agressiya boshlangani yoki boshlanmaganidan qat'iy nazar tamom bo'lgan jinoyat, deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasddan sodir etiladi, ya'ni aybdor o'zi sodir etayotgan harakatlarning ijtimoiy xavfli xususiyatini anglaydi va ularni sodir etishni xohlaydi. Qilmishning maqsadi va sabablari jinoyatning kvalifikatsiyasi uchun ahamiyatli emas. Jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan, aqli raso har qanday shaxs bo'lishi mumkin.

B. Agressiya (Jinoyat kodeksining 151-moddasi)

Bu modda ikki qismdan iborat. Agressiya harakatlarini rejalashtirish yoki unga tayyorgarlik ko'rish yoxud shu harakatlarni amalga oshirish maqsadida til biriktirish xalqaro huquq normalariga muvofiq tinchlikka qarshi qaratilgan jinoyat hisoblanadi.

Agressiya urushini rejalashtirish, unga tayyorgarlik ko'rish ijtimoiy jihatdan nihoyatda xavflidir, chunki bunday harakatlarning sodir etilishi davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning buzilishiga, xalqaro munosabatlarning keskinlashuviga, natijada, juda ko'p insonlarning qurbon bo'lishiga, turli obyektlarning vayron bo'lishiga, shahar va qishloqlarning xarobaga aylanishiga sabab bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtda agressiyaning oqibatlarini oldindan aytish qiyin.

Jinoyatning obyektini tinchlik va insoniyat xavfsizligidir. Obyektiv tomondan jinoyat (Jinoyat kodeksining 151-moddasi, 1-qismida javobgarlik belgilangan qilmish) agressiyani rejalashtirishda yoki unga tayyorgarlik ko'rishda yoxud shu niyatni amalga oshirish maqsadida til biriktirishda namoyon bo'ladi.

Urush – turli davlatlar yoki xalqlar o'rtasidagi qurolli to'qnashuv – kurash.

BMT Bosh Assambleyasining 1974-yil 14-dekabrda Resolutsiyasi 1-moddasiga muvofiq, davlatning o'z qurolli kuchlarini boshqa davlatning suverenitetiga, hududiy daxlsizligiga, siyosiy mustaqilligiga qarshi yoki BMT Nizomiga xilof ravishda boshqacha tarzda qo'llashi agressiya hisoblanadi.

Urushni rejalashtirish deganda, harbiy harakatlar olib borish maqsadida har qanday rejalar, loyihalar tuzish, hisob-kitoblar olib borishni tushunmoq lozim. Urushga tayyorgarlik ko'rish deganda, odamlar, harbiy resurslarning harbiy harakatlarni boshlashga shay bo'lishini ta'minlash uchun muayyan harakatlar yoki tadbir (masalan, harbiy tuzilmalarni ma'lum bir yo'nalishga (joyga) jamlash, harbiy inshootlar qurish, harbiy mahsulot ishlab chiqarishni kuchaytirish, harbiy bo'linmalarni boshqatdan joylashtirish va h.k.)larning bajarilishi tushunilmog'i lozim.

Til biriktirish deganda, bosqinchilik urushini sodir etishni rejalashtirish yoki unga tayyorgarlik ko'rish uchun ikki yoki undan ortiq shaxslarning til biriktirishini tushunmoq lozim.

Jinoyat kodeksining 151-moddasi, 2-qismida javobgarlik ko'zda tutilgan jinoyat obyektiv tomondan agressiyani boshlash yoki uni olib borishdan iborat. Agressiya urushining boshlanishi deganda, urush e'lon qilinishi yoki harbiy harakatlarning boshlanishini tushunish kerak. Qurol-yarog' qo'llangan har qanday harbiy harakatlar agressiya urushini olib borish, deb hisoblanadi.

BMT Bosh Assambleyasining 1974-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Agressiya tushunchasi» to'g'risidagi Rezolutsiyasining 3-moddasida:

- 1) bir davlat qurolli kuchlarining boshqa davlat hududiga bostirib kirishi yoki hujum qilishi;
- 2) vaqtdan qat'iy nazar, harbiy bosqin oqibati sifatida harbiy kuch ishlatib, boshqa davlat hududini bosib olish;
- 3) boshqa davlat hududi yoki uning bir qismini zo'rlik bilan qo'shib olish;
- 4) boshqa davlat hududiga bombalar tashlash yoki uning hududida turli qurol-yarog'larni ishlatish;
- 5) bir davlat portlari yoki uning qirg'oqlari yoxud qirg'oqlarining bir qismini qamal qilish;
- 6) bir necha davlatlar qurolli kuchlarining boshqa davlatning quruqlikdagi, dengiz yoki havo kuchlariga yoxud dengiz yoki havo flotiga hujum qilishi;
- 7) bir davlatning boshqa davlat hududida u bilan tuzilgan bitimga binoan turgan qurolli kuchlaridan bitimda nazarda tutilgan shartlarni buzgan holda foydalanishi;
- 8) ushbu hududda bitimning amal qilish muddati tugaganidan keyin ham qurolli kuchlarning turaverishi;
- 9) o'z hududini boshqa davlat ixtiyoriga topshirib qo'yilgan va ushbu hududdan uchinchi davlatga qarshi agressiya sodir etilishiga imkon bergan davlatning harakatlari;
- 10) boshqa davlatga qarshi qurolli kuchlarning qo'llanishini amalga oshiruvchi qurolli to'dalar, guruhlar va muntazam kuchlar yoki yollanganlarning davlat tomonidan yuborilishi agressiya, deb hisoblanishi tushuntirib berilgan.

Agressiyaning boshlanishi yoki olib borilishi davomli jinoyat hisoblanadi. Subyektiv tomondan agressiya faqat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Qilmishning sabab va maqsadi jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi. Jinoyatning subyeksi bo'lib, harbiy xususiyatdagi turli masalalarni rejalashtirish va hal etish vakolatiga ega bo'lgan davlatning mansabdor shaxslari hisoblanadi.

*D. Urushning qonun va udumlarini buzish
(Jinoyat kodeksining 152-moddasi)*

Xalqaro qonunlar, xususan, «Quruqlikda urush olib borish qonunlari va udumlari to'g'risida»gi 1907-yilgi Gaaga konvensiyasi, shuningdek, 1949-yil 12-avgustda qabul qilingan «Urush davrida harbiy bo'lmagan aholini himoya qilish to'g'risida»gi Jeneva konvensiyasida urush olib borish qoidalari belgilangan.

O'rganilayotgan jinoyat tarkibining ijtimoiy xavfliligi urush oqibatida odamlar qurbon bo'lish, mayib-majruh bo'lib qolish, shahar va qishloqlar, madaniy boyliklar vayron bo'lish, insoniyat taraqqiyoti orqaga surilishi va h.k.larda ifodalanadi. Urush qoidalarining buzilishi har qanday urushning oqibatlarini yanada yomonlashtirib ko'paytirib yuboradi.

Jinoyatning obyeksi urush olib borish qoidalariga rioya qilish sohasidagi xalqaro munosabatlardir. Obyektiv tomondan jinoyat quyidagi harakatlarni sodir etishda:

- 1) harbiy bo'lmagan aholini yoki harbiy asirlarni qiynoqqa solishda, jismonan qirib tashlashda;
- 2) harbiy bo'lmagan aholida majburiy ishlarda foydalanish yoki uni boshqa maqsadlar uchun zo'rlab olib ketishda;
- 3) xalqaro huquq normalari bilan taqiqlangan urush vositalarining qo'llanishida;
- 4) shaharlar va aholi punktlarini behuda vayron qilishda;
- 5) mulkni talon-taroj qilishda;
- 6) yuqorida qayd etib o'tilgan harakatlarni sodir etish to'g'risida buyruq berishda namoyon bo'ladi.

Harbiy bo'lmagan aholi deganda, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini, O'zbekistonda yashayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida turgan va qurolli to'qnashuvda ishtirok etmayotgan chet elliklarni tushunmoq lozim.

1949-yil 12-avgustda qabul qilingan Jeneva konvensiyasining 4-moddasiga binoan, harbiy asirlar jumlasiga asirlikka tushib qolgan shaxslar va:

- 1) to'qnashayotgan taraflar qurolli kuchlari shaxsiy tarkibiga kiruvchi, shuningdek, qurolli kuchlar tarkibida turgan xalq lashkarlari va ko'ngilli otryadlarning shaxsiy tarkibiga kiruvchi shaxslar;
- 2) to'qnashayotgan va o'z hududida yoki undan tashqarida turgan taraflarning boshqa xalq lashkarlari va ko'ngilli otryadlarning shaxsiy tarkibi;
- 3) qurolli kuchlar ortidan borayotgan, lekin ularning tarkibiga kirmaydigan shaxslar;
- 4) aviatsiya va savdo floti ekipajlarining a'zolari;
- 5) bosib olinmagan hududning muntazam qo'shinlar safiga kirib ulgurmagan, qarshilik ko'rsatish uchun qo'lga qurol olgan (agar ular qurolni oshkora osib yursalar) va Jeneva konvensiyasining 4-moddasida ko'rsatib o'tilgan boshqa shaxslar kiradilar.

Harbiy bo'lmagan aholini zo'rlab olib ketish – bosib olingan hududlardan ularni muayyan joyda yashashi uchun yoki yashash joylaridan noaniq yo'nalishga haydab yuborish.

«Harbiy bo'lmagan aholini himoya qilish to'g'risida»gi Konvensiyaning 49-moddasida urush davrida fuqarolarni bosib olingan hududlardan bosib oluvchi yoki boshqa davlatlarning hududiga chiqarib yuborish taqiqlanadi.

Xalqaro huquqda taqiqlangan urush vositalarini qo'llash deganda, 1899 va 1907-yillarda qabul qilingan «Urush qonunlari va udumlari to'g'risida»gi Gaaga konvensiyalarida taqiqlangan usullar va vositalardan foydalanishni tushunish lozim.

Jumladan, odamlarga ortiqcha kulfatlar keltirish, shaharlar, shaharchalarni yoxud qishloqlarni buning uchun harbiy zarurat bo'lmagani holda xarob qilish, diniy, xayriya, o'quv, badiiy va ilmiy muassasalar, tarixiy yodgorliklar, badiiy va ilmiy asarlarni egallab olish, xarob qilish yoki ataylab yo'q qilib tashlash va ularga putur yetkazish uchun mo'ljallangan zaharli moddalar yoki boshqa turdagi qurollarni qo'llash; muayyan ahdni buzib dushmanni yarador qilish yoki asirga olish; hech kimni tirik qoldirmaslik haqida buyruq berish kabilar taqiqlanadi.

Jinoyat kodeksining 152-moddasi dispozitsiyasida ko'rsatilgan harakatlardan bittasi sodir etilgan vaqtdan e'tiboran jinoyat tamom bo'lgan hisoblanadi. Subyektiv tomondan jinoyat faqat qasddan sodir etilishi mumkin. Jinoyatning sababi va maqsadi (g'araz, qasos olish, shuhratparastlik) jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan shaxslar bo'lishlari mumkin. Bular, odatda, harbiy qo'mondonlikning oliy mansabdor shaxslari, turli harbiy qismlarning komandirlari, harbiy xizmatchilaridir.

E. Genotsid (*Jinoyat kodeksining 153-moddasi*)

Genotsid – insoniyatga qarshi jinoyat (so'zning asl ma'nosi – urug'ni, qabilani o'ldirish). «Genotsid jinoyatini taqiqlash va uning uchun jazolash to'g'risida»gi 1948-yilgi Konvensiyaning 1-moddasida belgilab qo'yilganidek, genotsid tinchlik yoki urush davrida sodir etilishidan qat'iy nazar, xalqaro huquq normalarining buzilishi, jinoyat hisoblanadi hamda Konvensiya qatnashchisi bo'lgan davlatlar unga qarshi, uning oldini olish choralarini ko'rish va uni sodir etganlik uchun jazolash majburiyatini oladilar.

Genotsidning obyekti insoniyatning yashash huquqi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash zarurki, genotsid qaysi milliy, etnik, irqiy, diniy guruhlarini yo'q qilishga qaratilgan bo'lsa, o'sha guruhlar genotsiddan jabrlanuvchilar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni qirib tashlash, shu guruh a'zolarini o'ldirish, ularga og'ir tan jarohati yetkazish yoki ruhiy ta'sir ko'rsatish, ular uchun shu guruh doirasida bola tug'ilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan turmush sharoitini ataylab vujudga keltirish va bolalarni odamlarning bir guruhidan boshqasiga zo'rlik bilan berib yuborish yo'li bilan to'la yoki qisman yo'q qilish niyatida amalga oshiriladigan harakatlarni sodir etishdan iborat bo'lishi mumkin. Sanab o'tilgan qilmishlarni bajarish to'g'risida buyruq berish ham genotsid jumlasiga kiradi.

Konvensiyada berilgan shakllarining ro'yxati qat'iydir, genotsidning ko'rinishlari to'la-to'kis berilgan. Subyektiv tomondan genotsid to'g'ri qasddan sodir etiladi. Maqsad milliy, etnik, irqiy yoki diniy odamlar

guruhini batamom yoki qisman yo‘q qilishdir. Germaniya, Chili, Kampuchiya va boshqa mamlakatlardagi fashistlarga xos vahshiyona ishlar genotsid hisoblangan. Genotsid jinoyatining subyekti 16 yoshga to‘lgan, aqli raso shaxsdir.

F. Yollanish
(*Jinoyat kodeksining 154-moddasi*)

BMT Bosh Assambleyasining 1988-yilda qabul qilingan 2465-rezolutsiyasiga (XXIII) ko‘ra, yollanma askarlardan foydalanish jinoiy qilmish, yollanma askarlarning o‘zlari esa jinoyatchi hisoblanadilar.

«Urush qurbonlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Jeneva konvensiyasiga 1977-yilda kiritilgan 1-qo‘shimcha bayonnomaning 47-moddasida «yollangan askar» tushunchasi berildi, unga ko‘ra qurolli to‘qnashuvda jang qilish uchun harbiy harakatlar joyida yoki chet eldan maxsus yollangan, mazkur tarafning qurolli kuchlari shaxsiy tarkibiga kiruvchi shunday daraja va vazifadagi kombatant (harbiy harakatlarda bevosita qatnashuvchilik)dan ancha ortiq haq va‘da qilinib shaxsiy naf olish istagida bo‘lgan shaxs sifatida to‘qnashuvchi tarafdorlarning fuqarosi bo‘lmagan, to‘qnashuvchi taraf nazorat qilayotgan hududda doimiy yashamaydigan; to‘qnashuvchi tarafning qurolli kuchlari shaxsiy tarkibiga kirmaydigan, davlat tomonidan yuborilmagan, uning qurolli kuchlari tarkibiga kirmaydigan shaxs «yollangan askar»¹, deb ta‘riflangan.

Yollanish jinoyatining obyekti insoniyat xavfsizligidir. Obyektiv tomondan jinoyat to‘qnashuvchi (urushuvchi) mamlakat fuqarosi yoki harbiy xizmatchisi bo‘lmagan yoxud to‘qnashuvchi taraf tomonidan nazorat qilinayotgan hududda doimiy yashamaydigan yoki qurolli kuchlar tarkibida rasmiy majburiyatlarni bajarish uchun hech bir davlat tomonidan vakolat berilmagan shaxsning chet davlat hududida yoki tarafida qurolli to‘qnashuvda yoki harbiy harakatlarda qatnashishidan iborat.

Yollanish jinoyati obyektiv tomonining quyidagi belgilari mavjud:

- 1) yollanuvchini aniq qurolli to‘qnashuvda yoki harbiy harakatlarda qatnashish uchun yollash;
- 2) yollanuvchi to‘qnashuvchi mamlakat fuqarosi yoki harbiy xizmatchisi hisoblanmaydi, to‘qnashuvchi taraf nazorat qilayotgan hududda doimiy yashamaydi va qurolli kuchlar tarkibida rasmiy majburiyatlarni bajarish uchun unga hech bir davlat tomonidan vakolat berilmagan. Faqat davlatlar o‘rtasidagi shartnomalarga ko‘ra boshqa davlat armiyasiga vaqtincha xizmatni o‘tash uchun yuborilishi mumkin, lekin ular harbiy to‘qnashuvlarda bevosita qatnashishlari mumkin emas;
- 3) moddiy naf ko‘rish yoki boshqa shaxsiy manfaatlariga ega bo‘lish yollanishning sababi hisoblanadi. Subyektiv tomondan jinoyat faqat to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Moddiy naf ko‘rish yoki boshqa shaxsiy manfaatlariga ega bo‘lish jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanadi. Subyekti 16 yoshga to‘lgan, aqli raso shaxsdir.

G. Terrorizm
(*Jinoyat kodeksining 155-moddasi*)

Xalqaro huquqda terrorizmga qarshi bir qator konvensiyalar, jumladan, Madrid konvensiyasi (1934), Yevropa konvensiyasi (1977), Terrorizmning oldini olish bo‘yicha (1987) va boshqa konvensiyalar mavjud.

Terrorizmning obyekti jamoatchilikning jamiyatda xavfsiz yashash shart-sharoitlarni ta‘minlash bo‘yicha jamoat xavfsizligi hisoblanadi. Terrorizm tufayli odamlarning hayoti yoki sog‘lig‘iga, hokimiyat va boshqaruv organlarining normal faoliyatiga, jamoat tartibiga ziyon yetkazilishi mumkin.

Obyektiv tomondan Jinoyat kodeksining 155-moddasi, 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat davlat organlari yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan qaror qabul qilinishiga ta‘sir ko‘rsatish maqsadida, xalqaro munosabatlarni, hududiy birlikni buzish, davlat xavfsizligiga tahdid solish, qurolli mojarolarni keltirib chiqarish, aholini qo‘rqitish, jamiyatdagi siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish maqsadida sodir etilgan harakatlarda namoyon bo‘ladi.

Terrorizm:

- 1) portlash yoki o‘t qo‘yish;

- 2) o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish;
- 3) mol-mulkni bosib olish yoxud qo'lda tutib turish yoki shaxsni garov sifatida ushlab turish;
- 4) xalqaro himoya ostida bo'lgan chet el davlatlar vakolatxonalarini yoki xalqaro tashkilotlarning xizmat, uy-joy binolariga hujum qilish kabi harakatlarni sodir etishdan iborat bo'lishi mumkin.

O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish turli usullar, harakatlar yordamida qotillik sodir etish yoki zo'rlik ishlatish ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Aybdorning qilmishlari Jinoyat kodeksining 155-moddasi, 1-qismi bo'yicha o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish belgilarining mavjudligiga ko'ra kvalifikatsiya qilinganida Jinoyat kodeksining 112-moddasi (o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish) bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilinmaydi.

Mol-mulkni egallab olish deganda, o'zganing mulkini qonunga xilof ravishda egallab olishni tushunish lozim, bunda uning egasiga qaytarib berilishi jinoyat subyektining davlat, xalqaro tashkilotlar, jismoniy yoki yuridik shaxslar oldiga qo'ygan talablarining bajarilishiga bog'liq.

Mol-mulkni egallab olish yashirin, zo'rlik ishlatib yoki ishlatmasdan amalga oshirilishi mumkin. *Mol-mulkni ushlab turish* – uning qonuniy egasiga qaytarilishiga to'sqinlik qilish. Shaxsni garov sifatida ushlab turish deganda, g'ayriqonuniy ravishda zo'rlik ishlatib, insonni erkin yurishidan mahrum etish tushuniladi.

Xalqaro himoya ostida bo'lgan chet el davlatlari vakolatxonalarini yoki xalqaro tashkilotlarning xizmat binolariga, ularga qarashli yoki ular ijaraga olgan uy-joy binolariga hujum qilish deganda, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi qonunga xilof ravishda zo'rlik ishlatib qo'qqisdan qilingan harakat tushuniladi.

Terrorizm ko'pchilik holatlarda portlatish, o't qo'yish yoki boshqa harakatlarni sodir etish yo'li bilan insonlarning hayotiga tahdid solish, ancha miqdordagi mulkiy ziyonni keltirib chiqarishi yoxud boshqa ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi, yoki yuqoridagi harakatlarni amalga oshirib qo'rqitish bilan sodir etiladi.

Jinoyat kodeksining 155-moddasi, 1-qismida nazarda tutilgan qilmish ushbu qonunning dispozitsiyasida nazarda tutilgan harakatlardan birortasi sodir etilgan paytdan boshlab tamom bo'lgan hisoblanadi.

Subyektiv tomondan terrorizm faqat to'g'ri qasddan sodir etilishi mumkin. Subyektiv tomon uchun jinoyatning maqsadi zaruriy belgi bo'lib hisoblanadi. Terrorizmni sodir etishdan maqsad xalqaro munosabatlarni chigallashtirish, urush chiqarish uchun ig'vo qilish yoki O'zbekiston Respublikasidagi vaziyatni beqarorlashtirishdir.

16 yoshga to'lgan, Respublika fuqarosi, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs ham terrorizm jinoyatining subyektini bo'lishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 155-moddasi, 2-qismida javobgarlik belgilangan qilmishning obyektiv tomoni davlat yo jamoat arbobi yoki davlat organi vakiliga ularning davlat yoki ijtimoiy faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan jamiyatdagi barqaror vaziyatni ishdan chiqarish yoki davlat organlari tomonidan qaror qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatish yoxud ularning siyosiy yoki boshqa ijtimoiy faoliyatiga qarshilik ko'rsatish maqsadida:

- 1) ularning hayotiga suiqasd qilishda;
- 2) ularga tan jarohati yetkazishda ifodalanadi.

Terrorizmni sodir etish natijasida badanga shikast yetkazish deganda, davlat yoki jamoat arbobi yoxud hokimiyat vakilining davlat yoki jamoatchilik faoliyatini olib borishi munosabati bilan uning badaniga har qanday og'irlikdagi (yengil, o'rtacha og'ir yoki og'ir) shikast yetkazish tushuniladi.

Tan jarohati davlat yoki jamoat arbobiga yoxud hokimiyat vakiliga aynan uning davlat yoki jamoat faoliyati munosabati bilan bog'liq holda yetkazilgan bo'lishi kerak. Agar ko'rsatib o'tilgan shaxslarning sog'lig'iga zarar ularning faoliyati munosabati bilan emas, balki boshqa holatlarda yetkazilgan bo'lsa, unda mazkur jinoyat tarkibi bo'lmaydi va aybdorning harakatlarini shaxsga qarshi jinoyat, deb kvalifikatsiya qilinadi.

Agar davlat yoki jamoat arbobi yoxud hokimiyat vakilining hayotiga suiqasd qilingan yoxud uning sog'lig'iga shikast yetkazilgan bo'lsa, Jinoyat kodeksining 155-moddasi, 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat tamom bo'lgan, deb hisoblanadi. Jinoyat kodeksining 155-moddasi, 2-qismida javobgarlik belgilangan qilmishning subyektiv tomoni uchun maqsad – vaziyatni beqarorlashtirish yoki davlat organlari tomonidan

qarorlar qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatish yoxud siyosiy yoki boshqa jamoatchilik faoliyatiga to'sqinlik qilish shartining mavjudligi zaruriy belgidir.

Agar tahlil qilinayotgan moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

- 1) odam o'lishiga;
- 2) boshqa og'ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lsa, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 155-moddasi, 3-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Terrorizm jinoyatining sodir etilishi Jinoyat kodeksining 97-moddasi (qasddan odam o'ldirish) bilan qo'shimcha ravishda kvalifikatsiya qilinmaydi, balki odam o'ldirish jinoyatini ham ko'rib chiqilayotgan modda qamrab oladi.

Terrorizmni tayyorlashda ishtirok etgan shaxs:

- agar u hokimiyat organlariga o'z vaqtida xabar berish va boshqa usul bilan og'ir oqibatlar yuzaga kelishining hamda terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko'maklashgan bo'lsa;
- harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo'lmagan hollarda jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi (Jinoyat kodeksining 155-moddasi, 4-qismi).

Terrorizm natijasida boshqa og'ir oqibatlarining kelib chiqishi deganda, ko'plab odamlarga og'ir tan jarohati yetkazilishi, binolar va inshootlarning vayron qilinishi yoki yo'q qilib tashlanishi, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning chigallashtirilishi yoki to'xtatilishi, muhim siyosiy va iqtisodiy ahamiyatga ega muzokaralarning uzilib qolishi, vaziyatning beqarorlashuvini, aholi punktlaridagi hayotiy muhim obyektlarning yo'q qilinishi va shu kabilarni tushunish lozim.

*H. Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atish
(Jinoyat kodeksining 156-moddasi)*

Konstitutsiyamizning 4-moddasida «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi», deb belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (18-modda) inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklari tengligini kafolatlaydi.

Unda: «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar», deyiladi.

Konstitutsiyaning 31-moddasiga binoan «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi».

«O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, deyiladi 1991-yil 14-iyun-da qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasida, dinga munosabatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Rasmiy hujjatlarda fuqaroning dinga munosabati ko'rsatilishi mumkin emas, fuqaroning o'zi shuni istagan hol bundan mustasnodir. Fuqarolarning dinga munosabatiga qarab ularning huquqlarini cheklash va ularga imtiyozlar berish, xususan dushmanlik va adovat uyg'otish yoxud ularning diniy e'tiqodi bilan bog'liq his-tuyg'ularni haqorat qilish, shuningdek muqaddas diniy inshootlarni oyoq osti qilish qonun bilan jazolanadi».

Jinoyatning obyekti milliy, irqiy yoki diniy teng huquqlilik yoxud xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki unga e'tiqod qilmaslik erkinligi bo'ladi.

Jinoyatning obyektiv tomoni quyidagilarni:

- milliy sha'n va qadr-qimmatini kamsitishga qaratilgan harakatlar;
- diniy e'tiqod yoki his-tuyg'ularni haqoratlashga qaratilgan harakatlarni sodir etish;
- milliy, irqiy, etnik mansubligi yoki dinga munosabatiga qarab ularning huquqlarini cheklash yoxud ularga afzalliklar berishni o'z ichiga oladi.

Milliy, irqiy yoki diniy adovat qo'zg'atish boshqa millatni, irqni yoxud u yoki bu dinga e'tiqod qiluvchi shaxslarni qirishga ommaviy da'vat etish; qirg'in qilishga oshkora chaqirish; u yoki bu millat, irq vakillarini haqorat qilish, ularni xoinlikda, qo'rqqilikda ayblash, kamsitish kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ega bo‘lgan huquqlardan birortasining cheklanishi tushuniladi. Bunday kamsitilish shaxsning millati, irqi yoki diniy e‘tiqodi munosabati bilan ishga, o‘qishga qabul qilmaslik yoki imtiyozlarni cheklashda ifodalanishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 156-moddasi, 1-qismi dispozitsiyasida ko‘rsatilgan qilmishlardan birortasi sodir etilgan paytdan boshlab jinoyat tugallangan hisoblanadi, ya‘ni jinoyat tarkibini tugallangan, deb topish uchun sodir etilgan harakatlar natijasida milliy, irqiy yoki diniy adovat vujudga kelgan bo‘lishi shart emas.

Subyektiv tomondan milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atish qasddan sodir etiladi.

Aybdor tomonidan shaxsning milliy sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitilgan, diniy e‘tiqodi munosabati bilan haqoratlangan hollarda aybdorning maqsadi – adovat qo‘zg‘atish, milliy, irqiy yoki diniy mansubligiga oid belgilariga qarab kamsitish bo‘lgan yoki bo‘lmaganligini aniqlash lozim.

Mazkur jinoyatni sodir etish motivlari turlicha bo‘lishi mumkin, biroq ular jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta‘sir ko‘rsatmaydi.

Jinoyatning subyeksi 16 yoshga to‘lgan har qanday shaxs hisoblanadi. Fuqarolarning milliy, irqiy yoki diniy mansubligiga qarab ularning huquqlarini cheklash yoki afzalliklar belgilashning subyeksi mansabdor shaxs bo‘lsa, uning harakatlarini hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste‘mol qilganlik (Jinoyat kodeksining 205-moddasi) yoxud hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqqanlik (Jinoyat kodeksining 206-moddasi) uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyatlarning jami bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Jinoyat kodeksining 156-moddasi, 2-qismi bir qator jazoni og‘irlashtiruvchi belgilarni nazarda tutadi. Milliy, irqiy yoki diniy adovatni qo‘zg‘atish:

- 1) boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli usulda;
- 2) badanga og‘ir shikast yetkazgan holda;
- 3) fuqarolarni doimiy yashash joyidan zo‘rluk ishlatib ko‘chirgan holda;
- 4) mas‘ul mansabdor shaxs tomonidan;
- 5) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar hisoblanadi.

Bu jinoyatni boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli usulda sodir etish deganda, muayyan vaziyatda faqat jabrlanuvchilarning emas, balki boshqa shaxslarning ham hayoti uchun xavfli bo‘lgan usullarni qo‘llashni tushunmoq lozim.

Milliy, irqiy yoki diniy adovatni qo‘zg‘atishda aybdor bo‘lgan shaxs jabrlanuvchiga og‘ir tan jarohati yetkazganida, uning harakatlari Jinoyat kodeksining 156-moddasi, 2-qismi, «b» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi va Jinoyat kodeksining 104-moddasi bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya talab etilmaydi.

Fuqarolarni doimiy yashash joyidan zo‘rluk bilan ko‘chirish deganda, odamlarni xohishlariga zid ravishda doimiy yashab turgan joylarini tark etishga majbur qilishni tushunish lozim. Bunday hollarda, jabrlanuvchilarga nisbatan kaltaklash, yengil yoki o‘rtacha og‘ir tan jarohatlari yetkazish tarzidagi zo‘rluk ishlatilishi mumkin. Fuqarolarni ularga yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitib ko‘chirish, ularning mol-mulkini yo‘q qilish, yashab bo‘lmaydigan vaziyatni vujudga keltirish, fuqarolarni doimiy yashash joylaridan majburlab olib ketish kabilarni ham zo‘rluk ishlatib ko‘chirish, deb hisoblash kerak.

2.2. O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar

- Davlatga xoinlik qilish (Jinoyat kodeksining 157-moddasi).
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish (Jinoyat kodeksining 158-moddasi).
- O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish (Jinoyat kodeksining 159-moddasi).
- Josuslik (Jinoyat kodeksining 160-moddasi).
- Qo‘poruvchilik (Jinoyat kodeksining 161-moddasi).
- Davlat sirlarini oshkor qilish (Jinoyat kodeksining 162-moddasi).
- Davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarini yo‘qotish (Jinoyat kodeksining 163-moddasi).

*A. Davlatga xoinlik qilish
(Jinoyat kodeksining 157-moddasi)*

Davlatga xoinlik qilish O‘zbekiston Respublikasiga qarshi qaratilgan eng og‘ir qilmish bo‘lib, mazmunan o‘z xalqiga sotqinlik qilishdir. Jinoyatning obyekti O‘zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti, hududiy daxlsizligi, xavfsizligi, mudofaa salohiyati yoki iqtisodiyotiga zarar yetkazishda ifodalanuvchi davlatning tashqi xavfsizligi hisoblanadi.

Suverenitet deganda, davlatning o‘z hududida ustuvorligi va uning tashqi siyosiy faoliyat olib borishdagi mustaqilligi tushuniladi. Davlatning hududiy daxlsizligi deganda, O‘zbekiston Respublikasining butunligi, hududlari, chegaralarining bo‘linmasligi tushuniladi.

Mudofaa qobiliyati davlatning tashqaridan bo‘ladigan tajovuzni qaytarishga qaratilgan iqtisodiy, harbiy imkoniyati, ya’ni davlatning harbiy qudratidir. Davlat sirlari to‘g‘risidagi qonunda bayon qilingan davlat sirlarini o‘z ichiga olgan ma’lumotlar davlatga xoinlik qilish jinoyatining predmeti hisoblanadi. Davlat tomonidan qo‘riqlanadigan va maxsus ro‘yxatlar bilan cheklab qo‘yilgan o‘ta muhim, mutlaq maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va boshqa ma’lumotlar davlat sirlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat sirlari: davlat, harbiy va xizmat sirlariga bo‘linadi.

Davlat siri – oshkor etilishi respublikaning harbiy iqtisodiy salohiyatiga salbiy ta’sir etishi natijasida O‘zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati, davlat xavfsizligi, iqtisodiy va siyosiy manfaatlariga og‘ir zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar.

Harbiy sir – oshkor qilinishi O‘zbekiston Respublikasi mudofaa qobiliyati, davlat xavfsizligi va qurolli kuchlari uchun og‘ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan harbiy ma’lumotlar.

Xizmat siri – oshkor qilinishi O‘zbekiston Respublikasi manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan fan, texnika, ishlab chiqarish va boshqaruv sohalariga doir ma’lumotlar.

Obyektiv tomondan davlatga xoinlik qilish quyidagi shakllarda sodir etilishi mumkin:

- 1) dushman tomoniga o‘tish;
- 2) josuslik;
- 3) davlat sirlarini chet el davlatiga yetkazish;
- 4) O‘zbekiston Respublikasiga qarshi dushmanlik faoliyati olib borishda chet el davlatiga yordam ko‘rsatish.

Yuqoridagi sanalgan xoinona harakatlarning qat’iy ro‘yxatidir.

Dushman tomoniga o‘tish, ya’ni davlatga xoinlik qilishning bu shakli faqat urush davrida sodir etilishi mumkin. Dushman tomoniga o‘tish jismonan (front chizig‘idan o‘tish) yoxud dushman bosib olgan hududda u bilan hamkorlik qilishga rozilik berish tarzida sodir etilishi mumkin.

Davlatga xoinlik qilishning dushman tomoniga o'tish shaklida front chizig'idan o'tilgan yoxud dushman bilan hamkorlik qilishga rozilik berilgan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan, deb hisoblanadi. Agar shaxs jangovar harakatlar paytida asirga tushib qolsa, u jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Josuslik davlat siri hisoblangan ma'lumotlarni chet el davlatiga, chet el tashkilotiga yoki ularning josuslariga yetkazish, shuningdek yetkazish maqsadida o'g'irlash yoki yig'ish. Basharti, josuslik chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs tomonidan sodir etilsa, aybdor shaxsning harakatlari 160-modda (josuslik) bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi, josuslik O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tomonidan sodir etilsa, davlatga xoinlik qilish jinoyatining tarkibi bo'lib, xoinlik, deb kvalifikatsiya qilinadi. Josuslik jinoyatining tahliliga Jinoyat kodeksining 160-moddasi (josuslik)ni ko'rib chiqishda yanada batafsil to'xtalamiz.

B. Davlat sirlarini chet el davlatiga yetkazish

Davlat sirlarini chet el davlatiga yetkazish davlatga xoinlik qilishning shakllaridan biri bo'lib, davlat sirlarini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni chet el davlatiga yoki uning josuslariga topshirishdan iborat. Davlatga xoinlik qilish davlat sirlarini yetkazish, davlat sirlarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar chet el davlatiga topshirilgan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan jinoyat, deb hisoblanadi.

Yetkazish usullari turlicha, ya'ni axborotni yozma tarzda qilish; telefon orqali xabar qilish; davlat sirlari hisoblanuvchi ashyolarni har qanday usulda topshirish va h.k. tarzda bo'lishi mumkin. Davlat sirlarini yetkazish usullari qilmishning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi. Davlat sirlarini yetkazish, odatda ixtiyoriy tarzda sodir etiladi, biroq zo'rlash, qo'rqitish istagi ta'sirida ham amalga oshirilishi mumkin.

Jinoyatning subyekti xizmat vazifasiga ko'ra, davlat sirlari o'ziga ishonib topshirilgan yoki ish faoliyati bilan bog'liq yoxud boshqa yo'l bilan o'ziga ayon bo'lgan shaxs bo'lishi mumkin. Ularning yig'ilgan yoki o'g'irlangan hollari bundan mustasno.

Basharti, shaxs «tasodifan» davlat sirlarini bilib qolsa (masalan, davlat sirlarini o'z ichiga olgan ashyolarni topib olish) va ularning maxfiyligini anglagani holda ularni chet el davlatiga yetkazsa, u tahlil qilinayotgan modda bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak.

Davlat sirlarini yetkazish – josuslik davlatga xoinlik qilishdan shu bilan farqlanadiki, davlat sirlarini yetkazishda shaxs o'z faoliyatiga ko'ra ularga ega bo'ladi yoki ular boshqa yo'l bilan unga ma'lum bo'ladi, josuslikda esa shaxs davlat sirlarini chet el davlatiga yetkazish uchun ularni yig'adi yoki o'g'irlaydi.

O'zbekiston Respublikasiga qarshi dushmanlik faoliyati olib borayotgan davlatga yordam ko'rsatish davlatga xoinlik qilishning bir shakli bo'lib, unga O'zbekiston Respublikasiga qarshi dushmanlik faoliyati olib borayotgan chet el davlatiga yordam ko'rsatishga qaratilgan turli xil harakatlar kiradi.

Bular chet el josuslarining uchrashuvlari uchun xonani berib turish, chet el razvedkasi uchun kerakli shaxslarni yollash, murakkab hujjatlarni tayyorlash va ularni chet el josuslariga taqdim etish, O'zbekistonning tashqi xavfsizligiga putur yetkazuvchi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish kabilar bo'lishi mumkin.

Basharti, shaxs chet el davlatiga yordam ko'rsatish bilan bir qatorda boshqa jinoyatlarni sodir etsa (masalan, chet el davlati topshirig'iga binoan qo'poruvchilik sodir etgan bo'lsa), unda uning harakatlari jinoyatlarning jami bo'yicha Jinoyat kodeksining 157-moddasi va 161-moddasi (qo'poruvchilik) bilan kvalifikatsiya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasiga qarshi dushmanlik faoliyati olib borishda chet el davlatiga yordam ko'rsatish shaklidagi davlatga xoinlik qilish shunday yordam ko'rsatishga qaratilgan har qanday harakat sodir etilgan paytdan boshlab tamom bo'lgan hisoblanadi.

Subyektiv tomondan davlatga xoinlik qilish faqat to'g'ri qasddan sodir etiladi. Davlatga xoinlikda aybdorning maqsadi O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy daxlsizligi, xavfsizligi, mudofaa salohiyati va iqtisodiyotiga zarar yetkazishdan iborat. Jinoyatning motivlari har xil bo'lishi mumkin va ular qilmishning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi.

Davlatga xoinlik qilishning subyekti faqat O'zbekiston Respublikasining 16 yoshga to'lgan fuqarosi bo'lishi mumkin. Jinoyat kodeksining 157-moddasi, 2 va 3-qismlarida rag'batlantiruvchi normalar mavjud bo'lib, ularda sotqinlik qilgan shaxsga o'z davlati manfaatlariga zarar yetkazilishining oldini olish va jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi uchun oxirgi imkoniyat beriladi.

157-moddaning 2-qismida: «Chet el davlati yoki tashkiloti tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga qarshi qaratilgan davlatga zarar yetkazuvchi faoliyatni amalga oshirishda hamkorlik qilish uchun jalb qilingan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi o‘zining bunday hamkorligi to‘g‘risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda arz qilsa, uning faoliyati esa, respublika manfaatlariga zarar yetkazmagan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi», deyilgan, ya‘ni Jinoyat kodeksining 157-moddasi bo‘yicha javobgarlikdan ozod etish uchun davlatga xoinlik qilishda aybli bo‘lgan shaxs quyidagi ikki shartni bajarishi zarur:

1. O‘zining chet el davlati bilan hamkorligi to‘g‘risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy xabar qilishi.
Ixtiyoriylik fuqaroning chet el davlati bilan o‘zining hamkorligi to‘g‘risida, bunday aloqaning tegishli organlarga ma‘lum bo‘lmasidan oldinroq, hokimiyat organlariga xabar qilish lozimligini bildiradi;
2. Shaxsning chet el razvedkasi bilan hamkorligi O‘zbekiston Respublikasi manfaatlariga zarar yetkazmagan bo‘lishi kerak.

Yuqoridagi shartlar mavjud bo‘lgan taqdirdagina shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi.

Jinoyat kodeksining 157-moddasi, 3-qismida: «Basharti, O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi, o‘z qilmishi to‘g‘risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda xabar qilib, jinoyatni ochishga faol yordam bergan va buning natijasida davlat uchun kelib chiqishi mumkin bo‘lgan og‘ir oqibatlarining oldi olingan bo‘lsa, jazodan ozod qilinadi», deb belgilab qo‘yilgan.

Jinoyat kodeksining 157-moddasi, 3-qismi o‘ziga xos xususiyati shundaki, chet el davlati bilan hamkorlik qilgan aybdor shaxs, mazkur qismda nazarda tutilgan shartlarga rioya etilgan holda jinoiy javobgarlikka tortiladi, unga sud tomonidan jazo tayinlanadi, lekin u jazoni o‘tashdan ozod qilinadi.

D. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish (Jinoyat kodeksining 158-moddasi)

Mazkur jinoyatning Jinoyat kodeksining «O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar» bobiga kiritilganligi bejiz emas, negaki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti «fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir, O‘zbekiston Respublikasi suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy – davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi», shuningdek, Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan boshqa vakolatlarni ham bajaradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 91-moddasida «...Prezidentning shaxsi daxlsizdir va u qonun bilan muhofaza etiladi», deb yozilgan.

Ushbu modda uch qismdan iborat. O‘zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti, xavfsizligi, mudofaa salohiyati, iqtisodiyot asoslari tahlil qilinayotgan qilmishning o‘xshash obyekti bo‘lib hisoblanadi. Jinoyatning bevosita obyekti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hayoti, sog‘lig‘i, sha‘ni va qadrimmatidir.

Jinoiy qilmishning obyektiv tomondan:

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hayotiga tajovuz qilish;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti badaniga shikast yetkazish;
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini omma oldida haqoratlash yoki unga tuhmat qilish, shuningdek, matbuot yoki boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda uni haqoratlash yoki unga tuhmat qilishda ifodalanadi.

Hayotga tajovuz qilish aybdor shaxs tomonidan o‘ldirishga qaratilgan har qanday harakat sodir etilishini bildiradi. Prezidentning hayotiga tajovuz qilish, vujudga kelgan oqibatlaridan qat‘iy nazar, tamom bo‘lgan jinoyat, deb hisoblanadi. Prezidentning hayotdan mahrum etilgan-etilmaganligi jinoyatning kvalifikatsiyasi uchun ahamiyatga ega emas. Prezidentning hayotidan mahrum qilishga qasd qilingan shaxs Jinoyat kodeksining 158-moddasi, 1-qismi bo‘yicha javobgarlikka tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining badaniga qasddan shikast yetkazilsa, uning og‘irlik darajasidan (badanga og‘ir, o‘rtacha og‘ir, yengil shikast yetkazilganidan) qat‘iy nazar, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 158-moddasi, 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyat kodeksining 158-moddasi, 2-qismida nazarda tutilgan qilmish badanga shikast yetkazilgan paytdan boshlab tamom bo'lgan jinoyat, deb hisoblanadi. Basharti, shaxs badanga jarohat yetkazishga qasd qilgan bo'lsa, ammo shaxsning o'ziga bog'liq bo'lmagan holda, sog'liqqa zarar yetkazilmagan bo'lsa, u Jinoyat kodeksining 25-moddasi, 2-qismi va 158-moddasi, 2-qismi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti badaniga shikast yetkazishga suiqasd qilganlik uchun javobgarlikka tortilishi lozim.

Omnia oldida haqoratlash deganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sha'ni va qadr-qimmatining ko'pchilik o'rtasida (masalan, mitinglar, yig'ilishlar, ma'ruzalar, konferensiyalar, seminarlar, odamlar to'plangan boshqa joylarda) kamsitilishini tushunish lozim. Haqoratlash Prezident sha'nini yerga urib, beadablarcha so'kinish, odobsiz iboralarni yozish yoki ularni aytish va boshqa tarzda ifodalanishi mumkin.

Tuhmat deganda, Prezidentni sharmanda qilish, haqiqatda bo'lmagan, yolg'on yoki aybdor tomonidan buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni tarqatish tushuniladi. Matbuot yoki boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish deganda, yolg'on yoki Prezidentni sharmanda qiluvchi ma'lumotlarni kitob, jurnal, varaqalar va h.k. yoki radio, televideniye, videokassetalar orqali tarqatish tushuniladi.

Prezidentni ko'pchilik oldida haqoratlash yoki unga tuhmat qilish haqorat yoki tuhmat xususiyatiga ega bo'lgan harakatlar sodir etilgan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan jinoyat deb hisoblanadi. Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Jinoyatning motivi va maqsadi uning kvalifikatsiyasi uchun ahamiyatli emas.

16 yoshga to'lgan, har qanday aqli raso shaxs qilmishning subyeksi bo'lishi mumkin. Basharti, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish 16 yoshga to'lmagan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, u shaxsga qarshi qaratilgan jinoyat uchun javobgarlikka tortiladi.

*E. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy
tuzumiga tajovuz qilish
(Jinoyat kodeksining 159-moddasi)*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida «Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayidir», deb belgilab qo'yilgan.

«O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi» (Konstitutsiyaning 7-moddasi).

«O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir», deyiladi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 3-moddasida. Tahlil qilinayotgan, Jinoyat kodeksining 159-moddasi besh qismdan iborat.

Jinoyatning obyeksi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan davlat tuzumi, suvereniteti, respublika hududining bo'linmasligi va daxlsizligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining tashqi xavfsizligidir.

Jinoyat kodeksining 159-moddasi, 1-qismida nazarda tutilgan qilmishning obyektiv tomoni: 1) amaldagi davlat tuzumini Konstitutsiyaga xilof tarzda o'zgartirish; 2) hokimiyatni bosib olish; 3) qonuniy ravishda saylab qo'yilgan yoki tayinlangan hokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlashtirish; 4) O'zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini Konstitutsiyaga xilof tarzda buzishga ochiqdan-ochiq da'vat qilish, shuningdek, bunday mazmundagi materiallarni tarqatishdan iborat.

Ochiqdan-ochiq da'vat qilish aholi oldida og'zaki yoki yozma shaklda mavjud davlat tuzumini o'zgartirish, davlat hokimiyati organlariga bo'ysunmaslik, ish tashlash va h.k.larga undovchi chiqishlardan iborat. Hokimiyatni bosib olish deganda, hokimiyat vakilini uning xohishiga qarshi o'z vazifalarini bajarishdan chetlashtirish va bu vazifalarni boshqa shaxsga yoki bir guruh shaxslarga o'zboshimchalik bilan yuklash tushuniladi.

Hokimiyat vakillari jumlasiga davlat hokimiyati organi vakili bo'lgan, muayyan vazifalarni muntazam yoki vaqtincha bajarayotgan va o'z vakolati doirasida fuqarolar yoki mansabdor shaxslarning ko'pchiligi yoki barchasi uchun majburiy harakatlar qilish yoki farmoyishlar berish huquqiga ega bo'lgan shaxslar kiradi. Ular jumlasiga: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, barcha darajalardagi hokimlar va ularning o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyat va tuman kengashlarining deputatlari, sudyalar, prokuratura, MXX va IIV organlarining xodimlari va shu kabilar kiradi.

Ma'lumotlarni tarqatish deganda, mavjud davlat tuzumini Konstitutsiyaga xilof tarzda o'zgartirishga da'vat qiluvchi varaqalar, gazetalar, jurnallar yoki boshqa adabiyotlarni yoxud materiallarni turli joylarga yopishtirish, tarqatish tushuniladi.

Jinoyat kodeksining 159-moddasi, 1-qismida nazarda tutilgan jinoy qilmishlar mavjud davlat tuzumini o'zgartirishga, hokimiyatni haqiqatda bosib olishga yoki qonuniy saylab qo'yilgan yoki tayinlangan hokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlatishga yoxud O'zbekiston Respublikasi hududining yaxlitligini o'zgartirishga sabab bo'lgan yoki bo'lmaganligidan qat'iy nazar, sodir etilgan paytidan boshlab tamom bo'lgan jinoyat, deb hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 159-moddasi, 2-qismida javobgarlik belgilangan qilmishning obyektiv tomoni:

1) Konstitutsiyaviy hokimiyat organlarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki ularni Konstitutsiyada nazarda tutilmagan parallel hokimiyat tuzilmalari bilan almashtirishga qaratilgan zo'rvonlik harakatlarini sodir etishdan;

2) davlat hokimiyati vakolatli organlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilmagan tartibda tuzilgan hokimiyat tuzilmalarini tarqatib yuborish to'g'risidagi qarorlarini belgilangan muddatda bajarmaslikdan iborat.

Yuqoridaga harakatlar sababli badanga shikast yetkazilganida (og'ir shikast yetkazishdan tashqari) qilmish Jinoyat kodeksining 159-moddasi, 2-qismi bilan qamrab olinadi va sog'liqqa qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan tegishli modda bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilinmaydi.

Konstitutsiyaviy davlat hokimiyati organlarini Konstitutsiyada nazarda tutilmagan parallel hokimiyat tuzilmalari bilan almashtirish Konstitutsiyada nazarda tutilmagan har qanday darajadagi yangi hokimiyat organlarini tuzishdan va davlat masalalarini qonunga xilof tarzda tuzilgan shu davlat hokimiyati tuzilmalaridan foydalangan holda hal etishga urinishdan iborat.

Davlat hokimiyati vakolatli organlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilmagan tartibda tuzilgan tuzilmalarni tarqatib yuborish to'g'risidagi qarorlarini belgilangan muddatda bajarmaslik qonunga xilof tarzda tuzilgan tuzilmalarning yetakchilari tomonidan sudning shu tuzilmalarning faoliyatini tugatish va ularni tarqatib yuborish to'g'risidagi qarorlarini ijro etmaslikdan iborat.

Jinoyat kodeksining 159-moddasi, 3-qismida shu moddaning 1 yoki 2-qismida ko'rsatib o'tilgan harakatlarning jazoni og'irlashtiradigan holatlarda sodir etilganligi uchun javobgarlik nazarda tutiladi, xususan:

- 1) jinoyatning takroriy yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilganligi;
- 2) jinoyatning uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlagan holda sodir etilganligi.

Subyektiv tomondan Jinoyat kodeksining 159-moddasi, 1, 2, 3-qismlarida nazarda tutilgan harakatlar qasddan sodir etiladi. Jinoyatni sodir etishdan maqsad O'zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini o'zgartirishdir. Jinoyat motivlari turlicha bo'lishi mumkin, ya'ni mavjud konstitutsiyaviy tuzumga, qonuniy saylab qo'yilgan davlat arboblari ga nafrat bilan qarash va hokazo. Bu harakatlar chet el davlatining topshirig'iga binoan sodir etilgan taqdirda, aybdor davlatga xoinlik qilganlik uchun ham javobgar bo'ladi.

Jinoyat kodeksining 159-moddasi, 4-qismida nazarda tutilgan jinoyatning obyektiv tomoni hokimiyatni bosib olish yoki O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini ag'darib tashlash maqsadida fitna uyushtirishdan iboratdir.

Fitna – ikki yoki undan ortiq shaxslarning hokimiyatni bosib olish yoki konstitutsiyaviy tuzumni agʻdarib tashlashga qaratilgan jinoiy harakatni sodir etish uchun oʻz kuchlarini birlashtirishga kelishishi.

Agar fitna chet el davlatining topshirigʻiga binoan sodir etilgan boʻlsa, Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosining harakatlarini Jinoyat kodeksining 157-moddasi (davlatga xoinlik qilish) bilan ham jinoyatlar jamiga koʻra kvalifikatsiya qilinadi. Hokimiyatni bosib olish yoki Oʻzbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini agʻdarib tashlash uchun jinoiy guruh tuzilgan paytdan eʼtiboran, jinoiy maqsadga erishishga qaratilgan harakat sodir etilgan yoki etilmaganidan qatʼiy nazar, fitna tamom boʻlgan jinoyat, deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan fitna qasddan sodir etiladi. Maqsad – hokimiyatni bosib olish yoki konstitutsiyaviy tuzumni agʻdarib tashlash. Jinoyatning sodir etilish motivlari uning kvalifikatsiyasi uchun ahamiyat kasb etmaydi. 16 yoshga toʻlgan har qanday shaxs Oʻzbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish jinoyatining subyeksi boʻlishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 159-moddasi, 5-qismida fitnada qatnashuvchi shaxslarni jazodan ozod qilish shartlari nazarda tutilgan boʻlib, ular:

- 1) fitna toʻgʻrisida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda xabar berish;
- 2) hokimiyatni bosib olish yoki konstitutsiyaviy tuzumni agʻdarib tashlashning oldini olishdan iborat.

Bunday ragʻbatlantiruvchi normaning mavjudligi davlat uchun xavfli oqibatlar yuzaga kelishini bartaraf etish imkonini beradi.

F. Josuslik (Jinoyat kodeksining 160-moddasi)

Jinoyat kodeksida chet el fuqarosi yoki fuqaroligi boʻlmagan shaxsning davlat siri hisoblangan maʼlumotlarni chet el davlati, chet el tashkiloti yoxud ularning agenturasiga yetkazishi, shuningdek, yetkazish maqsadida qoʻlga kiritishi yoki yigʻishi kabi harakatlari josuslik, deb belgilangan.

Josuslikning obyeksi Oʻzbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy daxlsizligi, xavfsizligi, mudofaa salohiyati, iqtisodiyoti asoslari boʻlishi mumkin. Jinoyatning obyektiv tomoni davlat siri hisoblangan maʼlumotlarni chet el davlati, chet el tashkiloti yoxud ularning agenturasiga:

- 1) yetkazish;
- 2) yetkazish maqsadida qoʻlga kiritish;
- 3) yetkazish maqsadida yigʻish kabi jinoiy harakatlarni bajarishdan iborat.

Davlat siri boʻlgan maʼlumotlarni yetkazish, deganda davlat sirlarini oʻzga shaxsga ogʻzaki yoki yozma shaklda xabar qilish tushuniladi. Yetkazish har xil usulda: qoʻldan qoʻlga, vositachi orqali yozma xabarda, videokasseta orqali, telefon orqali, radioaloqa orqali, xufiya joyga qoʻyish orqali va h.k. usullarda amalga oshirilishi mumkin. Yetkazish usuli jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Chet el davlati, chet el tashkiloti va ularning agenturasiga davlat sirlarini yetkazish shaklidagi josuslik davlat sirlari ularni oluvchiga xabar qilingan paytdan boshlab tamom boʻlgan hisoblanadi. Davlat sirlarini oʻgʻrilash yashirin yoki oshkora, zoʻrlilik ishlatib yoki ishlatmasdan sodir etilishi mumkin.

Davlat sirlari zoʻrlilik ishlatib qoʻlga kiritilganida aybdorning harakatlari jinoyatlarning jami boʻyicha kvalifikatsiya qilinishi lozim. Qoʻlga kiritilgan davlat sirlarini oluvchiga yetkazish shaklidagi josuslik aybdor shaxsning davlat sirlarini qoʻlga kiritgan paytdan eʼtiboran tamom boʻlgan jinoyat, deb hisoblanadi.

Josuslikning davlat sirlarini yigʻish shakli ularni oʻgʻrilab qoʻlga kiritishdan tashqari, har qanday yoʻl bilan axtarib topishdan iborat. Yigʻish: koʻz bilan kuzatish, fotosuratga olish, yashirincha eshitib olish va h.k. usullarda amalga oshirilishi mumkin. Davlat sirlarini yigʻishda qanday usullar qoʻllanilganligi josuslikni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

Josuslikning davlat sirlarini yigʻish shakli davlat sirlari chet el davlati, chet el tashkiloti yoki ularning agenturasiga yetkazish maqsadida yigʻilgan paytdan boshlab tamom boʻlgan jinoyat, deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan josuslik qasddan sodir etiladi. Jinoyatning motiv va maqsadi har xil bo'lishi mumkin, lekin ular qilmishning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi. Josuslikning subyektiv 16 yoshga to'lgan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 160-moddasi, 2-qismi rag'batlantiruvchi norma bo'lib, unga ko'ra quyidagi hollarda aybdor:

1) chet el razvedkasi bilan o'zining hamkorlik qilgani to'g'risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda ma'lum qilsa;

2) chet el razvedkasidan olingan topshiriqni bajarish uchun hech qanday harakat sodir etmagan bo'lsa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi.

Jinoyat kodeksining 160-moddasi, 3-qismida josuslik faoliyatini olib borganlik uchun jazodan ozod qilish shartlari ko'rsatilgan bo'lib, ular:

1) josuslik faoliyatini ixtiyoriy ravishda to'xtatish va qilmish to'g'risida hokimiyat organlariga ma'lum qilish;

2) jinoyatning ochilishi va davlat uchun kelib chiqishi mumkin bo'lgan og'ir oqibatlarining oldini olishga ko'maklashishdan iborat.

Davlat uchun og'ir oqibatlarining kelib chiqishi deganda, O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy daxlsizligi, xavfsizligi, mudofaa qobiliyati, iqtisodiyotiga zarar yetkazilishi tushuniladi.

G. Qo'poruvchilik (Jinoyat kodeksining 161-moddasi)

Qo'poruvchilikning obyekti O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligi va mudofaa qobiliyatidir. Qo'poruvchilik sodir etilgan aksariyat hollarda odamlar qurbon bo'ladi, ommaning sog'lig'iga zarar yetkaziladi, zavodlar, turli inshoot (tunnellar, metropolitenlar, ko'priklar, gidroelektrostansiyalar, temiryo'llar, suv va gaz ta'minoti tarmoqlari va h.k.)lar ishdan chiqariladi yoki yo'q qilinadi.

Obyektiv tomondan qo'poruvchilik:

1) odamlarni qirib yuborish;

2) yoki ularning sog'lig'iga ziyon yetkazish;

3) yoxud mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish kabi harakatlarni sodir etishdan iborat bo'ladi.

Qo'poruvchilik odatda, barcha uchun xavfli usulda – portlatish, suv bostirish, o't qo'yib yuborish, yalpi zaharlash, epidemiyalar, epizootiyalar tarqatish yo'li bilan sodir etiladi.

Odamlarni qirib yuborish deganda, ikki yoki undan ortiq kishining nobud bo'lishini tushunish lozim. Odamlar sog'lig'iga ziyon yetkazish deganda, ikki yoki undan ortiq kishiga o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohatlari yetkazilishini tushunish lozim.

Mulkka shikast yetkazish – ashyo, buyumlarni qisman yaroqsiz holga keltiriladi, bunda ularni qayta tiklash imkoniyati bo'ladi. Mulkni nobud qilish deganda, mulkni qayta tiklab bo'lmaydigan darajada yaroqsiz holga keltirilishi tushuniladi.

Qo'poruvchilik odamlarni qirib yuborish, ularning sog'lig'iga ziyon yetkazish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilishga qaratilgan harakatlar sodir etilgan paytdan boshlab tamom bo'lgan jinoyat, deb hisoblanadi.

Odamlarning qurbon bo'lishi, ularning sog'lig'iga ziyon yetkazilishi, mulkka shikast yetkazilishi yoki uning nobud qilinishi kabi oqibatlarining ro'y bergan yoki bermaganligi qo'poruvchilikni tamom bo'lgan jinoyat, deb hisoblash uchun ahamiyatsizdir, ammo bu oqibatlarining mavjudligi sud tomonidan jazo tayinlashda hisobga olinishi lozim.

Subyektiv tomondan qo'poruvchilik qasddan sodir etiladi. Qo'poruvchilikning maqsadi O'zbekiston Respublikasining davlat organlari faoliyatini yoki ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish yoki iqtisodiyotiga putur yetkazishdan iborat.

Agar aybdor shaxs odamlarni qira turib, ularning sog'lig'iga ziyon, mulkka zarar yetkazayotib yoki uni nobud qilayotib, davlat organlari faoliyati yoki ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish yoxud iqtisodiyotga putur yetkazish maqsadini ko'zlamagan bo'lsa, u holda aybdor shaxsga qarshi yoki mulkka qarshi jinoyatni sodir etganlik uchun javobgar bo'ladi.

Qo'poruvchilikni sodir etish motivi turlicha (o'ch olish, nafratlanish, g'araz va h.k.) bo'lishi mumkin, ammo bular jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega bo'lmaydi. Qo'poruvchilikning subyekti 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

Agar qo'poruvchilik O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tomonidan chet el davlati yoki chet el davlati josusligi topshirig'iga binoan sodir etilsa, uning harakatlari Jinoyat kodeksining davlatga xoinlik qilish uchun javobgarlik belgilangan 157-moddasi va Jinoyat kodeksining 161-moddasi qo'poruvchilik moddalari bilan kvalifikatsiya qilinadi.

H. Davlat sirlarini oshkor qilish (Jinoyat kodeksining 162-moddasi)

Tahlil etilayotgan jinoyatning obyektini O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy daxlsizligi, mudofaa qobiliyati, iqtisodiyoti va davlat xavfsizligidir.

Obyektiv tomondan qilmishda davlatga xoinlik alomatlari bo'lmasa, davlat sirlarini:

- 1) oshkor qilishda;
- 2) yoki o'zgaga berishda ifodalanadi.

Davlat sirlarini oshkor qilish deganda, davlat sirlaridan ularni bilishi lozim bo'lmagan shaxslarning voqif bo'lishi va bu ma'lumotlarning oshkor etilishi tushuniladi.

Oshkor qilish og'zaki yoki yozma shaklda amalga oshirilishi mumkin. Davlat sirlarini bilishi lozim bo'lmagan shaxslar doirasi turlicha: qarindoshlar, do'stlar yoki boshqa shaxslar bo'lishi mumkin.

Davlat sirlarini oshkor qilish faol harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan ham sodir etilishi mumkin. Masalan, maxfiy hujjatlarni, qurol-yarog' namunalari, ularning taktik-texnik ma'lumotlarini yot shaxslar oldida namoyish qilish, davlat sirlarini ma'ruzalarda, televideniye, radio orqali chiqishlarda hamma ma'lum qilish shular jumlasidandir.

Davlat sirlarini saqlash qoidalarini buzish, ularni asrash choralarini ko'rmaslik qilmishlari harakatsizlik bilan ham sodir etilishi mumkin. Masalan, maxfiy hujjatlar ustida ishlab turgan xodim ularni ko'rinadigan joyda qoldirib, chekishga chiqib ketadi va natijada yot shaxslar hujjatlar bilan tanishib chiqadilar. Davlat sirlarining qancha yot shaxslarga ma'lum ekanligi jinoyat tarkibi uchun ahamiyatga ega bo'lmaydi. Biroq jazo tayinlashda bunday holat sud tomonidan hisobga olinishi lozim. Chunki tanishish huquqiga ega bo'lmagan ko'pgina shaxslarning davlat sirlaridan voqif bo'lishi O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini uchun juda katta xavf tug'diradi. Davlat sirlarining o'zgaga berilishi og'zaki yoki yozma, telefon, radio orqali va boshqa tarzda ham bo'lishi mumkin.

Davlat sirlarini oshkor qilish shu sirlar yot shaxslarga ma'lum bo'lib qolgan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan jinoyat hisoblanadi. Davlat sirlarining oshkor bo'lishi mumkinligi xavfi vujudga kelgan hollarda bu jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi. Masalan, davlat sirlari hisoblanuvchi ma'lumotlar ustida ishlovchi shaxs ishni tugatganidan keyin ularni seyfga joylab qo'yilmaydi, ma'lumotlarni ish qoidalarini buzgan holda ish stoli ustida qoldiradi. Farrosh ayol xonani yig'ishtirayotganida ularga e'tibor bermaydi. Bunday hollarda, davlat sirlari bilan ishlash to'g'risidagi yo'riqnomani buzgan shaxslarni intizomiy javobgarlikka tortish masalasi qo'yilishi lozim.

Subyektiv tomondan davlat sirlarini oshkor qilish qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilishi mumkin. Biroq, har bir muayyan holda aybdorning davlat sirlarini oshkor qilayotganligini aniq bilganligini aniqlash zarur, aks holda, ushbu jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi.

Jinoyatning motivi va maqsadi turlicha (masalan, maqtanchoqlik, o'zining ma'lumotlardan xabardorligini, mavqeyini ko'rsatib qo'yish istagi va h.k.) bo'lishi mumkin. Davlat sirlarini oshkor qilishni davlatga xoinlikning shakllaridan biri bo'lgan davlat sirlarini yetkazishdan farqlash lozim. Davlat sirlarini oshkor qilishda aybdor bo'lgan shaxs O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, hududiy daxlsizligi, xavfsizligi, mudofaa qobiliyati, iqtisodiyotiga zarar yetkazishga qasd qilmaydi.

Davlat sirlarini oshkor qilish jinoyatining subyekti faqat davlat sirlari o'ziga ishonib topshirilgan yoxud xizmat yoki kasb faoliyati yuzasidan ulardan xabardor bo'lgan shaxs bo'lishi mumkin.

Agar davlat sirlari, bu sirlar xizmat yoki kasb faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan holda o'ziga ma'lum bo'lib qolgan shaxs tomonidan oshkor etilsa, bu shaxs mazkur jinoyatning subyekti bo'la olmaydi. Jinoyat kodeksining 162-moddasi, 2-qismida davlat sirlarini oshkor etganlik og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan holat uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Og'ir oqibatlar deganda, davlat sirlari to'g'risidagi ma'lumotlarning chet el davlati, chet el tashkiloti yoki ularning agenturasiga ma'lum bo'lib qolganligi yoxud O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy mustaqilligi, xavfsizligi, mudofaa qobiliyati, iqtisodiyotiga zarar yetkazilganligi tushuniladi.

*I. Davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan
hujjatlarni yo'qotish
(Jinoyat kodeksining 163-moddasi)*

Davlat sirlari bilan ishlovchi shaxslar davlat sirlari bilan ishlashga doir yo'riqnomalarida ko'rsatilgan barcha qoidalarga qat'iy rioya etishlari shart. Davlat sirlari bilan ishlashga doir yo'riqnomalarda ko'rsatilgan qoidalarini buzish ba'zi hollarda davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Bunda ular bilan yot shaxslarning tanishib chiqishi va O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga zarar yetkazilishiga aniq imkoniyatlar yaratiladi.

Jinoyatning obyekti O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy daxlsizligi, xavfsizligi, mudofaa qobiliyati, davlat siri yoki harbiy sir bo'lish mumkin. Jinoyatning predmeti faqat davlat siri yoki harbiy sir hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat davlat siri yoki harbiy sir bo'lgan hujjatlar, ashyo yoki moddalarni yo'qotishdan (mazkur yo'qotish hujjatlar, ashyo va moddalar bilan muomala qilish qoidalari buzilganligi natijasida ro'y berganida) iborat bo'ladi. Hujjatlar, davlat siri yoki harbiy sirni ifodalovchi ashyo yoki moddalarning shu sirlar egasining qonuniy egaligidan uning xohishiga zid ravishda chiqib ketishini, yo'qotish, deb hisoblash lozim.

Agar yo'qotish natijasida davlat sirlari bilan boshqa kishilar tanishib chiqishi uchun real xavf mavjud bo'lgan bo'lsa, davlat sirlarini yo'qotish jinoyat hisoblanadi. Jinoyatning obyektiv tomoni uchun davlat sirlari bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzish va buzishning oqibati sifatida davlat sirlari yo'qotilishi va ular bilan tanishib chiqish xavfining vujudga kelishi zaruriy belgi hisoblanadi.

Agar davlat sirlari bilan muomalada bo'lish qoidalari buzilmagan, lekin shunga qaramay, ular yo'qotilgan (masalan, davlat sirlari bilan ishlovchi xodim ishdan keyin, davlat sirlari bilan muomalada bo'lishning barcha qoidalariga rioya etgan holda hujjatlarni seyfga qo'ygan, uni yopgan, muhrlagan va saqlash uchun topshirgan, biroq, hujjatlar o'g'irlangan) bo'lsa, ushbu jinoyatning tarkibi mavjud bo'lmaydi.

Agar davlat sirlari bilan ishlovchi shaxsning ish vaqtida e'tiborsizligi sababli hujjatlar (masalan, axlatga qo'shib yoqib yuborilsa) bunda ham mazkur jinoyatning tarkibi mavjud bo'lmaydi. Agar bu kishi mansabdor shaxs bo'lsa, uning beparvoligi to'g'risidagi masala alohida ko'rib chiqilishi lozim.

Yo'qotish deganda, davlat sirlarining butunlay yo'qotilishini, agar ularning mazmuni bilan yot kishilar tanishib chiqishi uchun real xavf mavjud bo'lsa, ularning o'z egasining qonuniy egaligidan qisqa fursatga chiqib ketishini ham tushunish lozim.

Davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo'qotish mazkur hujjatlar shaxsning qonuniy egaligidan uning xohishiga zid ravishda chiqib ketgan va ular bilan yot shaxslar tanishib chiqishi uchun real xavf vujudga kelgan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan jinoyat hisoblanadi.

Subyektiv tomondan tahlil etilayotgan jinoyat faqat ehtiyotsizlik oqibatida, ya'ni jinoiy o'z-o'ziga ishonish yoki jinoiy beparvolik tufayli sodir etiladi. Jinoyatning subyekti xizmat yoki kasb faoliyati yuzasidan davlat siri yoki harbiy sir ishonib topshirilgan va 16 yoshga to'lgan shaxs bo'lishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 163-moddasi, 2-qismida davlat siri yoki harbiy sir yozilgan hujjatlarni yo'qotganlik og'ir oqibatlarga sabab bo'lganligi uchun javobgarlik ko'zda tutilgan. Og'ir oqibatlar deganda, sirlarning chet el davlati, chet el tashkiloti yoki ularning agenturasiga ma'lum bo'lib qolishi yoxud O'zbekiston Respublika-

sining suvereniteti, hududiy daxlsizligi, mudofaa qobiliyati, xavfsizligi, iqtisodiyotiga zarar yetkazilishi tushuniladi.

Jinoyat kodeksining 163-moddasi, 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat davlat siri yoki harbiy sir yozilgan hujjatlar yo'qotilishi natijasida og'ir oqibatlar yuzaga kelgan paytdan boshlab tamom bo'lgan, deb hisoblanadi.

1. Urushni targ'ib qilish deganda nima tushuniladi?
2. Ayblanuvchining harakatlarini Jinoyat kodeksining 150-moddasi (urushni targ'ib qilish) bilan kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Agressiya tushunchasi, uning turlari va usullari.
4. Agressiya urushini rejalashtirish va tayyorlash deganda nima tushuniladi?
5. Agressiyaning urushni targ'ib qilishdan farqi.
6. Urushning qonun va udumlari deganda nima tushuniladi? Ularni buzish nima?
7. Genotsid nima? Uning obyektiv tomoni.
8. Jismoniy, ijtimoiy-iqtisodiy, shuningdek, biologik genotsid deganda nima tushuniladi?
9. Yollanish tushunchasi va uning xususiyatlari. Ushbu jinoyat subyektining o'ziga xos xususiyatlari.
10. Terrorizm tushunchasi va turlari, uning shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishdan, tovlamachilik va odam o'g'rilash jinoyatlaridan farqi?
11. Milliy, irqiy yoki diniy adovat qo'zg'atish deganda nima tushuniladi? Ushbu jinoyatni kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari.
12. Jinoyat kodeksining 156-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning vijdon erkinligi yoki fuqarolar teng huquqliligini buzish jinoyatidan qanday farqi bor?
13. Davlatga xiyonat qilish nimalarda ifodalanadi? Ushbu jinoyatni sodir etgan shaxslarni javobgarlikdan va jazodan ozod qilishning shartlari qanday?
14. Davlatga xiyonat qilishning bir turi sifatida josuslik tushunchasi va uni kvalifikatsiya qilish shartlari?
15. Jinoyat kodeksida davlatga xiyonat qilishning qanday turlari nazarda tutilgan?
16. Jinoyat kodeksining 158-moddasida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish) nazarda tutilgan jinoyat obyektining o'ziga xos xususiyatlari.
17. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish tushunchasi, ushbu jinoyatni sodir etgan shaxslarni javobgarlikdan ozod qilish shartlarini bayon eting.
18. Josuslik tushunchasi va uning zaruriy belgilari. Josuslik sodir etgan shaxslarni javobgarlik va jazodan ozod qilish shartlari qanday?
19. Josuslikning davlatga xiyonat qilishdan farqi.
20. Qo'poruvchilik tushunchasi va uning shakllari. Ushbu jinoyatni kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
21. Davlat sirini oshkor qilishning davlatga xiyonat qilishdan farqini ko'rsatib bering.
22. Davlat sirlari deganda nimalarni tushunasiz?
23. Davlat sirlarini oshkor qilishning qanday turlari mavjud?
24. Davlat sirini oshkor qilishni kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari.
25. Davlat sirlarini oshkor qilishning davlat siri hisoblangan yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo'qotishdan farqlari qanday?
26. Davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo'qotganlik uchun jinoiy javobgarlikning kelib chiqish shartlarini bayon eting.
27. Jinoyat kodeksining 163-moddasi, 2-qismiga binoan og'ir oqibatlar deganda nima tushuniladi?

3-bob. IQTISODIYOT SOHASIDAGI JINOYATLAR

3.1. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar tushunchasi va turlari

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik Jinoyat kodeksining uchinchi bo‘limida belgilangan bo‘lib, u o‘zgarar mulkini talon-taroj qilish (X bob), o‘zgarar mulkini talon-taroj qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoyatlar (XI bob), iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar (XII bob), xo‘jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar (XIII bob)lardagi 164–192-moddalarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 53–55-moddalarida bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi, davlat iste‘molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlashi, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi, mulkdor mulkiga o‘z xohishicha egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi, yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylik ekanligi, ulardan oqilona foydalanish zarurligi va ular davlat muhofazasida ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Yuqoridagi belgilangan konstitutsiya norma talablarini ustuvorligini ta‘minlash maqsadida Jinoyat kodeksining uchinchi bo‘limi shu munosabatlar bilan bog‘liq jinoyat qilmishlar uchun javobgarlikni o‘z ichiga oladi.

3.2. O‘zgarar mulkini talon-taroj qilish

O‘zgarar mulkini talon-taroj qilish jinoyatlariga bosqinchilik (Jinoyat kodeksining 164-moddasi), tovlamachilik (Jinoyat kodeksining 165-moddasi), talonchilik (Jinoyat kodeksining 166-moddasi), o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-taroj qilish (Jinoyat kodeksining 167-moddasi), firibgarlik (Jinoyat kodeksining 168-moddasi), o‘g‘rilik (Jinoyat kodeksining 169-moddasi) jinoyatlarini o‘z ichiga olib, ushbu jinoyatlarning obyekti o‘zgarar mulki va mulkiy huquqlari hisoblanadi. Obyektiv tomondan bu jinoyatlar harakat bilan sodir etiladi. Subyektiv tomondan bu jinoyatlar faqat qasddan sodir etilib, jinoyat subyekti bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o‘g‘rilikning subyekti 14 yosh, o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-taroj qilish, firibgarlikning subyekti 16 yosh hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga muvofiq, mamlakatimiz iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Mulk daxlsizdir va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi, unga qilingan har qanday tajovuz qonunga xilof, deb hisoblanadi.

Talon-taroj qilish o‘zgarar mulkini o‘z foydasi, boshqa shaxslar foydasiga qonunga xilof tarzda va bepul o‘ziga qaratib olishdir. Talon-taroj qilish tushunchasi bosqinchilik, talonchilik, o‘g‘rilik, o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-taroj qilish, firibgarlik kabi mulkka qarshi jinoyatlar guruhiga taalluqlidir. Talon-taroj qilishning obyekti o‘zgarar mulkidir.

Mulk – mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish bo‘yicha mulk egasi va jamiyatning boshqa a‘zolari (mulkdor bo‘lmaganlar) o‘rtasida yuzaga keladigan huquqiy munosabat.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 167-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida mulkning *xususiy* va *ommaviy* shakllari mavjud. Fuqarolar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar va boshqa nodavlat shaxslar xususiy mulk huquqining subyektlari hisoblanadilar. Respublika mulki va ma'muriy hududiy tuzilmalar mulki (munitsipal mulk)dan iborat bo'lgan *davlat mulki ommaviy* mulkdir.

Yer, yer osti boyliklari, suv, havo havzasi, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar, respublika davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mol-mulki, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan madaniy va tarixiy boyliklar, respublika budjetining mablag'lari, oltin zaxirasi, davlatning valuta va boshqa fondlari respublika mulkidir, shuningdek, korxonalar va boshqa moddiy boylikka ega bo'lgan komplekslar, o'quv, ilmiy, ilmiy tadqiqot muassasalari va tashkilotlari, davlatning budjet mablag'lari va boshqa mablag'lari hisobidan yaratilgan yoki sotib olingan intellektual faoliyat natijalari, boshqa mol-mulklar ham respublika mulki bo'lishi mumkin (Fuqarolik kodeksining 214-moddasi).

Davlat hokimiyati mahalliy organlarining mol-mulki, mahalliy budjet mablag'lari, munitsipal uy-joy fondlari va kommunal xo'jalik korxonalari va boshqa mulkiy komplekslar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, boshqa mol-mulklar munitsipal mulk hisoblanadi (Fuqarolik kodeksining 215-moddasi).

Moddiy yoki ma'naviy qimmatga ega bo'lgan ashyolar, ya'ni inson mehnati sarflangan ashyolar talon-tarojning predmeti bo'lishi mumkin.

Talon-tarojning predmeti moddiy dunyo predmeti sifatida muayyan asoslarga, belgilar (vazn, sifat, hajm va h.k.)ga ega bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan elektr energiyasidan, gazdan g'ayriqonuniy foydalanish o'zganing mulkini talon-taroj qilishning predmeti bo'la olmaydi. Biroq, bunday harakatlar boshqa jinoyat tarkibi – aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazish, deb topilishi mumkin (Jinoyat kodeksining 170-moddasi). Shuningdek, intellektual mehnat mahsulini o'zlashtirib olish (adabiy o'g'irlik) talon-tarojning predmeti bo'lmaydi, bunday harakatlar mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish jinoyatining tarkibini vujudga keltiradi (Jinoyat kodeksining 149-moddasi).

Davlat mulkining obyektlari bo'lgan – yer, yer osti boyliklari, o'rmonlar talon-tarojning predmeti bo'lishi mumkin emas. Biroq, yer, yer osti boyliklaridan foydalanish qoidalari buzilganda, aybdor yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish uchun javobgarlik belgilangan Jinoyat kodeksining 197-moddasiga ko'ra jazolanadi.

Agar o'rmonga shikast yetkazilgan bo'lsa, aybdorning qilmishi – ekinzor, o'rmon yoki boshqa dovdaraxtlarga shikast yetkazganlik, ularni nobud qilganlik uchun javobgarlik belgilangan Jinoyat kodeksining 198-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Ov qilish, baliq tutish qoidalarini yoki hayvonlarning boshqa turlarini ushlab qoidalarini buzish, noyob hayvonlarni tutish yoxud dori-darmon, oziq-ovqat va manzarali o'simlik turlarini yig'ish yoki tayyorlash to'g'risidagi belgilangan tartib yoki shartlar buzilganda, aybdor shaxsning harakatlari hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish, deb topiladi Jinoyat kodeksining 202-moddasiga ko'ra javobgarlikni vujudga keltiradi.

Shu obyektlarga tajovuz qilish talon-taroj qilishdan farqlanadi, chunki faqat inson mehnati sarflangan, almashuv qiymatiga, ya'ni moddiy qimmatiga ega bo'lgan mol-mulkkina talon-tarojning predmeti bo'lishi mumkin. Masalan, tayyorlab qo'yilgan yog'ochni o'g'rilash, qo'riqxonada o'stirilgan hayvonlarni talon-taroj qilish, maxsus moslashtirilgan hovuzlarda yetishtirilgan baliqlarni tutish, baliqchilik xo'jaliklari ovlagan baliqlarni egallab olish shular jumlasidandir.

Qimmatbaho metallar yoki toshlarni o'zboshimchalik bilan qazib olish talon-taroj qilish hisoblanmaydi, balki qimmatbaho metallar yoki toshlarni topshirish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 185-moddasida) nazarda tutilgan mustaqil jinoyat hisoblanadi. Agar qimmatbaho metallar yoki toshlar ularni qazib oluvchi korxonalarining hududidan topib olingan bo'lsa, bunday harakatlar ham talon-taroj sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunday korxonalarining hududi, qazish ishlari olib borilayotgan maydon, tayyorlangan maydonchalar, xandaqlar, ya'ni qimmatbaho metallar yoki toshlarni qazib olish, ular bor joylarda qidiruv ishlarini olib borish uchun tayyorlangan joylar korxonalarining hududi deb qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 96-moddasiga muvofiq, mulkiy huquqlar belgilangan shaklda va zaruriy rekvizitlarga rasmiylashtirilgan va mulkka bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar qimmatli qog'ozlar hisoblanadi va ular taqdim etilgan taqdirdagina mazkur huquqlarni amalga oshirish yoki boshqa shaxslarga berish mumkin.

Taqdim qiluvchiga pul beriladigan qimmatli qog'ozlarga talon-tarojning predmeti bo'lishi mumkin. Taqdim qiluvchiga pul berilmaydigan qimmatli qog'ozlar talon-taroj predmeti bo'la olmaydi, chunki ular aybdorga qimmatli qog'ozda mavjud bo'lgan mulkiy huquqni olish imkoniyatini bermaydi. Obligatsiyalar, veksellar, cheklar, depozit va jamg'arma sertifikatlar, bankning taqdim qiluvchiga pul beriladigan jamg'arma daftarchasi, aksiyalar va qonunda qimmatli qog'ozlar, deb belgilangan qog'ozlar qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

Lotereya biletleri, pochta markalari, otkritkalar, konvertlar, yonilg'i-moylash materiallari uchun talonlar, metroda yurish jetonlari ham talon-tarojning predmeti bo'lishi mumkin. Biroq, poyezd, samolyot chiptalari talon-taroj qilish predmeti bo'la olmaydi. Chunki ular o'zicha moddiy boylik hisoblanmaydi, qo'shimcha hujjatlar (masalan, pasport) taqdim etilgandagina moddiy boylikka aylanishi mumkin.

Shunga o'xshash ashyolarni egallab olish, hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blanklarni egallash, nobud qilish, ularga shikast yetkazish yoki ularni yashirganlik Jinoyat kodeksining 227-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Agar shaxs shu hujjatlardan foydalanishga qasd qilgan bo'lsa, uning qilmishi jinoyatlar jamiga ko'ra aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazishga (Jinoyat kodeksining 170-moddasi) tayyorgarlik ko'rish, deb hisoblanadi.

Tasodifiy ravishda topib olingan mol-mulk (topilma) talon-tarojning predmeti bo'lishi mumkin emas. Fuqarolik kodeksining 192-moddasiga muvofiq, yo'qolgan ashyoni topib olgan shaxs bu haqda uni yo'qotgan yoki egalik huquqiga ega bo'lgan, o'ziga ma'lum shaxslarga darhol xabar berishi hamda topilgan ashyoni shu shaxsqa qaytarishi shart.

Agar ashyo bino ichida yoki transportda topilgan bo'lsa, u shu binoning yoki transport vositasining egasiga topshirilishi lozim. Topilma topshirilgan shaxs uni topib olgan shaxsning huquq va majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

Topilgan ashyo qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo'lgan shaxs noma'lum bo'lsa yoki uning manzili ma'lum bo'lmasa, ashyoni topib olgan shaxs topilma to'g'risida militsiyaga, tegishli davlat organlariga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga ma'lum qilishi shart. Ashyoni topib olgan shaxs uni o'zida saqlab turishga yoki saqlash uchun militsiya yoki tegishli davlat organi yoxud fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga yo ular ko'rsatgan shaxsga topshirishga haqlidir. Xazina ham talon-taroj qilish jinoyatining predmeti bo'lishi mumkin emas.

Xazina – yerga ko'milgan yoki boshqa usullarda yashirilgan pul yoki qimmatbaho narsalar. Ularning egasini aniqlash mavjud bo'lmaydi yoki u qonunga muvofiq ravishda mulkka egalik qilish huquqini yo'qotgan bo'ladi va bu mulk xazina yashirilgan joy (yer maydoni, uy-joy va h.k.) egasining egaligiga o'tadi.

Obyektiv tomondan talon-taroj o'zganing mol-mulkini o'z foydasiga yoki boshqa shaxslar foydasiga g'ayriqonuniy ravishda, bepul tortib olishda ifodalanadi. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida talon-taroj qanday usulda sodir etilganiga qarab uning uchun javobgarlik differentsiatsiya qilingan.

Jinoyat kodeksida talon-tarojning quyidagi shakllari nazarda tutilgan:

- Bosqinchilik (Jinoyat kodeksining 164-moddasi).
- Tovlamachilik (Jinoyat kodeksining 165-moddasi).
- Talonchilik (Jinoyat kodeksining 166-moddasi).
- O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish (Jinoyat kodeksining 167-moddasi).
- Firibgarlik (Jinoyat kodeksining 168-moddasi).
- O'g'rilik (Jinoyat kodeksining 169-moddasi).

Qonunga xiloflik har qanday talon-tarojning zaruriy belgisi hisoblanadi. Qonunga xiloflik deganda, aybdor shaxs tomonidan bunga hech qanday huquqi bo'lmay turib, o'zganing mol-mulkini tortib olish tushuniladi.

Shaxs mol-mulkka egalik huquqiga ega bo'la turib, belgilangan tartibni buzib uni qo'lga kiritgan hollarda, talon-tarojning tarkibi mavjud bo'lmaydi. Uning harakatlari boshqa jinoyat – o'zboshimchalik (Jinoyat kodeksining 229-moddasi), deb hisoblanishi mumkin.

Mulk, ashyoning haqini to'lamaslik (tekinga olish) talon-taroj qilingan mol-mulk evaziga muayyan ekvivalent bermasdan o'zganing mol-mulkini tortib olinishini bildiradi. Agar shaxs talon-taroj vaqtida talon-taroj qilingan mol-mulk evaziga uning to'la qiymatini bergan bo'lsa, jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi.

O'zganing mulkini talon-taroj qilishni tamom bo'lgan, deb hisoblash talon-tarojning shakliga bog'liqdir. Biroq, aksariyat hollarda, o'zganing mol-mulki tortib olingan va aybdor shaxsda talon-taroj qilingan mol-mulkni o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish (sotish, almashtirish, yashirish va h.k.) uchun real imkoniyat paydo bo'lgan paytdan e'tiboran jinoyat tamom bo'lgan, deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan talon-taroj g'araz maqsadlarda to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. *G'araz* – talon-tarojning zaruriy belgisi hisoblanadi. G'araz – o'zi yoki boshqa shaxslar uchun moddiy naf olish.

Jinoyatning subyeksi Jinoyat kodeksining 17-moddasida belgilangan yoshga to'lgan, har qanday aqli raso shaxs hisoblanadi.

A. Bosqinchilik (Jinoyat kodeksining 164-moddasi)

Bosqinchilik o'zganing mol-mulkiga qarshi qaratilgan eng xavfli jinoyatlardan bo'lib, uni sodir etganlik uchun javobgarlik Jinoyat kodeksining 164-moddasida nazarda tutilgan. Bosqinchilikning o'ta ijtimoiy xavfliligi, avvalo, shu bilan bog'liqki, bu jinoyat sodir etilganida jabrlanuvchilarning hayoti yoki sog'lig'iga ham ziyon yetkaziladi yoxud bunday ziyon yetkazilishi uchun real xavf vujudga keladi va o'zganing mol-mulki egallab olinadi.

Bosqinchilikning obyeksi o'zganing mol-mulki, fuqarolarning hayoti yoki sog'lig'idir. Obyektiv tomondan bosqinchilik o'zganing mol-mulkini talon-taroj qilish maqsadida shu mulkning egallanishiga qarshilik ko'rsatgan shaxsning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan jismoniy zo'rlik ishlatish yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib hujum qilishda ifodalanadi. Bosqinchilik sodir etishdagi hujum jabrlanuvchiga yoki uning irodasiga zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatishda ifodalanadi.

Aksariyat hollarda, bosqinchilik vaqtida shaxsga ochiqdan ochiq hujum qilinadi, ba'zan esa jabrlanuvchiga sezdirmasdan yashirincha (masalan, orqadan o'q uzib, panadan pichoq urib) sodir etilishi ham mumkin.

Bosqinchilikda ishlatiladigan zo'rlik jismoniy yoki ruhiy bo'lishi mumkin. Odatda, bosqinchilikda zo'rlik ishlatish hujum bilan ayni bir vaqtda sodir bo'ladi, ammo bevosita hujumdan keyin kuch ishlatilishi hollari ham uchraydi. Hujumga bir shaxs duchor etilib, mol-mulkni egallashga to'sqinlik qilmoqchi bo'lgan boshqa shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatilgan hollar ham uchraydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1999-yil 30-apreldagi «O'zgalar mulkini o'g'irlik, talonchilik va bosqinchilik yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi 6-sonli qarorida ta'kidlanganidek, hayot uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish deganda, uning ishlatilishi jabrlanuvchining hayoti uchun aniq bo'lgan xavfni vujudga keltiruvchi holat (masalan, jabrlanuvchini bo'g'ish, boshini suv ostida ushlab turish va hokazo) tushuniladi.

Sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish deganda, jabrlanuvchiga sog'lig'ining buzilishiga sabab bo'lgan tan jarohati yetkazish yoki shunday tan jarohatini yetkazish xavfini tug'diruvchi harakatlar (chakkaga, quyosh o'ralmasiga (солнечное сплетение) urish va hokazolar) tushuniladi¹.

Aldash yo'li bilan tanasiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi, zaharli, uxlatadigan yoki boshqa karaxt qiladigan moddalar jabrlanuvchiga berilganida, qilmish qanday kvalifikatsiya qilinadi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Albatta, agar bunday moddalarning berilishi jabrlanuvchining hayoti va sog'lig'iga xavf tug'dirgan bo'lsa, aybdorning harakatlarini Jinoyat kodeksining 164-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish zarur.

Bosqinchilik ishlatiladigan zo'rlik jabrlanuvchidan tortib olingan mol-mulkni egallash yoki o'zida saqlab qolish usuli hisoblanadi. Bosqinchilikni kvalifikatsiya qilish uchun aybdor tomonidan zo'rlikning mol-mulk egasi yoki uni qo'riqlayotgan shaxs yoxud mulk tasarrufida bo'lgan shaxs yoxud o'zganing mulkini egallashga to'sqinlik qilgan shaxslarga nisbatan ishlatilganligining ahamiyati yo'q.

O'zganing mol-mulkini egallash yoki saqlab qolish maqsadida zo'rlikning ishlatilishi jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanadi. Agar zo'rlik boshqa maqsadda, masalan, sodir etilgan o'g'irlikdan keyin qo'lga tushishdan qutulib qolish maqsadida ishlatilgan bo'lsa, bunday qilmishni bosqinchilik, deb hisoblash mumkin emas, aybdorning harakatlari o'g'irlik va shaxsga yoki boshqaruv tartibiga qarshi jinoyat, deb hisoblanadi.

Bosqinchilikda ruhiy zoʻrlik ishlatish deganda, jabrlanuvchining hayot yoki sogʻligʻi uchun xavf tugʻdiradigan zoʻrlikni jinoyat sodir qilinayotgan vaqtning oʻzida bevosita va darhol ishlatish bilan qoʻrqitish tushunilmogʻi lozim.

Bosqinchilik hujumi vaqtdagi tahdid:

- 1) jismoniy zoʻrlik darhol qoʻllanilishi mumkinligi xavfini oʻz ichiga olgan, yaʼni real boʻlishi;
- 2) kelgusida emas, aynan hujum paytida mavjud boʻlishi;
- 3) haqiqatda mavjud boʻlishi kabi belgilarga ega boʻlishi lozim.

Bosqinchilik amalga oshirilayotgan vaqtdagi qoʻrqitish aniq yoki noaniq boʻlishi mumkin. Aniq qoʻrqitishga qurol yoki qurol sifatida ishlatiladigan narsalar bilan qoʻrqitish, shaxsni oʻldirish yoki uning sogʻligʻiga zarar yetkazish niyatini ogʻzaki aytish, shunday niyati borligini imo-ishoralar bilan ifodalash kiradi. Noaniq xususiyatdagi qoʻrqitish niqoblangan shaklda ifodalanadi. Masalan, jabrlanuvchiga koʻrinmaydigan narsalar, muayyan imo-ishoralar (qurolni qoʻldan qoʻlga olish) bilan qoʻrqitish va h.k. koʻrinishda boʻlishi mumkin.

Bosqinchilik amalga oshirilayotgan vaqtdagi tahdid real boʻlishi kerak. Qoʻrqitish ogʻzaki, qurolni koʻrsatish, imo-ishora (masalan, «oʻldiraman», «mayib qilaman», «koʻzingni oʻyib olaman» deyish, toʻpponchani, pichoqni jabrlanuvchiga oʻqalish va h.k.)larda ifodalanishi mumkin.

Faqat sud har bir alohida holda, sodir etilgan jinoyat holatlarini hisobga olgan holda, tahdidning realligi va haqiqatda mavjud boʻlganligiga baho beradi. Bunday hollarda sud jabrlanuvchining real tahdid mavjud boʻlganligi toʻgʻrisidagi subyektiv fikriga emas, balki aniq faktlarga tayanishi kerak. Masalan, jinoyatchi yarim tunda jabrlanuvchining orqasidan kelib: «qimirlama, aks holda, yomon boʻladi», degan soʻzlar bilan orqasiga barmogʻini tiradi. Sudda jabrlanuvchi oʻz hayoti xavf ostida qolganligini daʼvo qilgan, biroq, sud bunday holatlarda jabrlanuvchining hayoti yoki sogʻligʻi uchun real xavf boʻlmagan, deb hisoblashni lozim topgan.

Bosqinchilik hayot yoki sogʻliq uchun xavfli boʻlgan zoʻrlik ishlatib yoxud shunday zoʻrlikni ishlatish bilan qoʻrqitib hujum qilingan paytdan eʼtiboran, aybdor oʻzganing mol-mulkini egallangan yoki egallamaganidan qatʼiy nazar, tamom boʻlgan jinoyat deb hisoblanadi.

Bosqinchilik subyektiv tomondan toʻgʻri qasd va gʻarazli maqsadlarda ifodalanadi.

Jinoyatning subyekti – 14 yoshga toʻlgan, aqli raso shaxs.

Jinoyat kodeksining 164-moddasi, 2-qismida jazoni ogʻirlashtiruvchi bir nechta holatlarda sodir etiladigan bosqinchilik uchun javobgarlik belgilangan jumladan:

- a) qurol yoki qurol sifatida foydalanish mumkin boʻlgan boshqa narsalarni ishlatib;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- d) ancha miqdordagi mulkni talon-taroj qilish bilan bogʻliq holda sodir etilishi.

Bosqinchilik hujumida qurol yoki qurol sifatida ishlatish mumkin boʻlgan boshqa narsalardan foydalanish jinoyatning ijtimoiy xavfliligini oshiradi. Chunki bu jabrlanuvchining qarshiligini sindirish, jinoyat qurbonining aybdorning jinoiy rejasini amalga oshirishiga qarshilik koʻrsatishi imkoniyatidan mahrum qilish; hujum qiluvchiga koʻp kuch sarflamasdan jabrlanuvchining qarshiligini tiyib qoʻyish imkonini beradi. Bunday bosqinchilik hujumi oʻta dagʻallik va behayolik bilan amalga oshiriladi.

Oʻqotar qurollar deganda, xoʻjalik-maishiy maqsadlarda ishlatilmaydigan va faqat jonli nishonni urish yoki sport tadbirlarini oʻtkazish uchun moʻljallangan, snaryadni, oʻqni otishda porox gazlari kuchidan foydalaniladigan barcha turdagi qurollar tushunilishi kerak. Demak, oʻqotar qurolning asosiy belgisi uning oʻq otishi va jonli nishonga shikast yetkazishi bilan bogʻliq, uning nishonga shikast yetkazish yoki sport tadbirlarini oʻtkazishga moʻljallanganligidir.

Badanga shikast yetkazishi va hatto oʻlimni keltirib chiqarishi mumkin boʻlgan predmetlar, agar ular tayyorlanishida bunday maqsad uchun moʻljallanmagan boʻlsa, hatto oʻq uzishda porox gazi kuchidan foydalanilgan boʻlsa ham, oʻqotar quroli, deb hisoblanishi mumkin emas. Bunday narsalar jumlasiga signal, start, qurilish toʻpponchalari, raketa va boshqa pirotexnika va yoritish vositalari kiradi. Mazkur narsalar boshqa maqsadlarda, xoʻjalik-maishiy yoki ishlab chiqarishda foydalanish uchun moʻljallangan boʻlsa, bu hol ularni qurollar jumlasiga kiritilishini istisno etadi.

Predmetni o'qotar quroli, deb hisoblanishi uchun uning qanday usulda tayyorlanganligining (zavodda yoki xonaki usulda) ahamiyati yo'q. O'qotar qurollari o'z ahamiyati, xususiyati, tuzilishi, kalibri va boshqa xususiyatlariga ko'ra xilma-xildir. O'qotar qurollar jumlasiga: miltiq, kichik kalibrli miltiq, avtomatlar, to'pponchalar, ov miltig'i, shu jumladan, qirqma miltiq kabilar kiradi.

Jabrlanuvchining bevosita badaniga tegishi natijasida jonli nishonni jarohatlash uchun maxsus mo'ljallangan buyumlar sovuq qurol, deb hisoblanmog'i lozim. Buyumni sovuq qurol deb topishning asosiy mezoni uning jonli nishonni jarohatlash uchun mo'ljallanganligidir.

Qator hollarda, mazkur buyumlardan faqat jangovar qurol, xanjar, miltiq nayzalari, qilichlar, shamshirlar, cho'qmorlar, gurzilar va h.k. sifatida foydalaniladi. Mazkur buyumlar o'z tabiatiga ko'ra, faqat fuqarolarning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

O'tmishda zarba urishning usuli va xususiyatiga qarab sovuq qurollarning har xil turlari yasalgan va ular muayyan shaklga ega bo'lgan. Ularning tig'li va urib parchalovchi turlari mavjud.

Qurol sifatida foydalanish mumkin bo'lgan boshqa narsalardan, ishlatilganda jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'iga obyektiv zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday ashyolardan qurol sifatida foydalanish mumkin. Bularga: bolta, buragich, zanjir, nishtar, katta tosh, pichoq, bolg'a, belkurak, armatura bo'lagi, so'yil kabilar kiradi. Qurol sifatida foydalanish mumkin bo'lgan narsalarning oldindan tayyorlab qo'yilganligi yoki jinoyat sodir etilgan joydan olinganligining qilmishini bosqinchilik, deb kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyati yo'q.

Bosqinchilikda qurol yoki qurol sifatida foydalanish mumkin bo'lgan boshqa buyumlarni ishlatish deganda, amalda ulardan belgilangan maqsadda foydalanilishi tushunilmog'i lozim. Bosqinchilikni sodir etishda ishlatishga yaroqsiz qurol yoki qurolga o'xshatib yasalgan buyumlarning qo'llanilganligi bosqinchilikni og'irlashtiruvchi holat hisoblanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi yuqorida qayd etilgan qarorida: «Bila turib yaroqsiz quroldan yoki yolg'ondakam quroldan (masalan, to'pponcha yoki start to'pponchasi maketlaridan) badanga shikast yetkazishni niyat qilmagan holda foydalanilganda, hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lmaganda qurolli bosqinchilik sifatida baholash mumkin emas»¹, deyiladi. Bunday harakatlar Jinoyat kodeksining 164-moddasi, 1-qismi bo'yicha oddiy bosqinchilik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Chunki bunday bosqinchilikni qurolli, deb hisoblash mumkin emas. Biroq, agar qurolga o'xshatib yasalgan narsalardan qurol sifatida foydalanilgan va ular bilan jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'iga xavfli ziyon yetkazilgan bo'lsa, aybdorning harakatlarini qurol sifatida ishlatish mumkin bo'lgan boshqa buyumlardan foydalanib, jinoyat sodir etish, deb hisoblash mumkin.

Gazli qurollar masalasini qanday hal etish muammosi ham qiziqarlidir. Gaz to'pponchalari, gaz ballonchalari, ko'zdan yosh oqizuvchi, bezovta qiluvchi yoki zaharli moddalar to'ldirilgan purkagich va boshqa har qanday qurilmalar gazli qurollar turkumiga kiritilishi lozim.

Fikrimizcha, shaxs bosqinchilikni sodir etishda hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan modda to'ldirilgan gazli qurolni ishlatib, aybdorning qilmishi qurolli bosqinchilik, deb hisoblanishi kerak. Agar gazli qurolidagi modda shaxsning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lmasa, uning ishlatilishi aybdorning harakatlarini qurolli bosqinchilik deb kvalifikatsiya qilish uchun asos bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1996-yil 27-fevraldagi «Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi 3-qaroriga muvofiq, «Pnevmatik miltiq, signal, start, gaz pistoletlari yoki gaz ballonlari, raketnitsalar va boshqa imitatsiya-pirotexnik va yoritgich vositalari qurol jumlasiga kirmaydi»².

Qurolli bosqinchilik hujumi sodir etilganida harakatlar jinoyatlar jami, ya'ni bosqinchilik va qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilish (Jinoyat kodeksining 248-moddasi) bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bosqinchilik hujumida qurol sifatida portlovchi, zaharli moddalar va h.k.lar ishlatilgan taqdirda, aybdorning qilmishlari jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bosqinchilik. Bosqinchilikni yuqoridagi belgilariga ko'ra kvalifikatsiya qilish uchun, bosqinchilik hujumida bu haqida oldindan kelishib olgan ikki yoki undan ortiq shaxslar ishtirok etgan bo'lishlari lozim. Aybdor shaxslar bosqinchilikni sodir etishda qanday zo'rlik ishlatish haqida aniq kelishib olmagan bo'lishlari ham mumkin.

Oldindan til biriktirgan shaxslar guruhi tarkibiga bosqinchilikni sodir etishga maslahatlari, yo'l-yo'riqlari, jinoyatni sodir etish qurollari va vositalarini berib turish bilan ko'maklashgan shaxslar emas, balki hujumda bevosita ishtirok etgan bajaruvchilargina kiradilar. Bunday shaxslar Jinoyat kodeksining 28-moddasiga ko'ra, bosqinchilikning ishtirokchilari, deb hisoblanishi mumkin. Bosqinchilikni bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan, deb kvalifikatsiya qilish uchun har bir ishtirokchining 14 yoshga to'lganligi va aqli rasoligini aniqlash lozim.

Agar bir guruh shaxslar o'g'rilik yoki talonchilik sodir etish haqida kelishib olgan bo'lsalar va shu jinoyatlarni sodir etish jarayonida ishtirokchilardan biri boshqa jinoyatchilar bilan kelishib olmasdan mol-mulkni egallash maqsadida jabrlanuvchilarga nisbatan hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlikni ishlatgan, qilmish bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bosqinchilik sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlikni ishlatgan shaxs bosqinchilik uchun javobgar bo'ladi, jinoyatning qolgan ishtirokchilari esa o'g'rilik yoki talonchilik uchun javobgar bo'ladilar.

Bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bosqinchilik qatnashchisining harakatlari jinoyatning qolgan ishtirokchilari qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra jinoiy javobgarlikka (vafot etishi va h.k. munosabati bilan) tortilmaganliklaridan qat'iy nazar, guruh bo'lib sodir etilgan jinoyat, deb kvalifikatsiya qilinishi kerak. Talon-taroj qilingan mol-mulkning miqdori eng kam oylik ish haqining o'ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo'lsa, ancha miqdorda sodir etilgan bosqinchilik deb hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan qat'iy narx belgilash imkoniyati yo'qligi sababli talon-taroj qilingan narsalarning qiymatini aniqlashda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shuni nazarda tutish kerakki, o'zganing talon-taroj qilingan mol-mulkining qiymati shu qilmish sodir etilgan paytda mazkur mintaqadagi o'rtacha bozor narxlari bo'yicha belgilanishi lozim. Talon-taroj qilingan narsalarning qiymatini belgilashda ularning holatini, ishlab chiqarilgan vaqtini, eskirganligini, tovar ko'rinishini, shu narsalardan foydalanish imkoniyatlari darajasi va h.k.larni e'tiborga olish to'g'ri va zarurdir. Ya'ni tovarshunoslik ekspertizasini tayinlash va vakolatli ekspertlar xulosasi asosida talon-taroj qilingan mol-mulkning qiymati masalasini hal etish zarur. Jinoyat kodeksining 164-moddasi, 3-qismida:

- a) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari Jinoyat kodeksining 242-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;
- b) ko'p miqdorda;
- d) uy-joyga, omborxonaga yoki boshqa binolarga g'ayriqonuniy ravishda kirgan holda;
- e) badanga og'ir shikast yetkazgan holda sodir etilgan bosqinchilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Takroran bosqinchilik sodir etish deganda, shaxsning ikki yoki undan ko'p marta bosqinchilikni sodir etganligi, ammo ularning birortasi uchun ham sudlanmaganligi tushuniladi. Birinchi bosqinchilik hujumi tamom bo'lgan yoxud jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki suiqasd qilish bosqichida to'xtatilgan yoki ishtirokchilikda sodir etilgan bo'lsa, bosqinchilik takroran sodir etilgan, deb hisoblanadi.

Agar ilgari sodir etilgan bosqinchilik uchun shaxs qonunda belgilangan tartibda jinoiy javobgarlik yoki jazodan ozod qilingan bo'lsa, bosqinchilik takroran sodir etilgan deb hisoblanmaydi. Agar yangi bosqinchilik sodir etilgan paytgacha aybdordan sudlanganligi qonunda belgilangan tartibda olib tashlangan yoki bekor bo'lgan aybdor shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish muddati o'tgan yoki ilgari sodir etilgan bosqinchilik uchun javobgarlik amnistiya akti yoki avf etish asosida olib tashlangan bo'lsa, takroriylik bo'lmaydi.

Agar bosqinchilikni sodir etgan shaxs ilgari bosqinchilik sodir etganligi uchun sudlangan bo'lsa, qilmish xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan, deb hisoblanadi. Bosqinchilik hujumini sodir etgan shaxs ilgari Jinoyat kodeksining 242-moddasi (jinoiy uyushma tashkil etish)da javobgarlik nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan bo'lsa, uning qilmishi Jinoyat kodeksining 164-moddasi, 3-qismi, «a» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Talon-taroj qilingan mol-mulk miqdori eng kam oylik ish haqining yuz barobaridan uch yuz barobarigacha bo'lsa, ko'p miqdorda bosqinchilik sodir etilgan, deb hisoblanadi.

«Uy-joy deganda, kishilarning doimiy yoki vaqtinchalik turishiga mo'ljallangan (shaxsiy uy, xonadon, mehmonxonadagi, sanatoriydagi xona, dala hovli, bog' hovli va boshqalar) bino, shuningdek, uning tarkibiga kiruvchi dam olish, mulkni saqlash uchun yoxud insonning boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun (balkonlar, oynaband ayvonlar, omborlar va boshqalar) tushuniladi»¹.

Odamlarning doimiy yoki vaqtincha yashashi uchun mo'ljallanmagan va moslashtirilmagan binolar (masalan, uy-joy imoratlaridan alohida turgan yerto'lalar, omborlar, garajlar va boshqa xo'jalik binolari)ning uy-joy, deb hisoblanishi mumkin emas.

Poyezd transport vositasi bo'lsa ham, poyezd kupesi vaqtinchalik uy-joy, deb hisoblanishi mumkin. Chunki u odamlarning vaqtincha yashashi uchun mo'ljallangan. Palatkalar, vagonchalar, kema kayutalarini ham vaqtinchalik uy-joy, deb hisoblash zarur. Shuningdek, turar-joy binosiga bevosita tutash qurilgan, u bilan yaxlit birlikni tashkil etuvchi balkonlar va peshayvonlar, chordoqlar, yerto'lalar ham «uy-joy», deb tushuniladi.

Ko'p qavatli uylarning yerto'lalari, chordoqlari, transport vositalari uy-joy hisoblanmaydi. Kasalxonalar, dam olish uylari va sanatoriylarning palatalari odamlarning davolanishi yoki dam olishi davrida ularning vaqtincha yashashi uchun mo'ljallangan. Shu bois bular «uy-joy» tushunchasi doirasiga kiritilishi kerak.

Omborxonaga deganda, tovar-moddiy boyliklarni talon-taroj qilinishi, buzilishi yoki yo'q qilinishidan, tabiat hodisalari va boshqa shu kabilardan ehtiyot qilib doimiy yoki vaqtincha saqlash uchun maxsus jihozlangan, moslashtirilgan yoki mo'ljallangan alohida qurilma yoki joy (masalan, seyflar, temir shkaflar, konteynerlar, avtorefrigeratorlar, sovitchiklar, qo'riqlanadigan platformalar, molxonalar, atrofi o'ralgan don omborlari, avtofurgonlarning usti yopiq kuzovlari va boshqa shu kabi)lar tushuniladi.

Bino deganda, odamlarni joylashtirish yoki moddiy boyliklarni qo'yish uchun mo'ljallangan imorat, inshoot tushuniladi. U doimiy, vaqtinchalik, ko'chmas va ko'chma bo'lishi mumkin. Tovar-moddiy boyliklarni saqlash uchun qurilgan har qanday inshoot yoki bunday maqsadlar uchun mo'ljallanmagan, ammo zarurat tufayli, tovar-moddiy boyliklar saqlanadigan inshootlar (omborlar, do'konlar, sexlar, do'konchalar va h.k.lar)ga aylantirilgan «binolar» shular jumlasiga kiradi.

Kirish uy-joy, omborxonaga yoki boshqa binoga yashirin yoki oshkora bostirib kirish, mol-mulkni talon-taroj qilish niyatida g'ayriqonuniy binoning ichida paydo bo'lishdir. Bunday kirish to'siqlarni yoki odamlar qarshiligini yengib o'tib yoki bularsiz ham sodir etilishi mumkin. Tegishli uy-joy, omborxonaga yoki boshqa binoga kirmasdan, moslamalar (ilmoqlar, magnitlar, shlanglar) yordamida o'zganing mol-mulkini talon-taroj qilish, uy-joyga, omborxonaga kirib talon-taroj sodir etish, deb kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas.

Binoga kirib olish – ishlab chiqarish, xizmat, savdo, ombor xonalariga yoki boshqa binoga shaxsning qonunga xilof ravishda, bunga huquqi bo'lmagan holda, u yerda qonuniy asosda ishlayotgan yoki turgan shaxslarning (xodimlar, sotuvchilar, qorovul va h.k.ning) ijozatisiz yoki xohishsiz yoxud soxta hujjatlardan foydalanish yo'li bilan g'ayriqonuniy ravishda bostirib kirishi yoki kirib olishi hisoblanadi. Uy-joy, omborxonaga yoki boshqa binoga kirib olish usullari turlicha bo'lib, qanday usuldan foydalanib kirilganligi (masalan, aybdorning eshik, derazalarni buzishi, devor, shiftdan tuynuklar ochish, yasama kalitlardan foydalanish yo'li bilan binoga kirib olishi) bosqinchilikning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Aybdorning qilmishini Jinoyat kodeksining 164-moddasi, 3-qismi, «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun uning binoga kirib olganligining o'zi yetarli bo'lmay, balki o'zganing mol-mulkini talon-taroj qilishga qasd qilgan yoki qilmaganini ham aniqlash zarur. Bunda qasd binoga kirib olgunga qadar yuzaga kelgan bo'lishi kerak. Aybdor talon-taroj sodir etish niyatisiz uy-joyga, omborxonaga yoki boshqa binoga kirgan va moddiy boyliklarni ko'rganidan so'ng hayot yoki sog'liq uchun xavfli zo'rlik ishlatga, bunday harakatlarda kirib olish belgilari mavjud bo'lmaydi va qilmishini Jinoyat kodeksining 164-moddasi 3-qismi, «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilish mumkin emas, aybdorning qilmishida boshqa og'irlashtiruvchi holatlar bo'lmasa, u Jinoyat kodeksining 164-moddasi, 1-qismi bo'yicha javobgar bo'ladi.

Binoga kirib olishda uy-joy, omborxonaga yoki boshqa binoga kirish huquqiga ega bo'lgan yoki shu obyektlarni qo'riqlovchi, ammo kirib olish paytida kirish huquqiga ega bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan bo'lsa, bu ham kirib olish, deb hisoblanadi.

Bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib, uy-joy, omborxonaga yoki boshqa binoga kirib bosqinchilik sodir etilganida aybdor shaxslarning qilmishlarini Jinoyat kodeksining 164-moddasi, 2-qismi, «b» bandi bilan emas, shu moddaning 3-qismi, «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilish kerak. Chunki Jinoyat kodeksining 33-moddasi, 2-qismida «Agar shaxs sodir etgan qilmishda ushbu kodeks «Maxsus» qismi ayni

bir moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlarning alomatlari mavjud bo'lsa, u moddaning og'irroq jazo belgilangan qismi bo'yicha javobgarlikka tortiladi», deyilgan.

Jinoyat kodeksining 164-moddasi, 4-qismida:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;
- d) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bosqinchilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Agar talon-taroj qilingan mol-mulk miqdori eng kam oylik ish haqining uch yuz baravaridan ortiq bo'lsa, juda ko'p miqdorda sodir etilgan, deb hisoblanadi. Qolgan ikkita og'irlashtiruvchi holatni yuqorida ko'rib chiqqanligimiz bois ularga to'xtalishni lozim, deb topmadik.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1998-yil 17-apreldagi «Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar haqida»gi 11-qarorining 5-bandiga muvofiq, o'zganing mulkini talon-taroj qilishdan iborat bo'lgan aybdorning harakatlariga huquqiy baho berishda uning sodir etilish usulidan (o'g'rilik, talonchilik, tovlamachilik va hokazo) qat'iy nazar, jinoyat Jinoyat kodeksining tegishli moddasi og'irroq jazoni ko'zda tutuvchi qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi va ushbu moddaning boshqa qismlari bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilinishi talab etilmasligi sudlarga tushuntirilsin. Masalan, jinoyat juda ko'p miqdorda talon-taroj qilish belgisi bo'yicha Jinoyat kodeksining 167-moddasi, 4-qismi bilan kvalifikatsiya qilinganda Jinoyat kodeksining ushbu moddasi, 1, 2 va 3-qismlari bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab qilinmaydi.

Davomli talon-taroj sodir etilgan hollarda aybdorning harakatlari talon-taroj qilingan umumiy summani hisobga olgan holda kvalifikatsiya qilinishi lozim. Agar shaxsning harakatlari davomli jinoyat xususiyatiga ega bo'lmasdan bir necha mustaqil epizodlardan, misol uchun, o'g'rilik, talonchilik, firibgarlik va boshqalardan iborat bo'lsa, bu harakatlar talon-taroj qilingan umumiy summadan kelib chiqqan holda kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas. Bunday hollarda jinoyat o'zganing mulkini talon-taroj qilganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksining «Maxsus» qismi moddasi dispozitsiyaga muvofiq, jumladan takroriylik belgisi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim¹.

B. Tovlamachilik (*Jinoyat kodeksining 165-moddasi*)

Tovlamachilikning obyekti o'zgalarning mol-mulki, mol-mulkka bo'lgan huquqi, jabrlanuvchi shaxslarning sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatidir. Mol-mulk, mol-mulkka bo'lgan huquq, mulkiy yo'sindagi harakatlar (muayyan ishni bajarilishini xizmat ko'rsatishni va h.k.) tovlamachilik jinoyatining predmeti bo'lishi mumkin.

Mol-mulkka bo'lgan huquq – shaxsning o'ziga tegishli mol-mulkka egalik qilish, undan o'z xohishiga ko'ra hamda o'z manfaatlarini ko'zlab foydalanishi va tasarruf etishi, shuningdek o'zining mulkiy huquqi kim tomonidan buzilishidan qat'iy nazar, uning mulkiy huquqlari buzilishining bartaraf etilishini talab qilish huquqi.

Aybdor tovlamachilikni sodir etayotib mulkka bo'lgan huquqni talab qilmay, o'zganing mol-mulkidan foydalanish yoki uni tasarruf etish huquqini talab qilishi ham mumkin. Tovlamachilikning predmeti faqat o'zganing mol-mulki yoki unga bo'lgan huquqi bo'lishi mumkin.

Jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatib, uning mulkiga shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchi sir saqlanishini xohlagan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqitib yoxud jabrlanuvchining manfaatlariga xavf soladigan vaziyatni vujudga keltirish yo'li bilan shaxs jabrlanuvchini unda turgan (masalan, qarzga, kreditga olgan, vaqtincha saqlanib turgan va h.k.) o'zining mol-mulkini berishga majbur etganida u o'zganing mulkini tovlamachilik yo'li bilan talon-taroj qilganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Bunday qilmish, qonunda nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo'lsa, o'zboshimchalik, deb hisoblanadi.

Mulkiy yo'sindagi harakatlar deganda, haqi to'lanishi lozim bo'lgan har qanday ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish (imoratlar qurish, ularni ta'mirlash, avtomobillarni ta'mirlash, tovar-moddiy boyliklarni tashib berish va h.k.) tushuniladi.

Obyektiv tomondan tovlamachilik o'zgan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo'sindagi harakatlar sodir etishni talab qilishdan iborat.

Quyidagilar:

- 1) jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish;
- 2) mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish bilan qo'rqitish;
- 3) (jabrlanuvchi yoki uning yaqinlari uchun) sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqitish;
- 4) jabrlanuvchini o'z mulki yoki mulkka bo'lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yish tovlamachilikni sodir etish hisoblanadi.

Tovlamachining talablari og'zaki, telefon, faks, xat orqali va boshqa usullarda amalga oshirilishi mumkin. Talab deganda, tovlamachining jabrlanuvchidan mol-mulk yoki mol-mulkdan o'z mulkiday foydalanish huquqini beruvchi hujjatlarni taqdim etilishini talab qilishi tushuniladi. Mol-mulkni talab qilish, albatta, tovlamachilarning talabini rad etganlik uchun o'ch olish maqsadida qo'rqitish bilan birga sodir qilingan bo'lishi kerak.

Talablar pul olish, yerdan, do'kondan, avtomobildan foydalanish huquqini qo'lga kiritish, tovlamachini sherik sifatida muntazam dividendlar va boshqa mulkiy manfaatlar olishi uchun kooperativ, korxonaga a'zozligiga kiritib qo'yish ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Mulkiy manfaatlar berishni talab qilish deganda, jabrlanuvchining o'z xizmat vakolatlariga ko'ra u yoki bu shaxsga uning muhtojligiga qarab yoxud belgilangan qoidalar yoki normativ hujjatlarga binoan berish huquqiga ega bo'lgan manfaatlar tushuniladi. Jumladan, tovar-moddiy boyliklarni navbatsiz ajratish, qo'shimcha to'lovlarisiz tovar olish, o'z korxonasidagi bo'sh lavozimlarga tayinlash tushunilishi kerak.

Tovlamachining talabi, albatta, jabrlanuvchining mulkiga zarar yetkazish yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish yoxud ular uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish tarzidagi qo'rqitish bilan birgalikda sodir qilinishi lozim. Qo'rqitish bilan amalga oshirilmagan talablar jinoyatning tovlamachilik tarkibini vujudga keltirmaydi.

Sud-tergov amaliyotida ko'pincha tovlamachilikni bosqinchilik va talonchilikdan farqlashda qiyinchiliklarga duch kelinadi. Bunday qiyinchilik paydo bo'lganida bosqinchilik va talonchilikda kuch ishlatish bilan qo'rqitish o'zgal mulkini egallash yoki o'zgal mulki tortib olingach, uni qo'ldan chiqarmaslik vositasi bo'lib xizmat qilishini, tovlamachilikda esa qo'rqitish jabrlanuvchining irodasini bo'ysundirish va jabrlanuvchini tovlamachining xohishini bajarishga majbur qilish vositasi ekanligini nazarda tutish lozim.

Shuningdek, bosqinchilik va talonchilikda o'zganing mulkini egallash qo'rqitish bilan bir vaqtda sodir bo'ladi, tovlamachilikda agar jabrlanuvchi mulkni o'z ixtiyori bilan bermasa, bunday qo'rqitishning keyinchalik bajarilishi ko'zda tutiladi. Sodir etilayotgan qo'rqitish jabrlanuvchiga ta'sir qilmagani sababli tovlamachi shu zahoti o'zganing mulkini egallagan bo'lsa, uning harakatlari jinoyatlar jami: o'zganing mulkini tovlamachilik yo'li bilan va qo'rqitish usuliga ko'ra, bosqinchilik yoki talonchilik yo'li bilan talon-taroj qilish, deb kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Tovlamachilikni sodir etishda zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish deganda, urish, zarba berish, badanga yengil, o'rtacha og'ir va og'ir shikast yetkazish tahdidi bilan qo'rqitish agar aybdorning talabi bajarilmasa, shunday zo'rlik ishlatish xavfi mavjud bo'lishi tushunilishi, kerak. Jinoyat kodeksining 165-moddasi dispozitsiyasida ularning hammasi ko'rsatilgan va bunday qilmish sodir etilganida shaxsga qarshi jinoyatlar bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya talab qilinmaydi.

Tovlamachilikdagi qo'rqitishga quyidagi: *birinchidan*, o'zida jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga nisbatan zo'rlik ishlatish, mulkka zarar yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud ular uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish niyati bildirilgan bo'lishi; *ikkinchidan*, tahdid real, ya'ni agar jabrlanuvchi, tovlamachining talablarini bajarmasa, tahdid amalga oshirilishi mumkinligidan xavotir bo'lishi

kerakligi kabi alomatlariga ega bo'lishi lozim. Jabrlanuvchi tomonidan qo'rqitishning xususiyati va jadalligi qanday qabul qilinganligi jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmasligi lozim.

Jadalligi bir xil bo'lgan tahdid, jabrlanuvchilarning ruhiy holati, tarbiyasi, fe'l-atvori, jismoniy xususiyatlaridagi farqlar tufayli, ular tomonidan turlicha qabul qilinadi. Jabrlanuvchi qanday qabul qilganligidan qat'iy nazar, tahdidning kuchi oshmaydi va kamaymaydi, uning o'zi qanday bo'lsa, shundayligicha qolaveradi. Agar aybdorning aytganlari obyektiv tomondan tahdidni o'z ichiga olmagan bo'lsa, qilmish tovlamachilik, deb hisoblanshi mumkin emas.

Tovlamachilikni sodir etishda o'ldirish bilan qo'rqitishni ham Jinoyat kodeksining 165-moddasi o'z ichiga oladi. Qilmishini tovlamachilik, deb kvalifikatsiya qilishda tahdidning kimga – bevosita mulk egasiga yoki jabrlanuvchiga yaqin kishilarga qaratilganligining ahamiyati yo'q.

Mulkka shikast yetkazish deganda, mulkka zarar yetkazilishi tufayli, ashyoning o'z sifatini shunchalik yo'qotishi, ya'ni undan o'z vazifasiga ko'ra foydalanish uchun vaqtincha yoki qisman yaroqsiz bo'lib qolishi va uni tiklashga muayyan mehnat yoki mablag' sarflanganidan keyin avvalgi qimmatiga ega bo'lishi tushuniladi.

Mulkni nobud qilish deganda, mulkning qayta tiklab bo'lmaydigan va undan vazifasiga ko'ra foydalanib bo'lmaydigan holatga keltirilganligi tushuniladi. Shaxs uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan (shaxs sir saqlanishini xohlayotgan) ma'lumotlar deganda, o'zining shaxsiy hayoti, ish faoliyati, yaqin kishilari, qarindosh-urug'lari haqidagi va shu kabi har qanday axborotlar tushunilishi kerak. Shaxsning ma'lumotlarni sir saqlashni xohlagan yoki xohlamaganligi har bir alohida holda sud tomonidan aniqlanadi.

Odatda, sud bunday shantaj jabrlanuvchining irodasiga ta'sir qilgan yoki qilmaganligiga qarab, jabrlanuvchining ma'lumotlarini sir saqlanishini xohlagan yoki xohlamaganligini aniqlaydi. Agar jabrlanuvchi ma'lumotlar oshkor qilinishidan qo'rqib tovlamachining talablarini bajargan bo'lsa, demak jabrlanuvchi ushbu ma'lumotlarning sir saqlanishini xohlagan bo'ladi. Ma'lumotlarni oshkor qilish deganda, jabrlanuvchining fikricha, oshkor qilinishi noma'qul bo'lgan (masalan, farzandlikka olish, kasallik, sudlanganlik to'g'risidagi va h.k.) axborotlarni boshqa shaxslarga ma'lum qilish tushuniladi.

Aybdor shaxs ma'lumotlarni og'zaki, xat, telefon, faks orqali va boshqa tarzda oshkor qilishi mumkin. Ma'lumotlarni oshkor qilish usuli tovlamachilikning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi.

Jabrlanuvchini o'z mulki yoki mulkka bo'lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yish deganda aybdorning jabrlanuvchini noilojlik tufayli, o'z xohishiga qarshi tovlamachining talablarini bajarish (masalan, elektr energiyasini uzib qo'yish, gazni o'chirib qo'yish, transport vositasini bermaslik, neft mahsulotlari bilan ta'minlamaslik va h.k.)ga majbur qiladigan har qanday harakatlarni sodir etishi tushunilishi lozim.

Tovlamachilik o'zganing mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini topshirish, mulkiy manfaatlar berish yoxud mulkiy yo'sindagi harakatlarni sodir etish talab qilingan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan jinoyat, deb hisoblanadi. Tovlamachilikni bosqinchilik va talonchilikdan farqlashda tovlamachilikda zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish mulkni zo'rlik ishlatayotgan vaqtda emas, balki kelajakda qo'lga kiritishga qaratilishiga e'tibor berish lozim. Agar qo'rqitish amalga oshirilsa, qilmish Jinoyat kodeksining tovlamachilik uchun javobgarlik belgilangan moddasi va asoslar bo'lganda, qo'rqitish amalga oshirilayotganda sodir etilgan harakat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi bilan ham tavsiflanishi lozim'.

Subyektiv tomondan tovlamachilik to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Jinoyatni sodir etishdan maqsad – g'araz (tamagirlik)dir. Qilmishning motivlari turlicha bo'lishi mumkin, ammo ular jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyat kasb etmaydi.

Jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan, har qanday aqli raso shaxsdir.

Tovlamachilikning:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) ko'p miqdorda;
- d) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilganligi (Jinoyat kodeksining 165-moddasi, 2-qismi) jazoni og'irlashtiruvchi holatlar hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 165-moddasi, 3-qismida:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;

d) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan tovlamachilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

D. Talonchilik
(*Jinoyat kodeksining 166-moddasi*)

Ushbu modda to'rt qismdan iborat. Zo'rlik ishlatmay sodir etilgan talonchilikning obykti (Jinoyat kodeksining 166-moddasi, 1-qismi) o'zganing mulkidir, zo'rlik ishlatib sodir etiladigan talonchilikning obykti – o'zganing mulki, sog'lig'i yoki fuqarolarning jismoniy daxlsizligidir.

Obyektiv tomondan talonchilik o'zganing mol-mulkini ochiqdan ochiq talon-taroj qilishda ifodalanadi. Mulkni ochiqdan ochiq talon-taroj qilish usuli ikkita: obyektiv va subyektiv xususiyatlarga ega.

Ochiqdan ochiq talon-taroj qilishning obyektiv xususiyati aybdor tomonidan o'zganing mulkini mol-mulk egasi yoki mol-mulk ixtiyorida yoxud muhofazasida bo'lgan shaxslarning, o'zganing mulki talon-taroj qilinayotganligi anglab turgan begona kishilarning ko'zi oldida talon-taroj qilishda namoyon bo'ladi.

Ochiqdan ochiq talon-taroj qilishning subyektiv xususiyati shundaki, talonchi o'zganing mulkini ochiq-oydin talon-taroj qilayotgan vaqtida o'zining xatti-harakatlari mulk egasi tomonidan yoxud mol-mulk tasarrufida bo'lgan yoki begona shaxslar tomonidan kuzatib turilganligini anglaydi.

Agar aybdor tomonidan o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish mol-mulk egasi yoki begona shaxslar tomonidan bilib qilingan bo'lsa, ammo shunga qaramay, jinoyatchi o'zganing mulkini tortib olish yoki qo'ldan bermaslik uchun hayot yoki sog'liq maqsadida xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitsa yoxud shunday zo'rlik ishlatsa, aybdorning o'g'rilik sifatida boshlangan harakatlari talonchilikka aylanadi va qilmish Jinoyat kodeksining 166-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Biroq, aybdor qo'lga tushib qolishdan qo'rqib, talon-taroj qilingan narsani tashlab, hodisa joyidan qochib yashirinsa, uning harakatlari o'zganing mulkini o'g'irlashga suiqaqd qilish sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Jinoyat kodeksining 166-moddasiga muvofiq talonchilikning:

- 1) zo'rlik ishlatmasdan sodir etilgan;
- 2) zo'rlik ishlatib sodir etilgan turlari mavjud.

Zo'rlik ishlatmasdan sodir etilgan talonchilik uchun javobgarlik Jinoyat kodeksining 166-moddasi, 1-qismida nazarda tutilgan. Shaxs mulkni «yulib» olib ketsa, uning harakatlari Jinoyat kodeksining 166-moddasi, 1-qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Masalan, ashyolar solingan sumkani jabrlanuvchining qo'lidan tortib olish, bo'ynidan zanjirni uzib qochish, boshidan telpakni yulib olish, peshtaxtadan tovarni changallab olib qochish va h.k. Bunda aybdor tomonidan mol-mulkini talon-taroj qilish uchun hech qanday zo'rlik ishlatilmaydi.

Zo'rlik ishlatib sodir etilgan talonchilik, ya'ni jabrlanuvchi yoki boshqa kishilarning hayoti yoki sog'lig'iga tahdid solinganlik uchun javobgarlik Jinoyat kodeksining 166-moddasi, 2-qismida nazarda tutilgan. O'zganing mol-mulki talon-taroj qilingan va aybdorda talon-taroj qilingan mol-mulkni o'z ixtiyoriga ko'ra tasarruf etish imkoniyati paydo bo'lgan paytdan e'tiboran talonchilik tamom bo'lgan jinoyat, deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan talonchilik to'g'ri qasd bilan tamagirlik maqsadida sodir etiladi. Jinoyatning subyektivi 16 yoshga to'lgan, har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 166-moddasi, 2-qismida:

- a) jabrlanuvchining hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib;
- b) ancha miqdorda;
- d) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan talonchilik uchun javobgarlik nazarda tutiladi.

Jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik deganda, badanga yengil shikast yetkazish tushunilishi lozim. Bunday zo'rlik jabrlanuvchiga jismoniy og'riq yetkazish yoki uning erkinligini cheklash bilan bog'liq bo'lgan harakatlarda ham namoyon bo'lishi mumkin.

Jabrlanuvchini zoʻrlik ishlatib xonaga qamab, bogʻlab qoʻyish, ogʻziga latta tiqib qoʻyish va h.k. shular jumlasidandir. Oʻzganing mulki talon-taroj qilinayotgan vaqtda zoʻrlik ishlatib, shaxs erkinlikdan mahrum qilingan boʻlsa, aybdorning qilmishi zoʻrlik ishlatib sodir qilingan talonchilik hisoblanadi (Jinoyat kodeksining 166-moddasi, 2-qismi).

Aybdor jabrlanuvchi bilan toʻqnashmaslik, uning mol-mulkni tortib olinishiga toʻsqinlik qilishining oldini olish maqsadida zoʻrlik ishlatmasdan erkinlikdan mahrum etsa (aybdor turgan xona eshigini qulflab qoʻysa), aybdorning harakatlari zoʻrlik ishlatmasdan sodir etilgan talonchilikni vujudga keltiradi (Jinoyat kodeksining 166-moddasi, 1-qismi).

Jabrlanuvchining hayoti yoki sogʻligʻi uchun xavfli boʻlmagan zoʻrlik ishlatish bilan qoʻrqitish jabrlanuvchini mol-mulkni berishga yoki uning talon-taroj qilinishiga toʻsqinlik qilmaslikka majbur qilish maqsadida unga ruhiy taʻsir koʻrsatishdan iboratdir. Qoʻrqitish mol-mulk egasiga yoxud mol-mulk ixtiyorida yoki muhofazasida boʻlgan shaxsga nisbatan yoxud mol-mulkni talon-taroj qilish begona shaxslar koʻzi oldida sodir etilayotgan boʻlsa, oʻsha shaxslarga qaratilgan boʻlishi mumkin. Talonchilikda qoʻrqitish haqiqatda mavjud va real boʻlishi kerak.

Jinoyat kodeksining 166-moddasi, 3-qismida:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) uy-joyga, omborxonaga yoki boshqa xonaga gʻayriqonuniy ravishda kirib;
- d) koʻp miqdorda sodir etilgan talonchilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Jinoyat kodeksining 166-moddasi, 4-qismida:

- a) juda koʻp miqdorda;
- b) oʻta xavfli retsivist tomonidan;
- d) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini koʻzlab sodir etilgan talonchilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Ushbu jazoni ogʻirlashtiruvchi barcha holatlar talonchilik jinoyatida tahlil etilganligi sababli ularga toʻxtash lozim topilmadi.

*E. Oʻzlashtirish yoki rastrata yoʻli bilan
talon-taroj qilish
(Jinoyat kodeksining 167-moddasi)*

Oʻzlashtirish yoki rastrata yoʻli bilan talon-taroj qilish jinoyatining obyekti aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida boʻlgan oʻzganing mulki hisoblanadi. Obyektiv tomondan jinoyat aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida boʻlgan oʻzganing mulkini oʻzlashtirish yoki rastrata yoʻli bilan talon-taroj qilishda namoyon boʻladi.

Oʻzlashtirish deganda, aybdor shaxsning oʻziga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida boʻlgan mulkni gʻayriqonuniy ravishda ushlab turib, keyin uni oʻz foydasiga olishini tushunish lozim. Mulkni oʻzida ushlab turish uni qonuniy egasiga qaytarish toʻgʻrisida talablarni bajarmaslikda, shu mulkni taftish vaqtida taqdim etmaslikda ifodalanadi. Shaxs bunday hollarda undan oʻz mulkidan foydalanganday foydalanadi.

Talon-tarojning oʻzlashtirish shakli mulk ushlab qolingani paytdan eʼtiboran, yaʼni oʻzganing mulkiga gʻayriqonuniy ravishda oʻzining egasiga qaytarilgan paytdan eʼtiboran tamom boʻlgan jinoyat, deb hisoblanadi. Rastrata deganda, qonunga xilof ravishda oʻzganing mulkini sotish, sarflash, isteʼmol qilish, hadya qilish va h.k. yoʻllar bilan begonalashtirish tushuniladi. Rastrata aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida turgan mol-mulk begonalashtirilgan (masalan, sarflab yuborilgan, sotilgan, hadya qilingan, isteʼmol qilingan va h.k.) paytdan eʼtiboran tamom boʻlgan jinoyat, deb hisoblanadi.

Talon-tarojning rastrata shakli oʻzlashtirishdan shu bilan farq qiladiki, oʻzlashtirishda talon-taroj qilingan mulk qonuniy egasiga qaytarilishi mumkin, rastratada talon-taroj qilingan mulk aybdorda boʻlmaydi, u sotilgan, hadya qilingan, isteʼmol qilingan boʻlishi mumkin, yaʼni mulk egasiga talon-taroj qilingan mulkning faqat qiymatini qaytarish imkoniyati mavjud boʻladi.

O'zlashtirish mulk ixtiyorida bo'lgan yoki o'ziga ishonib topshirilgan shaxs mulkni taftish chog'ida yoki mulk egasining talabiga binoan tekshirish chog'ida uni taqdim eta olmagan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan jinoyat deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan o'zlashtirish va rastrata to'g'ri qasd bilan, g'araz maqsadda sodir etiladi. Jinoyatning subyekti – 16 yoshga to'lgan, aqli raso shaxslar.

Mulk ishonib topshirib qo'yilgan yoki ixtiyorida mulk turgan shaxsgina, ya'ni xizmat burchi, shartnoma munosabatlari yoki maxsus topshiriq munosabati bilan shu mulkni tasarruf etish, boshqarish, eltib qo'yish, saqlash bo'yicha vakolatlarini amalga oshirayotgan shaxs (masalan, omborchi, ekspeditor, ta'minlovchi, sotuvchi, kassir va boshqa shaxslar) o'zlashtirish yoki rastrata jinoyatining subyekti bo'lishi mumkin.

Qoidaga ko'ra, mulk ishonib topshirilgan yoxud ixtiyorida mulk turgan shaxslar moddiy javobgar shaxslar hisoblanadilar, ammo bunday bo'lmasligi ham mumkin.

Mulk har qanday shaxsga ishonib topshirilishi mumkin bo'lib, unga turli bitimlar asosida (masalan, ijara, kira, saqlash, tashish shartnomalari va h.k. asosida) shu mulkni tasarruf etish, boshqarish, eltib qo'yish yoki saqlash bo'yicha huquqlar, vakolatlar berilishi mumkin. Shu sababli, aybdor shaxslar o'zlariga ishonib topshirilgan mulkni o'zlashtirsalar yoki rastrata qilsalar, ularning harakatlari Jinoyat kodeksining 167-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Sud-tergov amaliyotida o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilishni o'zganing mol-mulkini o'g'irlashdan farqlashda muayyan qiyinchiliklar mavjud. Bu jinoyatlarni farqlashda jinoyat subyekting talon-taroj qilgan mol-mulkka nisbatan huquqiy vakolatini to'g'ri aniqlash zarur.

Shuni nazarda tutish kerakki, o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilishda, mulk aybdorga ishonib topshirilgan bo'lib, uning ixtiyorida turadi va aybdor shaxs mol-mulkni tarqatish, boshqarish, eltib qo'yish yoki saqlash bo'yicha huquqiy vakolatlariga ega bo'ladi.

O'g'rilik yo'li bilan talon-tarojni sodir etishda esa, shaxsning talon-taroj qilingan mol-mulkka hech qanday aloqasi bo'lmaydi yoxud ishlab chiqarish zarurati, topshirilgan ish munosabati bilan undan foydalanish huquqiga ega bo'ladi xolos (masalan, bug'doy o'rayotgan kombaynchi, korxonalaridagi yukchilar, haydovchilar va h.k.)

Jinoyat kodeksining 167-moddasi, 2-qismida:

- a) ancha miqdorda;
- b) takroran yoki xavfli retsidevist tomonidan;
- d) bir guruh shaxslar tomonidan oldin til biriktirib;
- e) mansab mavqeyini suiiste'mol qilish yo'li bilan sodir etilgan o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilganlik uchun javobgarlik nazarda tutiladi.

Aybdor shaxslarning harakatlarini Jinoyat kodeksining 167-moddasi, 2-qismi, «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun jinoyatning barcha ishtirokchilari mol-mulk ishonib topshirilgan yoki ixtiyoriga berilgan shaxslar bo'lishlari zarur. Agar talon-taroj qilish ishtirokchilaridan faqat bittasi mol-mulk ishonib topshirilgan yoxud ixtiyorida bo'lgan shaxs bo'lsa, qolganlari esa, bunday vakolatlariga ega bo'lmagan shaxs bo'lsalar, aybdorlarning qilmishi Jinoyat kodeksining 167-moddasi, 2-qismi, «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas. Bunday hollarda mol-mulk ishonib topshirilgan yoki ixtiyorida bo'lgan shaxs Jinoyat kodeksining 167-moddasi, 1-qismi bo'yicha, jinoyatning boshqa ishtirokchilari esa, Jinoyat kodeksining 28-moddasi orqali Jinoyat kodeksining 167-moddasi, 1-qismi bilan javobgar bo'ladilar.

Jinoyat kodeksining 167-moddasi, 3-qismida o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilishning quyidagi:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) o'ta xavfli retsidevist tomonidan;
- d) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab;
- e) kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib sodir etilgan o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-taroj qilganlik uchun javobgarlik ko'zda tutiladi.

O'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-taroj qilishning ayrim jazoni og'irlashtiruvchi holatlarini biz yuqorida ko'rib chiqdik. Shu munosabat bilan ilgari tahlil etilmagan holatlarga to'xtalib o'tamiz.

Sud-tergov amaliyotida qilmishni mulkni o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan takroran sodir etilgan talon-taroj, deb kvalifikatsiya qilishda ayrim qiyinchiliklar mavjud.

Takroran sodir etilgan talon-tarojdan yagona jinoyat hisoblanuvchi davomli talon-tarojni farqlash lozim.

Umumiy maqsadga ega bo'lgan va talon-tarojni sodir etayotgan shaxsning yagona qasdi bilan qamrab olingan, bir-biriga o'xshash jinoiy qilmishlardan iborat bo'lgan, o'zganing mulkini bir necha marta olinishi davomli talon-taroj (masalan, ombor mudiri ombordagi tovar-moddiy boyliklarni har kuni o'zlashtirishi), deb hisoblanadi. Shunday qilib, aybdor shaxs qasdining yagonaligi, talon-taroj qilinayotgan manbaning yagonaligi, talon-taroj usulining bir xil ekanligi davomli talon-tarojning alomatlarini hisoblanadi.

Mansab mavqeyini suiiste'mol qilish deganda, mansabdor shaxs tomonidan o'zganing mol-mulkini moddiy javobgar shaxslar bilan til biriktirib yoki soxta hujjatlardan foydalanib egallanishi, qonunga xilof ravishda mukofotlar, ish haqiga ustamalar yozish yo'li bilan, pensiyalar, turli nafaqalar olish va h.k. maqsadida o'z mansab mavqeyidan foydalanishi tushuniladi.

Mansab mavqeyini suiiste'mol qilib, o'zganing mulki talon-taroj etilganida mansabdor shaxs talon-taroj qilingan mulkka nisbatan quyidagi huquqlarga ega:

- 1) mol-mulk mansabdor shaxsga muayyan maqsadlar uchun ishonib topshirilgan;
- 2) mol-mulk mansabdor shaxsga ishonib topshirilmagan, balki faqat uning ixtiyorida turgan;
- 3) mol-mulk ishonib topshirilmagan va mansabdor shaxs ixtiyorida turmagan ham bo'lishi mumkin.

Mansab mavqeyini suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish usullari xilma-xildir. Biroq, sud-tergov amaliyotida mansab soxtakorligi yoki soxta hujjatlardan foydalanish yo'li bilan o'zganing mulkini talon-taroj qilish eng ko'p uchraydi.

Shu sababli, agar mansabdor shaxs rasmiy hujjatlarga bila turib soxta ma'lumotlar yoki yozuvlar kiritisa yoki ularni qalbakilashtirisa yoxud bila turib soxta hujjatlar tuzsa va shu usullardan foydalanib, talon-tarojni amalga oshirsa, qilmish Jinoyat kodeksining 167-moddasi, 2-qismi, «g» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim, chunki yuqorida aytilgan mansabdor shaxsning harakatlari talon-taroj qilish usuli hisoblanadi.

Agar sodir etilgan talon-tarojni yashirish maqsadida mansab soxtakorligi sodir etilsa, bunday hollarda aybdor – mansabdor shaxslarning qilmishlarini jinoyatlar jami Jinoyat kodeksining 167 va 209-moddalari (mansab soxtakorligi) bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib, mulkni o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-taroj qilishda shaxs kompyuter texnikasidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan, bu axborot unga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida turgan bo'lsa, uning qilmishi Jinoyat kodeksining 167-moddasi, 3-qismi, «g» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

F. Firibgarlik (Jinoyat kodeksining 168-moddasi)

Ushbu jinoyatning obyekti o'zganing mulkidir. Firibgarlikning predmeti o'zganing mulki yoki mulkka bo'lgan huquqidir. Odatda, mulkka bo'lgan huquq, turli xil hujjatlarda mustahkamlangan bo'ladi.

Obyektiv tomondan firibgarlik aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiy huquqini qo'lga kiritishdan iborat.

Aldash deganda, mol-mulk egasi yoki mol-mulk ishonib topshirilgan shaxsning o'zi uni firibgarga ixtiyoriy ravishda, o'z xohishi bilan berishi, jabrlanuvchini chalg'itish uchun aybdor shaxs tomonidan har qanday faktni buzib ko'rsatish yoki haqiqatni yashirish yoxud bila turib yolg'on ma'lumotlarni xabar qilish tushuniladi.

Aldashning shakllari turlicha bo'lib, uni qalbaki blanklar, ishonchnoma, muhr, guvohnoma kabilardan foydalanib amalga oshirish mumkin.

Aybdor firibgarlikni sodir etishda soxta hujjatlardan foydalansa, uning qilmishi firibgarlik tarkibi bilan qamrab olinadi va u Jinoyat kodeksining 228-moddasi bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilinmaydi. Biroq, firibgarlik harakatlarini sodir etish maqsadida aybdor shaxsning o'zi hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blanklar

tayyorlasa, ularni qalbakilashtirsa, uning qilmishlari jinoyatlar jami bo'yicha Jinoyat kodeksining 168 va 228-moddalari (hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blanklar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish) bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Firibgarlikni sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsning hokimiyat vakili formasini kiyib olish yoki uning guvohnomasini qalbakilashtirish yo'li bilan o'zini boshqa shaxs qilib ko'rsatishi va shu yo'l bilan o'zganing mulkini olishi mumkin. Firibgarlikning mulkini talon-taroj qilishning o'g'rilik, talonchilik, bosqinchilik shakllaridan farqi shundaki, firibgarlikda jabrlanuvchining o'zi mulkni aybdorga ishongani yoki aldanganligi sababli ixtiyoriy ravishda berib yuboradi.

Xususiy shaxs tomonidan aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilib mablag', pensiya, nafaqa yoki boshqa to'lovlarni qasddan qonunga xilof ravishda olishini firibgarlik deb kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Ishonchni suiiste'mol qilish deganda, aybdor shaxs tomonidan o'zganing mulkini qonunga xilof ravishda o'z foydasiga olish uchun o'zi va mulk egasi yoxud mulk egaligi ixtiyorida turgan shaxs o'rtasidagi alohida, o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlardan qonunga xilof ravishda mulkni o'z foydasiga olish uchun foydalanilishi tushunilishi lozim. Ishonchga asoslangan munosabatlar firibgar va jabrlanuvchi shaxs o'rtasida prokat, ijara, oldi-sotdi, topshiriq shartnomasi va h.k.larda vujudga kelishi mumkin. Firibgar niyatiga erishish uchun qarindoshchilik, do'stlik munosabatlaridan ham foydalanishi mumkin.

Sud-tergov amaliyotini o'rganish firibgarlik ko'proq ijara shartnomasini tuzish orqali sodir etilishini ko'rsatadi. Shaxsda ijara shartnomasini tegishli rasmiylashtirgani holda ijara olingan narsani qaytarish niyati bo'lmaydi; zayom shartnomasini rasmiylashtirishda aybdor oldindan zayom narsasini qaytarmaslik niyatida bo'lib shartnoma tuzadi; oldi-sotdi shartnomasi tuzish va oldindan to'lanadigan haqni olishda aybdor shartnomada ko'rsatilgan tovarni berish niyatida bo'lmaydi; qaytarib berish niyatisiz narsalarni olish eng ko'p tarqalgan usullardan hisoblanadi.

Firibgarlik o'zganing mulki qo'lga kiritilgan va aybdorda o'z ixtiyoriga ko'ra talon-taroj qilingan mulkni tasarruf etish imkoniyati paydo bo'lgan paytdan boshlab tamom bo'lgan jinoyat hisoblanadi.

Agar shaxs aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan aqli noraso shaxsning yoxud o'ziga nisbatan sodir etilgan harakatlarning xususiyatini tushunmaydigan yosh bolaning mulkini qo'lga kiritib olsa, aybdor firibgarlik uchun emas, balki o'g'rilik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining «O'zgalar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik yo'li bilan talon-taroj qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi qarorida aybdor tomonidan sodir etilayotgan voqeani tushunib yetish qobiliyatiga ega bo'lmagan (masalan, yoshi juda kichiklar, ruhiy jihatdan aqli norasolar, alkogoldan yoki narkotik moddalardan kuchli mastlik darajasida bo'lgan yoki uxlab qolgan) shaxslarning mulkini o'g'rilash o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish, deb tavsiflanishi kerak¹.

Subyektiv tomondan firibgarlik to'g'ri qasddan g'araz maqsadda sodir etiladi, tamagirlik maqsadning mavjudligi firibgarlikning zaruriy belgisi hisoblanadi. Firibgarlik jinoyatining subyekti 16 yoshga to'lgan, aqli raso har qanday shaxs bo'la oladi.

Sud-tergov amaliyotida firibgarlikni o'g'rilikdan farqlashda ayrim qiyinchiliklar mavjud. Firibgarlikni sodir etishda aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish o'zganing mulkini qo'lga kiritish usuli bo'lib xizmat qiladi, o'g'rilik sodir etishda aldashni qo'llash o'g'irlanadigan narsani qo'lga tushirishni yengillashtirish vositasi hisoblanadi. Firibgarlik sodir etilganda jabrlanuvchi shaxs mulkni yoki mulkiy huquqni firibgarga o'z, ixtiyori bilan topshiradi, o'g'rilikda esa, aybdor shaxs uni mulk egasining yoki mulk kimning ixtiyorida turgan bo'lsa, o'sha shaxsning ruxsatisiz yashirin ravishda talon-taroj qiladi. Faqat o'zganing mulkigina o'g'rilik predmeti bo'lishi mumkin, firibgarlik predmeti esa o'zganing mulki yoki mulkka bo'lgan huquqi ham bo'lishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 168-moddasi, 2-qismida:

- a) ko'p miqdorda;
- b) takroran yoki xavfli retsdivist tomondan;
- d) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- e) kompyuter texnika vositalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

Jinoyat kodeksining 168-moddasi, 3-qismida:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;
- d) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan firibgarlik uchun javobgarlikni nazarda tutiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan jazoni og'irlashtiruvchi barcha holatlar avvalgi paragraflarda tahlil qilinganligi uchun ularga to'xtalishini lozim topmadik.

G. O'g'rilik
(*Jinoyat kodeksining 169-moddasi*)

O'g'rilik talon-tarojning eng ko'p tarqalgan shaklidir. Bunga sabab avvalo, tergov amaliyotida o'g'rilikni ochish foizlarining unchalik katta emasligi bo'lsa kerak, chunki o'g'rilik yashirin ravishda sodir etiladi, bu esa jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini ancha oshiradi, uning ochilishini qiyinlashtiradi.

O'g'rilik jinoyatining obyektivi o'zganing mulkidir. Obyektiv tomondan o'g'rilik o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilishda ifodalanadi.

Talon-taroj qilishning yashirin usuli deganda, mulk egasi yoki mulk ishonib topshirilgan yoki ixtiyorida turgan shaxsga sezdirmasdan, ular yo'q vaqtda yoxud mulkdor yoki boshqa shaxslar mulkning talon-taroj qilinayotganini tushunmagan vaqtda sodir etishligi tushuniladi.

Agar mulk egasi yoki mulk ixtiyorida bo'lgan yoki u ishonib topshirilgan shaxs talon-taroj qilish chog'ida hozir bo'lsa-yu, ammo talon-taroj sodir bo'layotganini tushunib yetmasa, shaxsning qilmishi (masalan, mulk egasi, qorovul uxlayotgan bo'ladi yoxud alkogol yoki narkotik mastlik holatida bo'lib, mulk talon-taroj qilinayotganini anglab yetmaydi) o'g'rilik, deb kvalifikatsiya qilinadi.

Mulknı ochiqdan ochiq talon-taroj qilish atrofıdagi shaxslarning ko'zi oldida sodir etilgan bo'lsa-yu, atrofıdagilar buni anglamagan (masalan, aybdor o'zganing jomadonini egasi yo'qligidan foydalanib, atrofıdagilarning ko'zi oldida o'g'irlyaydi, bunda jinoyatchi atrofıdagilar u o'z jomadonini olib ketayapti, deb o'ylashlariga ishonadi va h.k.) hollarda ham qilmish o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish, deb hisoblanmog'i lozim.

«O'zganing mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish bilan boshlangan, lekin jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslar tomonidan sezib qolinganiga qaramasdan, aybdor tomonidan mulkka egalik qilish maqsadida ularni hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib, qilingan harakatlar talonchilik deb, hujum qilib hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatganda yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitganda esa, bosqinchilik, deb tavsiflanadi»¹.

Shaxs o'zganing mulkini egallashga qaratilgan harakatlari boshqalarga ma'lum bo'lganligini bilib, o'z xatti-harakatini to'xtatsa va jinoyat joyidan qochib, yashirinsa, uning qilmishi o'g'irlikka suiqaqd bo'ladi.

O'zganing mulki olib qo'yilgan va aybdor shaxsda o'g'rilangan mulknı o'z xohishiga ko'ra tasarruf etishning real imkoniyati, ya'ni aybdorda o'zi o'g'irlangan mulknı yashirish, sotish, berish, hadya qilish, belgilangan maqsadda foydalanish imkoniyati paydo bo'lgan paytdan e'tiboran o'g'rilik tamom bo'lgan jinoyat, deb hisoblanadi. Agar aybdor o'g'irlangan mulknı tasarruf etish yoki undan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan bo'lsa, uning harakatlari o'g'irlikka suiqaqd hisoblanadi. Masalan, shaxs zavodning kirish-chiqish joyida o'g'rilangan narsalar bilan ushlandi, deylik, bu holda aybdor shaxs mulknı qo'lga kiritgan, ammo hali uni o'z ixtiyoricha tasarruf etish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Biroq, agar aybdor shaxs tayyor mahsulot sexidan tovarni o'g'irlangan bo'lsa va zavod hududidan chiqmasdan shu mahsulotdan o'z maqsadida foydalangan (iste'mol qilgan) bo'lsa, aybdorning harakatlari tamom bo'lgan o'g'irlikning tarkibini tashkil qiladi.

Basharti, qo'riqlash xodimi bila turib, o'g'rilikni sodir etayotgan shaxsga mulknı o'zi qo'riqlanayotgan hududdan olib chiqishga ko'maklashsa yoki o'g'irlikning sodir etilishiga xalaqit beruvchi to'siqlarnı bartaraf etsa, u o'zganing mulkini talon-taroj qilishda ishtirok etganlik uchun javobgar bo'ladi.

Subyektiv tomondan o'g'rilik to'g'ri qasd bilan tamagirlik maqsadida sodir etiladi. O'g'rilik jinoyatining subyektivi 14 yoshga to'lgan shaxs bo'ladi.

Jinoyat kodeksining 169-moddasi, 2-qismida:

- a) jabrlanuvchining kiyimi, sumkasi yoki boshqa qo'l yukidagi ashyoga nisbatan (kissavurlik);

- b) ancha miqdorda;
- d) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- e) uy-joy, omborxonalar yoki boshqa xonaga g'ayriqonuniy ravishda kirib sodir etilgan o'g'rilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Jabrlanuvchining kiyimi, sumkasi yoki boshqa qo'l yukidagi ashyoga nisbatan sodir etilgan o'g'rilik (kissavurlik) respublikamizning jinoyat qonuniga yangi kiritilgan og'irlashtiruvchi holatdir. Kissavurlikning ijtimoiy xavfliligi:

- *birinchidan*, uning ancha ko'p tarqalganligi bilan;
- *ikkinchidan*, aybdor bevosita jabrlanuvchining o'zida turgan mulkni tortib olishi, bu esa jabrlanuvchi o'z mulkiga suiqasd qilayotganini payqab qolsa, jabrlanuvchiga nisbatan zo'rlik ishlatilishi xavfi tug'ilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

O'zganing mulki bo'lgan pul bevosita jabrlanuvchining kiyimi, sumkasi yoki boshqa qo'l yukidan tortib olingan hollardagina aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 169-moddasi, 2-qismi, «a» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

O'g'rilik sodir etilayotgan vaqtda kiyim jabrlanuvchining egnida yoki qo'lida bo'lishi kerak. Agar aybdor garderob yoki ilgichda osilib turgan kiyim cho'ntagidan ashyoni qonunga xilof ravishda olsa, kissavurlikning tarkibi mavjud bo'lmaydi.

Agar sumka yoki qo'l yuki jabrlanuvchining qo'lida bo'lsa yoki jabrlanuvchining o'zida yoxud uning yonida bo'lsa (masalan, jomadon, sumkani jabrlanuvchi hordiq chiqarish, nimadir sotib olish va h.k. uchun yoniga qo'ygan bo'lsa), ya'ni bu ashyolar yana yo'lga tushganida uning o'zi bilan birga bo'ladigan bo'lsa, bu holda sodir etilgan o'g'rilik Jinoyat kodeksining 169-moddasi, 2-qismi, «a» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining «O'zganing mulkini o'g'irlash, talonchilik va bosqinchilik yo'li bilan talon-taroj qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi qarorida: «Jabrlanuvchining egnida bo'lgan kiyim-kechagi, qo'lidagi yoki bevosita yonida bo'lgan sumka, chamadon va boshqa anjomlaridan sodir etilgan yashirin talon-taroj qilish kissavurlik, deb hisoblanadi va Jinoyat kodeksining 169-moddasi, 2-qismi, «a» bandi bilan tavsiflanadi¹, deb ko'rsatilgan.

Har bir alohida ishda sud barcha holatlarni hisobga olgan holda sumka yoki boshqa qo'l yuki jabrlanuvchi yonida bo'lganligi faktini aniqlashi kerak.

Jinoyat kodeksining 169-moddasi, 3-qismida:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) kompyuter tizimiga ruxsatsiz kirib;
- d) ko'p miqdorda sodir etilgan o'g'rilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Aybdor kompyuter tizimidan foydalanish huquqiga ega bo'lmagani holda unga kirgan va o'zganing hisobidan o'zining hisobiga pul o'tkazgan hollarda o'g'rilik Jinoyat kodeksining 169-moddasi, 3-qismi, «b» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunday o'g'rilik kompyuter orqali aybdor shaxsning hisobiga pul mablag'i yozilgan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan jinoyat, deb hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 169-moddasi 4-qismida:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;
- d) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan o'g'rilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

1. Talon-tarojning barcha shakllariga xos bo'lgan xususiyatlar va og'irlashtiruvchi belgilarini tavsiflab bering. Talon-taroj qilishning javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarini tushuntiring.

2. Bosqinchilik tushunchasini, uning zaruriy belgilarini va javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarini tushuntirib bering.
3. Badanga og'ir shikast yetkazib sodir etilgan bosqinchilikni tamagiriklik niyatda badanga og'ir shikast yetkazishdan farqini ko'rsatib bering.
4. Tovlamachilikning tarkibiga tavsif bering. Tovlamachilikda zo'rlikning qanday shakllari ishlatilishi mumkin?
5. Tovlamachilikning talonchilikdan qanday farqi bor? Talonchilikda qo'llaniladigan zo'rlikning xususiyatlari qanday?
6. Talonchilikning bosqinchilikdan qanday farqi bor?
7. O'zlashtirish va rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish harakatlarini kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Rastrata va o'zlashtirishning farqlari.
8. Mansabdor shaxslar tomonidan o'z mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish yo'li bilan talon-taroj qilishning qanday turlari mavjud? Ularning yuridik tahlili va o'ziga xos xususiyatlari.
9. Firibgarlik tushunchasi, uning belgilari va firibgarlikning o'g'rilik va talonchilikdan farqi. Firibgarlikni sodir etish usullari deganda nima tushuniladi?
10. Talon-taroj qilishning shakli sifatida o'g'rilik tushunchasi.
11. Ancha miqdor, ko'p miqdor va juda ko'p miqdor deganda nima tushuniladi?
12. Jinoyat kodeksining 169-moddasi bo'yicha ayblanuvchining harakatlarini kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari qanday?

3.3. O'zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar

O'zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlarga quyidagilar kiradi:

- Aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazish (Jinoyat kodeksining 170-moddasi).
- Jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish (Jinoyat kodeksining 171-moddasi).
- Mulkni qo'riqlashga vijdotsiz munosabatda bo'lish (Jinoyat kodeksining 172-moddasi).
- Mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish (Jinoyat kodeksining 173-moddasi).
- Axborotlantirish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 174-moddasi).

Bu jinoyatlarning obyekti o'zgalarning mulki va Jinoyat kodeksining 174-moddasi bo'yicha axborot egasining huquqlari bo'lib, jinoyatlar obyektiv tomondan harakat bilan sodir etilib, subyektiv tomondan jinoyatlar harakat bilan, mulkni qo'riqlashga vijdotsiz munosabatda bo'lish (Jinoyat kodeksining 172-moddasi) jinoyati harakatsizlik bilan sodir etiladi. Aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazish, jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish mulkni qo'riqlashga vijdotsiz munosabatda bo'lish, mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish jinoyati birinchi qismi bo'yicha, axborotlashtirish qoidalarini buzish jinoyatlarining subyekti 16 yosh, mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish jinoyati ikkinchi va uchinchi qismi bo'yicha 14 yosh subyekt yoshi hisoblanadi.

A. Aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazish

(Jinoyat kodeksining 170-moddasi)

Ushbu jinoyatning obyekti o'zganing mulki, ya'ni har xil shartnomaviy va boshqa majburiyatlardan kelib chiquvchi mulkiy munosabatlar hisoblanadi. Mulk shaklidan qat'iy nazar, har qanday mulk jinoyatning obyekti bo'lishi mumkin.

Obyektiv tomondan jinoyat, talon-taroj alomatlarini bo'lmagani holda aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkdorga ancha miqdorda zarar yetkazishdan iborat.

Ancha miqdordagi zarar deganda, eng kam oylik ish haqining o'ttiz barobaridan yuz barobarigacha bo'lgan miqdordagi zarar tushuniladi. Agar eng kam oylik ish haqining o'ttiz barobaridan kam bo'lgan miqdorda zarar yetkazilsa, Jinoyat kodeksining 170-moddasida javobgarlik nazarda tutilgan jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi. Bu moddada ko'zda tutilgan «aldash» va «ishonchni suiiste'mol qilish» tushunchalari firibgarlikdagi xuddi shunday tushunchalar bilan bir xildir.

Biroq, firibgarlikni sodir etishda aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish o'zganing mulkini qo'lga kiritish usuli bo'lsa, mulkiy zarar yetkazishda esa aldash va ishonchni suiiste'mol qilish o'zganing mulkini tortib olish usuli bo'lmay, balki mulkdor uchun foydaning boy berilishiga sabab bo'ldi. Aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan jinoyatchi hali kelib tushmagan, lekin shartnomaviy yoki boshqa majburiyatga muvofiq, mulk egasiga kelib tushishi lozim bo'lgan pul mablag'lari yoki moddiy boyliklarni o'zi yoki boshqa shaxslar foydasiga olib, mulkdorga zarar yetkazadi.

Sud tergov amaliyotida ushbu jinoyatni sodir etishning turli shakllari uchraydi. Masalan, elektr hisoblagichni tarmoqdan uzib qo'yish va elektr energiyasidan bepul foydalanish, kassir yoki provodnikning chiptasiz yurganligi uchun yo'lovchilardan pul olishi; bajarilgan ish uchun mijozlar to'lagan pulning turli xizmat ko'rsatish xodimlari tomonidan o'zlashtirilishi va h.k. shakllarda sodir etish mumkin.

Tahlil etilayotgan jinoyat moddiy tarkibli hisoblanadi va mulkdorga yoki mulk egasiga ancha miqdorda zarar yetkazilgan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat bila turib, to'g'ri qasd bilan tamagirlik maqsadida sodir etiladi. Jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan, har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

Mansabdor shaxslar o'z xizmat mavqeyidan foydalanib jinoiy harakatlar sodir etganlarida, ularning qilmishlari xizmat mavqeyini suiiste'mol qilish yoki pora olish, deb kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyat kodeksining 170-moddasi, 2-qismida:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) moddiy javobgar shaxs tomonidan;
- d) ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Mulk ishonib topshirilgan yoki shartnoma, bitim, topshiriqqa muvofiq yoki faoliyati turiga ko'ra mulkdorning jamg'armasi uchun pul mablag'larini yig'ish topshirilgan shaxs moddiy javobgar shaxs deyiladi. Ko'p miqdordagi zarar deganda, eng kam oylik ish haqining yuz barobaridan uch yuz barobarigacha bo'lgan miqdordagi zarar tushuniladi.

*B. Mulkni qo'riqlashga vijdonsiz munosabatda bo'lish
(Jinoyat kodeksining 172-moddasi)*

Mazkur jinoyatning obyekti mansabdor bo'lmagan shaxsga ishonib topshirilgan yoki uning muhofazasida turgan o'zganing mulkidir. Bu qilmish obyektiv tomondan: shaxsning mulkni qo'riqlashga vijdonsiz munosabatda bo'lishi natijasida mulkning talon-taroj qilinishi, unga shikast yetkazilishida yoki uning nobud bo'lishi sababli mulk egasiga ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lishida va bu qilmishda mansabdorlik jinoyatlarining alomatlarini yo'qligida ifodalanadi.

Ko'pincha bu jinoyat shaxsning mulkni qo'riqlash bo'yicha o'z vazifalarini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligida ifodalanib, buning natijasida mulkning talon-taroj qilinishi, unga shikast yetkazilishi yoki nobud bo'lishi tufayli yuz beradi.

Mulkning mansabdor bo'lmagan shaxs muhofazasida turishi yoki saqlash uchun shunday shaxsga ishonib topshirilishi, shuningdek, shaxs mulkni qo'riqlash bo'yicha o'z vazifalarini bajarmagani yoxud nomaqbul

bajarganligi ushbu jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi. Va nihoyat, qilmishni 172-modda bilan kvalifikatsiya qilish uchun ko'p miqdordagi mulk talon-taroj qilinishi, shikast yetkazilishi yoki nobud qilinishi tarzidagi oqibatlarining ro'y berganligi zarurdir.

Shaxsning harakatlarini tahlil qilinayotgan modda bo'yicha kvalifikatsiya qilish uchun shaxsning mulkni qo'riqlash yuzasidan o'z majburiyatlarini bajarishga vijdotsiz munosabatda bo'lishi va uning talon-taroj qilinishi, ko'p miqdorda zarar yetkazilishi natijasida unga shikast yetkazilishi yoki uning nobud qilinishi o'rtasidagi sababiy bog'lanish mavjudligini aniqlash zarur. Agar sababiy bog'lanish bo'lmasa, shaxsni Jinoyat kodeksining 173-moddasi bo'yicha javobgar qilib bo'lmaydi.

O'zganing mulkini qo'riqlash vazifasini bajaruvchi shaxsga zo'rlik ishlatilgan yoki yengib bo'lmas kuch (yong'in, toshqin, zilzila, tabiiy ofat va h.k.) ta'siri ostiga tushib qolgan va shu munosabat bilan mulkni qo'riqlash yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajara olmagan hollarda zarar yetkazilganligi uchun uning javobgar bo'lishi mumkin emas.

Subyektiv tomondan jinoyat – jinoiy beparvolik yoki jinoiy o'z-o'ziga ishonish tarzidagi ehtiyotsizlikdan sodir etiladi. Jinoyatning subyeksi 16 yoshga to'lgan, mulkni qo'riqlash vazifalarini bajarayotgan shaxs hisoblanadi.

Mansabdor shaxs mulkni muhofaza qilish bo'yicha o'z vazifalariga loqaydlik yoki vijdotsizlarcha munosabatda bo'lib, ularni bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi natijasida ko'p miqdorda zarar yetkazilgan bo'lsa, ish holatlariga qarab uning qilmishi Jinoyat kodeksining 207-moddasi (mansabga sovuqqonlik bilan qarash) yoki Jinoyat kodeksining 208-moddasi (hokimiyat harakatsizligi), deb kvalifikatsiya qilinadi.

D. Mulki qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish (Jinoyat kodeksining 173-moddasi)

Jinoyatning obyekti o'zganing mulkidir. Ushbu jinoyat obyekti ko'pincha bu ko'chmas mulk (binolar, inshootlar) bo'lishi mumkin. Obyektiv tomondan jinoyat o'zganing mulkini qasddan nobud qilish yoki unga ancha miqdorda zarar yetkazishda ifodalanadi.

O'zganing mulkini nobud qilish deganda, mulkning to'la yaroqsiz holga keltirilishi, ya'ni mulkning butunlay yaroqsiz holga keltirilishi va uni qaytadan tiklash va foydalanish imkoniyati bo'lmasligi (portlatib yuborilishi, suv bostirilishi, yoqib yuborilishi, buzib tashlanishi) tushuniladi. Mulk nobud qilinganida uni ta'mirlash, ehtiyot qismlardan foydalanish va h.k. yo'llar bilan mulkni qayta tiklash imkoniyati bo'lmaydi.

Mulkka zarar yetkazish deganda, unga jinoyatkorona munosabat natijasida mulkning xo'jalik maqsadlarida foydalanish xususiyatlarini vaqtincha yoki qisman yo'qotishi, ammo uni tiklab bo'lishi va undan kelajakda foydalanish mumkinligi tushuniladi. Bu jinoyat oqibatida mulkdorga ancha miqdorda, ya'ni eng kam oylik ish haqining o'ttiz barobaridan yuz barobarigacha bo'lgan miqdorda zarar yetkazilgan bo'lishi kerak.

Mulkni qasddan nobud qilganligi yoki unga zarar yetkazganligi uchun shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishda sodir etilgan harakat va ko'rilgan zarar o'rtasidagi sababiy bog'liqlikning mavjudligini aniqlash zarur. Mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish mulk nobud qilingan yoki unga zarar yetkazilgan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan jinoyat, deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat: to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Uni kvalifikatsiya qilish uchun jinoyatni sodir etish motivi va maqsadining ahamiyati yo'q. Jinoyatning subyeksi 16 yoshga to'lgan shaxs bo'lishi mumkin.

Agar mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish:

- a) millatlararo yoki irqiy adovat yoxud diniy taassublar zahirida;
- b) atrofdagilar uchun xavfli usulda;
- d) ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa, aybdorning qilmishlari Jinoyat kodeksining 173-moddasi, 2-qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Mazkur jinoyat uchun jazoni og'irlashtiruvchi holat – millatlararo yoki irqiy adovat yoxud diniy taassublar zahirida sodir etilishi qasddan odam o'ldirish qilmishi tahlil etilganida ko'rib chiqilgan edi, shu sababdan unga yana to'xtalishni lozim topmadik.

Jinoyatni atrofdegilar uchun xavfli usulda sodir etish deganda, mol-mulkni nobud qilish yoki unga zarar yetkazishga qaratilgan harakatlar (mulkni portlatish, suv bostirish va h.k. usullarni qo'llash) natijasida, katta tabiiy ofat va vayronalik yuz berishi xavfini keltirib chiqarish natijasida ko'pchilikning sog'lig'i uchun xavfli holatning vujudga kelishi tushuniladi. Aks holda, aybdorning mulkni nobud qilish yoki unga zarar yetkazishga qaratilgan harakatlari atrofdegilar uchun xavfli usulda sodir etilgan, deb topilishi mumkin emas. Masalan, jinoyatchi ovloq joyda jabrlanuvchining mashinasini yondirib yuboradi va bunda atrofdegilar uchun xavfli vujudga keltirmaydi.

Jinoyat kodeksining 173-moddasi, 3-qismida:

a) xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsning yoki uning yaqin qarindoshlarining mulkiga nisbatan;

b) uyushgan guruh va uning manfaatlarini ko'zlab mulkni nobud qilganlik yoki zarar yetkazganlik uchun javobgarlik nazarda tutiladi.

Bu holatlar O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustda qabul qilingan Qonuni bilan Jinoyat kodeksining 173-moddasi: «Yetkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi», degan 4-qism bilan to'ldirildi.

*E. Axborotlashtirish qoidalarini buzish
(Jinoyat kodeksining 174-moddasi)*

Axborotlashtirish qoidalarini buzish jinoyatining obyekti axborot egasining unga bo'lgan huquqi, ya'ni axborotga egalik qilish, undan foydalanishi va uni tasarruf etish huquqidir.

Jinoyatning predmeti faktlar haqidagi ma'lumotlar, biron-bir tadqiqot, shaxslar, voqealar va h.k. haqida kompyuterda qayd etilgan yoki axborot tarmoqlari (telekommunikatsiya kanallari) orqali uzatiladigan, elektron hisoblash mashinalari uchun ochiq ma'lumot bazasi, ya'ni axborot bo'lishi mumkin.

Obyektiv tomondan Jinoyat kodeksining 174-moddasi, 1-qismi-da nazarda tutilgan axborotlashtirish qoidalarini buzish quyidagi harakatlarda:

- 1) axborot tarmog'idan ruxsatsiz foydalanishda;
- 2) foydalanishga ruxsati bo'lgani holda tegishli himoya choralarini ko'rmaslikda;
- 3) axborotlar tarmog'idan qonunga xilof ravishda axborotlar olishda;
- 4) axborotlashtirish tizimidan foydalanishga ruxsati bo'lgan holda undagi ma'lumotlarni qasddan o'zgartirish, yo'qotish, olib tashlash yoki yo'q qilib yuborishda ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-mayda qabul qilingan «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining hamda boshqa muassasalar, korxonalar va tashkilotlarning faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi axborotlarga ishlov berish tizimlari, ma'lumot bazalari va banklari, ekspert va axborot qidiruv tizimlari hamda shoxobchalari axborotlashtirish tizimlari jumlasiga kiradi.

Axborot egasining tegishli ruxsatnomasiga ega bo'lgan yoki axborot tizimida qonuniy asosda ishlovchi shaxslargina (dasturlovchilar, muhandislar, xodimlar va boshqalar) axborot tizimlaridan foydalana oladilar. Ruxsatsiz foydalanish usullari turlicha (o'zganing parolidan foydalanish, yozuvni belgilash va h.k.) bo'lishi mumkin.

Axborotdan foydalanish uni muhofaza qilish qoidalariga qat'iy rioya etgan holda amalga oshiriladi. Muhofaza qilish qoidalarining buzilishi qonunga binoan ruxsatsiz foydalanishga tenglashtiriladi.

Axborotni yo'q qilib yuborish deganda, uning elektron hisoblash mashinasi, magnitlashgan jismlar (magnit tasmlari, disklar, disketlar va boshqa shu kabi elektron hisoblash mashinalari tizimi yoki ularning tarmog'i kabilari)ning xotirasidan yo'q qilish tushuniladi.

Axborotni o'zgartirish deganda, mavjud axborotga qonuniy egasining ruxsatisiz turli tuzatishlar kiritish tushuniladi.

Axborotni yo'qotish deganda, axborotning tegishli egasi qo'ldan chiqib ketib, foydalanishga ruxsati bo'lmagan shaxslar qo'liga tushib qolish tushuniladi.

Axborotni olib qo'yish deganda, axborotni disketga yozib olish, ko'paytirish yo'li bilan mashina yoki boshqa jismlardan nusxalarini olish tushuniladi.

Jinoyat kodeksining 174-moddasi, 1-qismi dispozitsiyasida sanab o'tilgan harakatlarning sodir etilishi natijasida ancha miqdordagi zarar ko'rilishi 174-moddaning 1-qismi obyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 174-moddasi, 2-qismi obyektiv tomoni:

1) kompyuter tizimlarida saqlanayotgan ma'lumotlar yoki dasturlarni o'zgartirish maqsadida tegishli ruxsatisiz kompyuter viruslari yoki dasturlarini ishlab chiqish va tarqatishda;

2) ruxsati bo'lmagani holda axborot tizimidan foydalanish ma'lumotlarning buzilishi, olib tashlanishi (olib qo'yilishi, yo'q qilib yuborilishi yoki bu tizimning ishdan chiqishiga sabab bo'lishida) kabi harakatlarni sodir etishda ifodaladi.

Dasturlarni ishlab chiqish – kompyuter tizimiga qat'iy belgilangan izchillikda buyruqlar kiritishdir.

Kompyuter viruslari kompyuter ishiga turli tarzda xalaqit berish, ma'lumotlar bazalarini yo'q qilib yuborish xususiyatiga ega bo'ladi.

Axborotlashtirish qoidalarini buzish Jinoyat kodeksining 174-moddasi, 1-qismi dispozitsiyasida ko'rsatilgan harakatlar sodir etilgan va ancha miqdorda zarar yetkazilgan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan, deb topiladi. Har bir alohida holda sodir etilgan harakat va yuzaga kelgan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish mavjudligini aniqlash zarur. Ma'lumotlarning buzilishi, olib tashlanishi (olib qo'yilishi), yo'q qilib yuborilishi yoki kompyuter tizimining ishdan chiqishi axborotlashtirish qoidalarini buzishning oqibatlari (Jinoyat kodeksining 174-moddasi, 2-qismi) bo'lishi mumkin. Jinoyat kodeksining 174-moddasi, 2-qismi dispozitsiyasida nazarda tutilgan harakatlar sodir etilgan va ma'lumotlarning buzilishi, olib tashlanishi (olib qo'yilishi), yo'q qilib yuborilishi yoki bu tizimning ishdan chiqishi tarzidagi oqibatlar yuzaga kelgan paytdan e'tiboran jinoyat tamom bo'lgan jinoyat, deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilishi mumkin. Jinoyatning motiv va maqsadi uning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi. Jinoyatning subyeksi axborot tarmoqlaridan foydalanishga ruxsati bo'lgan hamda bunday ruxsatga ega bo'lmagan 16 yoshga to'lgan, aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

1. O'zgaralar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar talon-taroj qilish jinoyatlaridan farqi va belgilari.
2. Aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazish nimalarda ifodalanadi? Bu jinoyat uchun javobgarlik asoslari.
3. Aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazishning firibgarlikdan farqini aytib bering.
4. Jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish jinoyatining jinoyatda ishtirokchilikdan farqini aniqlang.
5. Mulkn qo'riqlashga vijdotsiz munosabatda bo'lish jinoyati bilan kvalifikatsiya qilishda yo'qotilgan mulkning miqdor tushunchasi va uning kvalifikatsiyaga ta'siri.
6. Jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish deganda nima tushuniladi? Mulk deganda nimani tushunish kerak? Jinoyat kodeksining 171-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning subyektiv tomonining o'ziga xos xususiyatlari.
7. Mulkn nobud qilish yoki unga zarar yetkazishda yetkazilgan zarar miqdorining kvalifikatsiyaga ta'siri.
8. Mulkn qo'riqlashga vijdotsiz munosabatda bo'lish deganda nima tushuniladi? Bu jinoyatning obyektiv va subyektiv tomonining o'ziga xos xususiyatlari.
9. Mulkn nobud qilish yoki unga zarar yetkazish deganda nima tushuniladi?
10. Mulkn qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortishning zaruriy shartlari.
11. Axborotlashtirish qoidalarini buzishning ijtimoiy xavfliligi nimalarda ifodalanadi? Ushbu jinoyatning o'ziga xos xususiyatlari.

12. Jinoyat kodeksining 174-moddasida (axborotlashtirish qoidalarini buzish) nazarda tutilgan jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun qanday shartlar mavjud bo'lishi lozim?

3.4. Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar

Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlarga quyidagi jinoyatlar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasining mafaatlari xilof ravishda bitimlar tuzish (Jinoyat kodeksining 175-moddasi).
- Qalbaki pul, aksiz markasi yoki qimmatli qog'ozlar yasash, ularni o'tkazish (Jinoyat kodeksining 176-moddasi).
- Valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish (Jinoyat kodeksining 177-moddasi).
- Chet el valutasini yashirish (Jinoyat kodeksining 178-moddasi).
- Soxta tadbirkorlik (Jinoyat kodeksining 179-moddasi).
- Soxta bankrotlik (Jinoyat kodeksining 180-moddasi).
- Bankrotlikni yashirish (Jinoyat kodeksining 181-moddasi).
- Bojxona to'g'risidagi qonunlarni buzish (Jinoyat kodeksining 182-moddasi).
- Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzish (Jinoyat kodeksining 183-moddasi).
- Soliq va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash (Jinoyat kodeksining 184-moddasi).
- Budjet intizomini buzish (Jinoyat kodeksining 184'-moddasi).
- Qimmatbaho metallar yoki toshlarni topshirish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 185-moddasi).

- Rangli metallar, ularning parcha va rezgi-chiqitlarini tayyorlash, olish va ulardan foydalanish hamda ularni o'tkazish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 185¹-moddasi).
- Elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 185²-moddasi).

Bu jinoyatlarning obyekti O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti asoslari, davlatning pul kredit tizimi, bojxona tizimining belgilangan asoslari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlari, iste'molchilar va jamiyatning qonuniy manfaatlarini, soliq to'lash tizimi, budjet intizomining belgilangan tartibi hisoblanadi. Obyektiv tomondan bu jinoyatlar harakat bilan sodir etiladi. Subyektiv tomondan bu jinoyatlar faqat qasddan sodir etilib, jinoyat subyekti 16 yosh hisoblanadi.

*A. O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga
xilof ravishda bitimlar tuzish
(Jinoyat kodeksining 175-moddasi)*

Bu jinoyatning obyekti O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asoslaridir. Obyektiv tomondan jinoyat davlat organi, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, korxonalar, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasining mansabdor shaxsi tomonidan respublika manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan, naf keltirmasligi ayon bo'lgan bitimning tuzilishida ifodalanadi.

Bitim deganda, tovarlar, oziq-ovqat mahsulotlari, xomashyo, uskunalar yetkazib berish, turli inshootlar qurish va h.k maqsadlarini ko'zlab chet ellik sherik bilan iqtisodiy bitim tuzish tushuniladi.

Bitim tuzilishi natijasida respublikaning iqtisodiy manfaatlariga katta zarar yetkazadigan har qanday bitim naf keltirmaydigan bitim, deb hisoblanadi. Jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga xilof ravishda bitim tuzilishi natijasida ko'p miqdorda zarar yetkazilishi hisoblanadi.

Ko'p miqdordagi zararni aniqlashda «zarar» tushunchasi jinoiy qilmishdan ko'rilgan zararnigina o'z ichiga olishini nazarda tutish lozim. Zarar miqdorini aniqlashda O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitim tuzish sababli boy berilgan naf e'tiborga olinmaydi. Agar bitim tuzilishi natijasida respublika manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yetkazilgan bo'lsa, jinoyat tamom bo'lgan, deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat faqat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Mansabdor shaxs bitim tuzilgunga qadar uning respublika manfaatlarini uchun naf keltirmasligini bilishi kerak.

Agar mansabdor shaxs o'zining xizmat vazifasiga sovuqqonligi natijasida shunday bitim tuzsa, uning xatti-harakati Jinoyat kodeksining 207-moddasiga binoan (mansabga sovuqqonlik bilan qarash) kvalifikatsiya qilinadi. Jinoyatning motiv va maqsadi uning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi.

Jinoyatning subyekti davlat organi, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, korxonalar, muassasa, tashkilot yoki jamoat birlashmasining mansabdor shaxsigina bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitim tuzishda aybdor bo'lgan mansabdor shaxs qilmishni:

- a) takroran;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- d) juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etgan bo'lsa, u Jinoyat kodeksining 175-moddasi, 2-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

*B. Qalbaki pul, aksiz markasi yoki qimmatli
qog'ozlar yasash, ularni o'tkazish
(Jinoyat kodeksining 176-moddasi)*

Qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlar yasash, ularni o'tkazishning ijtimoiy xavfliligi qog'oz pul yoki qimmatli qog'ozlar ko'payib ketishiga, ya'ni pul va tovar massasining o'zaro mutanosibligining buzilishiga sabab bo'ladi. Muomalada tovar bilan ta'minlanmagan qog'oz pullar paydo bo'ladi, bu esa pulning qadsizlanishiga, iqtisodiy beqarorlikka sabab bo'ladi, davlat iqtisodiyotining asoslariga putur yetkazadi.

Jinoyatning obyekti davlatning pul va kredit tizimidir.

Jinoyatning predmeti bank biletlari (banknotlar), ya'ni puldir. O'zbekiston Respublikasining pul birligi so'm, shuningdek, metall tangadir. Bank biletlari (banknotlar), ya'ni pullar (so'mlar) 1, 3, 5, 10, 50, 100, 200, 500, 1000 so'mlikdir. Metall tangalar – 1, 2, 3, 4, 5, 10, 20 tiyinlikdir.

Aksiz markalar markirovkalanishi shart bo'lgan mahsulotni ishlab chiqaruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning talabnomalari bo'yicha aksiz markalari uchun haq to'lanib, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining hududiy organlarida ro'yxatdan o'tilganidan keyin «Paxtabank»ning mintaqaviy bo'limlari tomonidan beriladi. Aksiz markasi aksiz solig'i to'langaniga dalildir. Aksiz markalari qat'iy hisobda turadigan blanklar hisoblanadi.

Fuqarolik kodeksining 96-moddasiga muvofiq, «mulkiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjatlar qimmatli qog'ozlar hisoblanib, ular taqdim etilgan taqdirdagina mazkur huquqlarni amalga oshirish yoki boshqa shaxslarga berish mumkin bo'ladi».

Qimmatli qog'ozlar jumlasiga: obligatsiyalar, veksellar, cheklar, depozit va jamg'arma sertifikatlari, bankning taqdim qiluvchiga pul beriladigan jamg'arma daftarchasi, konosament, aksiya hamda qonun hujjatlari bilan qimmatli qog'ozlar jumlasiga kiritilgan boshqa hujjatlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-mayda qabul qilingan «Valutani tartibga solish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, chet el valutasini jumlasiga tegishli xorijiy davlatda muomalada bo'lgan va qonuniy to'lov vositasi hisoblangan banknot ko'rinishdagi chet el pullari, shuningdek muomaladan chiqarilgan yoki muomaladagi, ammo O'zbekiston Respublikasi pul belgilariga almashtirilishi lozim bo'lgan chet el pullari; schyotlarda va omonatlarda bo'lgan xorijiy davlatlarning pul birliklaridagi va xalqaro hisob-kitob birliklaridagi mablag'lar kiradi.

Obyektiv tomondan jinoyat:

- 1) o'tkazish maqsadida qalbaki bank biletlari (banknotlar), metall tangalar, aksiz markalar, qimmatli qog'ozlar yoki chet el valutasini yoxud chet el valutasidagi qimmatli qog'ozlar yasashda;
- 2) ularni o'tkazishda ifodalanadi.

Qalbaki biletlar yoki qimmatli qog'ozlar yasash (soxta pul yasash) deganda, mazkur narsalarni to'la yasash yoxud haqiqiy qog'oz pullar yoki qimmatli qog'ozlarga qisman o'zgartirishlar kiritish (shu narsalarning raqamlarini yoki boshqa zaruriy qismlarini o'zgartirish) tushuniladi.

Qalbaki biletlar yoki qimmatli qog'ozlarni yasash usullari har xil bo'lishi mumkin. Bu fotosuratlar, kompyuter texnikasidan foydalanish, chizish, matbaa yo'li bilan pul yoki qimmatli qog'ozlarni bosma usulda chiqarish va h.k. usullari bo'lishi mumkin. Jinoyatning kvalifikatsiyasi uchun uni sodir etish usullarining ahamiyati yo'q.

Biroq, qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlarning barcha o'lchamlari, zaruriy belgilari, ya'ni rekvizitlari haqiqiyisiga chindan ham o'xshash bo'lishi jinoyatni kvalifikatsiya qilishning zaruriy sharti hisoblanadi. Aks holda, aybdorning harakatlarini ko'rib chiqilayotgan modda bo'yicha kvalifikatsiya qilish mumkin emas. Masalan, shaxsning jurnaldan yangi pulning namuna nusxalarini qirqib olib, ularni yopishtirib sotishga urinishini qalbaki pul yasash yoki ularni o'tkazish, deb bo'lmaydi. Bunday qilmish muayyan sharoitda firibgarlik, deb baholanishi mumkin. Chunki bunday pullar muomalada bo'la olmaydi va davlatning pul kredit tizimi asoslariga putur yetkazmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2000-yil 28-apreldagi «Valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida»gi 8-qarori 12-bandida: «Agar qalbakiligi aybdorga ayon bo'lgan valuta qimmatliklari ko'rinishidagi, pul muomalasida qo'llanishini istisno qiladigan darajada haqiqiyisiga ro'yi rost o'xshamaydigan kupyuralar o'tkazilgan bo'lsa, shuningdek, aybdorda jabrlanuvchini qo'pol ravishda aldash niyati bo'lganligidan guvohlik beruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa, bunday qilmish Jinoyat kodeksining 176-moddasi tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinib, Jinoyat kodeksining 168-moddasi (firibgarlik) bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab qilinmaydi. Qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlarni olgan shaxsning qilmishi esa, valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olishga suiqasd sifatida tavsiflanishi lozim»¹, deb ta'kidlanadi.

Qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlar yasash, agar ularni o'tkazish maqsadi borligi aniqlansa, loaqal bir nusxada yasalgan vaqtdan e'tiboran tamom bo'lgan jinoyat, deb hisoblanadi.

Mazkur narsalarni o'tkazish deganda, ularni muomalaga kiritish, ya'ni ulardan to'lov, ayirboshlash, hadya qilish vositasi sifatida foydalanish va shu narsalarning muomalada bo'lishiga imkon beradigan boshqa harakatlarni sodir etish tushuniladi. Qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlarning hatto bitta nusxasini muomalaga chiqazish tamom bo'lgan jinoyat, deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. O'tkazish maqsadining borligi qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlar yasashning zaruriy belgisidir. Shaxs qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlarni o'tkazish maqsadida emas, aytaylik, o'zi uchun, masalan, o'z qobiliyati mahoratini ko'rsatish va h.k. uchun yasalgan hollarda uning harakatlari jinoiy qilmish hisoblanmaydi.

Qalbaki pullar yoki qimmatli qog'ozlarni o'tkazish faqat to'g'ri qasd bilan sodir etilishi mumkin. Aybdor shaxs qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlarni o'tkazayotganini oldindan bilgan bo'lishi kerak, agar u soxta pul yoki qimmatli qog'ozlarni o'tkazayotganligini bilmagan bo'lsa, uning harakatlarida jinoyat tarkibi bo'lmaydi.

Jinoyatning subyeksi 16 yoshga to'lgan, har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 176-moddasi, 2-qismida:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

b) ko'p miqdorda;

d) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan, o'tkazish maqsadida qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlar yasaganlik yoki ularni o'tkazganlik uchun javobgarlik nazarda tutiladi.

Moddaning 3-qismida juda ko'p miqdorda, uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab qalbaki yoki qimmatli qog'ozlar yasaganlik, o'tkazganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

D. Soxta tadbirkorlik

(Jinoyat kodeksining 179-moddasi)

Ushbu jinoyatning obyeksi korxonalar yoki boshqa tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi tuzilmalarning qonunda, o'z Nizomida belgilangan faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar davlat jamiyat va fuqaroning tadbirkorlik faoliyati sohasidagi iqtisodiy manfaatlarini hisoblanadi.

Jinoyatning obyektiv tomoni Nizomda ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadini ko'zlamasdan korxonalar yoki boshqa tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarni tuzishda ifodalanadi. Fuqarolik kodeksining 40-moddasiga muvofiq, foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni shunday maqsad qilib olmagan (tijoratchi bo'lmagan tashkilot) yuridik shaxs bo'lishi mumkin.

Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxonalar va qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin. Tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin.

Fuqarolik kodeksining 41-moddasida yuridik shaxs o'zining ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyati maqsadlariga muvofiq fuqaroviy huquq layoqatiga ega bo'ladi. Yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati uning nizomi yoki qonun hujjatlarida belgilangan bo'ladi.

Har bir tuzilgan korxonalar yoki boshqa tadbirkorlik tuzilmasi faqat o'z Nizomida ko'rsatilgan faoliyat turlari bilan shug'ullanishi kerak. Soxta tadbirkorlikda esa, tuzuvchilar o'z Nizomida ko'rsatilgan faoliyatini amalga oshirish maqsadini ko'zlamaydi, balki korxonalar boshqa maqsadlarini ko'zlab tuziladi.

Korxonalar tuzish (vujudga keltirish) faktining o'zi qonunga to'la asoslangan bo'lmaydi, uning nizomi, zaruriy ta'sis hujjatlari qabul qilinadi, ro'yxatdan o'tkaziladi, biroq, ishni boshlash vaqti kelganda, bunday korxonalar o'z nizomida ko'rsatilgan faoliyat bilan umuman shug'ullanmaydi yoki nizomida ko'rsatilmagan faoliyat bilan shug'ullanadi.

Nizomda belgilangan faoliyatni amalga oshirish maqsadining yo'qligi ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslikda namoyon bo'ladi. Nizomda ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadini ko'zlamasdan korxonalar yoki boshqa tadbirkorlik tuzilmasi tuzilgan paytdan e'tiboran jinoyat tamom bo'lgan, deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Nizomda ko'rsatilgan faoliyat bilan shug'ullanmaslik, qarz, kredit olish, foydani (daromadni) soliqlardan ozod qilish (pasaytirish) yoki boshqa mulkiy naf ko'rish jinoyat maqsadining zaruriy alomati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 5-mayda qabul qilingan «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonuni 1-moddasiga muvofiq, «Bankrot bo'lish deganda, qarzdorning majburiyatlari mol-mulkidan oshib ketganligi sababli tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) haq to'lash yuzasidan kreditorlarning talablarini qondirishga qodir emasligi, shu jumladan, budjetga va budjetdan tashqari fondlarga majburiy to'lovlarni ta'minlashga qodir emasligi tushuniladi.

Kreditorlarning talablarini bajarish muddati boshlangan kundan e'tiboran xo'jalik yuritish subyekti uch oy mobaynida ularni bajarolmayotganligi yoki bajarishga qodir emasligining muqarrarligi sababli joriy to'lovlari to'xtatib qo'yilishi xo'jalik yurituvchi subyekt bankrot bo'lishining tashqi alomati hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyoriy ravishda tugatilayotganida uning o'zi bankrot bo'lganligini rasman e'lon qilganidan keyin u bankrot bo'lgan hisoblanadi.

Jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan va soxta korxonaga tuzgan har qanday shaxs bo'lishi mumkin.

E. Soxta bankrotlik (Jinoyat kodeksining 180-moddasi)

Mazkur jinoyatning obyekti tadbirkorlik tuzilmalarining normal faoliyat ko'rsatishini, xo'jalik yurituvchi subyektlarning manfaatlarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. Bankrotlikka taalluqli ko'pgina masalalar O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunida tushuntirib berilgan.

Obyektiv tomondan jinoyat xo'jalik yurituvchi subyektning o'z majburiyatlarini iqtisodiy jihatdan bajara olmasligi haqida bila turib, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan e'lon berishi natijasida kreditorlarga ko'p miqdorda zarar yetkazilishida namoyon bo'ladi.

Subyektning bila turib, o'zining nochorligi haqidagi yolg'on ma'lumotni e'lon qilishi soxta bankrotlik hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi subyekt haqiqatda kreditorlar oldidagi o'z majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lgani holda ularni bajarishdan ataylab bo'yin tovlab, o'zini bankrot, deb e'lon berishi, ataylab haqiqatga to'g'ri kelmaydigan e'lon berish hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt qonunda belgilangan tartibni buzib o'zining iqtisodiy nochorligini e'lon qilgan hollarda, aybdorning qilmishi muayyan holatlar mavjud bo'lganida firibgarlikni vujudga keltiradi.

Agar mansabdor shaxs soxta hujjatlar taqdim etib, bankrotlik to'g'risida e'lon bersa, uning qilmishlari jinoyatlarning jami bo'yicha Jinoyat kodeksining 209-moddasi (mansab soxtakorligi) bilan ham kvalifikatsiya qilinadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning jinoiy harakatlari oqibatida kreditorlarga ko'p miqdorda zarar yetkazilishi soxta tadbirkorlikning zaruriy belgisi hisoblanadi. Ko'p miqdorda zarar yetkazilgan paytdan e'tiboran jinoyat tamom bo'lgan, deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasddan sodir etiladi. Jinoyatning motiv va maqsadi qilmishning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi. Jinoyatning subyekti tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi, 16 yoshga to'lgan har qanday shaxs hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustda qabul qilingan Qonuni bilan Jinoyat kodeksining 180-moddasi quyidagi mazmundagi 2-qism bilan to'ldirilgan: «Yetkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi».

F. Soliq va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash (Jinoyat kodeksining 184-moddasi)

1997-yil 24-aprelda O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilindi, unda soliq tizimining huquqiy asoslarini, soliq to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlari, soliq ishlarini yuritish tartibini va soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Jinoyatning obyekti davlatning moliyaviy sohada faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlardir. Soliq solinishi lozim bo'lgan obyektlar Soliq kodeksida belgilab qo'yiladi. O'zbekiston hududida quyidagi soliqlar va yig'imlar mavjud:

1) umumdavlat soliqlari: yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i; jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i; qo'shilgan qiymat solig'i; aksiz solig'i; yer osti boylıklaridan foydalanganlik uchun soliq; ekologiya solig'i; suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

2) mahalliy soliqlar va yig'ımlar: mol-mulk solig'i; yer solig'i; reklama solig'i; avtotransport vositalarini olib sotganlik uchun soliq; savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig'im, shu jumladan, ayrim turlardagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'ımlari; yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im; avtotransport to'xtash joyidan foydalanganlik uchun yig'im va hokazo.

Obyektiv tomondan jinoyat foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni yashirish, kamaytirib ko'rsatish, shuningdek, davlat tomonidan belgilangan soliqlarni, yig'ımlarni, boj yoki ancha miqdordagi boshqa to'lovlarni to'lashdan qasddan bo'yin tovlashda ifodalanadi.

Soliq kodeksining 16-moddasiga muvofiq, jami daromad bilan mazkur kodeksda belgilangan chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan daromad (foyda) soliq solish obyektidir. Soliq solinadigan obyektlarni yashirish deganda, buxgalteriya hisobotlarida daromadlar va xarajatlardan tashqari soliq solish obyektlarini aks ettirmaslik tushuniladi. Soliq solinadigan obyektlarni kamaytirib ko'rsatish deganda, soliq solinadigan asoslarni to'g'ri hisoblamaslik, uni qonunga xilof ravishda kamaytirib ko'rsatish tushuniladi.

Davlat tomonidan belgilangan soliqlar, yig'ımlar, boj va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash deganda, shu to'lovlarni to'lamaslikka qaratilgan har qanday harakatlarni sodir etish tushuniladi.

Ancha miqdordagi soliqlar va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash tahlil qilinayotgan modda bo'yicha jinoyat javobgarlik yuzaga kelishining zaruriy sharti hisoblanadi. Jinoyat ancha miqdordagi soliqlar yoki boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlashga qaratilgan harakatlar sodir etilgan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan, deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Uning motivi va maqsadi jinoyatni kvalifikatsiyalashda e'tiborga olinmaydi. Jinoyatning subyektı 16 yoshga to'lgan har qanday shaxs bo'lishi mumkin.

Ushbu qilmishning takroran, ko'p miqdorda (Jinoyat kodeksining 184-moddasi, 2-qismi), juda ko'p miqdorda (Jinoyat kodeksining 184-moddasi, 3-qismi) sodir etilishi javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuniga binoan Jinoyat kodeksining 184-moddasi quyidagi: «Qasddan yashirilgan, kamaytirib ko'rsatilgan foyda (daromad) bo'yicha soliqlar va boshqa to'lovlar to'liq to'langan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi», degan qism bilan to'ldirilgan.

1. Naf keltirmaydigan bitim tuzish deganda nima tushuniladi? «O'zbekiston Respublikasi manfaatları»ga tushuncha bering.
2. Qalbaki pul, aksiz markalar yoki qimmatli qog'ozlar yasash yoki o'tkazganlik uchun javobgarlikning kelib chiqish shartlari qanday? Jinoyat kodeksining 176-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning shakllari qanday?
3. Qalbaki pul yoki qimmatli qog'oz yasash yoki ularni o'tkazish va qonunga xilof ravishda valuta qimmatliklarini olish yoki o'tkazishning qanday umumiy tomonlari va farqlari mavjud?
4. Valuta qimmatliklarini g'ayriqonuniy olish va o'tkazish deganda nima tushuniladi?
5. Valuta qimmatliklarini g'ayriqonuniy olish yoki sotganlik uchun javobgarlik shartlari qanday?
6. Chet el valutasini qasddan yashirish nimalarda ifodalanadi?
7. Chet el valutarini yashirish o'zlashtirish yo'li bilan talon-taroj qilishdan qanday farq qiladi?
8. Soxta tadbirkorlik deganda nima tushuniladi?
9. Soxta tadbirkorlik o'zgarar mulkini aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan egallab olishdan qanday farq qiladi?
10. Soxta bankrotlik deganda nima tushuniladi?
11. Soxta bankrotlik uchun javobgarlik shartlari qanday? Bu jinoyat o'zlashtirish yoki firibgarlik jinoyatlaridan qanday farq qiladi?
12. Soxta bankrotlik va bankrotlikni yashirishning qanday umumiyliги mavjud?
13. Bankrotlikni yashirish deganda nima tushuniladi? Bu jinoyatning talon- tarojdan qanday farqi mavjud?
14. Bojxona to'g'risidagi qonunlarni buzish qanday harakatlarda ifodalanishi mumkin?

15. Bojxona to'g'risidagi qonunlarni buzish jinoyatining javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
16. Bojxona to'g'risidagi qonunlarni buzishning jinoiy javobgarlik shartlari sifatida nimalar asos bo'ladi?
17. Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzish qanday harakatlarda ifodalalanadi?
18. Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzishning ijtimoiy xavfliligi nima larda ifodalalanadi?
19. Soliq yoki boshqa to'lovlarni to'lashdan bosh tortishning belgilarini aytib bering.

3.5. Xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar

Xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlarga quyidagi jinoyatlar kiradi:

- Sifatsiz mahsulot chiqarish yoki sotish (Jinoyat kodeksining 186-moddasi).
- Etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish (Jinoyat kodeksining 186'-moddasi).
- Savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanish (Jinoyat kodeksining 188-moddasi).
- Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 189-moddasi).
- Faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish (Jinoyat kodeksining 190-moddasi).
- Qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish (Jinoyat kodeksining 191-moddasi).
- Raqobatchini obro'sizlantirish (Jinoyat kodeksining 192-moddasi).

Bu jinoyatlarning obyekti iste'molchilar huquqlari, fuqarolarning hayoti va sog'lig'i, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishning belgilangan tartibi, savdo yoki xizmat ko'rsatishning belgilangan tartibi, raqobat qilishning belgilangan tartibi hisoblanadi. Obyektiv tomondan bu jinoyatlar asosan harakat bilan sodir etiladi. Subyektiv tomondan bu jinoyatlar faqat qasddan sodir etilib, jinoyat subyekti 16 yosh hisoblanadi.

A. Sifatsiz mahsulot chiqarish yoki sotish (Jinoyat kodeksining 186-moddasi)

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni tovarlarni iste'mol qilish bilan bog'liq barcha huquqiy masalalarni tartibga soladi.

Ushbu jinoyatning obyekti shaxsning xo'jalik faoliyati sohasidagi manfaatlari, shuningdek, fuqarolarning hayoti va sog'lig'idir. Obyektiv tomondan jinoyat tovar bozoriga sifatsiz mahsulot chiqarish yoki uni sotish natijasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishida ifodalalanadi.

Mahsulot chiqarish deganda, mahsulotni buyurtmachi yoki iste'molchiga topshirish yoki jo'natish tushuniladi. Sotish deganda, tovarlarni bevosita iste'molchilarga sotish nazarda tutiladi.

Tahlil qilinayotgan modda bo'yicha javobgarlik sifatsiz mahsulotni tovar bozoriga chiqarish yoki sotish natijasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilgan hollardagina vujudga keladi.

«Sifatsiz mahsulot deganda, davlat standarti talablariga, me'yoriy normalarga javob bermaydigan va sifat sertifikatiga ega bo'lmagan mahsulotlar tushuniladi. Mahsulot har qancha sifatsiz bo'lsa-da, o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohati yetkazish xususiyatiga ega bo'lmasa, Jinoyat kodeksining 186-moddasida javobgarlik belgilangan jinoyatning predmeti bo'la olmaydi. Bunday hol ushbu jinoyatni sodir qilgan shaxslarga nisbatan ma'muriy, intizomiy va boshqacha tarzdagi choralar ko'riladi.

Har qanday oziq-ovqat mahsulotlari ushbu jinoyatning predmeti bo'lishi mumkin. Lekin jinoiy javobgarlik yuzaga kelishining sharti sifatida jinoiy oqibat ko'rsatilgan. Qilmishni bevosita ushbu modda bilan kvalifikatsiya qilish uchun jinoiy oqibat kelib chiqqan bo'lishi shart»¹.

Tovar bozoriga sifatsiz mahsulotni chiqarish yoki sotish natijasida fuqarolarning sog'lig'i uchun mazkur moddada ko'rsatilgan oqibatlar kelib chiqmasa, jinoiy javobgarlik ham vujudga kelmaydi. Biroq, O'zbekiston Respublikasi «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni 20-moddasiga muvofiq, tovar (ish, xizmat)ning tuzilishi, ishlab chiqarilishi, tarkibidagi va boshqa nuqsonlari, shuningdek iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkining xavfsizligini ta'min eta olmaydigan materiallar, uskunalar, asbob-anjomlar, moslamalar yoki boshqa vositalar qo'llanilishi oqibatida iste'molchining hayotiga, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) tomonidan qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) bilan shartnoma munosabatlariga kirishgan, kirishmaganidan qat'iy nazar, har qanday iste'molchi tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni tufayli yetkazilgan zararining qoplanishini talab qilish huquqiga ega.

Iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, agar u normativ hujjatlarda nazarda tutilgan tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati mobaynida, bunday muddat belgilanmagan taqdirda tovar ishlab chiqarilgan (ish, xizmat qabul qilingan) paytdan e'tiboran o'n yil mobaynida yuzaga kelgan bo'lsa, qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch yoki foydalanish, uni saqlash yoxud tashishning belgilangan qoidalari iste'molchi tomonidan buzilishi tufayli zarar yetkazilganligini isbotlasa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

Subyektiv tomondan jinoyat – sifatsiz mahsulot chiqarish yoki sotish qasddan sodir etiladi, kelib chiqqan oqibatlar (sog'liqqa zarar yetkazilishi, odamlar o'limi)ga nisbatan esa subyektning aybi ehtiyotsizlikda ifodalanadi.

Jinoyat subyekti tovar bozoriga sifatsiz mahsulot chiqarish uchun javobgar yoki uni sotish bilan shug'ullanayotgan shaxsdir. Ushbu moddaning 2-qismida odamning o'limiga sabab bo'lgan sifatsiz mahsulot chiqarganlik yoki sotganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Tahlil qilinayotgan moddaning 3-qismida sifatsiz mahsulot chiqarganlik yoki sotganlik natijasida:

- a) odamlar o'limi;
- b) boshqa og'ir oqibatlarning yuzaga kelganligi uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Boshqacha og'ir oqibatlar deganda, ikki yoki undan ortiq shaxsning badaniga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi tarzidagi sog'liqqa zarar yetkazish, odamlarning yalpi zaharlanishi va boshqalar tushuniladi.

*B. Etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish
(Jinoyat kodeksining 186¹-moddasi)*

O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuniga binoan Jinoyat kodeksiga mazkur modda kiritilgan. Ushbu modda uch qismdan iborat.

Jinoyatning obyekti xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyati yuritishidagi manfaatlaridir. Jinoyat predmeti etil spirti, alkogolli va tamaki mahsulotlaridir.

Obyektiv tomondan jinoyat etil spirti, alkogolli va tamaki mahsulotlarini shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin yoki ancha miqdorda qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritishda ifodalanadi.

Qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish deganda, etil spirti, tamaki yoki alkogolli mahsulotlarni qonunda belgilangan tartibda ruxsatnoma olmasdan ishlab chiqarish tushuniladi. Qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish deganda, ularni sotish, ayirboshlash, qarz uchun to‘lash, garovga berish va h.k. tushuniladi.

Aybdor shunday harakatlari uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin yoki ancha miqdorda etil spirti, alkogolli yoki tamaki mahsulotlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqargan yoki muomalaga kiritgan bo‘lsa, u jinoiy javobgarlikka tortiladi. Jinoyat etil spirti, tamaki yoki alkogolli mahsulotlar muomalaga kiritilgan paytdan e‘tiboran tamom bo‘lgan, deb topiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Jinoyatning motiv va maqsadi uning kvalifikatsiyasiga ta‘sir qilmaydi. Jinoyatning subyekti 16 yoshga to‘lgan va etil spirti, tamaki yoki alkogolli mahsulotlarni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish bilan shug‘ullanayotgan har qanday shaxs bo‘lishi mumkin.

Ushbu qilmish:

- 1) ko‘p miqdorda;
- 2) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til birlashtirib;
- 3) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;
- 4) xizmat lavozimini suiiste‘mol qilish yo‘li bilan sodir etilgan bo‘lsa, Jinoyat kodeksining 186¹-moddasi, 2-qismi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

O‘sha harakatlar: 1) juda ko‘p miqdorda; 2) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, aybdor shu moddaning 3-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

*D. Savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga
xilof ravishda shug‘ullanish
(Jinoyat kodeksining 188-moddasi)*

Jinoyatning obyekti qonunda belgilab qo‘yilgan ro‘yxatdan o‘tish va savdo yoki vositachilik faoliyati bilan shug‘ullanish tartibidir. Obyektiv tomondan jinoyat nazorat qilinmaydigan foyda (daromad) olish maqsadida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tishdan bo‘yin tovlab, savdo yoki vositachilik faoliyati bilan shug‘ullanishda ifodalanadi.

Qonunga xilof savdo yoki vositachilik faoliyati deganda, nazorat qilinmaydigan foyda (daromad) olish maqsadida qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tmasdan shunday faoliyatni amalga oshirish tushuniladi. Aybdor ro‘yxatdan o‘tmasdan savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug‘ullanilgan paytdan e‘tiboran jinoyat tamom bo‘lgan, deb topiladi.

Jinoyat kodeksining 188-moddasi, 1-qismi ma‘muriy preyuditsiyaga ega, ya‘ni aybdor ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin ham bir yil ichida yuqoridagi qilmishni sodir etsa, mazkur moddaning ko‘rib chiqilayotgan qismi bo‘yicha jinoiy javobgar bo‘ladi.

Subyektiv tomondan jinoyat aybning qasd shakli bilan sodir etiladi. Jinoyatni sodir etish maqsadi – nazorat qilinmaydigan foyda (daromad) olish jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanadi. Jinoyatning subyekti 16 yoshga to‘lgan, aqli raso har qanday shaxs bo‘lishi mumkin.

Savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug‘ullanish xavfli retsidivist tomonidan, ancha miqdorda yoki bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til birlashtirib sodir etilgan bo‘lsa, aybdor Jinoyat kodeksining 188-moddasi, 2-qismi bilan javobgar, deb topiladi.

Mazkur moddaning 3-qismida ko‘p miqdorda yoki uyushgan guruh tomonidan va uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan savdo yoki vositachilik faoliyati bilan shug‘ullanganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

E. Savdo yoki xizmat ko‘rsatish qoidalarini buzish

(Jinoyat kodeksining 189-moddasi)

Ushbu jinoyatning obyekti fuqarolarning manfaatlari, mulk shaklidan qat'iy nazar savdo korxonalari, umumiy ovqatlanish korxonalarining normal faoliyat yuritishidir.

Obyektiv tomondan jinoyat savdo va xizmat ko'rsatish qoidalarini buzishda namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1996-yil 15-martdagi «Savdo sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi 9-qarorida «Jinoyat kodeksining 189-moddasi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 164 va 168-moddalarida javobgarlik nazarda tutilgan savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish deganda, savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan O'zbekiston Respublikasi qonunlarining buzilishi tushunilmog'i lozim.

Bunda sud aybdor tomonidan aynan qaysi savdo qoidalari buzilganligini ko'rsatishi shart»¹, deb tushuntirish berilgan. Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda har bir aybdor tomonidan qaysi qoida, shu qoidalarning qaysi bandi buzilganligini aniqlash zarur. Masalan, 1995-yil 15-fevralda qabul qilingan «Aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshirishda nazorat-kassa mashinalarini majburiy qo'llanish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq, har bir savdo shoxobchasida kassa apparati o'rnatilgan bo'lishi kerak. Uning yo'q ekanligi savdo qoidalarini buzish hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 189-moddasi, 1-qismi ma'muriy preyuditsiyaga ega, ya'ni Jinoyat kodeksining 189-moddasi, 1-qismi bo'yicha jinoiy javobgarlik xuddi shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin yuzaga keladi. Jinoyat kodeksining 189-moddasi, 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarining biron-bir bandi buzilgan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan, deb topiladi.

Subyektiv tomondan savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish qasddan sodir etiladi. Jinoyatning motivi va maqsadi uni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas. Jinoyatning subyekti savdo yoki xizmat ko'rsatish sohasida ishlovchi va 16 yoshga to'lgan har qanday shaxs bo'lishi mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan moddaning 2-qismida ancha miqdorda yoki xavfli retsidivist tomonidan yoki ilgari ushbu kodeksning 187, 188 yoki 190-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan yoxud bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til birlashtirib sodir etilgan savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Jinoyat kodeksining 189-moddasi, 3-qismida ko'p miqdorda sodir etilgan savdo va xizmat ko'rsatish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Aybdor shaxs savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzgan va ayni paytda xaridorlar yoki buyurtmachilarni aldagan bo'lsa, uning harakatlarini shu jinoyatlarning jami bo'yicha kvalifikatsiya qilish zarur. Agar savdo va xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish tovlamachilik yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa, aybdorning qilmishlari, yuqorida aytilganidek, jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

*F. Faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish
(Jinoyat kodeksining 190-moddasi)*

O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risida»gi Qonuni 8-moddasida aytilishicha: «Litsenziya olinishi kerak bo'lgan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun korxonalar zarur litsenziyani olishi shart».

Korxonaning litsenziya olinishi kerak bo'lgan faoliyatiga ruxsatnoma berish va bunday ruxsatnomani haqiqiy emas, deb topish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi¹. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994-yil 18-aprelda qabul qilgan Qarorining ilovasida mulkchilikning barcha shaklidagi korxonalar (tashkilotlar), shu jumladan, chet el korxonalari va qo'shma korxonalar faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosidagina shug'ullanishga haqli bo'lgan faoliyat turlarining ro'yxati berilgan. Masalan, portlovchi va zaharli moddalar hamda bunday moddalarni qo'llagan holda boshqa buyumlar yaratish, ishlab chiqarish, ularni tashish va sotish; ov va sportga mo'ljallangan o'qotar qurollarni va uning o'q-dorilarini, shuningdek, tig'li qurollar (milliy pichoq turlaridan tashqari) ishlab chiqarish, ularni ta'mirlash va sotish; qimorxonalar tashkil etish, lotereyalar va shunga o'xshash tadbirlar o'tkazish¹ uchun, albatta, litsenziya olinishi lozim.

Qonunda mustahkamlab qo'yilganidek, jinoyatning obyekti tadbirkorlik bilan shug'ullanishni tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlardir. Obyektiv tomondan jinoyat litsenziya olinishi lozim bo'lgan faoliyat bilan maxsus ruxsatnoma olmasdan shug'ullanishda ifodalanadi, ya'ni bu jinoyat formal tarkibli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining «Savdo sohasidagi jinoyatlarga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qarorida: «Amaldagi qonunlariga muvofiq, savdo faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab qilinadi. Bunday ruxsatnomaning yo'qligi, aybdor muqaddam shunday harakatlar uchun bir yil mobaynida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 176-moddasi bilan ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'lsa, Jinoyat kodeksining 190-moddasi bo'yicha javobgarlikni yuzaga keltiradi. Agar bunda aybdorning savdo faoliyatini faqat ruxsatnoma (litsenziya)siz amalga oshiribgina qolmay, balki ro'yxatdan o'tishdan ham bo'yin tovlaganligi aniqlansa, uning harakatlari Jinoyat kodeksining 188 va 190-moddalari majmuyi bilan kvalifikatsiya qilinmogi lozim»², deb tushuntiriladi.

Ushbu modda ma'muriy preyuditsiyaga ega. Shuning uchun Jinoyat kodeksining 190-moddasi, 1-qismi bo'yicha jinoiy javobgarlik litsenziya olinishi shart bo'lgan faoliyat bilan maxsus ruxsatnoma olmasdan shug'ullangan shaxsga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qo'llanilgandan keyin sodir etilgan hollardagina yuzaga keladi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Jinoyatning motiv va maqsadi har xil bo'lishi mumkin, ammo ular qilmishning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi. Mazkur jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan har qanday shaxs bo'lishi mumkin.

Ushbu qilmishning xavfli retsidivist yoxud bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til birlashtirib sodir etilishi faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanganlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi.

Mazkur jinoyatni kvalifikatsiya qilishda faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullangan shaxs soliqlarni to'lashdan ham bo'yin tovlagan bo'lsa, uning harakatlari Jinoyat kodeksining 190 va 184-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarning jami bo'yicha javobgarlikni vujudga keltirishini nazarda tutmoq kerak.

*G. Qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni
oshkor qilish yoki undan foydalanish
(Jinoyat kodeksining 191-moddasi)*

Tahlil etilayotgan jinoyatning obyekti xo'jalik yurituvchi subyektlarning normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. Jinoyatning predmeti uchinchi shaxslarga ma'lum emasligi sababli muayyan qimmatga ega bo'lgan, egasi uning maxfiy saqlash choralarini ko'rgan, sir tutilayotgan fan-texnika, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, savdoga oid yoki boshqa axborotlardir.

Jinoyat kodeksining 191-moddasi, 1-qismi obyektiv tomoni sir tutiladigan fan-texnika, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, savdoga oid yoki boshqa shu kabi axborotni egasining roziligisiz yig'ishda ifodalanadi.

Sir tutiladigan axborot deganda, egasining ruxsatisiz oshkor qilinishi mumkin bo'lmagan turli xususiyatdagi axborotlar tushuniladi.

To'plash deganda, erkin, qonuniy yo'l bilan olish mumkin bo'lmagan axborotni qo'lga kiritishga, egallab olishga qaratilgan har qanday g'ayriqonuniy (masalan, talon-taroj qilish, pora berish, qo'rqitish, kseronusxa olish va h.k.) harakatlar tushuniladi.

Jinoyat kodeksining 191-moddasi, 1-qismi dispozitsiyasida nazarda tutilgan axborot har qanday usulda to'plangan paytdan e'tiboran jinoyat tamom bo'lgan, deb topiladi.

Subyektiv tomondan Jinoyat kodeksining 191-moddasi, 1-qismida nazarda tutilgan harakatlar qasddan sodir etiladi. Jinoyatning maqsadi – to'plangan axborotni egasining roziligisiz oshkor qilish yoki undan foydalanish subyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 191-moddasi, 2-qismi obyektiv tomoni xo'jalik yurituvchi subyektga ko'p miqdorda zarar yetkazib, sir tutiladigan fan-texnika, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, savdoga oid yoki boshqa shu kabi axborotni egasining roziligisiz qasddan oshkor qilish yoki undan foydalanishdan iborat bo'ladi.

Oshkor qilish deganda, axborotni o'zgalarga ma'lum qilish natijasida undan bexabar shaxslarning xabardor bo'lishi tushuniladi. Axborotdan foydalanish deganda, aybdor tomonidan mazkur axborotdan foydalanishga qaratilgan har qanday harakatlarni sodir etish tushuniladi.

Jinoyat kodeksining 191-moddasi, 2-qismida javobgarlik belgilangan jinoyat axborotni oshkor qilish yoki undan foydalanish natijasida xo'jalik yurituvchi subyektga ko'p miqdorda zarar yetkazilgan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan, deb topiladi.

Subyektiv tomondan Jinoyat kodeksining 191-moddasi, 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat qasddan sodir etiladi. Jinoyatning motiv va maqsadi uning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi. Jinoyatning subyeksi 16 yoshga to'lgan har qanday shaxs bo'lishi mumkin.

*I. Raqobatchini obro'sizlantirish
(Jinoyat kodeksining 192-moddasi)*

Jinoyatning obyeksi xo'jalik yurituvchi subyektlarning tovar bozorida qonuniy raqobat qilishini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlardir. Obyektiv tomondan jinoyat bosma yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnlarni yoki ommaviy axborot vositalari orqali xo'jalik yurituvchi subyektning ishbilarmonlik nufuziga putur yetkazish maqsadida bila turib yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni tarqatishda ifodalanadi.

Tarqatish deganda, bosma yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnlarni yoki ommaviy axborot vositalari orqali yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni xabar qilish tushuniladi.

Agar ma'lumotlar haqiqatga butunlay mos kelmasa, ular yolg'on hisoblanadi. Noaniq ma'lumotlar esa, ularning qisman rost ekanligini bildiradi. Haqiqiy ma'lumotlarga mos kelmaydigan ma'lumotlar ham buzib ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

Bosma usulda ko'paytirish deganda, ma'lumotlarning nusxalarini matbaa usulida ko'paytirish tushuniladi. Boshqacha usulda ko'paytirish deganda, ma'lumotlarni har qanday boshqacha usulda (kseronusxa olish, ko'paytirish, fotosuratga olish, turli yozuv mashinkalaridan foydalanish, ma'lumotlarni qo'lda yozib olish va h.k. yo'l bilan) ko'paytirish tushuniladi.

Ushbu jinoyat bosma yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnlarda yoki ommaviy axborot vositalari orqali bila turib yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar oshkor qilingan paytdan e'tiboran, ya'ni ular o'zga shaxslarga ma'lum bo'lgan paytdan tamom bo'lgan, deb topiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan axborotni tarqatayotganini oldindan biladi.

Jinoyatni sodir etishdan maqsad – xo'jalik yurituvchi subyektning ishbilarmonlik nufuziga putur yetkazish bo'lib, u subyektiv tomonning zaruriy belgisi hisoblanadi. Bunday ma'lumotlarni tarqatgan shaxs xo'jalik yurituvchi subyektning ishbilarmonlik nufuziga putur yetkazishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yagan bo'lsa, uning harakatlarida mazkur jinoyat tarkibi bo'lmaydi.

Shaxsning chindan ham mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tarqatishi natijasida xo'jalik yurituvchi subyektning ishbilarmon nufuziga putur yetkazilsa, jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi. Jinoyatning subyeksi 16 yoshga to'lgan, har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

1. Sifatsiz mahsulot deganda, nimani tushunish lozim?
2. Sifatsiz mahsulot chiqarish yoki sotish uchun javobgarlik qachon vujudga keladi?
3. Sifatsiz mahsulot chiqarish yoki uni sotish jinoyatining mansabga sovuqqonlik bilan qarash jinoyatidan qanday farqi bor?
4. Sifatsiz mahsulot chiqarish yoki uni sotish jinoyati tufayli odam o'limi kelib chiqishi bilan ehtiyotsizlikdan odam o'ldirish jinoyati o'rtasidagi farqni bayon eting.
5. Etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish deganda nimani tushunasiz?
6. Xaridor yoki buyurtmachilarni aldashing qanday usullari mavjud?
7. Xaridor yoki buyurtmachilarni aldash jinoyati (Jinoyat kodeksining 187-moddasi) bilan firibgarlik jinoyati o'rtasida qanday farq bor?
8. Xaridor yoki buyurtmachini aldash jinoyatidan hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyatining qanday farqi bor?
9. Savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanish deganda nimani tushunasiz? Ushbu jinoyat uchun javobgarlik shartlari nimalardan iborat?
10. Savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof tarzda shug'ullanish jinoyati bilan savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish jinoyati o'rtasidagi farq va o'xshash tomonlarini izohlang.
11. Faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish jinoyati qachon tamom bo'lgan jinoyat hisoblanadi?

12. Savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanish jinoyati bilan faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish jinoyati o'rtasida qanday farq bor?
13. Qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish deganda nimani tushunasiz?
14. Qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish jinoyati bilan axborot olish va berish qoidalarini buzish o'rtasida qanday farqlar bor?
15. Raqobatchini obro'sizlantirish jinoyati nimada ifodalanadi?
16. Raqobatchini obro'sizlantirish bilan tuhmat jinoyatlari o'rtasida qanday o'xshashlik va farqli tomonlari bor?

4-bob. EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLAR

4.1. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar

Jamiyatning mavjud bo'lishi bevosita atrof-tabiiy muhit bilan bog'liq bo'lib, jamiyat a'zolari atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishlari, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishlari kerak. Biroq, insoniyat o'z faoliyati davomida tabiatga juda ko'p tiklab bo'lmas jiddiy zararlar yetkazib kelmoqda. Dunyo aholisi har yili o'sib borib, tabiiy resurslardan xo'jalik va boshqa maqsadlarda yanada ko'proq foydalanishga to'g'ri kelmoqda, shuningdek, fan-texnika taraqqiyoti natijasida insoniyat tomonidan atrof-tabiiy muhitga yetkazilgan zarar xavfli ko'rsatkichlarni ko'rsatmoqda. Ekologiya muammosi davrimizning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qoldi. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni 2-moddasiga ko'ra, Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi ifloslanishdan, buzilishdan, zararlanishdan, oriqlab ketishdan, vayron bo'lishdan, yo'q bo'lib ketishdan, oqilona foydalanmaslikdan muhofaza etilishi lozim». Jinoyat kodeksining to'rtinchi bo'lim, o'n to'rtinchi bobidagi ko'rib chiqilayotgan jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi shundaki, insoniyatga tabiat orqali, uning biologik asoslarini buzish yoki nobud qilish bilan ta'sir ko'rsatiladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar:

- Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish (Jinoyat kodeksining 193-moddasi).
- Atrof-tabiiy muhitning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish (Jinoyat kodeksining 194-moddasi).

- Atrof-tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini koʻrmaslik (Jinoyat kodeksining 195-moddasi).
- Atrof-tabiiy muhitni ifloslantirish (Jinoyat kodeksining 196-moddasi).
- Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish (Jinoyat kodeksining 197-moddasi).
- Ekinzor, oʻrmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish (Jinoyat kodeksining 198-moddasi).
- Oʻsimliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish (Jinoyat kodeksining 199-moddasi).
- Veterinariya yoki zootexnika qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 200-moddasi).
- Zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada boʻlish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 201-moddasi).
- Hayvonot yoki oʻsimlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish (Jinoyat kodeksining 202-moddasi).
- Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish (Jinoyat kodeksining 203-moddasi).
- Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tartibini buzish (Jinoyat kodeksining 204-moddasi).

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning obyekti boʻlib, yer, yer osti boyliklari, suv, oʻsimlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi hamda insonlarning hayoti va sogʻligʻidir.

Obyektiv tomondan ekologiya sohasidagi jinoyatlar harakat yoki harakatsizlik orqali tabiatdan foydalanish va tabiiy muhitni muhofaza qilish qoidalarining buzilishida ifodalanadi. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar moddiy tarkibli boʻlib, muayyan oqibatlar kelib chiqishini talab qiladi. Insonning oʻlimi, odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, ekologiyaga salbiy taʼsir qiladigan darajada atrof-muhitning oʻzgarib ketishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi, koʻp miqdordagi zarar yoki boshqa ogʻir oqibatlarni bunday oqibatlarga misol qilib koʻrsatishimiz mumkin.

Subyektiv tomondan qasd yoki ehtiyotsizlikdan sodir etiladi. Subyekti Jinoyat kodeksining 193–195-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun 18 yoshga, qolganlari uchun 16 yoshga toʻlgan aqli raso jismoniy shaxslr hisoblanadi.

*A. Atrof-tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini
bartaraf qilish choralarini koʻrmaslik
(Jinoyat kodeksining 195-moddasi)*

Jinoyatning obyekti atrof-muhit, shuningdek, insonning sogʻligʻi yoki hayotidir.

Obyektiv tomondan jinoyat mansabdor shaxsning ekologiyasi ifloslangan joylarni zararsizlantirish yoki boshqacha tarzda tiklash ishlarini oʻtkazishdan boʻyin tovlashi yoki bunday ishlarni yetarli darajada bajarmasligi natijasida odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoxud boshqacha ogʻir oqibatlarining roʻy berishida ifodalanadi.

Boʻyin tovlash deganda, mansabdor shaxsning zararsizlantirish yoki boshqa tiklash ishlarini oʻtkazish boʻyicha oʻzining yoki uning zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmasligi tushuniladi.

Zararsizlantirish yoki boshqa tiklash ishlarini yetarli darajada bajarmaslik deganda, shu ishlarning qisman yoki boshqa vaqtda yoxud sifatsiz oʻtkazilishi tushuniladi. Zararsizlantirish deganda, ekologik ifloslangan joydagi avariya oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan maxsus ishlarni amalga oshirish tushuniladi.

Boshqacha tarzda tiklash ishlari mansabdor shaxsning zarar yetgan joyning dastlabki ekologik holatini tiklash yoxud joyning ekologik ifloslanganligi oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan har qanday harakatlarni amalga oshirishidan iborat boʻladi. Bu jinoyat moddiy tarkibli jinoyat hisoblanadi. Atrof-muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini koʻrmaslik tufayli odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi tarzidagi oqibatlarining yuzaga kelishi (Jinoyat kodeksining 195-moddasi, 1-qismi) va oʻlimning yuz berishi (Jinoyat kodeksining 195-moddasi, 2-qismi) jinoyat qilmishini Jinoyat kodeksining 195-moddasi boʻyicha kvalifikatsiya qilish uchun zaruriy shart boʻlib hisoblanadi.

Subyektiv tomondan ushbu jinoyat qasddan (egri qasddan) yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilishi mumkin. Jinoyatning subyekti faqat mansabdor shaxs bo'lishi mumkin. Zararsizlantirish yoki boshqacha tarzda tiklash ishlarini o'tkazish mansabdor shaxsning xizmat vazifalari doirasiga kirgani yoki kirmaganidan qat'iy nazar, u mazkur jinoyatning subyekti bo'lishi mumkin.

1. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar qaysi jinoyatlardan iborat?
2. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasini tartibga soluvchi qanday qonunlarni bilasiz?
3. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlarning obyekti nima?
4. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlarning obyektiv tomondan qanday oqibatlarni nazarda tutadi?
5. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlarning subyektiv tomoni.
6. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar subyekti kimlar bo'lishi mumkin?
7. Atrof-tabiiy muhit zararlanishining oldini olmaganlik qanday jinoiy oqibatlarni vujudga keltiradi?
8. Atrof-muhitning zararlanishi deganda nima tushuniladi? Ushbu ifloslanishning sabablari qanday bo'lishi mumkin?
9. Atrof-muhitni zararlantirganlik uchun jinoiy javobgarlikning shartlarini ko'rsating.

5-bob. HOKIMIYAT, BOSHQARUV VA JAMOAT BIRLASHMALARI ORGANLARINING FAOLIYAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR

Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar quyidagi ikki guruhga bo'linadi:

1. Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar (Jinoyat kodeksining 205–229²-moddalari).
2. Odil sudlovga qarshi jinoyatlar (Jinoyat kodeksining 230–241-moddalari).

5.1. Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar tushunchasi va turlari

O'zbekiston Respublikasida boshqaruv tartibi davlat, jamoat va o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyat tartiblari bilan belgilanadi. Jamiyatning bunday tizimi O'zbekiston Respublikasining 1991-yil mustaqillikka erishishi munosabati bilan vujudga kelib, avvalgi tizimda faqat davlat boshqaruvi prinsiplari bilan davlatning boshqaruv tizimi munosabatlari belgilangan edi. O'zbekiston Respublikasi boshqaruv tizimining bunday tartibda o'zgartirilishi asosida fuqarolar o'z mehnatlarining mahsulini o'zlari ko'ra olishlari va keladigan foydaning egasi bo'la olishlariga keng imkon yaratilib berildi. Avvalgi boshqaruv tizimida ishlab chiqarishdan ko'riladigan foydaga faqat davlat egalik qila olishi mumkin edi. Ishlab chiqarishda ishtirok etgan fuqarolar faqat ish haqiga da'vogar bo'la olar edilar.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi davlat boshqaruv tizimiga ham erkin rivojlanish imkoniyatlariga keng yo'l ochib berdi va ishlab chiqarish munosabatlarining egasi sifatida fuqarolar o'zlarining ishlab chiqargan mahsulotlariga o'zlari egalik qilish bilan birga uning sifati, bozorning yaxshi moli va xaridorgirligi uchun o'zlari manfaatdor bo'lishlariga erkinlik yaratildi. Boshqaruvning bunday tartibi natijasida o'zaro raqobatchilik, rivojlanish manfaatdorligi kabi munosabatlarga imkon yaratildi.

Davlat bunday tizimning huquqiy asoslarini yaratish, uni muhofaza qilish va rivojlantirishga ko'maklashishi mumkin bo'la oladi.

Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar:

- Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish (Jinoyat kodeksining 205-moddasi).
- Hokimiyat yoki mansabdor vakolati doirasidan chetga chiqish (Jinoyat kodeksining 206-moddasi).
- Mansabga sovuqqonlik bilan qarash (Jinoyat kodeksining 207-moddasi).
- Hokimiyat harakatsizligi (Jinoyat kodeksining 208-moddasi).
- Mansab soxtakorligi (Jinoyat kodeksining 209-moddasi).
- Pora olish (Jinoyat kodeksining 210-moddasi).
- Pora berish (Jinoyat kodeksining 211-moddasi).
- Pora olish-berishda vositachilik qilish (Jinoyat kodeksining 212-moddasi).
- Xizmatchini pora evaziga og'dirish (Jinoyat kodeksining 213-moddasi).
- Tovlamachilik yo'li bilan haq berishni talab qilish (Jinoyat kodeksining 214-moddasi).
- Davlat ramzlariga hurmatsizlik qilish (Jinoyat kodeksining 215-moddasi).
- Jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish (Jinoyat kodeksining 216-moddasi).
- G'ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash (Jinoyat kodeksining 216¹-moddasi).
- Diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (Jinoyat kodeksining 216²-moddasi).
- Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibini buzish (Jinoyat kodeksining 217-moddasi).
- Taqiqlangan ish tashlashga rahbarlik qilish yoki favqulodda holat sharoitida korxonalar, muassasalar yoxud tashkilotlar ishiga to'sqinlik qilish (Jinoyat kodeksining 218-moddasi).
- Hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatish (Jinoyat kodeksining 219-moddasi).
- Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar (Jinoyat kodeksining 220-moddasi).
- Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining qonuniy talablariga bo'ysunmaslik (Jinoyat kodeksining 221-moddasi).
- Qamoqdan yoki qo'riqlov ostidagi saqlash joyidan qochish (Jinoyat kodeksining 222-moddasi).
- Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish (Jinoyat kodeksining 223-moddasi).
- O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 224-moddasi).
- Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo'yin tovlash (Jinoyat kodeksining 225-moddasi).
- Ma'muriy nazorat qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 226-moddasi).
- Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalarni egallash, nobud qilish, ularga shikast yetkazish yoki ularni yashirish (Jinoyat kodeksining 227-moddasi).
- Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish (Jinoyat kodeksining 228-moddasi).
- Davlat proba tamg'alarini tayyorlash va ulardan foydalanish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 228¹-moddasi).
- O'zboshimchalik (Jinoyat kodeksining 229-moddasi).
- Yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish (Jinoyat kodeksining 229¹-moddasi).
- Diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish (Jinoyat kodeksining 229²-moddasi).

Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlarning himoya qilish obyektini ham aynan davlat, jamoat va o'zini o'zi boshqarish organlarining normal tartib qoidalari tashkil etadi. Ya'ni, har bir jinoyat davlat tomonidan o'rnatilgan boshqaruv qoidalarining muayyan sohasining buzilganligi (masalan, Jinoyat kodeksining 205-moddasi – «Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish» jinoyati bilan davlat apparatining normal

faoliyatiga putur yetkaziladi (Jinoyat kodeksining 216-moddasi). Jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish jinoyati natijasida jamoat yoki diniy tashkilotlarini tuzish qoidalarining buzilishiga sabab bo'ladi va h.k.) bilan jinoyat belgisini tashkil etadi. Obyektiv tomonidan boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar harakat bilan ham yoki harakatsizlik bilan ham sodir etilishi mumkin. Jumladan, Jinoyat kodeksining 205-moddasi – «Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish»; 206-modda – «Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish»; 210-modda – «Pora olish»; 211-modda – «Pora berish»; 212-modda – «Pora olish-berishda vositachilik qilish» jinoyatlari faqat harakat bilan sodir etilishi mumkin bo'lsa, 208-modda – «Hokimiyat harakatsizligi»; 225-modda – «Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo'yin tovlash» kabi jinoyatlar faqat harakatsizlik bilan sodir etilishi mumkin. Jinoyat kodeksining 207-moddasi – «Mansabga sovuqqonlik bilan qarash»; 221-modda – «Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining qonuniy talablariga bo'ysunmaslik» kabi jinoyatlari esa, ham harakat bilan, ham harakatsizlik bilan sodir etilishi mumkin.

Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlarning ayrimlari subyektiv tomondan qasddan (masalan, Jinoyat kodeksining 205-moddasi – «Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish»; 206-moddasi – «Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish»; 210-moddasi – «Pora olish»; 211-moddasi – «Pora berish»; 212-moddasi – «Pora olish-berishda vositachilik qilish» jinoyatlari faqat harakat bilan sodir etilishi mumkin bo'lsa, 208-modda – «Hokimiyat harakatsizligi»; 225-modda – «Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo'yin tovlash» kabi jinoyatlar sodir etilsa, Jinoyat kodeksining 207-moddasida nazarda tutilgan «Mansabga sovuqqonlik bilan qarash» jinoyati ehtiyotsizlik bilan sodir etiladi.

Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlarning subyektlari bo'lib, har qanday aqli raso jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Lekin bu jinoyatlarning aksariyatida maxsus subyektlar bo'lishligi belgilangan. Jumladan mansabdorlik jinoyatlarining subyektlari bo'lib, faqat mansabdor shaxslar bo'lishligi qonunda belgilab berilgan. Masalan, Jinoyat kodeksining 205-moddasi – «Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish»; 206-modda – «Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish»; 207-modda – «Mansabga sovuqqonlik bilan qarash»; 208-modda – «Hokimiyat harakatsizligi»; 209-modda – «Mansab soxtakorligi»; 210-modda – «Pora olish» jinoyatlarida jinoyatning subyeksi sifatida faqat mansabdor shaxslar bo'lishligi belgilangan. Ayrim jinoyatlar bo'yicha jazo o'tayotgan shaxslar jinoyatning subyeksi bo'lishligi belgilangan. Masalan, 220-modda – «Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar»; 221-modda – «Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining qonuniy talablariga bo'ysunmaslik»; 222-modda – «Qamoqdan yoki qo'riqlov ostidagi saqlash joyidan qochish» jinoyatlarining subyektlari bo'lib, sudning hukmiga ko'ra, faqat ayblov hukmi bilan jazolangan shaxslar bo'lishi mumkin. 226-moddada – «Ma'muriy nazorat qoidalarini buzish» jinoyatining subyeksi bo'lib, sudning ayblov hukmiga binoan ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqan va ma'muriy nazorat qoidalari o'rnatilgan shaxslar jinoyatning subyektlari bo'lishlari mumkin. 225-modda – «Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo'yin tovlash» jinoyatining subyeksi bo'lib, 18 yoshga to'lgan va harbiy yoki muqobil xizmatga chaqirilgan shaxslar bo'lishi mumkin.

Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar o'z ichiga turli xil jinoyatlarni olgan, jumladan, mansabdorlik jinoyatlarini ham jamoat yoki diniy tashkilotlarning tashkil etilishi yoki normal faoliyatlariga putur yetkazuvchi jinoyatlarni ham, jazoni ijro etish bilan bog'liq faoliyatga qarshi jinoyatlarni ham ko'rish mumkin.

Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlarning aksariyatida jinoyatning zaruriy belgisi sifatida ijtimoiy xavfli zarar jinoiy javobgarlikning asosi sifatidan jinoyat qonunida nazarda tutilgan. Masalan, Jinoyat kodeksining 205-moddasi – «Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish»; 206-modda – «Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish»; 207-modda – «Mansabga sovuqqonlik bilan qarash»; 208-modda – «Hokimiyat harakatsizligi» jinoyatlari bo'lishi uchun fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetgan bo'lishligi jinoiy javobgarlikning asosini tashkil etadi. 209-modda – «Mansab soxtakorligi» jinoyati bo'lishi uchun qonunda fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga jiddiy ziyon yetgan bo'lishligi jinoiy javobgarlikning asosini tashkil etadi.

Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlarning aksariyatida ma'muriy preyudiksiya qoidasi kiritilgan bo'lib, jinoiy javobgarlik bo'lishi uchun shaxs ilgari ma'muriy ja'zo qo'llanilganidan keyin yana shunday harakatlarni sodir etilganida jinoiy javobgarlikning kelib chiqishligi belgilangan. Jumladan, 216¹-modda – «G'ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash»; 216²-modda – «Diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish»; 217-modda – «Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibini buzish»; 224-modda – «O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini buzish»; 225-modda – «Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo'yin tovlash»; 226-modda – «Ma'muriy nazorat qoidalarini buzish»; 229¹-modda – «Yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish»; 229²-modda – «Diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish» jinoyatlari bilan jinoiy javobgarlikka tortilish uchun shaxs ilgari ham shunday harakatlari bois ma'muriy jazolangan bo'lishi lozim.

Mansabdor shaxs va mas'ul mansabdor shaxs tushunchasi. Mansabdor shaxs tushunchasi yuridik adabiyotlarda ancha bahsli hisoblanadi. Jinoyat kodeksining VII bo'limida mansabdor shaxs va mas'ul mansabdor shaxs tushunchalari berilgan.

Mansabdor shaxs – tashkiliy boshqaruv yoki ma'muriy xo'jalik vakolatlari berilgan va mas'ul mansabdor shaxs alomatlariga ega bo'lmagan shaxs.

Tashkiliy boshqaruv vakolatlari deganda, muayyan faoliyat uchastkasiga, ayrim xodimlarning ishlab chiqarish faoliyatiga rahbarlik qilish vazifalari tushuniladi. Masalan, vazirliklar, idoralar, boshqarmalarning rahbarlari (direktorlar, ularning o'rinbosarlari, tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari va h.k.). Ushbu mansabdor shaxslarning faoliyati kadrlarni tanlash va ularga rahbarlik qilish, ularni joy-joyiga qo'yish, ularning faoliyatini tashkil etish va nazorat qilishdan iborat bo'lishi mumkin.

Ma'muriy xo'jalik vakolatlari deganda, mol-mulkni boshqarish va tasarruf etish, uni saqlash shartlari va tartibini belgilash, mol-mulkning asralishini, sotilishini ta'minlash singari vazifalar tushuniladi. Masalan, ma'muriy-xo'jalik qismi, ta'minot, sotuv rahbari, ombor, buxgalteriya mudirlari singarilar shunday vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar hisoblanadi.

Mansabdor shaxs tashkiliy boshqaruv yoki ma'muriy xo'jalik vazifalarini bajarish bilan bog'liq lavozimga doimiy yoki vaqtincha saylanganligi yoki tayinlanganligidan qat'iy nazar, u mansabdor shaxs, deb hisoblanaveradi.

Mas'ul mansabdor shaxs deganda:

- 1) hokimiyat vakillari;
- 2) davlat korxonasi, muassasasi yoki tashkilotlarida saylash yoki tayinlash bo'yicha doimiy yoki vaqtincha tashkiliy-boshqaruv yoxud ma'muriy-xo'jalik vazifalarini bajarish bilan bog'liq lavozimlarni egallab turgan va yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxslar;
- 3) mulkchilikning boshqa shakllaridagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlari, davlat boshqaruvi yuzasidan belgilangan tartibda hokimiyat vakolati berilgan jamoatchilik vakillari;
- 4) tashkiliy-boshqaruv yoki ma'muriy-xo'jalik vazifalarini bajarish bilan bog'liq lavozimlarni egallab turgan va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxslar tushuniladi.

Hokimiyat vakillari jumlasiga o'z vakolatlari doirasida nomuayyan doiradagi shaxslarga yoxud har qanday tarkibiy bo'linmalarning (korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning) rahbarlariga, bunday fuqarolar yoxud korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning rahbarlari, ularga xizmat yuzasidan bo'ysunuvidan qat'iy nazar, ular bajarishi uchun majburiy qonuniy talablar qo'yish huquqi berilgan mansabdor shaxslar toifasi kiradi.

Hokimiyat vakillari jumlasiga, Oliy Majlis deputatlari, shuningdek, viloyat, shahar va boshqa darajalardagi hokimiyat organlarining deputatlari; huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari (prokurorlar, ularning o'rinbosarlari va h.k.); sudyalalar, sud ijrochilari; militsiya xodimlari; barcha darajadagi

hokimlar, bojxona va soliq xizmati xodimlari, davlatning turli nazorat organlari xodimlari va boshqa shu singarilar kiradilar.

Har qanday hokimiyat organida ishlovchi, ammo hokimiyat vakolatlari (ma'muriy vakolatlar) berilmagan shaxslar hokimiyat vakillari, deb e'tirof etilmasliklari lozim.

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni bajarish deganda, shaxs tomonidan biron-bir huquqiy munosabatni yuzaga keltirishi, o'zgartirishi yoki tugatishi mumkin bo'lgan harakatlarning bajarilishi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonuni 19-moddasida: «Yig'in raisi (oqsoqoli) va u tayinlaydigan kotib yig'in qarorlari bajarilishini, shuningdek, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining joriy faoliyatini tashkil etadi va amalga oshiradi»¹, deyilgan, demak, oqsoqol va kotib fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mansabdor shaxslari hisoblanadilar.

1. Mansabdor shaxsning o'z vakolatlaridan qonunga xilof tarzda foydalanishi qanday harakatlarda ifodalanadi?
2. Mansabdorlik jinoyatlari tufayli ko'p miqdorda zarar yetkazish, jiddiy ziyon deganda nimani tushunasiz?
3. Mansabdor shaxs va mas'ul mansabdor shaxs tushunchalarini tushuntirib bering.
4. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish bilan mansab vakolatini suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyati o'rtasida qanday farqlar bor?
5. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilishning hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqishdan farqlari.
6. Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqishning qanday turlari mavjud?
7. Mansabga sovuqqonlik bilan qarash tushunchasi. U nimada ifodalanadi?
8. Mansabga sovuqqonlik bilan qarash jinoyati uchun shaxsni javobgarlikka tortishning shartlari.
9. Mansabga sovuqqonlik bilan qarashning mansabdor shaxsning o'z vazifalariga loqaydlik yoki vijdotsizlaricha munosabatda bo'lish oqibatida ularni bajarmaslikdan qanday farqi mavjud?
10. Hokimiyat harakatsizligi belgilarini ko'rsating. Ushbu jinoyat uchun javobgarlikning vujudga kelishida qanday shartlar mavjud?
11. Mansab soxtakorligi nimada ifodalanadi? Uning qanday turlari bor?
12. Tovlamachilik yo'li bilan pora olishning tovlamachilikdan farqi.
13. Pora berish va pora olishning qanday umumiy tomonlari mavjud?
14. Qanday hollarda pora bergan shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi?
15. Pora olish va berishdagi vositachilik tushunchasi. U qanday shaklda ifodalanadi, shaxsni ushbu jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilishning shartlari.
16. Pora berishning xizmatchini pora evaziga og'dirishdan farqi nimada?
17. Tovlamachilik yo'li bilan haq berishni talab qilishning alomatlarini ko'rsating.
18. Davlat ramzlariga hurmatsizlik qilish nimada ifodalanadi?
19. Faoliyati O'zbekiston Respublikasida taqiqlangan jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash uchun javobgarlikka tortish shartlari.
20. Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar o'tkazish deganda nimani tushunasiz? O'tkazish tartibini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik vujudga kelishi shartlari.
21. Taqiqlangan ish tashlashga rahbarlik qilish yoki favqulodda holat sharoitida korxonalar, muassasa yoxud tashkilotlar ishiga to'sqinlik qilish jinoyati uchun jinoiy javobgarlik vujudga kelishi shartlari.
22. Hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsqa qarshilik ko'rsatish nimada ifodalanadi?
23. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlarni tavsiflab bering. Ushbu jinoyatdan jabrlanuvchini aniqlang.
24. Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining qonuniy talablariga bo'ysunmaslik uchun jinoiy javobgarlikka tortishning o'ziga xos xususiyatlari.
25. Ozodlikdan mahrum qilish joylari, dastlabki qamoq, qamoq joylariga nimalar kiradi? Ozodlikdan mahrum qilish joylari, dastlabki qamoq va qamoqdan qochish deganda nimani tushunasiz?
26. Qonunga xilof tarzda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish deganda nimani tushunish lozim?
27. Qaysi hollarda shaxs qonunga xilof tarzda chet elga chiqqanligi yoki O'zbekiston Respublikasiga kirganligi uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi?
28. O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini buzish qanday usullarda ifodalanishi mumkin?
29. Jinoyat kodeksining 224-moddasida javobgarlik belgilangan jinoyat subyekting qanday xususiyatlari mavjud bo'lishi lozim?
30. Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo'yin tovlashning qanday usullari mavjud?

31. Ma'muriy nazorat qoidalarini buzish nimalarda ifodalanadi? Jinoyat kodeksining 226-moddasida ko'rsatilgan jinoyatning subyektlarini bayon eting.

5.2. Odil sudlovga qarshi jinoyatlar

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. Odil sudlovni ta'minlash sud tizimining har qanday huquq-buzarliklardan, jinoiy tajovuzlardan va turli xildagi suiiste'molchiliklardan himoya qilingan holda amalga oshirilishi bilan chambarchas bog'liq. Odil sudlovni ta'minlash, nafaqat, odil sudlov tizimining huquqiy himoyalaniishi uchun, balki inson huquqlarining ta'minlanishi uchun ham muhim hisoblanadi. Aynan odil sudlovning buzilishi inson huquqlarining buzilganligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Jinoyat kodeksining XVI bobida «Odil sudlovga qarshi jinoyatlar» uchun jinoiy javobgarlik belgilangan:

- Aybsiz kishini javobgarlikka tortish (Jinoyat kodeksining 230-moddasi).
- Adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarish (Jinoyat kodeksining 231-moddasi).
- Sud qarorini bajarmaslik (Jinoyat kodeksining 232-moddasi).
- Band solingan mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etish (Jinoyat kodeksining 233-moddasi).
- Qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish (Jinoyat kodeksining 234-moddasi).
- Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash (Jinoyat kodeksining 235-moddasi).
- Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish (Jinoyat kodeksining 236-moddasi).
- Yolg'on xabar berish (Jinoyat kodeksining 237-moddasi).
- Yolg'on guvohlik berish (Jinoyat kodeksining 238-moddasi).
- Surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor qilish (Jinoyat kodeksining 239-moddasi).
- Jinoyat protsessini yuritish qatnashchilarining o'z zimmasidagi vazifani bajarishdan bo'yin tovlashi (Jinoyat kodeksining 240-moddasi).

- Jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirish (Jinoyat kodeksining 241-moddasi).

Bu jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikning Jinoyat kodeksiga kiritilishi bilan sud tizimida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olish va ogohlantirish masalalari nazarda tutiladi. Odil sudlovga qarshi jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi ham aynan O'zbekistonda odil sudlovni amalga oshirishni ta'minlash va inson huquqlarining sud organlarida himoya qilinishi tartiblarining buzilishi bilan xavfli hisoblanadi. Bu jinoyatlar uchun ham jinoiy javobgarlikning qonuniy asoslarini to'g'ri belgilash lozim. Jumladan, odil sudlovga qarshi jinoyatlarning yuridik xususiyatlari o'ziga xos belgilariga ega. Bu jinoyatlarning obyektini aynan odil sudlovning normal holatlari va fuqarolarning qonun bilan himoya qilinadigan huquq va manfaatlarini bo'lishi mumkin.

Aynan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilgan odil sudlovning huquqiy asoslarining buzilishi va inson huquqlarining buzilganligida ifodalanadi. Bu jinoyatlarning ayrimlarida iqtisodiy xarakterdagi zararining kelib chiqishligi bilan jinoiy javobgarlikning belgilanganligini ham ko'rish mumkin. Jumladan, band solingan mulkni qonunga xilof ravshda tasarruf etish» (Jinoyat kodeksining 233-moddasi) jinoyati uchun jinoiy javobgarlik ancha miqdorda zarar yetkazishga sabab bo'lganida jinoiy javobgarlikka asos bo'la oladi.

Odil sudlovga qarshi jinoyatlarning obyektiv tomondan aksariyat jinoyatlari faol harakat bilan sodir etilsa (masalan, 230-modda – «Aybsiz kishini jinoiy javobgarlikka tortish»; 231-modda – «Adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarish» va h.k.), ayrimlarining faqat harakatsizlik bilan sodir etilishi mumkin (masalan, 240-modda – «Jinoyat protsessini yuritish qatnashchilarining o'z zimmasidagi vazifani bajarishdan bo'yin tovlashi», 241-moddaning 1-qismi — «Jinoyat haqida xabar bermaslik»). Bu jinoyatlarning ayrimlari ham harakat bilan, ham harakatsizlik bilan sodir etiladi. Bunday jinoyatlarga Jinoyat kodeksining 232-moddasi – «Sud qarorini bajarmaslik» jinoyati sud yoki sudyaning hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi yoki qarorini qasddan bajarmaslik (harakatsizlik) yoki ularning bajarilishiga to'sqinlik qilishi (harakat)da ifodalanadi.

Odil sudlovga qarshi jinoyatlar subyektiv tomondan faqat qasddan sodir etilishi mumkin bo'lib, ehtiyotsizlikdan sodir etilganligi uchun jinoiy javobgarlikning qo'llanilishi mumkin emas.

Odil sudlovga qarshi jinoyatlarning subyektlarini uch guruhga bo'lish mumkin. Jumladan, huquqni muhofaza qilish organlarining mansabdor shaxslari (Jinoyat kodeksining 230-moddasi; 231-moddasi; 234-moddasi; 235-moddasi); odil sudlovni amalga oshirishga jalb qilingan shaxslar (Jinoyat kodeksining 232-moddasi; 233-moddasi; 238-moddasi; 239-moddasi; 240-moddasi); boshqa shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar (Jinoyat kodeksining 236-moddasi; 237-moddasi; 241-moddasi). Bu jinoyatlarning subyekt yoshlari asosan 16 yoshdan belgilangan bo'lsa, ayrim jinoyatlar (Jinoyat kodeksining 230-moddasi; 231-moddasi; 232-moddasi; 234-moddasi; 235-moddasi) uchun jinoiy javobgarlik o'n sakkiz yoshdan belgilangan.

*Jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirish
(Jinoyat kodeksining 241-moddasi)*

Ushbu jinoyatning obyekti surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari yoki sudlarning normal faoliyati hisoblanadi. Obyektiv tomondan Jinoyat kodeksining 241-moddasi, 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat tayyorgarlik ko'rilayotgan yoki sodir etilgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat haqida aniq bilgani holda xabar bermaslikdan iboratdir.

Xabar bermaslik deganda, o'z faoliyati munosabati bilan yoxud boshqa sabablarga ko'ra qandaydir shaxslar og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatni sodir etishga tayyorgarlik ko'rilayotganligi yoxud tamom bo'lgan jinoyatdan xabar topgan shaxsning shu haqdagi axborotni davlat hokimiyati, huquqni muhofaza qilish organlariga yetkazmasligini tushunish zarur.

Tayyorgarlik ko'rilayotgan yoki sodir etilgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat haqidagi xabar mansabdor shaxs tomonidan ma'lum qilinmagan taqdirda, uning qilmishi sodir etilgan jinoyat holatlaridan kelib chiqib, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish sifatida Jinoyat kodeksining 205-moddasi yoxud

hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish sifatida Jinoyat kodeksining 206-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat tushunchasining ta'rifi Jinoyat kodeksining 15-moddasida berilgan. Aniq bilgani holda tayyorgarlik ko'rilayotgan yoki sodir etilgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat haqida xabar bermaslik shaxs ana shu faktlarni ma'lum qilish harakatini ko'rmagan paytdan e'tiboran tugallangan jinoyat, deb hisoblanadi. Jinoyatning sodir etilish motivi har xil (jinoyatni sodir etgan shaxsni yashirib qolish, guvoh sifatida ishtirok etishni istamaslik va h.k.) bo'lishi mumkin.

Jinoyatning motivi va ko'zlangan maqsad qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas. Jinoyat kodeksining 241-moddasi, 1-qismi bo'yicha 16 yoshga to'lgan, tayyorgarlik ko'rilayotgan yoki sodir etilgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat haqida aniq bilgani holda xabar bermagan shaxs jinoyatning subyekt bo'lishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 241-moddasi, 1-qismida javobgarlik belgilangan jinoyat obyektiv tomonidan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatni oldindan va'da bermasdan yashirishdan iboratdir. Jinoyat kodeksining 241-moddasi, 2-qismi bo'yicha og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatni oldindan va'da bermasdan yashirgan shaxslar javobgar bo'ladilar, boshqa jinoyatlarning va'da bermasdan yashirilganligi ushbu modda bo'yicha javobgarlikni vujudga keltirmaydi.

Yashirish deganda, jinoyatchi, jinoyat izlari, sodir etilgan jinoyat qurollari va vositalari, jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan predmetlarning yashirilishini tushunish zarur. Yashirish uy-joyini, qiyofasini o'zgartirish uchun kiyim-kechak berishdan, shaxsni biron-bir hujjat bilan ta'minlashdan, qon izlarini, barmoq izlarini yo'qotishdan va h.k.lardan iborat bo'lishi ham mumkin.

Jinoyat kodeksining 241-moddasi, 2-qismida oldindan va'da bermay jinoyatni yashirganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Oldindan va'da berib yashirish, ya'ni jinoyatlarning sodir etilishidan oldin yoki sodir etilayotgan vaqtda jinoyatni sodir etish qurollari va vositalari bilan ta'minlash, jinoyat izlarini, jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan buyumlarni yashirish muayyan jinoyatda ishtirokchilikni tashkil etadi.

Og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatni yashirishga qaratilgan har qanday harakat sodir etilgan paytdan e'tiboran jinoyat tugallangan, deb hisoblanadi. Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi.

Shaxs og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatni yashirayotganini aniq bilishi lozim. Jinoyatning sodir etilish motivlari har xil – jinoyatchidan qo'rqish, qarindoshlik yoki birodarlik aloqalari, soxta obro' va h.k.lardan iborat bo'lishi mumkin. Ammo bu motivlar jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ta'sir etmaydi. Jinoyatning subyekt bo'lishi 16 yoshga to'lgan, aqli raso har qanday shaxs bo'lishi mumkin.

1. Odil sudlovga qarshi jinoyatlarning turlari.
2. Obyektiv tomondan aybsiz kishini javobgarlikka tortish qanday harakatlarda ifodalanadi?
3. Aybsiz kishi deganda nima tushuniladi?
4. Adolatsiz hukm chiqarish deganda nima tushuniladi?
5. Qanday qarorlar adolatsiz chiqarilgan hisoblanadi?
6. Sud qarorlarini bajarmaslik subyektiv tomondan qanday sodir etiladi?
7. Kimlar qonunga muvofiq ushlab turilishi mumkin?
8. Ko'rsatuv berishga majbur etish jinoyati obyektiv tomondan qanday harakatlarda ifodalanadi?
9. Qanday harakatlar tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish, deb kvalifikatsiya qilinadi?
10. Yolg'on xabar berish yoki yolg'on guvohlik berish jinoyati qachon tugallangan hisoblanadi?
11. Surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor qilish harakatlari nimada ifodalanadi?
12. Jinoyat haqida xabar bermaslik qachon tugallangan hisoblanadi?
13. Jinoyatni yashirish qachon tamom bo'lgan hisoblanadi?

6-bob. JAMOAT XAVFSIZLIGI VA JAMOAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR

6.1. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar tushunchasi va ularning turlari

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi – huquq normalari va ijtimoiy axloq qoidalari bilan belgilangan bo‘lib, ularga rioya qilish fuqarolarning muqaddas burchi. Ijtimoiy turmush qoidalariga ongli ravishda amal qilish jamoat xavfsizligini ta‘minlash, ijtimoiy tartib va qonunchilikni mustahkamlash garovidir.

Jamiyat turmush sharoitining xavfsizligi va uning daxlsizligini, barcha davlat va jamiyat tuzilmalarining normal faoliyatini ta‘minlaydigan ijtimoiy munosabatlar jamoat xavfsizligini tashkil qiladi.

Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar Jinoyat kodeksining oltinchi bo‘limida berilgan bo‘lib, maxsus obyektiga ko‘ra ular quyidagi turlarga ajratilgan: «Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar» (XVII bob); «Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar» (XVIII bob); «Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar» (XIX bob); «Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar» (XX bob).

6.2. Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar tushunchasi va turlari

Insonni, uning huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyatlar sifatida tan olinishi insonlarning xavfsiz turmush sharoitini, davlat va jamoat institutlarining normal faoliyatini ta‘minlaydigan ijtimoiy sharoitlarni vujudga keltirish va ta‘minlashni taqozo etadi. Fuqarolarning mehnat qilishi va dam olishi uchun normal sharoitlarni yaratish, davlat va jamoat tartibini muhofaza qilishga qaratilgan huquqiy normalar tizimi odamlar, davlat va jamoat institutlarining ijtimoiy himoyalanganligining muhim omilidir. Jinoyat kodeksining o‘n yettinchi bobi normalari shular sarasidandir.

Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning xususiyati ularning keng doiradagi ijtimoiy munosabatlar uchun obyektiv ravishda xavfliligidadir. Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etilganda muayyan shaxsning manfaatlariga zarar yetkazilmasdan, balki ijtimoiy ahamiyatga molik manfaatlariga – umuman jamiyat hayotining xavfsiz sharoitiga zarar yetkaziladi. Bunda butun jamiyat hayotining normal va xavfsiz sharoitlari, jamoat tartibi, turli faoliyatni amalga oshirishdagi va ko‘pchilik uchun xavfli bo‘lgan predmetlar bilan muomala qilishdagi xavfsizlik kabi ijtimoiy qadriyatlar jinoiy tajovuzlarga uchrashi mumkin.

Jinoyat kodeksining XVII bobi normalarida nazarda tutilgan jinoyatlarning obyekti – jamiyatni har bir a‘zosining xavfsizligini, jamoat tartibini, turli xil faoliyat ko‘rsatishda va ko‘pchilik uchun xavfli bo‘lgan predmetlar bilan muomala qilish jarayonida jamiyat yoki davlat manfaatlarini ta‘minlaydigan ijtimoiy munosabatlar majmuyi hisoblanadi.

Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning ko‘pchiligi (Jinoyat kodeksining 242–248, 251–252, 254, 255¹-moddalari) obyektiv tomondan harakat bilan sodir etiladi. Alohida jinoyatlar esa, harakatsizlik bilan ham sodir etiladi (o‘qotar qurol yoki o‘q-dorilarni beparvolik bilan saqlash Jinoyat kodeksining 249-moddasi), bir qator jinoyatlar esa, ham harakat bilan ham harakatsizlik bilan sodir etilishi mumkin (250, 253–255, 256–259-moddalar). Ayrim jinoyatlar formal tarkibli jinoyatlar hisoblanadi (masalan, Jinoyat kodeksining 242, 243-moddalari), aksariyati esa, moddiy tarkibli jinoyatlarga tegishli (masalan, Jinoyat kodeksining 244, 256–259-moddalari).

Jamoat xavfsizligiga qarshi aksariyat jinoyatlar subyektiv tomondan qasddan sodir etiladi. Bir qator jinoyatlar faqat ehtiyotsizlik orqasidan sodir etilishi mumkin, masalan, o‘qotar qurol yoki o‘q-dorilarni

beparvolik bilan saqlash (Jinoyat kodeksining 249-moddasi). Jinoyat kodeksining 245, 251¹-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarda maqsad zaruriy belgi bo'lib hisoblanadi.

Bevosita asosiy obyektiga ko'ra, mazkur jinoyatlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1) jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar (tor ma'noda). Mazkur guruhdagi jinoyatlar jamiyat hayotining barcha sohalarida sodir etilishi, butun jamiyat hayotining xavfsiz va normal sharoitini ta'minlash sohasidagi eng muhim manfaatlarga taalluqli bo'lishi mumkin. Ularga Jinoyat kodeksining 242–245-moddalarda nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi;

2) ko'pchilik uchun xavfli bo'lgan predmetlar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyatlar. Jinoyatlarning mazkur guruhini Jinoyat kodeksining 246–255¹-moddalarda nazarda tutilgan jinoyatlar tashkil qiladi.

3) turli faoliyatni amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyatlar. Bu guruhga Jinoyat kodeksining 257–259-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar:

- Jinoiy uyushma tashkil etish (Jinoyat kodeksining 242-moddasi).
- Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni oshkorlashtirish (legallashtirish) (Jinoyat kodeksining 243-moddasi).
- Ommaviy tartibsizliklar (Jinoyat kodeksining 244-moddasi).
- Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish (Jinoyat kodeksining 244¹-moddasi).
- Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish (Jinoyat kodeksining 244²-moddasi).
- Diniy mavzudagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish (Jinoyat kodeksining 244³-moddasi).
- Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish (Jinoyat kodeksining 245-moddasi).
- Kontrabanda (Jinoyat kodeksining 246-moddasi).
- O'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash (Jinoyat kodeksining 247-moddasi).
- Qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilish (Jinoyat kodeksining 248-moddasi).
- O'qotar qurol yoki o'q-dorilarni beparvolik bilan saqlash (Jinoyat kodeksining 249-moddasi).
- Portlash xavfi bo'lgan moddalar yoki pirotexnika buyumlaridan foydalanish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 250-moddasi).
- Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda egallash (Jinoyat kodeksining 251-moddasi).
- Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish (Jinoyat kodeksining 251¹-moddasi).
- Radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallash (Jinoyat kodeksining 252-moddasi).
- Radioaktiv materiallardan foydalanish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 253-moddasi).
- Radioaktiv materiallardan qonunga xilof ravishda foydalanish (Jinoyat kodeksining 254-moddasi).
- Yadro qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 255-moddasi).
- Bakteriologik, kimyoviy va boshqa xil yalpi qirg'in qurollari turlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, to'plash, olish, birovga o'tkazish, saqlash, qonunga xilof ravishda egallash va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish (Jinoyat kodeksining 255¹-moddasi).
- Tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 256-moddasi).
- Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 257-moddasi).
- Sanitariyaga oid qonun hujjatlarini yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 257¹-moddasi).

- Togʻ-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 258-moddasi).

- Yongʻin xavfsizligi qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 259-moddasi).

*A. Jinoiy uyushma tashkil etish
(Jinoyat kodeksining 242-moddasi)*

Jinoyatning obyekti jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, hokimiyat organlarining normal faoliyat koʻrsatishi, fuqarolarning hayoti va sogʻligʻi boʻlishi mumkin.

Jamoat xavfsizligi deganda, jamiyat hayotining xavfsiz sharoitlari, yaʼni fuqarolar hayoti va sogʻligʻi daxlsizligini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini, barcha davlat yoki jamoat tuzilmalarining normal faoliyat koʻrsatishini taʼminlaydigan ijtimoiy munosabatlarni tushunish zarur.

Jinoyat kodeksining 242-moddasi, 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat obyektiv tomondan:

- 1) jinoiy uyushma yoki uning boʻlinmalarini tuzish yoki ularga rahbarlik qilishda;
- 2) ularning mavjud boʻlishi va ishlab turishini taʼminlashga qaratilgan faoliyatda ifodalanadi.

Jinoyat kodeksining 29-moddasi, 5-qismiga koʻra, ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shugʻullanish uchun oldindan birlashishi jinoiy uyushma, deb topiladi.

Jinoiy uyushma ikki yoki bir nechta uyushgan guruhlardan iborat boʻladi. Jinoiy uyushma guruhlar oʻrtasida jinoiy vazifalarning taqsimlanganligi jinoiy uyushmaning asosiy, oʻziga xos belgisidir, bundan farqli oʻlaroq, jinoiy guruhda esa, vazifalar uning aʼzolari oʻrtasida taqsimlangan boʻladi.

Jinoiy uyushma tuzish deganda, ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhlarining yagona rahbarlik ostida birlashganligi, uyushma jinoiy faoliyatining rejasi tuzilganligi, vazifalarning uyushgan guruhlar yoki ularning tarkibiy boʻlinmalari oʻrtasida taqsimlanganligi, muayyan jinoyatga puxta tayyorlanib amalga oshirilishini va h.k.larni tushunish zarur.

Jinoiy uyushmaning mavjud boʻlishi va ishlab turishini taʼminlashga qaratilgan faoliyat jinoiy uyushma aʼzolarini moddiy taʼminlashda, jinoiy uyushmani har qanday yoʻl bilan qoʻllab-quvvatlashda, masalan, transport vositalarini, qalbaki hujjatlarni berish, texnika vositalari bilan taʼminlash, jinoiy faoliyat natijasida qoʻlga kiritilgan pullarni oshkoralashtirish va h.k.larda ifodalanishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 242-moddasi, 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat jinoiy uyushma yoxud uning boʻlinmalari tuzilgan yoki ularga rahbarlik qilingan paytdan eʼtiboran tugallangan, deb hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 242-moddasi, 2-qismida javobgarlik belgilangan jinoyatning obyektiv tomoni uyushgan qurolli jinoiy guruhni tuzishda, shuningdek, guruhga rahbarlik qilishda yoki unda ishtirok etishda ifodalanadi.

Jinoyat kodeksining 242-moddasi, 2-qismida ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashishi uyushgan guruh, deb topiladi. Uyushgan jinoiy guruhning oʻziga xos belgilaridan biri ana shunday guruhlarining barqarorligidir.

Guruhning barqarorligi deganda, guruh aʼzolari oʻrtasida mustahkam, doimiy aloqalar mavjudligini, guruh aʼzolari zimmasiga muayyan vazifalar yuklanganligini, ular oʻrtasida rollarning taqsimlanganligini tushunish zarur.

Tarkibining doimiyligini, aʼzolari oʻrtasida mustahkam aloqaning mavjudligini, harakatlarining kelishilganligi, jinoiy faoliyat koʻrinishi va usullarning bir xilligi, uzoq vaqt ish koʻrishi, sodir etilgan jinoyatlar soni kabi belgilar guruhning turgʻunligidan dalolat beradi.

Jinoiy guruhning barqarorligi, shak-shubhasiz, uning yuqori darajada uyushganligidan dalolat beradi. Bunday jihat barcha jinoiy ishlarning rejalashtirilishida, mustahkam intizomda, martaba darajasiga muvofiq mutlaq tobelikda va h.k.larda namoyon boʻladi. Jinoiy faoliyat guruh tomonidan qator jinoyatlarning sodir etilishini taxmin qiladi.

Guruhning qurollanganligi deganda, guruh ixtiyorida qurollarning mavjudligini tushunish zarur. Qurol oʻqotar yoki sovuq qurol boʻlishi mumkin. Guruh jangovar aslahalar, portlovchi moddalar bilan jihozlangan boʻlsa ham uni qurollangan guruh, deb eʼtirof etish zarur. Jinoiy guruhning qurollanganlik alomatini belgilash

uchun guruh a'zolaridan birida hech bo'lmaganda bir dona qurol mavjudligini, bundan guruhning boshqa a'zolari xabardor ekanligini aniqlash zarur.

Uyushgan qurolli guruhni tuzish deganda, uyushgan qurolli guruhni tuzish, unga rahbarlik qilishga qaratilgan har qanday harakat (bosqinchi guruh a'zolarini tanlash, ular o'rtasida rollarni taqsimlash, jinoiy faoliyat rejalarini tuzish, jinoiy guruhni qurollantirish va h.k.lar)ni tushunish zarur.

Guruhga rahbarlik qilish deganda, mavjud uyushgan qurolli guruh faoliyatiga boshchilik qilishga qaratilgan har qanday harakatni tushunish zarur. Uyushgan qurolli guruh tuzish yoki unga rahbarlik qilish, guruh tomonidan jinoyat sodir etilgani yoki sodir etilmaganidan qat'iy nazar, uyushgan qurolli guruh tuzilgan yoxud uyushgan qurolli guruhga kirishga rozilik bildirilgan paytdan e'tiboran tugallangan jinoyat, deb e'tirof etiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Jinoyatning sodir etilish motivi va maqsadi har xil bo'lishi mumkin, ammo ular jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir etmaydi.

Jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan aqli raso har qanday shaxs bo'lishi mumkin. Jinoiy uyushma tarkibida jinoyat sodir etgan shaxs (odam o'ldirish, badanga shikast yetkazish, o'g'irlik va h.k.lar) ishtirok etgan 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan aybdor shaxslar ana shu jinoyatlari uchun 14 yoshdan javobgarlik nazarda tutilgan moddalar bo'yicha javobgar bo'ladi.

*B. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni
oshkorlashtirish (legallashtirish)
(Jinoyat kodeksining 243-moddasi)*

Mazkur jinoyatning obyekti respublika iqtisodiy faoliyatining manfaatlari, jamoat xavfsizligi hisoblanadi. Jinoiy faoliyat natijasida aybdor qo'lga kiritgan pul mablag'lari yoxud boshqa mulk ko'rib chiqilayotgan jinoyatning predmeti hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat quyidagi harakatlarni amalga oshirish orqali sodir etilishi mumkin, ya'ni jinoiy faoliyat natijasida olingan mulkni:

- 1) o'tkazish;
- 2) aylantirish;
- 3) almashtirish;
- 4) mulkning asl xususiyatini, manbayini, turgan joyini, tasarruf etish, tashilish usulini, mulkka nisbatan haqiqiy egalik huquqining yoki uning kimga qarashliligini yashirish yoki sir saqlash.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromad deganda, shaxsning bunga qonuniy asoslari bo'lmay turib, qonunga xilof ravishda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi natijasida olingan daromadi tushuniladi.

O'tkazish deganda, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlar bilan banklarda bank omonati shartnomasi bo'yicha biron-bir moliyaviy operatsiyani o'tkazish tushuniladi.

Aylantirish deganda, har qanday fuqarolik huquqiy bitimlari: oldi-sotdi, almashish, hadya qilish shartnomalarining tuzilishi va h.k.lar yoxud jinoiy faoliyat natijasida olingan daromadlarning qonuniy tadbirkorlik yoki ishlab chiqarish tuzilmasini tashkil etish yoxud faoliyatini ta'minlashga sarflanishini tushunish kerak. Almashtirish deganda, so'mlarning boshqa chet el valutasiga konvertatsiya qilish tushuniladi.

Ko'rib chiqilayotgan modda dispozitsiyasida sanab o'tilgan harakatlardan birontasi sodir etilgan paytdan e'tiboran jinoyat tugallangan, deb e'tirof etiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Sodir etilish motivi va ko'zlangan maqsad jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir etmaydi. Aksariyat hollarda, jinoyat jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni oshkorlashtirish maqsadlarida ham sodir etiladi. Ushbu jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan va jinoiy faoliyat natijasida olingan daromadlarni oshkorlashtirishda ishtirok etgan shaxs hisoblanadi.

*D. Ommaviy tartibsizliklar
(Jinoyat kodeksining 244-moddasi)*

Mazkur jinoyatning obyekti jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, odamlarning hayoti, sog'lig'i, o'zganing mulki hisoblanadi.

Jinoyat obyektiv tomondan:

- 1) qurol yoki qurol sifatida foydalaniladigan boshqa narsalarni ishlatib yoxud ishlatish bilan qo'rqitib shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatish, qirg'in solish, o't qo'yish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish, hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatish orqali sodir etilgan ommaviy tartibsizliklarda;
- 2) ommaviy tartibsizliklarda faol qatnashishda ifodalanadi.

Ommaviy tartibsizliklar uyushtirish deganda, shaxsning ommaviy tartibsizliklarni tayyorlashga qaratilgan har qanday harakatini, masalan, ommaviy tartibsizliklar ishtirokchilarini tayyorlash, rahbariyat yadrosini tashkil etish, reja tuzish, ommaviy tartibsizliklar uyushtiriladigan joyni va vaqtini tanlash, plakatlari, shiorlar, varaqalar tayyorlash va h.k.larni tushunish zarur.

Ko'rib chiqilayotgan modda dispozitsiyasiga muvofiq, ommaviy tartibsizliklar shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatish, qirg'in solish, o't qo'yish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish, qurol yoki qurol sifatida foydalaniladigan boshqa narsalarni ishlatib yoxud ishlatish bilan qo'rqitib, hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatish bilan birgalikda sodir etilishi lozim.

Shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatish deganda, jabrlangan shaxslarga nisbatan ham ruhiy, ham jismoniy tazyiq o'tkazilganligini tushunish zarur. Ruhiy zo'rlik ishlatish o'ldirish, sog'lig'iga shikast yetkazish, mulkini nobud qilish yoxud unga shikast yetkazish bilan qo'rqitishda ifodalanishi mumkin. Ommaviy tartibsizliklarni sodir etish vaqtida ruhiy zo'rlik ishlatishda aybdor bo'lgan shaxslarning harakati faqat ko'rib chiqilayotgan modda bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi, o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan modda bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi.

Jismoniy zo'rlik ishlatish deganda, jabrlanuvchini kaltaklash, do'pposlash, badanga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazishni tushunish zarur. Ommaviy tartibsizliklarni sodir etish vaqtidagi odam o'ldirilgan bo'lsa, qilmish jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Qirg'in solish deganda, fuqarolarga nisbatan zo'rlik ishlatilishini, moddiy boyliklar (transport, uylar, inshootlar va h.k.) yakson qilinishini tushunish zarur. O't qo'yish biron-bir mulkning, inshootning, transportning yoki boshqa narsalarning yoqib yuborilishidir.

Mulkni nobud qilish deganda, uni batamom yaroqsiz holga, ya'ni mulkning ko'zlangan maqsadda foydalanib bo'lmaydigan holga keltirilishini tushunish zarur.

Quroldan foydalanish deganda, vazifasidan kelib chiqib (jonli nishonni nobud qilish maqsadida o'q otish, inshootlar, uylar, transportni yakson qilish) quroldan bevosita foydalanilishini tushunish zarur. Qurollar o'q otuvchi yoki sovuq qurol bo'lishi mumkin.

Qurol sifatida foydalaniladigan boshqa narsalar deganda, fizikaviy xususiyatlariga ko'ra, ulardan foydalanilganda shaxsga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday jismni tushunish kerak.

Ommaviy tartibsizliklarda faol qatnashish deganda, aybdor shaxslarning shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatishi, qirg'in solishi, o't qo'yishi, mulkka shikast yetkazishi yoki uni nobud qilishi, qurol yoki qurol sifatida foydalaniladigan boshqa narsalarni ishlatib, hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatishda bevosita ishtirokini tushunish zarur.

Jinoyat tahlil etilayotgan modda dispozitsiyada nazarda tutilgan harakat sodir etilgan paytdan e'tiboran tugallangan, deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan ushbu jinoyat qasddan sodir etiladi, sodir etilish motivi va ko'zlangan maqsad jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi. Jinoyatning motivi millatchilik, hokimiyatni egallashga intilish, g'araz, bezorilik va h.k.lar bo'lishi mumkin. Jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan, faqat ommaviy tartibsizliklarning tashkilotchilari va faol qatnashchilari hisoblanadi.

Ommaviy tartibsizliklarning boshqa qatnashchilari ommaviy tartibsizliklar vaqtida o'zlari sodir etgan jinoyatlar uchungina javob beradilar. Agar ommaviy tartibsizliklarning tashkilotchilari yoki faol qatnashchilari 16 yoshga to'lmagan bo'lsa, bu holda ular ommaviy tartibsizliklar vaqtida o'zlari sodir etgan muayyan jinoyatlari uchun, masalan, odam o'ldirish, o'zgar mulkini nobud qilish, zo'rlab nomusga tekkanlik uchun javob berishlari kerak.

E. Kontrabanda
(*Jinoyat kodeksining 246-moddasi*)

Tahlil qilinayotgan ushbu moddaga O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 1-maydagi va 1996-yil 30-avgustdagi Qonunlari bilan ayrim o'zgartirishlar kiritilgan. Mazkur jinoyatning obyekti jamoat xavfsizligini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlardir.

Qattiq ta'sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, radioaktiv, portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog', o'qotar qurollar, o'q-dorilar, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizmni targ'ib qiluvchi materiallar, yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg'in qurollarining boshqa turlari, ommaviy qirg'in qurollarini yaratishda foydalanilishi mumkin bo'lgan material va moslamalar kontrabanda jinoyatining predmeti bo'lishi mumkin.

Obyektiv tomondan Jinoyat kodeksining 246-moddasi, 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat qattiq ta'sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, radioaktiv, portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog', o'qotar qurollar yoki o'q-dorilarni hamda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni yoxud diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizmni targ'ib qiluvchi materiallarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali:

- 1) bojxona nazoratini chetlab;
- 2) bojxona nazoratidan yashirib;
- 3) bojxona hujjatlari yoki vositalarga o'xshatib yasalgan hujjat va vositalardan aldash yo'li bilan foydalanib;
- 4) deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib olib o'tilishida ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 3-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi bojxonalari hududining sarhadlari bojxona chegarasi hisoblanadi. Respublika bojxona hududini uning quruqlikdan tashkil topgan hududi, hududiy va ichki suv havzalari hamda ularning ustidagi havo chegaralari tashkil etadi.

Respublika hududida erkin bojxona zonalari va erkin omborxonalar joylashgan bo'lishi mumkin, ularning hududi agar qonunlarda boshqa narsa nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqarida joylashgan, deb hisoblanadi. Bojxona hududining sarhadlari, shuningdek, erkin bojxona zonalari va erkin omborxonalar chegaralari O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi hisoblanadi.

Bojxona kodeksining 7-moddasiga muvofiq, bojxona chegarasidan olib o'tish deganda, tovar yoki transport vositalarini har qanday usul bilan bojxona hududiga olib kirish yoxud olib chiqish, shu jumladan, xalqaro pochta yo'llanmalari orqali jo'natish, quvur o'tkazgich transporti yoki elektr uzatish liniyalaridan foydalanishga qaratilgan harakatlarning sodir etilishi tushuniladi.

Bu harakatlar jumlasiga:

- tovarlar yoki transport vositalari bojxona hududiga olib kirilganda, shu jumladan erkin bojxona zonalari va erkin omborlar hududidan olib kirilganda – bojxona chegarasidan amalda o'tish;
- tovarlar yoki transport vositalari bojxona hududidan olib chiqilganda, shu jumladan erkin bojxona zonalari va erkin omborlar hududidan olib chiqilganda – bojxona deklaratsiyasini taqdim etish yoki tovar yoxud transport vositalarini olib chiqish maqsadini amalga oshirishga bevosita qaratilgan o'zga harakatni bajarish kiradi.

Bojxona nazorati deganda, qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar majmuyi tushuniladi. Kontrabanda predmetlarini bojxona nazoratini chetlab o'tkazish kontrabanda predmetlari ularning o'tkazilishi uchun zarur bo'lgan tegishli hujjatlarni bojxona organlari xodimlariga tekshirtmasdan yoxud bojxona organlari belgilamagan boshqa joylardan o'tkazilishini anglatadi.

Bojxona nazoratidan yashirish deganda, kontrabanda predmetlarini o'tkazishda turli xufiya joylardan, topilishini qiyinlashtiradigan boshqa usullardan foydalanilish va h.k.larni tushunish zarur. Hujjatlardan aldash

yo'li bilan foydalanish deganda, kontrabanda predmetlarini bojxona chegarasi orqali o'tkazish maqsadida bojxona nazoratiga qalbaki hujjatlarning taqdim etilishini tushunish zarur.

Bojxona qiyoslash vositalaridan aldov yo'li bilan foydalanish deganda, plombalar, muhrlar, raqamli, harfli va boshqa markirovkalar, qiyoslash belgilarini qalbakilashtirish va h.k.lar tushuniladi.

Kontrabanda predmetlarini deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib o'tkazish deganda, kontrabanda predmetlari haqida belgilangan shakldagi to'g'ri axborotning berilmasligini yoki haqiqatga to'g'ri kelmaydigan axborotning berilishini tushunish zarur.

Diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizmni targ'ib qiluvchi materiallar deganda, shu xildagi axborot mavjud bo'lgan kitoblar, videoyozuvlar, varaqalar, tashviqot varaqalari, plakatlar, shiorlar va h.k.larni tushunish lozim. Kontrabanda predmetlari O'zbekiston Respublikasi chegarasi orqali haqiqatda qonunga xilof ravishda o'tkazilgan paytdan e'tiboran kontrabanda tugallangan jinoyat, deb e'tirof etiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda uning sodir etilish motivi va ko'zlangan maqsadi ahamiyatga ega emas. Jinoyatning subyeksi 16 yoshga to'lgan, aqli raso har qanday shaxs bo'lishi mumkin.

Ushbu moddaning 2-qismida yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg'in qurollarining boshqa turlarini, shunday qurollarni yaratishda foydalanilishi mumkinligi ayon bo'lgan material va moslamalarni, shuningdek, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni kontrabanda qilish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Kontrabanda qilingan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning miqdori har bir alohida holda tegishli davlat organining xulosasi bilan aniqlanadi.

1. Jinoiy uyushma nima?
2. Qurollangan jinoiy uyushma belgilarini bayon eting.
3. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni oshkorlashtirish nimada ifodalanadi? Bunday jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish uchun qanday shartlar mavjud bo'lishi lozim?
4. Ommaviy tartibsizliklar deganda nima tushuniladi?
5. Ommaviy tartibsizliklarni uyushtirish va ularda faol ishtirok etish nimalarda ifodalanadi?
6. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallar deganda nimani tushunish lozim?
7. Diniy, fundamental yoki O'zbekiston Respublikasida faoliyati taqiqlangan tashkilotlarni tuzish, ularga boshchilik qilish va a'zolik qilish uchun jinoiy javobgarlik vujudga kelish shartlarining o'ziga xos xususiyati nimada?
8. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishning alomatlarini nimada?
9. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishni odam o'g'rilash yoki shaxsni g'ayriqonuniy ozodlikdan mahrum qilishdan farqi nimada?
10. Kontrabanda alomatlarini aniqlang. Uning usullari va jinoiy javobgarlik vujudga kelishining o'ziga xos xususiyati qanday?
11. Qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof tarzda egalik qilish uchun javobgarlikning shartlari nimalarda ifodalanadi?
12. O'qotar qurol yoki o'q-dorilarni beparvolik bilan aniqlash deganda nimani tushunasiz?
13. Portlash xavfi bo'lgan moddalar yoki pirotexnika buyumlaridan foydalanish qoidalarini buzish nimada ifodalanadi? Portlovchi moddalarga nimalar kiradi?
14. Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof tarzda egallash qanday yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin? Bunday buyumlarga nimalar kiradi?
15. Radioaktiv materiallar nima?
16. Radioaktiv materiallardan foydalanish qoidalarini buzish nimada ifodalanadi? Ushbu jinoyat uchun jinoiy javobgarlikning vujudga kelish zaruriy shartini ayting.
17. Yadro qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzish jinoyati kvalifikatsiyasining o'ziga xos xususiyati nimada? Jinoyat kodeksining 255-moddasiga asosan ushbu jinoyat uchun jinoiy javobgarlik vujudga kelishining zaruriy shartini aniqlang.
18. Ommaviy qirish quroliga nimalar kiradi? Uning qanday turlari mavjud?
19. Tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish jinoyati uchun jinoiy javobgarlik vujudga kelishining zaruriy shartini aniqlang.
20. Jinoyat kodeksining 256-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning maxsus subyektini aniqlang.
21. Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish nimada ifodalanadi? Ushbu jinoyatning subyektini aniqlang.
22. Sanitariyaga oid qonun hujjatlarini yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarini buzish jinoyatiga jinoiy javobgarlik yuzaga kelishining shartini aniqlang.
23. Tog'-kon, qurilish yoki portlatish ishlari deganda nimani tushunmoq lozim? Qaysi hollarda ushbu ishlarni o'tkazishda qoidalar buzilgan holda jinoiy javobgarlik yuzaga keladi?
24. Yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish nimalarda ifodalanadi?

6.3. Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar tushunchasi va turlari

Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlarga quyidagi jinoyatlar kiradi:

- Temiryo‘l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 260-moddasi).
- Mast holdagi shaxsning transport vositasini boshqarishiga yo‘l qo‘yish (Jinoyat kodeksining 261-moddasi).
- Transportni ta‘mirlash yoki uni foydalanishga chiqarish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 262-moddasi).
- Temiryo‘l, dengiz, daryo, havo transporti vositasi yoki aloqa yo‘llarini yaroqsiz holatga keltirish (Jinoyat kodeksining 263-moddasi).
- Temiryo‘lning harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasini olib qochish yoki egallab olish (Jinoyat kodeksining 264-moddasi).
- Xalqaro uchish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 265-moddasi).
- Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 266-moddasi).
- Transport vositasini olib qochish (Jinoyat kodeksining 267-moddasi).
- Transportning xavfsiz ishlashini ta‘minlashga doir qoidalarni buzish (Jinoyat kodeksining 268-moddasi).
- Avtomobil yo‘llaridan foydalanish va ularni qo‘riqlash qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 269-moddasi).

A. Temiryo‘l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 260-moddasi)

Ushbu jinoyatning obyekti jamoat xavfsizligi, odamlarning hayoti va sog‘lig‘i, o‘zganing mulkidir. Jinoyatning predmeti temiryo‘l, dengiz, daryo, havo transporti hisoblanadi.

Temiryo‘l transporti – po‘lat izlar bo‘ylab qatnaydigan transport (tramvay bundan mustasno) bo‘lib, ulardan magistral temiryo‘llarda, kirish yo‘llarida va metropolitenda foydalaniladi.

Agar kirish yo‘llari umumiy temiryo‘llar tarmog‘i bilan bog‘lanmagan bo‘lsa, ular temiryo‘l transporti ixtiyorida bo‘lmay, idoralarga qarashli bo‘ladi.

Dengiz va daryo transportiga, kimning ixtiyorida bo'lishidan qat'iy nazar, barcha kemalar (yo'lovchilarni tashiydigan kema, transport kemalari, qazib oluvchi, qayta ishlovchi, sport kemalari va h.k.) kiradi.

Havo transporti deganda, fuqarolar aviatsiyasi, parvoz vositalari (samolyotlar, vertolyotlar, planerlar, aerostatlar va h.k.) tushuniladi.

Harakat yoki temiryo'l, dengiz, daryo, havo transportidan foydalanish xavfsizligi qoidalarining biron-bir bandi buzilishi, buning oqibatida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi jinoyat tarkibining zaruriy belgisi hisoblanadi.

Harakat yoki foydalanish xavfsizligi qoidalarining buzilishi: temiryo'l transportida – signal bermaslik, tezlikni oshirish, svetoforning qizil chirog'i yonib turganda o'tish, pereganni o'zboshimchalik bilan egallash va h.k.larda; havo transportida – parvoz balandligiga rioya qilmaslik, parvoz yo'lagiga rioya qilmaslik va h.k.larda; suv transportida – tezlikka rioya qilmaslik, noto'g'ri quvib o'tish va h.k.larda ifodalanadi.

Foydalanish qoidalarini buzish deganda, bevosita transport vositasining o'zidan hamda uning normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi agregatlar, tizimlardan foydalanish xavfsizligining buzilishini tushunish zarur.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etiladi. Jinoyat kodeksining 260-moddasida javobgarlik belgilangan jinoyatning subyeksi 16 yoshga to'lgan va xizmat yuzasidan zimmasiga harakat yoki temiryo'l, dengiz, daryo, havo transportidan foydalanish (basharti, faoliyati transport harakati yoki undan foydalanish bilan bog'liq bo'lsa, transport faoliyati xavfsizligini ta'minlash) xavfsizligiga rioya qilish vazifasi yuklangan har qanday shaxs bo'lishi mumkin¹.

Mazkur moddaning 2-qismida odam o'lishiga sabab bo'lgani harakat yoki temiryo'l, dengiz, daryo, havo transporti xavfsizligi qoidalarining buzilishi uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Shu moddaning 3-qismida javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda:

- 1) odamlar o'limiga;
- 2) halokatga;
- 3) boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan temiryo'l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan.

*B. Mast holdagi shaxsning transport vositasini
boshqarishiga yo'l qo'yish
(Jinoyat kodeksining 261-moddasi)*

Mazkur jinoyatning obyeksi jamoat xavfsizligi, odamlarning hayoti va sog'lig'idir. Obyektiv tomondan jinoyat transport vositasidan foydalanish uchun mas'ul shaxsning mast holatdagi yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida bo'lgan shaxsni temiryo'l, dengiz, daryo, havo, avtomobil transporti yoki boshqa transport vositasini boshqarishiga yo'l qo'yishi natijasida badanga og'ir shikast yetkazilishi yoxud odam o'lishiga sabab bo'lishida ifodalanadi.

Jinoyat kodeksining 261-moddasiga muvofiq, aybdor shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun quyidagi alomatlarining jami mavjud bo'lishi lozim:

- 1) giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki odamning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida bo'lgan shaxsning transport vositalarini boshqarishiga yo'l qo'yish;
- 2) badanga og'ir shikast yetkazilishi yoxud odamning o'lishi;
- 3) transport vositalarini boshqarishiga yo'l qo'yish bilan badanga og'ir shikast yetkazilishi yoxud odam o'lishi o'rtasida sababiy bog'lanishning mavjudligi.

Yo'l qo'yish deganda, alkogolli ichimlikni iste'mol qilganligi sababli mast holda bo'lgan yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki odamning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida bo'lgan shaxsning temiryo'l, dengiz, daryo, havo, avtomobil transporti yoki boshqa transport vositalarini boshqarishiga ruxsat berilishini tushunish zarur.

Yo'l qo'yish haydovchiga ushbu moddaning dispoziitsiyasida ko'rsatib o'tilgan transport vositalarini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan biron-bir harakatni bajarish haqida ko'rsatma berishdan (odamlarni eltib qo'yish, yuk tashish va h.k.), shuningdek, haydovchining vazifasini bajarishga to'sqinlik qilmaslik (masalan, yo'lga chiqishga qarshilik ko'rsatmaslik va h.k.)dan iborat bo'lishi mumkin.

Ushbu qilmish moddiy tarkibli jinoyat bo'lib, badanga og'ir shikast yetkazilgan, odam o'lishi tarzidagi oqibat kelib chiqqan paytdan e'tiboran tugallangan deb e'tirof etiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Jinoyatning sodir etilish motivi va ko'zlangan maqsadi qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Aybdor haydovchining alkogol ta'siri ostida mast holda ekanligini yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida ekanligini bilishi jinoyatni tahlil qilinaotgan modda bo'yicha kvalifikatsiya qilishning zaruriy belgisi hisoblanadi. Alkogol ta'siri ostida mast holda yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki shaxsning aql idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida bo'lgan shaxsni temiryo'l, dengiz, daryo, havo, avtomobil transporti yoki boshqa transport vositalaridan foydalanish uchun javobgar shaxslarning yo'l qo'yishi Jinoyat kodeksining 261-modda bilan javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

Jinoyat kodeksining 261-modda nazarda tutilgan jinoyatning subyeksi mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, davlat yoki jamoat tashkilotlarida ishlovchi, transport vositalaridan foydalanish va ularning texnik holati uchun javobgar shaxslar hamda shaxsiy transport vositasiga ega bo'lganlar hisoblanadi¹.

Jinoyatning subyeksi transport vositalaridan foydalanish uchun mas'ul shaxs bo'lishi mumkin. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning xizmat mavqeyiga ko'ra, shunday vazifa yuklangan mansabdor shaxslari, masalan, avtokolonnalarning bosh mexaniklari, mexaniklari, texnik jihatdan soz transport vositalarining yo'lga chiqarilishiga javob beruvchi navbatchi mexaniklar, foydalanish bo'limi boshlig'i, foydalanish bo'yicha muhandis, navbatchi dispatcher va h.k.) ham shular jumlasidandir.

*D. Transportni ta'mirlash yoki uni foydalanishga
chiqarish qoidalarini buzish
(Jinoyat kodeksining 262-moddasi)*

Jinoyatning obyeksi jamoat xavfsizligi, odamlarning hayoti va sog'lig'i, o'zgaralar mulki hisoblanadi. Obyektiv tomondan jinoyat:

1) ta'mirlash ishlarini bajarayotgan yoki transport vositasining texnik holati va undan foydalanishi uchun mas'ul bo'lgan shaxsning temiryo'l, dengiz, daryo, havo, avtomobil yoki boshqa transport vositasini, aloqa yo'llari, signalizatsiya, aloqa vositalari yoki boshqa transport uskunalarini sifatsiz ta'mirlashida;

2) transport vositasining texnik jihatdan buzuqligini bila turib, uni yo'lga chiqarilishi natijasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishida ifodalanadi.

Sifatsiz ta'mirlash deganda, ko'rsatib o'tilgan transport vositalari va ulardan foydalanish texnik tizimi qismlarining xavfsiz ishlashiga kafolat bermaydigan darajada ta'mirlanishini tushunish zarur.

Transport vositalarining texnik jihatdan buzuqligini bila turib, ularni foydalanishga chiqarish deganda, muayyan nosozliklari bo'lgan transport vositalaridan foydalanishga ruxsat berilishi tushuniladi. Harakat xavfsizligiga va transport vositalaridan foydalanish xavfsizligiga xavf tug'diruvchi transport vositalari texnik jihatdan buzuq, deb e'tirof etiladi.

Badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi tarzidagi oqibatlarining kelib chiqishi ushbu jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi. Qilmishda yuqoridagi belgilar bo'lmagan hollarda aybdor intizomiy yoxud ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Sifatsiz ta'mirlanganligi yoki texnik jihatdan buzuqligi oldindan ma'lum bo'lgan transport vositasining foydalanishga chiqarilishi tufayli ro'y bergan badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi tarzidagi oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishning mavjudligi jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi. Subyektiv tomondan temiryo'l, dengiz, daryo, havo, avtomobil yoki boshqa transport vositasi, aloqa yo'llari, signalizatsiya, aloqa vositalari yoki boshqa transport uskunalarining sifatsiz ta'mirlanishi qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etiladi.

Texnik jihatdan buzqligini bila turib, transport vositasini foydalanishga chiqarish to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Oliy sud plenumi qarorida: «Sudlar quyidagilarni e'tiborga olishlari lozimki, 262-moddada nazarda tutilgan javobgarlik faqatgina temiryo'l, dengiz, daryo, havo, avtomobil va boshqa transport vositalarini, xabar qilish yo'llari, signalizatsiya vositalari, aloqalari va boshqa transport qurilmalarini sifatsiz ta'mirlash holatlarida, shuningdek texnik jihatdan nosoz transport vositalarini foydalanishga chiqargan shaxslar Jinoyat kodeksining 260 va 266-moddalari kelib chiqqan hollarda vujudga keladi.

Bunda texnik vositalar xabar qilish yo'llari, signalizatsiya, aloqa vositalari yoki boshqa transport qurilmalari uchun javobgar aynan texnik nosozlikdan xabardor bo'lishi kerak¹, deb ko'rsatilgan.

Jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan, ta'mirlash ishlarini bajaruvchi yoxud transport vositalarining texnik holati va ulardan foydalanishi uchun javobgar shaxslargina bo'lishi mumkin.

Tahlil etilayotgan moddaning 2-qismida odam o'lishiga sabab bo'lgan ta'mirlash yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarining buzilishi uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Ta'mirlash yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarining buzilishi:

- 1) odamlar o'limiga;
- 2) halokatga;
- 3) boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, Jinoyat kodeksining 262-moddasi, 3-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

1. Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatining og'ir oqibatlariga nimalar kiradi?
2. Jinoyat kodeksining 261-moddasida ko'rsatilgan jinoyatning subyekti kimlar bo'lishi mumkin?
3. Transportni ta'mirlash yoki uni foydalanishga chiqarish qoidalarini buzish nimalarda ifodalanadi? Ushbu jinoyatning subyekti maxsus subyekt hisoblanadimi?
4. Transport vositasi yoki aloqa yo'llarini yaroqsiz holga keltirish va uning subyektiv xususiyatlari qanday?
5. Temiryo'lning harakatlanadigan tarkibi, havo, dengiz yoki daryo kemasini olib qochish yoki egallab olish deganda nima tushuniladi? Ushbu jinoyatning og'ir oqibatlarini ko'rsating.
6. Qanday qilmishlar xalqaro uchish qoidalarini buzishning obyektiv tomonini tashkil qiladi?
7. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish qanday hollarda jinoiy javobgarlik qilmishini tashkil qiladi? Harakat xavfsizligi qoidalarini buzish nimalarda ifodalanadi?
8. Transport vositasini olib qochish jinoyatini sodir etganlik uchun kimlar jinoiy javobgarlikka tortilmaydilar?
9. Jinoyat kodeksining 268-moddasida ko'rsatilgan jinoyatga kimlar subyekt bo'la oladilar?
10. Avtomobil yo'llaridan foydalanish va ularni qo'riqlash qoidalarini buzish nimalardan iborat? Ushbu jinoyatda javobgarlikning shartlari.

6.4. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar tushunchasi va turlari

Jinoyat kodeksining ushbu bobiga kiritilgan jinoyatlar giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar bilan muomala qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qilishga qaratilgan. Bu normalar giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishning oldini olish, fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilish va davlat xavfsizligini ta'minlash maqsadini ko'zlaydi. Shuni qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustda «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinib, u muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Agar bu munosabatlarning buzilishlari jinoyat-huquqiy buzilish, deb topilsa, aybdor shaxs Jinoyat kodeksining tegishli normalariga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar Jinoyat kodeksining XIX bobiga kiritilgan jinoyatlarning predmeti bo'lib, ular haqidagi tushunchalar «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasida berilgan.

Giyohvandlik vositalari – giyohvandlik vositalari ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy bo'lgan moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan preparatlar va o'simliklar.

Psixotrop moddalar – psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar.

Prekursorlar – prekursorlar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tayyorlash uchun foydalaniladigan moddalar hisoblanadi¹.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar quyidagi jinoyatlardan iborat:

- Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish (Jinoyat kodeksining 270-moddasi).
- Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash (Jinoyat kodeksining 271-moddasi).
- Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish (Jinoyat kodeksining 273-moddasi).
- Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb qilish (Jinoyat kodeksining 274-moddasi).
- Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 275-moddasi).
- Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar (Jinoyat kodeksining 276-moddasi).

*A. Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish
(Jinoyat kodeksining 270-moddasi)*

Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish, ya'ni ko'knor yoki moyli ko'knor, kannabis o'simligi (nasha) yoxud tarkibida giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bo'lgan ekinlarni qonunga xilof ravishda ekish yoki o'stirishdan iboratdir. «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni yetishtirish davlat monopoliyasi hisoblanadi (6-modda) va ularni yetishtirish uchun ruxsat maxsus vakolatli organ tomonidan belgilangan tartibda, davlat korxonalariga ilmiy maqsadlarda foydalanish uchun mazkur faoliyat turi bilan shug'ullanishga ruxsat berilgan litsenziyasi bo'lgan taqdirda beriladi (21-modda).

Jinoyatning obyekti giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar bilan muomala qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlar, shuningdek, aholining sog'lig'i va xavfsizligidir. Jinoyatning predmetiga ko'knor, moyli ko'knor, kannabis (nasha) va tarkibida giyohvandlik moddalari yoki psixotrop moddalar bo'lgan boshqa o'simliklar kiradi.

Kannabis – bu nashaning navlaridan biri bo'lgan o'simlikdir (Hindiston, Janubiy Chu vodiysi, Krasnodar o'lkasi nashalari va nashaning boshqa turlari mavjud).

Tarkibida giyohvandlik moddasi yoki psixotrop moddalar bo'lgan o'simliklar jumlasiga kokain butasi, koki barglari va tarkibida giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bo'lgan boshqa ekinlar kiradi.

Mazkur jinoyat obyektiv tomondan taqiqlangan ekinlarni, ya'ni tarkibida giyohvandlik moddalari bo'lgan o'simliklarni ekish yoki yetishtirishdan iboratdir. Tarkibida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bo'lgan ekinlarni ekish deganda, o'stirilishi taqiqlangan, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarning urug'larini yoki ko'chatlarini har qanday yer uchastkasidagi tuproqqa qadash tushuniladi. Bu harakatlar unib chiqqan o'simliklarning pishib yetilgan yoki yetilmaganligidan qat'iy nazar, tamom bo'lgan jinoyat, deb topiladi.

Ekinlarni yetishtirish deganda, o'stirilishi taqiqlangan o'simliklarni pishib yetilish bosqichigacha olib borish maqsadida ekinzor va ko'chatlarni parvarishlash (sug'orish, chopiq qilish, o'g'itlash va h.k.) tushuniladi. Bu qilmish ko'chatlar yetilgan yoki yetilmaganidan qat'iy nazar, tamom bo'lgan jinoyat tarkibini hosil qiladi.

Javobgarlik to'g'risidagi masala muayyan oqibatlar yuzaga kelishi bilan bog'liq emasligi va qilmishning ko'rsatib o'tilgan harakatlar bajarilgan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan, deb topilishi tufayli bu jinoyat formal tarkibli jinoyatlar jumlasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1995-yil 27-oktabrdagi «Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi 21-qarorida: «Aybdorning harakatlari ekin maydoni o'lchamidan kelib chiqqan holda Jinoyat kodeksining 270-moddasi tegishli qismlari bilan kvalifikatsiya qilinadi, bunda ushbu moddaning 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilish uchun ekin maydonining o'lchami 250 m².gacha bo'lishi ko'zda tutiladi.

Shaxs yetishtirilishi taqiqlangan o'simliklarni turli maydonlarda o'stirayotgan bo'lsa, uning qilmishini kvalifikatsiya qilishda jami ekin maydonidan kelib chiqmog'i lozim. Agar yetishtirilishi taqiqlangan o'simliklarni ekish va yetishtirish kelgusi narkotik moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash, saqlash, tashish, jo'natish, shuningdek, o'tkazish yoki sotish bilan bog'liq bo'lsa, bunday harakatlar Jinoyat kodeksining 270-moddasi va tegishli moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar majmuyi bilan kvalifikatsiya qilinmog'i darkor»¹, deb tushuntirish berilgan.

O'rganilayotgan jinoyat subyektiv tomonidan aybning to'g'ri qasd shakli bilan ifodalanadi. Aybdor tarkibida giyohvandlik vositasi yoki psixotrop moddasi bo'lgan ekinlar yoki o'simliklarni qonunga xilof ravishda o'stirayotganini biladi va mazkur harakatlarni sodir etishni xohlaydi. Jinoyatni sodir etishning maqsadi aybdorning harakatlarini kvalifikatsiyalash uchun ahamiyatga ega emas. Jinoyatning motivi ham har xil bo'lishi mumkin, biroq u ham qilmishning kvalifikatsiyasi va jinoiy jazo tayinlashga ta'sir ko'rsatmaydi.

Ushbu jinoyatning subyekti jinoyat sodir etilgunga qadar 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso shaxslar bo'lishlari mumkin.

Jinoyat kodeksining 270-moddasi, 2-qismida ushbu jinoyatni aybni og'irlashtiruvchi holatlarda:

a) ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til birlashtirib;

d) oʻrtacha kattalikdagi ekin maydonida tarkibida giyovandlik moddalari boʻlgan oʻsimlikni yetishtirganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Yetishtirish taqiqlangan ekinlarni oʻstirish bilan shugʻullanuvchi shaxs ilgari ham Jinoyat kodeksining 270–276-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlardan birini sodir etgan boʻlsa yoxud voyaga yetmagan shaxsni giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar isteʼmol etishga jalb qilgan boʻlsa, yaʼni qilmishda Jinoyat kodeksining 127-moddasi 2 va 3- qismlarida nazarda tutilgan jinoyat mavjud boʻlsa, bunday qilmishni Jinoyat kodeksining 270-moddasi, 2-qismi, «a» bandi boʻyicha kvalifikatsiya qilish kerak. Qilmishni kvalifikatsiya qilishda oldingi shunday jinoyati uchun sudlangan yoki sudlanmaganligining ahamiyati yoʻq, ammo sudlanganlik bekor boʻlmagan yoki qonunda belgilangan tartibda olib tashlanmagan boʻlishi shart. Bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til birlashtirib taqiqlangan ekinlarni yetishtirish, ikki yoki undan ortiq shaxslarning tarkibida giyohvandlik vositalari boʻlgan ekinlar yoki psixotrop moddalari boʻlgan oʻsimliklarni qonunga xilof ravishda yetishtirishda birgalikda qasddan ishtirok etishni bildiradi, bunda jinoyatni sodir etishda avval til birlashtirilgan boʻlishi lozim.

Bu vositalarni oʻrtacha kattalikdagi ekin maydoniga yetishtirish deganda, Jinoyat kodeksining sakkizinchi boʻlimida berilgan taʼrifga muvofiq, 250 m².dan 1000 m².gacha boʻlgan maydonda yetishtirish tushuniladi.

Jinoyat kodeksining 270-moddasi, 3-qismida:

a) oʻta xavfli retsivist tomonidan;

b) uyushgan guruh yoki uning manfaatlarini koʻzlab;

d) katta ekin maydonida taqiqlangan ekinlarni yetishtirganlik uchun javobgarlik belgilangan. Tahlil etilayotgan jinoyat, tarkibida giyohvandlik vositalari mavjud boʻlgan oʻsimliklarni yetishtiruvchi aybdor buni sodir etguniga qadar Jinoyat kodeksining 34-moddasida belgilangan tartibda sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan oʻta xavfli retsivist deb topilgan boʻlsagina, qilmish oʻta xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan deb hisoblanadi.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning tarkibida giyohvandlik vositalari boʻlgan oʻsimliklarni birgalikda yetishtirish uchun oldindan birlashishi Jinoyat kodeksining 29-moddasiga muvofiq, uyushgan guruh tomonidan tarkibida taqiqlangan ekinlarni yetishtirish, deb topiladi. «Jinoiy guruhni uyushgan, deb kvalifikatsiya qilish uchun asosiy mezon tariqasida, masalan, guruhning barqarorligini, unda tashkilotchining boʻlishini, odatda, bir necha jinoyatni sodir etish maqsadida tuzilganligini, jinoyatni amalga oshirish rejasi va yoʻl-yoʻrigʻi ishlanganligini, har bir ishtirokchi oʻrtasida vazifalar taqsimlanganligini, texnika bilan taʼminlanganligini, jinoyatni yashirish choralari koʻrilganligini, umumiy intizomga va jinoiy guruh tashkilotchisining koʻrsatmalariga itoat qilinishini va shu kabilarni hisobga olish lozim»¹.

Jinoyat kodeksining sakkizinchi boʻlimida berilgan taʼrifga muvofiq, tarkibida giyohvandlik vositalari boʻlgan ekinlarni katta maydonda yetishtirish deganda, 1000 m² va undan ortiq boʻlgan ekin maydoni tushuniladi.

*B. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni
isteʼmol qilishga jalb etish
(Jinoyat kodeksining 274-moddasi)*

Bu jinoiy qilmish giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki odamning aql-idroki, irodasiga taʼsir etuvchi boshqa moddalarni har qanday shaklda isteʼmol qilishga jalb etishda ifodalanadi.

Odamlarning aql-idroki, irodasiga taʼsir etuvchi giyohvandlik vositalari, psixotrop va boshqa moddalarni isteʼmol qilishga jalb etishning ijtimoiy xavfliligi nihoyatda yuqoridir. Chunki bu qilmish giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni tarqatish usullaridan biri hisoblanadi, buning natijasida ularni notibbiy ravishda isteʼmol qiluvchi shaxslar doirasi kengayadi, odamlarning irodasi susayadi, giyohvandlik vositalari bilan gʻayriqonuniy muomala qilish bilan bogʻliq boʻlgan qilmishlar koʻpayadi.

Jinoyatning obyektini jamoat xavfsizligi, aholi sogʻligʻi sohasidagi ijtimoiy munosabatlar, giyohvandlik vositalari, psixotrop va odamlarning aql-idroki irodasini susaytiruvchi boshqa moddalar bilan muomala qilishning belgilangan tartibini taʼminlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

Ushbu jinoyatning predmeti yo'q, chunki jinoyat obyekti bo'lgan ijtimoiy munosabatlarga giyohvandlik vositalari, psixotrop va odamning aql-idroki, irodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalar kirmaydi. Giyohvandlik vositalari va qonunda belgilab qo'yilgan boshqa moddalar, shaxsning ulardan foydalanib, muayyan natijaga erishishi, ya'ni boshqalarni ularni iste'mol qilishga jalb etishi va shu asnoda ularni o'ziga tobe qilib qo'yishida vosita vazifasini o'taydi.

Obyektiv tomondan jinoyat, jinoiy natija, ya'ni boshqa shaxsning giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-idrok, irodaga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga jalb etishga qaratilgan faol harakatida ifodalanadi.

Harakat subyektning boshqa shaxsda yuqorida bayon etilgan vositalar yoki moddalarni iste'mol qilish xohishini uyg'otishga qaratilgan faol va tashabbusli xulq-atvoridan iboratdir. Qilmish aybdorning boshqa shaxsni giyohvandlik vositalari yoki boshqa moddalarni iste'mol qilishga dalolat qilishi yo ularni birgalikda iste'mol qilishga dalolat qilishdan iborat bo'ladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-idrok irodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga jalb etish so'zlar va ishoralar yordamida yoki jismoniy ta'sir ko'rsatish bilan amalga oshirilishi mumkin. Jalb etish, ishontirish va majburlash orqali amalga oshiriladi. Jalb etishning ko'rinishi bo'lgan ishontirish va majburlash turli usullar, yo'llar, harakatlar yig'indisidan iborat bo'lib, jinoyatning subyekti ulardan foydalanib, o'z niyati, ya'ni boshqa shaxsni giyohvandlik vositalari, psixotrop va aql, irodani susaytiruvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga jalb etishga erishadi.

Ishontirish shaklidagi jalb etishda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni tatib ko'rishni taklif, iltimos qilish, maslahat berish, gijgijlash, piching qilish, tilyog'lamalik bilan maqtash, mukofot va'da qilish va h.k.larni qo'llab boshqa shaxsga ruhiy ta'sir o'tkazib, unda giyohvandlik vositalari va boshqa moddalarni iste'mol qilish istagini shakllantirishdan iboratdir.

Masalan, V. ismli giyohvandlik vositalari bilan savdo qiluvchi shaxs tomiriga morfindan ukol qilish bilan o'zining 12 yashar qizini giyohvandlikka o'rgatadi, keyinchalik qizining kasallik holatidan foydalanib, uni fohishalikka va o'zining giyohvandlik vositalarini sotuvchi sherigiga aylantiradi.

Majburlash esa jabrlanuvchini qo'rqitish, shantaj qilish, aldash, erkinligini cheklash, urish, kaltaklash, qiynash, azoblash, badanga turli darajadagi shikast yetkazish va boshqa jismoniy va ruhiy zo'rlik vositalarini qo'llab giyohvandlik vositalarini yoki qonunda ko'rsatilgan moddalarni iste'mol qilishga majbur etishdan iboratdir.

Jinoiy yo'l bilan jalb etishning amalda qancha vaqt davom etishi turli omillarga: aybdor tomonidan qo'llangan jalb etishning shakli va usullari, qanday sharoitda kechganligi; jinoiy qilmishning subyekti va jabrlanuvchining o'zaro munosabatlari; jabrlanuvchining giyohvandlik vositalari, psixotrop va boshqa moddalarni iste'mol qilishga qay darajada moyilligiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli jalb etish darrov amalga oshiriladigan hodisa yoki nisbatan uzoq davom etadigan jarayon bo'lishi ham mumkin. Biroq qilmishga huquqiy baho berishda boshqa shaxsni bevosita giyohvandlik vositalari, psixotrop va boshqa moddalarni iste'mol qilishga ishontirish yoki majburlashga qaratilgan harakatlarning mavjud bo'lganligi shaxsning qilmishini jalb qilishga suiqasd, deb kvalifikatsiya qilish uchun asos bo'ladi.

Boshqa shaxsni giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki boshqa moddalarni iste'mol qilishga jalb etish maqsadida, ularga shu moddalar iste'mol qildirilgan bo'lsa, bu jalb etish, deb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 1995-yil 27-oktabrdagi 21-qarorida: «Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etish deganda, shaxsda ularni iste'mol qilish maylini uyg'otishga qaratilgan har qanday qasddan qilingan harakatlar (unatish, taklif qilish, maslahat berish va sh.o'.), shuningdek, ta'sir o'tkazilayotgan shaxsni, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qildirish maqsadida aldash, ruhiy yoki jismoniy zo'rlik ishlatish ozodligini cheklash va h.k.lar tushunilishi lozim»¹. Shaxsning yuqorida aytilgan moddalarni iste'mol qilishi jalb etishning jinoiy natijasi, deb hisoblanishi kerak. Subyektning boshqa shaxsga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan ro'y bergan oqibat o'rtasida sababiy bog'lanishning mavjudligi jabrlanuvchida ruhiy-jismoniy, ijtimoiy-ruhiy yoki jinoiy oqibatlarining vujudga kelish imkonini yaratadi. Shaxs giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki o'zining aql-idroki, irodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilgan paytdan e'tiboran jinoyat tamom bo'lgan, deb topiladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idroki, irodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalar jinoyatni sodir etish vositasi hisoblanadi. 29 yoshli, avval o'g'irlik qilgani uchun sudlangan L. kechqurun soat

22.00 larda «Chilonzor» kinoteatri oldida 16 yoshli o'smirlarni vino va nasha bilan mehmon qiladi. B.ni onasi chaqirib olib ketgach, L. va M. bolalar uyining derazasini sindirib, u yerdan narsalarni o'g'irlyadi.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan muomala qilishning alohida huquqiy tartibi belgilangan. Bunday tartib uchta mezon: tibbiy, ijtimoiy va normativ mezonlarning yig'indisi qo'llaniladigan vositalar va moddalarga nisbatan amal qiladi.

Tibbiy mezon nuqtayi nazaridan giyohvandlik vositalari jumlasiga markaziy asab tizimiga gangituvchi, qo'zg'atuvchi yoki gallutsinatsiya uyg'otuvchi ta'sir ko'rsatadigan o'simliklar yoki sintetik vositalar kiradi. Bu vositalarni notibbiy maqsadlarda iste'mol qilish, ularga ruhiy yoki jismoniy bog'liqlikni vujudga keltirib chiqaradi.

Vositani giyohvandlik vositasi, deb e'tirof etish uchun ijtimoiy mezonni ham hisobga olish muhimdir. Bu notibbiy maqsadlarda iste'mol qilishning ko'payib borayotganligi va bu sog'liq uchun xavfli ekanligi bois bu turdagi moddalar bilan muomala qilishning alohida huquqiy tartibini belgilab qo'yish zaruratini keltirib chiqaradi. Tibbiy va ijtimoiy mezonlar jamuljam holda vositani giyohvandlik vositalari jumlasiga kiritish va buni ijtimoiy normativ hujjatda mustahkamlab qo'yish uchun asos bo'ladi va o'z navbatida bu normativ mezonni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi Qonunida giyohvandlik vositalari va boshqa ruhiy ta'sir ko'rsatuvchi moddalarga quyidagicha:

- *giyohvandlik vositalari* – giyohvandlik vositalari ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan preparatlar va o'simliklar;

- *psixotrop moddalar* – psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritilgan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy bo'lgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan moddalar;

- *giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari* – kimyoviy tuzilishi va xossalari ko'ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga o'xshash, ular singari ruhiy faol ta'sir etuvchi, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy bo'lgan moddalar;

- *preparat* – moddalarning har qanday fizik holatdagi, tarkibida bitta yoki bir nechta giyohvandlik vositalari yoxud psixotrop moddalar bo'lgan aralashmasi, deb ta'rif berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat komissiyasining 1995-yil 1-aprelda qabul qilingan qaroriga muvofiq, Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan «Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1961, 1971, 1988-yillardagi Konvensiyalaridagi tavsiyalarga muvofiq, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning tasnifi (ro'yxati)» ma'qullangan. Moddalar o'zining xalqaro ro'yxatga olinmagan nomlari bilan yoki amaldagi xalqaro Konvensiyalarda qo'llanilgan nomlari bilan; ularning izomerlari, agar shu moddalarning kimyoviy formulalari doirasida shunday izomerlar mavjud bo'lishi ehtimoli bo'lgan barcha hollarda; shu moddalarning murakkab va oddiy efirlari, ularning mavjud bo'lishi ehtimoli bo'lgan barcha hollarda; shu moddalarning tuzlari, shu jumladan, murakkab efirlar, oddiy efirlar va izomerlarning tuzlari, shunday mavjud bo'lishi ehtimoli bo'lgan barcha hollarda; shu moddalarning preparatlari (qonunda nazarda tutilgan istisnolardan tashqari) ana shu ro'yxatga kiritilgan.

Ushbu ro'yxat to'rtta jadvaldan iborat bo'lib, giyohvandlik vositalarining ro'yxati I va II jadvallardan joy olgan.

I jadvalga o'ta xavfli xususiyatga ega bo'lgan va tibbiy maqsadlarda foydalanilmaydigan o'simliklar va moddalar kiritilgan. Bu guruhdagi moddalar juda xavfliligi, ularga mutelikni vujudga keltirishi bilan ajralib turadi.

II jadvalga giyohvandlik moddalari to'g'risidagi 1961-yilgi Konvensiyadagi tavsiyalarga muvofiq I va II ro'yxatlar kiritilgan bo'lib, ular o'ta xavfli va tibbiy maqsadlarda foydalaniladigan o'simliklar va moddalarni o'z ichiga olgan bo'lib, II jadvalning I ro'yxati 77 ta nomdagi moddalardan iboratdir.

1971-yilda qabul qilingan «Psixotrop moddalar to'g'risida»gi Konvensiyada psixotrop moddalar ro'yxatiga patologik ko'nikma hosil qiluvchi, bosinqirash paydo qilib yoki harakatlanish, fikrlash, yurish-turish, idrok etishning buzilishiga sabab bo'ladigan, odamning markaziy asab tizimiga qo'zg'atuvchi yoki susaytiruvchi ta'sir ko'rsatadigan moddalargina (agar bunday ta'sir ko'rsatish aholi sog'lig'i uchun xavf

tugʻdirsa va ijtimoiy muomalaga aylanadigan boʻlsa) kiritilishi mumkinligi belgilab qoʻyilgan. Psixotrop moddalar, giyohvandlik vositalari singari, uchta (tibbiy, ijtimoiy va normativ) mezon yigʻindisiga koʻra tavsiflanishi bois, ularga nisbatan ham muomala qilishning alohida huquqiy tartibi belgilangan.

Psixotrop moddalar roʻyxati giyohvandlik vositalarini nazorat qilish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Davlat komissiyasining qaroriga 2-ilovadan joy olgan. Bu roʻyxat 1971-yilgi Psixotrop moddalar toʻgʻrisidagi Konvensiya tavsiyalariga muvofiq tuzilgan I, II, III, IV roʻyxatlarni oʻz ichiga oluvchi I, II, III jadvallarda keltirilgan.

III jadvaldan III va IV roʻyxatlar joy olgan. III roʻyxat amobarbital, buprenorfin (morfin), butalbital, katin, siklobarbital, glutetimid, pentazotsin va pentabarbitalni oʻz ichiga olgan. IV roʻyxat 24 ta nomdagi moddani, shu jumladan, barbital, benamfetamin, bromazepam, fenkamfamin, galazepam, nimitazepam, pemolin, fenobarbital va boshqalarni oʻz ichiga oladi. Shu jadvalga yana muayyan xavf tugʻdiruvchi va tibbiy maqsadlarda qoʻllaniladigan oʻsimliklar va moddalarning nomlari kiritilgan. Bular trankvilizatorlar (asabni tinchlantiruvchi), antidepressantlar, tez taʼsir koʻrsatuvchi boshqa dori moddalaridir. Bu moddalar sogʻliq uchun oʻrtacha xavfli boʻlib, isteʼmol qilinganida ularga bogʻliqlik vujudga kelishi mumkin.

Aql-idrokka, irodaga taʼsir etuvchi boshqa moddalar jumlasiga gangituvchi va mutelikni yuzaga keltiruvchi, turmushda, ishlab chiqarishda va aholiga tibbiy yordam koʻrsatishda keng qoʻllaniladigan, shu sababli ularning aksariyati bilan muomala qilishning alohida tartibini belgilab qoʻyishning imkoniyati boʻlmagan bir qator preparatlar kiradi. Vositalar va moddalarning bu guruhi uchun normativ belgining yoʻqligi bois tergov-sud amaliyotida ekspertiza oʻtkazish usuliga amal qilinishi lozim: agar ekspertiza xulosasiga muvofiq isteʼmol qilinganida gangituvchi va boshqa salbiy taʼsir koʻrsatuvchi dori preparatlari yoki boshqa moddalar xalqaro konvensiyalar va davlatning ichki qonunlarida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar jumlasiga kiritilmagan boʻlsa, ular aql-idrokka, irodaga taʼsir etuvchi boshqa moddalar, deb qaralmogʻi lozim.

Subyektiv tomondan jinoyat aybning qasd shakli bilan sodir etiladi. Jinoyatning subyekti 16 yoshga toʻlgan, aqli raso shaxslar boʻlishlari mumkin.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-idrokka, irodaga taʼsir etuvchi boshqa moddalarni isteʼmol qilishga voyaga yetgan shaxsning voyaga yetmagan shaxsni jalb etishi Jinoyat kodeksining 127-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Oʻn olti yoshga toʻlgan voyaga yetmagan shaxsning boshqa bir voyaga yetmaganni giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-idrokka, irodaga taʼsir etuvchi boshqa moddalarni isteʼmol qilishga jalb etganligi Jinoyat kodeksining 274-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni isteʼmol qilishga jalb etishni yuqorida aytilgan moddalarni qonunga xilof ravishda oʻtkazishdan farqlash lozim, yaʼni keyingi qilmish uchun Jinoyat kodeksining 273-moddasida javobgarlik belgilangan. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni tarqatish yoʻli bilan oʻtkazish, yaʼni boshqa shaxslar egaligiga va tasarrufiga berish, koʻrsatilgan vositalar yoki moddalarni har qanday usulda haq evaziga yoki tekinga oʻtkazishdan iboratdir. Giyohvandlik vositasi yoki psixotrop moddani sotish, hadya etish, qarzga toʻlash, qarz evaziga berish, ayirboshlash va boshqa usullarda ifodalangan boshqa shaxsga oʻtkazish oʻz mazmuniga koʻra jalb etuvchi mazkur qilmishga boshqa shaxsni jalb etishda qoʻllaydigan usullarga aynan oʻxshash emas, chunki bu holda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni isteʼmol qilishga jalb etish maqsadida jabrlanuvchiga ruhiy taʼsir koʻrsatiladi. Oʻtkazishda esa, bu xususiyat mavjud boʻlmaydi. Demak, agar oʻtkazish jabrlanuvchini unga oʻtkaziladigan giyohvandlik vositasini isteʼmol qilishga undash maqsadida ruhiy taʼsir koʻrsatish bilan birga sodir etilgan boʻlmasa, u faqat Jinoyat kodeksining 273-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibini hosil qiladi.

Jalb etuvchi tomonidan koʻrsatilgan dastlabki tashabbus jalb etishning zaruriy belgisi hisoblanadi. Oʻtkazish esa hamisha, giyohvandlik vositasi yoki psixotrop moddani realizatsiya qilish chogʻida, bu kimning tashabbusi bilan sodir boʻlishidan qatʼiy nazar, sodir boʻladi. Agar giyohvandlik vositasi yoki psixotrop modda uni olishni xohlovchi shaxsning iltimosi, tashabbusi bilan oʻtkazilsa, unda shu moddalarni isteʼmol qilishga jalb etish jinoyati hisoblanmaydi va jinoyat tarkibi mavjud emas, oʻtkazuvchining qilmishi Jinoyat kodeksining 273-moddasi bilan, qoʻlga kirituvchiniki esa, maqsadiga qarab, Jinoyat kodeksining 273-moddasi yoki 276-moddasi boʻyicha kvalifikatsiya qilinishi kerak boʻladi.

Giyohvandlik vositasi yoki psixotrop modda haq evaziga o'tkazilgan hollarda jalb etish va o'tkazish jinoyatlarining jami mavjud bo'lmaydi. Bunday o'tkazish giyohvandlik vositasi yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etish bilan uzviy bog'liq bo'lmaydi. Bunga sabab shuki, birinchi qilmish g'arazli niyatda sodir etilgan bo'lsa, ikkinchisida esa boyluk orttirish maqsadi ko'zlanadi.

Jinoyatning motiv va maqsadi o'tkazuvchining giyohvandlik vositasi yoki psixotrop moddani realizatsiya qilish va bundan moddiy naf olishni xohlashidan, ammo boshqa shaxsni ularni iste'mol qilishga jalb etilishini istamasligidan iborat bo'lgan aybning mazmunini belgilaydi. Biroq, agar qiziqtirish haq evaziga o'tkazish bilan birgalikda yuz bersa, unda aybdor jinoyatlar jami bilan javobgar bo'ladi. Giyohvandlik vositalarini boshqa shaxsga tekinga berish vaqtida uni bu vositalarni iste'mol qilishga ko'ndirish yoki majburlash bir paytga amalga oshirilganida ham qilmish jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilgan va ilgari Jinoyat kodeksining «Maxsus» qismi XIX bobidagi yoki 127-moddada nazarda tutilgan jinoyatlardan birini sodir etgan shaxs jinoyatning subyekti bo'lganida, uning qilmishlarni jinoyat sodir etganligi uchun avval hukm qilingani yoki hukm qilinmaganidan qat'iy nazar, Jinoyat kodeksining 274-moddasi, 2-qismi, «a» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilish kerak. Agar giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-idrokka, irodaga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga jalb etish ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tash joylarida amalga oshirilgan bo'lsa, qilmishni Jinoyat kodeksining 274-moddasi, 2-qismi, «b» bandi bilan kvalifikatsiya qilish lozim bo'ladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-idrokka ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga ikki yoki bundan ortiq shaxslarni jalb etish, bu bir vaqtda yoki birin-ketin sodir etilganidan qat'iy nazar, Jinoyat kodeksining 274-moddasi, 2-qismi, «v» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

1. Taqiqlangan o'simliklarni qonunga xilof ravishda ekish va yetishtirish deganda nima tushuniladi? Bunday o'simliklarga nimalar kiradi? Jinoyat kodeksining 270-moddasida ko'rsatilgan o'rta va katta maydon deganda nima tushuniladi?
2. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash qanday yo'llar bilan amalga oshiriladi? Ushbu jinoyatning og'ir oqibatlarini ko'rsating.
3. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash deganda nima tushuniladi? Ushbu tushuncha qaysi qilmishlar turini tashkil qiladi? Jinoyat kodeksining 273-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortishning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish deganda nima tushuniladi?
5. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etish deganda nima tushuniladi? Ushbu moddalarni iste'mol qilishga moyillik nimalarda namoyon bo'ladi? Buni amalga oshirishning qanday turlari bor?
6. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarga nimalar kiradi? Shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi moddalarga nimalar kiradi?
7. Jinoyat kodeksining 274-moddasida ko'rsatilgan jinoiy javobgarlikning majburiy shartlarini ko'rsating.
8. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish nimalardan iborat?
9. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar nimalardan iborat?

6.5. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar «Bezorilik» (Jinoyat kodeksining 277-moddasi) va «Qonunga xilof ravishda qimorxonalar tashkil etish va ularni saqlash» (Jinoyat kodeksining 278-moddasi) jinoyatlaridan iborat bo‘lib, quyida har birini alohida tahlil qilamiz.

A. Bezorilik
(Jinoyat kodeksining 277-moddasi)

Jinoyatning obyekti jamoat tartibi, fuqarolarning jismoniy daxlsizligi, sog‘lig‘i, o‘zganing mulki hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2002-yil 14-iyundagi «Bezorilikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida»gi qarori 1-bandida: «Tushuntirilsinki, bezorilik jamoat tartibiga qarshi qaratilgan bo‘lib, jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslikda ifodalangan harakatlar shaxsni urish-do‘pposlash, unga yengil tan jarohati yetkazish yoki o‘zganing mulkiga ancha miqdorda nobud qilish bilan bog‘liq holda sodir etiladi»¹, deb ko‘rsatilgan.

Jamoat tartibi deganda, jamiyatda odamlar o‘rtasidagi huquq va axloq me‘yorlariga asoslangan munosabatlar yig‘indisi bo‘lib, u orqali fuqarolarning xavfsizligi va tinchligi, o‘zgalar mol-mulkingin saqlanishi, davlat, jamoat va boshqa korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlar normal faoliyatining ta‘minlanishi tushuniladi.

Obyektiv tomondan mazkur jinoyat huquqiy normaning 1-qismida ko‘zda tutilgan bezorilik, jamoat joylaridagi xulq-atvor qoidalariga qasddan hurmatsizlik bildirish, urish-do‘pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoxud o‘zganing mulkiga jiddiy zarar yetkazish yoki uni nobud qilish bilan bog‘liq holda sodir qilinganlikda ifodalanadi.

Jamiyatdagi axloq qoidalarini mensimaslik ruxsat etilmagan joylarda alkogolli ichimliklar iste‘mol qilish, uyat so‘zlarni aytish, o‘tkinchilarga noo‘rin shilqimlik qilish, tabiiy ehtiyojlarini omma oldida qondirish, jamoat joylarida yalang‘och holda ko‘rinish, hayvonlarga shafqatsiz munosabatda bo‘lishda, yashil to‘sinlarni payhon qilish kabi harakatlarda ifodalanadi.

Obyektiv tomonining zaruriy belgisi jamiyatda o‘rnatilgan axloq qoidalarini buzish va urish-do‘pposlash yoki yengil tan jarohati yetkazish yoxud o‘zganing mol-mulkini nobud qilish, jiddiy zarar yetkazish bilan bog‘liq holda sodir etilishidir. Jamiyatda mavjud bo‘lgan axloq qoidalarini buzishning o‘zi jinoyat tarkibini tashkil etmaydi.

Jamoat joylarda uyat so‘zlarni aytish, fuqarolarga haqoratli tarzda shilqimlik qilish va boshqa shunga o‘xshash jamoat tartibi va fuqarolar tinchligini buzuvchi harakatlar, ya‘ni jamiyatdagi axloq qoidalarini qasddan mensimaslik Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 183-moddasida ko‘zda tutilgan mayda bezorilik uchun javobgarlikni vujudga keltiradi.

Mazkur moddaning 1-qismida ko‘zda tutilgan bezorilik urish-do‘pposlash yoki yengil tan jarohati yetkazish bilan bog‘liq jamiyatda o‘rnatilgan xulq-atvor qoidalarini buzish sodir bo‘lgan paytdan tugallangan hisoblanadi.

O‘zganing mol-mulkini nobud qilish yoki unga jiddiy zarar yetkazish bilan bog‘liq jamiyatda o‘rnatilgan xulq-atvor qoidalarini qasddan mensimaslik oqibatida jiddiy zarar yetkazilganida tamom bo‘lgan jinoyat hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. *Jinoyatning motivi* – bezorilik qilish istagi bo‘lib, subyektga jinoiy qilmishning, jamoat tartibini buzishning o‘zi rohat bag‘ishlaydi, u o‘zining jamoatchilikka qarshi xulq-atvoridan qoniqish hosil qiladi.

Bezorilik motivining mohiyati, jinoiy harakatining qaysi predmetga yo‘naltirilgan va qaysi ijtimoiy munosabatlar tizimiga nisbatan amalga oshirilganidan qat‘iy nazar, jamiyatni ochiq mensimaslik, hurmat qilmaslik, deb e‘tirof etiladi.

Bezorilik motivlariga o‘zini jamoatchilik fikriga qarshi qo‘yishga, ko‘z o‘ngida jamiyatda birga yashash qoidalarini, axloq va ma‘naviyat normalarini mensimasligini u yoki bu shaklda namoyish qilish, shirakayf holatda «botirlik», «erkaklik»ni, yuklatilgan mas‘uliyatiga loqaydlikni ko‘rsatish, jabrlanuvchini qo‘rqitish yoki yerga urish va boshqalar kiradi.

Jinoyat kodeksining 277-moddasi, 1-qismida nazarda tutilgan bezorilikning subyekti 16 yoshga to'lgan, ushbu moddaning va 2 va 3-qismida ko'zda tutilgan bezorilik jinoyatining subyekti esa, 14 yosh-ga to'lgan hisoblanadi.

Mazkur moddaning 2-qismida:

- a) badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazib;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan;
- d) sovuq qurol yoki kishining sog'lig'i uchun amalda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan narsalarni (qurol sifatida) namoyish qilib, ularni qo'llash bilan qo'rqitib yoxud qo'llab;
- e) o'z mazmuniga ko'ra umume'tirof etgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o'taketgan behayolik bilan;
- f) yosh bola, qariya, nogiron yoki ojiz ahvoldagi shaxslarni xo'rlab;
- g) ko'p miqdorda zarar yetkazib, bironing mulkini nobud qilib yoki unga shikast yetkazib sodir qilingan bezorilik uchun javobgarlikni ko'zda tutadi.

Bir guruh shaxslar tomonidan sodir qilingan bezorilik birga bajaruvchilik bo'lib, birga harakat qiluvchi shaxslar mazkur jinoyatning obyektiv tomonini bevosita bajaradilar, biroq birgalikda ishtirok etish avvaldan kelishib olingan bo'lmaydi. Bunday holatda odatda ishtirokchilar bezorilik harakatlarini sodir etayotgan shaxsga kelib qo'shiladilar.

Agar sovuq qurol yoki kishining sog'lig'i uchun amalda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan narsalarni (qurol sifatida) namoyish qilib, ularni qo'llash bilan qo'rqitib yoxud qo'llab jinoyat sodir qilish nafaqat aybdor ular yordamida tan jarohati yetkazgan yoki yetkazishga uringan hollarda, balki ko'rsatib o'tilgan predmetlarning qo'llanishi shaxs hayoti va sog'lig'i muqarrar xavf solishi mumkin bo'lganda ham aybdor harakatlari 277-moddaning 2-qismi, «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Yuqorida keltirilgan Oliy sud plenumi qarorida: «Qilmishni Jinoyat kodeksining 277-moddasi, 2-qismi, «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun bezorilik zamirida sovuq qurol yoki shaxsning sog'lig'iga amalda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa narsalarni namoyish qilish (ko'rsatish)ning o'zi yetarlidir. Bunda ularni qo'llashga nisbatan tahdid bo'lgan-bo'lmaganligining ahamiyati yo'q, biroq, bu holat sud tomonidan jazo tayinlash paytida hisobga olinishi kerak»ligi ta'kidlangan.

Sovuq qurolni yoki qo'llanishi sog'liqqa zarar yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa predmetlarni namoyish qilish deganda, bezorining o'z qo'lidagi mazkur predmetlarni qo'llashni po'pisa qilmasdan ko'rsatishga yo'naltirilgan har qanday harakati tushuniladi.

Sovuq qurolni yoki qo'llanishi sog'liqqa obyektiv zarar yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa predmetlarni qo'llash yoki qo'llash bilan qo'rqitish deganda, aybdor shaxsga zarar yetkazgan, yetkazishga uringan, biroq aybdorning irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra, oqibatga erishilmagan harakatlar, shuningdek, mazkur predmetlarning qo'llanishi shaxsning hayotiga yoki sog'lig'iga zarar yetkazish xavfini tug'diradigan harakatlar tushunilishi lozim.

O'ta surbetlik deganda, umume'tirof etgan, hurmat qiladigan, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor, axloq qoidalarini namoyishkorona, ya'ni oshkora mensimaslik tushuniladi. O'ta surbetlik – ma'naviyatning umume'tirof etilgan me'yorlarini, ijtimoiy uyatni, odobni namoyishkorona mensimaslik bo'lib, jamoat joyida yalang'och ko'rinishda, boshqa fuqarolar oldida jinsiy aloqaga kirishishda, bemorlar, qariyalar, zaif kishilar, ayollarni, yodgorliklarni tahqirlashda va hokazolarda ifodalanadi¹.

Xo'rlash yoki tahqirlash deganda, aybdorning jabrlanuvchi shaxsning qadr-qimmati va sha'nini kamsitishga, unga ma'naviy, axloqiy, jismoniy azob-uqubatlar yetkazishga qaratilgan har qanday harakati tushuniladi.

«Kichik yoshdagilarga o'n to'rt yoshga yetmagan shaxslar kiradi.

Keksa kishi deb, mehnat qonunlarida belgilangan pensiya yoshiga yetgan shaxsga aytiladi.

Nogiron deganda, belgilangan tartibda I, II, III guruh nogironi, deb tan olingan shaxs tushuniladi. Shu bilan birga ayb qo'yishda shaxsning nogironligi yaqqol ko'rinishi va aynan shu qusur tufayli shaxs kamsitilgan (haqoratlangan) bo'lishi shart»².

Ojizlik deyilganda, jabrlanuvchining jinoyatchiga jismoniy qarshilik ko'rsata olmasligi, o'zining shaxsiy manfaatlari va huquqlarini, qadr-qimmatini himoya eta olmasligi, kutilayotgan xavfdan qocha olmasligi yoki o'zini chetga ololmasligi tushuniladi.

Ojizlik kasallik, mastlik, giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish va boshqalar tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Ko'p miqdorda zarar yetkazish tushunchasi Jinoyat kodeksining sakkizinchi bo'limida berilgan bo'lib, bunda shaxs eng kam oylik ish haqining 100 baravaridan 300 baravarigacha miqdorda zarar yetkazilishiga olib kelgan birovning mulkini qasddan nobud qilish yoki unga shikast yetkazishda ifodalangan bezorilik harakatlari uchun Jinoyat kodeksining 277-moddasi, 2-qismi, «e» bandi bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Mulknii nobud qilish deganda, uni to'la yaroqsiz holatga keltirish tushuniladi. Mulikka shikast yetkazish deganda, uni qisman yaroqsiz holatga keltirish tushuniladi.

Agarda, bezorilik harakatlari natijasida ancha miqdordagi zarar yetkazilganda va aybdorning ko'p va juda ko'p miqdorda zarar yetkazish maqsadi bo'lgan-u, biroq o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra ana shu maqsadini amalga oshira olmaganligi isbotlansa, bu hol tahlil qilinayotgan 277-moddasi, 2-qismi, «e» bandi va 25-moddaga binoan suiqasd, deb baholanadi.

Mazkur moddaning 3-qismida:

- a) takroran va xavfli retsivist tomonidan;
- b) o'qotar qurolni namoyish qilib, uni qo'llash bilan qo'rqitib yoki qo'llab;
- d) ommaviy tadbirlar o'tkazilayotgan paytda;
- e) jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat vakili yoki jamoatchilik vakiliga yoxud bezorilik harakatlarining oldini olish chorasini ko'rgan boshqa fuqarolarga qarshilik ko'rsatib sodir etilgan bezorilik jinoyati uchun javobgarlik belgilangan.

Ommaviy tadbir deganda, belgilangan tartibda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek, o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tashkil etilgan rasmiy tadbir (bayram sayillari, namoyishlar, mitinglar, majlislar, saylovlar, xalq hasharlari va h.k.)lar tushuniladi'.

Hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatish qasddan zarba berishda, urishda, badanga yengil va o'rtacha og'ir shikast yetkazishda, jismoniy og'riq berish kabi faol harakatlarda ifodalanadi.

Bunday holatlarda aybdorning harakatlari Jinoyat kodeksining 277-moddasi, 3-qismi, «g» bandi bilan qamrab olinadi va sog'liqqa zarar yetkazganlik uchun javobgarlik ko'zda tutilgan moddalar bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi.

Agar bezorilikni amalga oshirish jarayonida jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat vakili yoki jamoatchilik vakiliga yoxud bezorilik harakatlarining oldini olish chorasini ko'rgan boshqa fuqarolarga og'ir tan jarohati yetkazilsa, aybdorning harakatlari jinoyatlarining jami bo'yicha Jinoyat kodeksining 104-moddasi bilan ham kvalifikatsiya qilinadi.

*B. Qonunga xilof ravishda qimorxonalar
tashkil etish yoki ularni saqlash
(Jinoyat kodeksining 278-moddasi)*

Jinoyatning obyekti jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi hisoblanadi. Obyektiv tomondan jinoyat qimorxonalar tashkil etish va saqlashda ifodalanadi.

Qimorxona – har qanday vaqtda yoki belgilangan soatlarda pulga, moddiy boyliklarga yoki boshqa manfaatdorlikka asoslangan har qanday o'yin o'tkazishga mo'ljallangan xona demakdir. Qimorxona deb topishning zaruriy belgisi unga doimiy ravishda ma'lum bir maqsad yuzasidan shaxslar to'dasi tomonidan tashrif buyurilishi, shuningdek, qimorxonaning doimiy faoliyat yuritishidir.

Qimorxonani tashkil etish deganda, qimorxona uchun xona izlash, uni zarur ashyolar (mebellar, o'yin asboblari) bilan jihozlash, mijozlarga xizmat ko'rsatadigan shaxslarni qidirish kabi harakatlar tushuniladi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun uning maqsadi va motivi ahamiyatga ega emas. Jinoyatning subyekti faqat qimorxonalarining tashkilotchilari yoki saqlovchilari bo'lishi mumkin.

Qimorxonaning mijozlari mazkur jinoyatning subyektlari bo'lishi mumkin emas.

1. Bezorilik nima?
2. Jamoat tartibi deganda nima tushuniladi?
3. Jinoiy javobgarlikka tortiluvchi bezorilikning mayda bezorilikdan farqi.
4. Bezorilik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarni ko'rsating.
5. Sovuq va o'qotar qurollarga nimalar kiradi?
6. Qimorxonaga ta'rif bering.
7. Qimorxonalar tashkil etish deganda nima tushuniladi?
8. Qimorxona saqlash deganda nima tushuniladi?

7-bob. HARBIY XIZMATNI O'TASH TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR

7.1. Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar tushunchasi va turlari

Har qanday davlatning salohiyati uning mudofaa qudrati va harbiy salohiyati bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganidan so'ng, uning har qanday salohiyati kabi harbiy sohasida ham to'liq islohotlar amalga oshirilib, harbiy qonun normalari ham qayta ishlandi. Harbiy kuchning qonuniy asoslarini yaratish zarurati yana ayni chog'da xalqaro munosabatlar tarkibidagi o'zgarishlar, muvozanatlar yangi tizimning shakllanishi keskinlik, mojarolarning yangi o'choqlari paydo bo'lishi, ekstremizm va terrorchilik harakatlarining butun dunyo bo'yicha faollashishi bilan ham bog'liqdir. Shu tufayli ham yosh mustaqil davlatning mudofaa qobiliyati va xavfsizligini mustahkamlash masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Mudofaa deganda, O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilishni ta'minlashning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy, axborot, tashkiliy va boshqa tadbirlari majmuyi tushuniladi.

Harbiy jinoyatlar deganda, harbiy xizmatchilar tomonidan, shuningdek, harbiy yig'inlar vaqtida harbiy xizmatga majbur shaxslar tomonidan harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi sodir etilgan jinoyatlar tushuniladi.

Harbiy xizmatni o'tash tartibi qo'shinlar hayoti va jangovar faoliyati jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar bo'lib, ular qonunlar, harbiy qasamyod va nizomlarda belgilab qo'yilgan. Ushbu hujjatlarda harbiy xizmat fuqaroning konstitutsiyaviy burchi ekanligi, yakkaboshchilik va undan kelib chiqadigan tobe shaxsning boshliqqa so'zsiz itoat qilishi, ushbu munosabatlar subyektlari huquq va erkinliklarining aniq belgilab qo'yilishi kabi harbiy-huquqiy institut tamoyillari mustahkamlab qo'yilgan.

Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyat tushunchasi Jinoyat kodeksining 14-moddasida ta'riflangan jinoyat umumiy tushunchasining bir turi bo'lib, uning barcha belgilari, chunonchi ijtimoiy xavflilik, ayblilik va qonun bilan taqiqlanganlik alomatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatning ijtimoiy xavfliligi shaxs, jamiyat va davlatning jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga zarar yetkazilishida yoki zarar yetkazilishi xavfining tug'ilishida ifodalanadi.

Sodir etilgan qilmish yetkazgan yoki yetkazishi mumkin bo'lgan zarar ijtimoiy xavflilik darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Ayrim qilmishlar qanday og'ir oqibatlarga sabab bo'lganligidan qat'iy nazar, harakat yoki harakatsizlik sodir etilgan paytdan boshlab ijtimoiy xavfli xususiyat kasb etadi. Masalan, dezertirlik (Jinoyat kodeksining 288-moddasi) harbiy xizmatchi harbiy xizmatdan bo'yin tovlash

maqsadida harbiy qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketgan paytdan boshlab ijtimoiy xavfli qilmishga aylanadi. Boshqa qilmishlar qonunda ko'rsatilgan oqibatlariga sabab bo'lgan taqdirdagina ijtimoiy xavfli qilmishga aylanishi mumkin. Qilmishni ijtimoiy xavfli va jinoiy, deb topish imkonini beruvchi oqibatlarning ko'rinishi va xususiyatlari qonunda har xil tavsiflanadi.

Ayrim hollarda qilmishning oqibatlari aniq belgilab qo'yilgan. Masalan, sog'liqqa yetkazilgan shikastning og'irligi jangovar, maxsus yoki transport mashinalarini boshqarish yoxud ulardan foydalanish qoidalarini buzishni (Jinoyat kodeksining 298-moddasi) harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyat, deb topish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Oqibatlar har xil bo'lishi mumkin va ularni aniqlashtirish imkoniyati bo'lmagan hollarda qonunshunos umumiy ta'riflarni qo'llaydi. Bunday hollarda oqibatlarining mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Jinoyat kodeksining 297-moddasi, uchinchi qismida qonunshunos boshqa og'ir oqibatlarni jinoyatning zaruriy belgisi, deb belgilagan.

Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarning subyektiv tomoni ayrim hollarda ijtimoiy xavfli qilmishlardan kelib chiqadigan oqibatlariga nisbatan aybdorning ruhiy munosabati ehtiyotsizlikda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy xavfli qilmish va uning oqibatiga nisbatan ruhiy munosabati murakkab ayb shaklida ifodalanadi. Agar shaxsning qasddan jinoyat sodir etishi natijasida ehtiyotsizlik orqasida boshqa ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bergan va shunday qilmishni qonun qattiqroq javobgarlik bilan bog'lagan bo'lsa, bunday jinoyat qasddan sodir etilgan, deb topiladi.

Harbiy jinoyatlar qonunlari, asosan, muayyan huquqiy munosabatlarning hamda harbiy nizom qoidalarining buzilganligi bilan bog'lanadi:

- 1) maxsus jinoiy g'ayriqonuniylik;
- 2) maxsus tajovuz obyekti – harbiy xizmatni o'tashning belgilangan tartibi;
- 3) maxsus subyekt – harbiy xizmatchi yoki harbiy xizmatga majbur shaxs harbiy yig'in vaqtida.

Ko'rsatilgan alomatlarining birontasi ham bo'lmasa, qilmish harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyat sifatida qaralishi mumkin emas.

Jinoyat kodeksining yettinchi bo'limida keltirilgan jinoyatlarga harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar, deb topilishi mumkin. Harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan Jinoyat kodeksining boshqa bo'limlarida nazarda tutilgan jinoyatlar harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar qatoriga kirmaydi.

Harbiy xizmatni o'tashning belgilangan tartibi, harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarning maxsus obyekti sifatida, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida»gi, «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida»gi Qonunlari, boshqa qonun hujjatlarining normalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tasdiqlagan Umumharbiy Nizomlar va ularga asosan beriladigan komandirlar va boshliqlarning buyruqlari bilan mustahkamlab qo'yilgan harbiy xizmat munosabatlari majmuyidan iborat.

Harbiy xizmat harbiy xizmatchilar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarning muayyan tartibidan iboratdir. Muayyan toifaga mansub harbiy xizmatchilarga maxsus harbiy xizmat munosabatlarning subyekti bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida Qurolli Kuchlari, Ichki ishlar vazirligi ichki va qorovul qo'shinlari, Milliy xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda boshqa vazirlik, qo'mita va idoralarning harbiy bo'linmalarida harbiy xizmatni o'tayotgan fuqarolar harbiy xizmatchilar hisoblanadi. Harbiy xizmatga birinchi marta chaqirilgan yoki ixtiyoriy ravishda (kontrakt bo'yicha) kirgan fuqarolar O'zbekiston Respublikasi xalqi va Prezidentiga sodiqlik to'g'risida Harbiy qasamyod qabul qiladilar. Muqaddam Harbiy qasamyod qabul qilmagan harbiy xizmatga majburlar harbiy yig'inlarga jalb etilganlarida yoki safarbarlik bo'yicha chaqirilganlarida Harbiy qasamyod qabul qiladilar. Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlar subyekti, deb e'tirof etilishi uchun fuqaro, albatta, Harbiy qasamyod qabul qilgan bo'lishi shart. Harbiy qasamyod qabul qilmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari harbiy xizmatchi hisoblanmaydi hamda ular harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlar subyekti bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonuni 4-moddasiga muvofiq, harbiy xizmatning quyidagi turlari joriy etiladi:

- muddatli harbiy xizmat;
- safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat;
- kontrakt bo'yicha harbiy xizmat;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati.

Shu sababli harbiy xizmatchilar ofitserlar, praporshiklar va michmanlar, harbiy ta'lim muassasalarining kursantlari, harbiy xizmatni shartnoma (kontrakt) bo'yicha o'tayotgan serjantlar va starshinalar, askarlar va matroslarga; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan, harbiy xizmatga chaqirilgan ofitserlar, serjantlar, starshinalar, askarlar va matroslarga bo'linadi.

Harbiy xizmatda bo'lishning boshlanishi deb, harbiy xizmatga chaqirilgan chaqiriluvchilar hamda zaxiradagi ofitserlar uchun – harbiy qismga jo'nash maqsadida mudofaa ishlari organida hozir bo'lgan kun; kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirganlar uchun – harbiy xizmatni o'tash to'g'risidagi kontrakt kuchga kirgan kun; harbiy-ta'lim muassasalariga, shuningdek, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning o'qish harbiy xizmatga tenglashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirgan chaqiriluvchilar, harbiy xizmatga majburlar uchun – tegishli ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilingan kun hisoblanadi. Harbiy xizmatdan rezervga bo'shatilishi yoki iste'foga chiqarilishi munosabati bilan harbiy qism komandirining buyrug'iga binoan shaxsiy tarkib ro'yxatidan chiqarilgan kun harbiy xizmatchi uchun harbiy xizmatda bo'lishning tugashi hisoblanadi¹.

Quyidagilar harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyat subyekti, deb topilishi mumkin emas:

- 1) 18 yoshga to'lmay turib yoki 27 yoshga to'lgandan keyin harbiy xizmatga chaqirilgan shaxslar.
 - 2) O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmagan, lekin yanglish tarzda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga harbiy xizmatga chaqirilgan shaxslar. Bu qoida harbiy xizmatni faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarosi o'tashi mumkinligi mustahkamlab qo'yilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasidan kelib chiqadi;
 - 3) muddatli harbiy xizmatga chaqirilishdan ozod etilgan, muddatli harbiy xizmatga chaqirilish muddati kechiktirilgan yoxud muddatli harbiy xizmatga chaqirilishi mumkin bo'lmagan shaxslar.
- Jinoiy javobgarlikka tortilgan, shuningdek, sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar harbiy xizmatga chaqirilmaydilar.
- 4) jinoyat sodir etilgan vaqtda harbiy xizmat o'tashning belgilangan muddatini o'tab bo'lgan shaxslar.

Jinoyat kodeksida harbiy jinoyatlar jinoyat obyektlariga ko'ra, alohida guruhlashtirilgan holda o'rganiladi.

1. Bo'ysunish va harbiy sha'nga rioya etish tartibiga qarshi jinoyatlar:

- Bo'ysunmaslik (Jinoyat kodeksining 279-moddasi).
- Buyruqni bajarmaslik (Jinoyat kodeksining 280-moddasi).
- Boshliqqa qarshilik ko'rsatish yoki uni xizmat vazifalarini buzishga majbur qilish (Jinoyat kodeksining 281-moddasi).
- Boshliqni qo'rqitish (Jinoyat kodeksining 282-moddasi).
- Badanga shikast yetkazish (Jinoyat kodeksining 283-moddasi).
- Bo'ysunuvchining o'z boshlig'ini yoki boshliqning o'ziga bo'ysinuvchini haqorat qilishi (Jinoyat kodeksining 284-moddasi).
- Bir-biriga tobe bo'lmagan harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 285-moddasi).
- Marodyorlik (Jinoyat kodeksining 286-moddasi).

2. Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar:

- Harbiy qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish (Jinoyat kodeksining 287-moddasi).

- Dezertirlik (Jinoyat kodeksining 288-moddasi).
- Halok bo'layotgan harbiy kemani tashlab ketish (Jinoyat kodeksining 289-moddasi).
- O'zining biron a'zosini mayib qilish yo'li bilan yoki boshqa usulda harbiy xizmatdan bo'yin tovlash (Jinoyat kodeksining 290-moddasi).
- Qorovul xizmatini o'tash qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 291-moddasi).
- Ichki xizmatni o'tash yoki garnizonda patrullik qilish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 292-moddasi).
- Jangovar navbatchilikni o'tash qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 293-moddasi).
- Chegara xizmatini o'tash qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 294-moddasi).

3. Harbiy mulkni saqlash yoki undan foydalanish tartibiga qarshi jinoyatlar:

- Harbiy mulkni behuda sarflash, yo'qotish yoki ishdan chiqarish (Jinoyat kodeksining 295-moddasi).
- Harbiy mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish (Jinoyat kodeksining 296-moddasi).
- Atrofdagilar uchun katta xavf manbai bo'lgan qurol-yaroq, shuningdek, modda va buyumlar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 297-moddasi).
- Mashinalarni boshqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 298-moddasi).
- Uchish yoki uchishga tayyorgarlik ko'rish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 299-moddasi).
- Kemani boshqarish qoidalarini buzish (Jinoyat kodeksining 300-moddasi).

4. Harbiy mansabdorlik jinoyatlari:

- Hokimiyatni suiiste'mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi (Jinoyat kodeksining 301-moddasi).
- Xizmatga sovuqqonlik bilan qarash (Jinoyat kodeksining 302-moddasi).

A. Harbiy qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish (Jinoyat kodeksining 287-moddasi)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasida: «O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy va muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar», deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasida haqiqiy harbiy va muqobil xizmatni o'tash tartibi «Mudofaa to'g'risida»gi, «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi, «Muqobil xizmat to'g'risida»gi Qonunlar, harbiy ustavlar asosida belgilanadi.

Jinoyatning obyekti Qurolli Kuchlarda o'rnatilgan harbiy xizmatni o'tash tartibidir.

Mazkur moddaning birinchi qismida javobgarlik belgilangan jinoyat obyektiv tomondan:

- 1) qismni yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish;
- 2) harbiy qismda qisqa muddatga ruxsat berilganda, boshqa xizmatga tayinlanganda yoki boshqa xizmat joyiga o'tkazilganda, xizmat safaridan, ta'tildan yoki davolash muassasasidan, uzrli sabablarsiz bir kecha-kunduzdan ortiq, ammo o'n kecha-kunduzdan ko'p bo'lmagan muddat davomida xizmat joyida bo'lmaslikda ifodalanadi.

Chaqiriq bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar harbiy qism joylashgan hududdagi kazarmalarga joylashtiriladilar. Harbiy xizmatni o'tash joyi boshqa joylarda ham bo'lishi mumkin.

Harbiy qismni yoki xizmat joyini faqat tegishli harbiy bo'linma komandiri (boshliq)ning ruxsati bilan tark etish mumkin. Komandirning ruxsatisiz harbiy qismni yoki xizmat joyini yoxud dislokatsiya manzilini tark

etish harbiy ustavga binoan taqiqlanadi, aks holda, bu qismni yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tark etish hisoblanadi.

Muddatli xizmat harbiy xizmatchisi tomonidan qismni yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketishning zaruriy belgisi qismda bo'lmaslikning bir kecha-kunduzdan ortiq, ammo o'n kecha-kunduzdan ko'p bo'lmagan muddatdagi davomiyligidir. Bu muddatni shaxsning qismni yoki xizmat joyini tashlab ketish paytdan to qaytib kelish yoki ushlanish paytigacha, deb hisoblash lozim.

Harbiy qismdan qisqa muddatga ruxsat berilganda, boshqa xizmatga tayinlanganda yoki boshqa xizmat joyiga o'tkazilganda xizmat safaridan, ta'tildan yoki davolash muassasasidan so'ng uzrli sabablarsiz bir kecha-kunduzdan ortiq, ammo o'n kecha-kunduzdan ko'p bo'lmagan muddat davomida xizmat joyida bo'lmaslik harbiy xizmatchi qismdan yoki xizmat joyidan tashqarida qonuniy asoslarda bo'lgan holatda mavjud bo'lishi mumkin.

Uzrli sabablar deganda, harbiy xizmatchining kasalligi, yaqin qarindoshlarining o'limi, tabiiy ofatlar, harbiy holat va boshqalar hisoblanadi.

O'zboshimchalik bilan tashlab ketish uzrli sabablarsiz xizmat joyida hozir bo'lmaslikdir. Agar harbiy bir kecha-kunduzdan ortiq, ammo o'n kecha-kunduzdan ko'p bo'lmagan muddatda qismda bo'lmasa, uning qilmishi jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Mazkur moddaning 1-qismi ma'muriy preyuditsiyaga ega. Harbiy xizmatchi tomonidan qismni yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketganlik uchun intizomiy javobgarlik chorasini qo'llanganidan so'ng yana xuddi shunday qilmish sodir etilsa, aybdor jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Jinoyat formal tarkibli bo'lib, agar harbiy xizmatchi harbiy qismdan yoki xizmat joyidan tashqarida noqonuniy tarzda yurgan bo'lsa yoxud 10 kun ichida xizmat joyiga yetib kelmasa, tugallangan hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Jinoyatning motivi uni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas. Agar harbiy qismni yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish harbiy xizmatdan bosh tortish maqsadida sodir etilgan bo'lsa, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 288-moddasi (dezertirlik) bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Ushbu modda 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning subyektivi muddatli harbiy xizmatchidir.

Jinoyat kodeksining 287-moddasi, 2-qismida nazarda tutilgan qilmish obyektiv tomondan muddatli xizmat harbiy xizmatchi, ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxs, praporshik, michman yoki harbiy xizmatni kontrakt (shartnoma) bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchining qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketishi, shuningdek, uzrli sabablarsiz belgilangan o'n kundan ortiq, lekin bir oydan ko'p bo'lmagan muddat davomida xizmat joyiga yetib kelmasligida ifodalanadi.

Ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxs, praporshik, michman yoki harbiy xizmatni kontrakt (shartnoma) bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchilar harbiy qismda yoki xizmat joyida xizmat paytida hozir bo'lishlari kerak. Harbiy xizmatni o'tashdan tashqari bo'sh paytlarda bu toifa harbiy xizmatchilar harbiy qism yoki xizmat joyidan tashqarida bo'lishlari mumkin. Shunga binoan harbiy xizmatchilarning bu toifasi uchun harbiy qismni yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish deganda, ularning xizmatni o'tashi kerak bo'lgan paytda uzrli sabablarsiz xizmatni o'tashga chiqmaganligini nazarda tutish kerak.

Ushbu moddaning 2-qismida nazarda tutilgan qilmishning subyektlari muddatli xizmat harbiy xizmatchisi, ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxs, praporshik, michman yoki harbiy xizmatni kontrakt (shartnoma) bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchi bo'lishlari mumkin.

Jinoyat kodeksining 287-moddasi, 3-qismida muddatli xizmat harbiy xizmatchisi, ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxs, praporshik, michman yoki harbiy xizmatni kontrakt (shartnoma) bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchining harbiy qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketishi, shuningdek, xizmatga belgilangan muddatdan uzrli sabablarsiz bir oydan ortiq vaqtda yetib kelmasligi uchun javobgarlik belgilangan.

Ushbu moddaning 4-qismida muddatidan qat'iy nazar, mazkur moddada ko'zda tutilgan harbiy qismni yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish jangovar vaziyatda sodir etilganda, aybdorga javobgarlik belgilangan.

(Jinoyat kodeksining 288-moddasi)

Jinoyatning obyekti belgilangan harbiy xizmatni o'tash tartibi hisoblanadi. Jinoyat obyektiv tomonidan harbiy xizmatdan butunlay bo'yin tovlash maqsadida harbiy qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish, shuningdek, shu maqsadda xizmat joyiga yetib kelmaslikda namoyon bo'ladi.

Tahlil etilayotgan qilmish davomli jinoyat hisoblanadi. Jinoyat dezertir ushlangan yoki o'z xohishi bilan kelgan paytdan tugallangan hisoblanadi. Aybdor harbiy qismda yoki xizmat joyida bo'lmagan vaqt jinoyatning kvalifikatsiya qilinishi uchun ahamiyatga ega emas.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Jinoyat subyektiv tomonining zaruriy belgisi xizmat joyini yoki harbiy qismni o'zboshimchalik bilan tashlab ketish maqsadidir.

Harbiy qismni yoki xizmat joyini tashlab ketish, shuningdek, xizmat joyiga vaqtida yetib kelmaslik harbiy xizmatdan butunlay bo'yin tovlash maqsadida sodir etilgan bo'lishi lozim. 288-moddaning 1-qismida ko'zda tutilgan jinoyatning subyekti muddatli harbiy xizmatchisi bo'lishi mumkin.

Ushbu moddaning 2-qismida ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxs, praporshik, michman yoki harbiy xizmatni kontrakt (shartnoma) bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan dezertirlik uchun javobgarlik ko'zda tutilgan.

D. O'zining biron a'zosini mayib qilish yo'li bilan yoki boshqa usulda harbiy xizmatdan bo'yin tovlash
(Jinoyat kodeksining 290-moddasi)

Jinoyatning obyekti harbiy xizmatni o'tashning belgilangan tartibidir. Obyektiv tomondan jinoyat harbiy xizmatchining o'zining biron a'zosini mayib qilishida, ya'ni o'z badaniga biron shikast yetkazish yo'li bilan, shuningdek, o'zini yolg'ondan kasallikka solib, hujjatlarni qalbakilashtirish yoki boshqacha aldash yo'li bilan harbiy xizmatni bajarishdan (o'tashdan) bo'yin tovlashi, uni bajarishdan bosh tortishida ifodalanadi.

Bu jinoyatni sodir qilishning *birinchi usuli* – harbiy xizmatdan o'zining biron a'zosini mayib qilish, ya'ni harbiy xizmatni o'tayotgan shaxs tomonidan o'z sog'lig'iga harbiy xizmatni o'tashga to'sqinlik qiladigan darajada zarar yetkazishdir. Sog'liqqa zarar yetkazish usullari turlicha bo'lishi mumkin (qurolni, boshqa predmetlarni ishlatish yo'li bilan va boshqalar), biroq, bu jinoyatni kvalifikatsiyalash uchun ahamiyatli emas.

Harbiy xizmatdan bo'yin tovlashning *ikkinchi usuli* yolg'ondakam kasallikni ro'kach qilishdir. Yolg'ondakam kasallikni ro'kach qilish deganda, tibbiy komissiyani harbiy xizmatni o'tashi kerak bo'lgan shaxsda xizmatni o'tashga to'sqinlik qiladigan qandaydir kasallik mavjudligi borasida aldashning har qanday yo'llari, o'zini yolg'ondakam ko'r, kar yoki ruhiy kasal qilib ko'rsatish va h.k. tushuniladi.

Harbiy xizmatdan bo'yin tovlashning *uchinchi usuli* hujjatlarni qalbakilashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Hujjatlarni qalbakilashtirish deganda, hujjatlarni qalbakilashtirish yoki tegishli komissiyalarga harbiy xizmatdan ozod qilishga asos bo'ladigan soxta hujjatlarni taqdim etish tushuniladi. Masalan, kasal ekanlik yoki harbiy xizmatdan ozod qilishga asos bo'ladigan boshqa holatlar to'g'risida soxta ma'lumotnoma taqdim etish bunga misol bo'la oladi.

Boshqacha yo'l bilan aldash deganda, harbiy xizmatdan ozod qilish vakolatiga ega bo'lgan tegishli idoralarni chalg'itish uchun qo'llangan har qanday usullarni tushunish lozim.

Harbiy xizmat vazifalarini o'tashdan bosh tortish deganda, biron-bir qonuniy asoslarga ega bo'lmasdan harbiy xizmatni o'tashdan og'zaki yoki yozma shaklda bevosita bosh tortish tushuniladi.

Harbiy xizmatni o'tashdan bosh tortish formal tarkibli jinoyat bo'lib, harbiy xizmatchi o'zining biron a'zosini mayib qilgan, ya'ni o'z badaniga biron yo'l bilan shikast yetkazgan, shuningdek, o'zini yolg'ondan kasallikka solib, hujjatlarni qalbakilashtirgan yoki boshqa yo'l bilan aldab harbiy xizmatdan bo'yin tovlagan yoki bu xizmatni bajarishdan bosh tortgan paytdan tugallangan hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Maqsad – harbiy xizmatni o'tashdan bosh tortishdir. Jinoyatning subyekti harbiy xizmatni o'tashi kerak bo'lgan yoki o'tayotgan shaxsdir.

Tahlil etilayotgan moddaning 2-qismida jangovar vaziyatda sodir etilgan harbiy xizmatni o'tashdan bosh tortganlik uchun javobgarlik belgilangan.

1. Ofitserlar tarkibiga kiruvchi shaxs, praporshik, michman yoki harbiy xizmatni shartnoma bo'yicha o'tayotgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish shartlarining muddatli harbiy xizmatchilarni jinoiy javobgarlikka tortish shartlaridan farqi.
2. Dezertirlik nima? Uning qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketishdan farqi nimada?
3. O'zining biron a'zosini mayib qilish yo'li bilan harbiy xizmatdan bo'yin tovlash deganda nimani tushunasiz? Uni sodir etishning qanday usullari bor? Boshqa usulda harbiy xizmatdan bo'yin tovlashga nimalar kiradi?
4. Jangovar vaziyat deganda nima tushuniladi?
5. Qorovul xizmati o'tash qoidalarini buzishga nimalar kiradi? Ushbu jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishning asosiy shartlari.
6. Jinoyat kodeksining 291-moddasida nazarda tutilgan zararli oqibatlar jumlasiga nimalar kiradi?
7. Ichki xizmatni o'tash yoki garnizonda patrullik qilish qoidalarini buzishning qanday usullari bor? Jinoyat kodeksining 292-moddasidagi zararli oqibatlar, deganda nimalar nazarda tutiladi?
8. Jangovar navbatchilikni o'tash qoidalarini buzish nimalarda namoyon bo'ladi?
9. Chegara xizmatini o'tash qoidalarini buzish, deganda nimani tushunasiz? Ushbu qilimishning sodir etilishi qanday og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Конвенция «О правах ребенка». 1989.
2. В.Я.Рыбольшкая. Проблемы борьбы с преступностью несовершеннолетних. М., 1994.
3. С.В. Бородин. Ответственность за убийство: квалификация и наказание по российскому праву. М., 1994.
4. Ч.О. Бекариа. О преступлениях и наказаниях. М., 1995.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. T., «Adolat», 1997.
6. O'. Ahmedov, A. Sattorov. O'zbekiston: inson huquqlari va qonunlar. T., «Adolat», 1999.
7. F. Tohirov. Shaxsga qarshi jinoyatlarning yuridik tahlili. T., 2000.
8. M.H. Rustamboyev, F. Tohirov, A.K. Erkaxo'jayev. Jinoyat huquqi (Maxsus qism). T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2000.
9. Э.С. Шамсиев, А.И. Искандаров, Р.А. Зуфаров, В.К. Талимбаева. Судебная медицина. Учебник для вузов. Т., 2003.
10. M.H. Rustamboyev. Jinoyat huquqi (Maxsus qism). Darslik. T., «O'qituvchi», 2003.
11. M.X. Rустамбаев. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. Общая часть. Т., «O'qituvchi», 2004.
12. M.X. Rустамбаев. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. Особенная часть. Т., «O'qituvchi», 2004.
13. M. Usmonaliyev. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). T., «Yangi asr avlodi», 2005.

MUNDARIJA

Kirish 3

1-bob. SHAXSGA QARSHI JINOYATLAR

1.1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunida shaxsga qarshi jinoyatlar tushunchasi va ularning turlari	5
1.2. Hayotga qarshi jinoyatlar va ularning umumiy tavsifi	7
1.3. Sog'liqqa qarshi jinoyatlar, ularning turlari va yuridik tahlili	19
1.4. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar tushunchasi, turlari va ularning yuridik tahlili	41
1.5. Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar	52
1.6. Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar	72
1.7. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar	83

2-bob. TINCHLIK VA XAVFSIZLIKKA QARSHI JINOYATLAR

2.1. Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar	89
2.2. O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar	103

3-bob. IQTISODIYOT SOHASIDAGI JINOYATLAR

3.1. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar tushunchasi va turlari	122
3.2. O'zgal mulkini talon-taroj qilish	123
3.3. O'zgal mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar	157
3.4. Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar	166
3.5. Xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar	177

4-bob. EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLAR

4.1. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar	189
--	-----

5-bob. HOKIMIYAT, BOSHQARUV VA JAMOAT BIRLASHMALARI ORGANLARINING FAOLIYAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR

5.1. Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar tushunchasi va turlari	193
5.2. Odil sudlovga qarshi jinoyatlar	202

6-bob. JAMOAT XAVFSIZLIGI VA JAMOAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR

6.1. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar tushunchasi va ularning turlari.....	208
6.2. Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar tushunchasi va turlari	209
6.3. Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar tushunchasi va turlari.....	221
6.4. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar tushunchasi va turlari	228
6.5. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar	242

7-bob. HARBIY XIZMATNI O'TASH TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR

7.1. Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar tushunchasi va turlari	248
Foydalanilgan adabiyotlar	260

MIRZAYUSUF HAKIMOVICH RUSTAMBOYEV,
BAHRUM JABBOROVICH AHROROV

JINOYAT HUQUQI

(MAXSUS QISM)

Kasb-hunar kollejlari uchun darslik

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2006

Muharrir *I. Usmonov*
Rassom *Sh. Qahhorov*

Texnik muharrir *F. Samadov*
Musahhih *F. Temirxo'jayeva*

2006-yil 18-dekabrda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi $60 \times 90^{1/16}$,
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 16,5.
Nashr tabog'i 19,0. 3800 nusxa. Buyurtma №
Bahosi shartnoma asosida.

«ILM ZIYO» nashriyot uyi, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Shartnoma № 102 — 2006.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom
nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Toshkent, U. Yusupov ko'chasi, 86-uy.